

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K 821.512.133.09-31

QURONOV SA‘DULLO DILMURODOVICH

**MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ROMANLARIDA
INSON KONSEPSIYASI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Toshkent – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. INSON KONSEPSIYASI ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM NAZARIY MUAMMOSI SIFATIDA	
1.1. Badiiy tafakkur evolyutsiyasi va inson talqini.....	15
1.2. Inson konsepsiyasi romaniy tafakkurning negizi sifatida.....	35
II BOB. IJTIMOIIY-TARIXIY SHART-SHAROITLAR VA INSONNING BADIY TALQINI	
2.1. Sho‘ro jamiyati tanazzuli va adabiyotda yangi inson ehtiyoji.....	61
2.2. Mustaqillik davri romanchiligi: yangi inson.....	84
III BOB. DEMOKRATIK JAMIYATDA INSON TALQINI	
3.1. “O‘tish davri” romanlarida jamiyat va shaxs ziddiyati: ekonomik inson.....	110
3.2. Tarixiy shaxsning demokratik jamiyatdagi badiiy ifodasi.....	140
IV BOB. SHARQ VA G‘ARB ESTETIK TAFAKKURI SINTEZI VA INSON KONSEPSIYASI	
4.1. Modernistik romanlarda inson konsepsiyasi.....	162
4.2. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida postmodernistik dunyoqarash va insonning badiiy ifodasi.....	194
XULOSA.....	216
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	221

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida inson konsepsiyasi masalasi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, romanga tatbiqan bu muammo yanada dolzarblik va ustuvor ahamiyat kasb etadi. Zero, roman olamni bilish va baholashda insonni vosita, uning ehtiyoj va imkonlari, maqsad va intilishlarini esa asosiy mezon qilib oladi. Romannavis davr kishisining ruhiy-ma'naviy, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlari asosida olam va odam munosabatlari, o'zining borliqdagi o'рни va maqomi, hayotiy maqsad va vazifalari yuzasidan qarashlarini tizimlashtiradi. Ayni shular inson badiiy konsepsiyasi asosini tashkil etib, romanning yaralish omili va natijasi deyilsa to'g'ri bo'ladi.

Dunyo adabiyotshunosligida inson konsepsiyasi – muayyan davr ijtimoiy-tarixiy, madaniy-ma'rifiy shart-sharoiti mahsuli sifatida o'rganiladi. Inson konsepsiyasi muammosi adabiyotning, xususan, romanning har bir davrda shaklan va mazmunan o'zgarishi, yangilanishini taqozo etuvchi kategoriya sifatida talqin qilinadi. Shunday ekan, mazkur muammoni tarixiy-nazariy aspektda o'rganish barobarida ma'lum bir davr adabiyoti, xususan, romanchiligining g'oyaviy-mazmuniy va poetik o'ziga xosligini baholash, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash mumkin.

O'zbek adabiyotshunosligida mustaqillik davri romanchiligiga xos adabiy hodisalarni baholash, xalqimizni, xususan, yosh avlodni milliy adabiyotimizning estetik qudrati bilan kamol toptirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot va madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q".¹ Mazkur vazifalar, avvalo,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" mavzusida O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2017-yil, 4-avgust.

adabiyotimizda inson konsepsiyani o'rganish bilan amalga oshiriladi. Zotan mustaqillik davri o'zbek romanchiligi, avvalo, insonga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, olam va odam munosabatlarini boshqa rakurslardan turib tasvirlashga urinish nuqtai nazaridan o'tgan davr adabiyotidan farqlanadi. Bu davr adabiyoti sho'ro tuzumi sharoitida ochilmay qolgan imkoniyatlarini ro'yobga chiqardi, inson hayoti va ruhiyatining ilgari xaspo'shlab o'tilgan yoki norasmiy taqiq ostida bo'lgan jihatlarini ham qalamga ola boshladi. Mazkur sharoit davr adabiyotida turfa inson konsepsiyalarining namoyon bo'lishiga, g'oyaviy-badiiy plyuralizm va shu asosda ijodiy raqobat muhiti shakllanishiga olib keldiki, bu badiiy tafakkur rivoji uchun juda muhim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi 637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Jahon adabiyotshunosligida inson konsepsiyasi muammosi dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, University of Indiana, University of Michigan (USA), Istanbul Üniversitesi, Ankara Üniversitesi (Turkiye), Universität Humboldt, Universität Bonn, Universität Frie (Germany), Parij University (France), Cambridge University (Greet Britain), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti hamda Andijon davlat universiteti (O'zbekiston)da ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Inson konsepsiyasi kategoriyasining adabiyotni davrlashtirishdagi, roman janrining taraqqiyotidagi va muayyan asarning g'oyaviy-estetik ahamiyatini baholashdagi o'rni bo'yicha jahon² adabiyotshunosligida quyidagi natijalarga erishilgan:

roman janrining vujudga kelishi, avvalo, insonga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, adabiyotda real shaxsning individual xarakter qirralarining tasvirlanishi natijasi ekani aniqlangan (Cambrige University, Oxford University); adabiyotni, xususan, roman janri evolyutsiyasini davrlashtirish inson konsepsiyasi asosida kechishi isbotlangan (Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti); Milliy adabiyotimizga roman janrining kirib

¹ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi www.colimbia.edu, www.umich.edu, www.uchicago.edu, www.carleton.edu, www.tufts.ac.jp, www.uop.edu.pk, www.ras.ru, www.kazanriu.ru, www.anrb.ru, www.ankara.edu.tr, www.hacettepe.edu.tr, www.ege.edu.tr, www.aybu.edu.tr, www.ardahan.edu.tr, www.ikcu.edu.tr, www.hacibayram.edu.tr, www.istanbul.edu.tr, www.usak.edu.tr, www.uludag.edu.tr, www.baskent.edu.tr, www.msgsu.edu.tr, www.science.gov.az, www.dia.edu.az, www.bsu.edu.az, www.adpu.edu.az, www.baau.edu.az, www.manuscript.az, www.kpfu.ru, www.enu.kz, www.manas.edu.kg, www.khsu.ru, www.science.gov.tm, www.science.gov.tm va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

kelishi nafaqat tashqi ta'sirlar natijasi, balki mintaqada, ijtimoiy ongda yangi inson konsepsiyasiga ehtiyoj tug'ilishi bilan bog'liq ekani aniqlangan (O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Andijon davlat universiteti).

jahon adabiyotshunosligida inson konsepsiyasi bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib boriladi: badiiy tafakkur taraqqiyoti va inson konsepsiyasining o'zaro aloqadorlikda rivojlanishi xususiyatlarini aniqlash; badiiy asarni baholashda inson konsepsiyasining muhim xususiyatlarini aniqlash. Xususan, bu yo'nalishlar romanga tatbiqan yana muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi odam va olam munosabatlarini bilish ustiga bunyod bo'ladi. Mustaqillik davri o'zbek romanlarining ayni shu nuqtai nazardan tadqiq etilishi, davr adabiyoti xos muhim tendensiyalarni aniqlab beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda, xususan, rus adabiyotshunosligida inson konsepsiyasi muammosi atroflicha tadqiq etilgan¹. Rus adabiyotshunosi L.Timofeyev o'tgan asrning 50-yillarida yozilgan ilmiy ishlarida ilk bor "shaxs konsepsiyasi" atamasini qo'llaydi. Keyinroq olim "Shaxsni o'rganishning estetik yo'llari (Sovet adabiyoti tajribasidan)" (1975) nomli asarida yangi tipdagi qahramonlarning shakllanishi va milliy xarakter xususiyatlarini tadqiq etib, inqilobdan keyingi adabiyotdagi shaxsning yangi konsepsiyasi va o'ziga xosliklari bo'yicha samarali izlanishlar olib boradi. Olimning tadqiqotlari shaxs konsepsiyasi muammosining o'rganilishi muhim

¹ Nicolas B.D. Les he'ros de roman (Roman heroes). Boston: Ginn, 1902. – 208 p.; Mchale B. The Cambridge Introduction to Postmodernism. Cambridge: CUP, 2015. – 256 p.; Ананьев Б. Человек как предмет познания. – Л.: БЛ, 1968. – 339 с.; Баншико В. Проблема личности и современная наука / Проблемы личности. – М., 1969. – С. 302–322.; Кон И. Открытие "Я". – М.: Политиздат, 1976. – 367 с.; Леонтьев А. Деятельность, сознание, личность. – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.; Платонов К. Психология личности / Человек в социалистическом и буржуазном обществе. – М., 1966. – С.146-158.; Спиркин А. Сознание и самосознание. – М.: Политиздат, 1972. – 303 с.; Цоколов Э. Культура и личность. – Л.: Наука, 1972. – 226 с.; Османова З. Художественная концепция личности в литературах Советского Востока. – М.: Наука, 1972. – 266 с.; Боров Ю. Борьба вокруг концепции личности в искусстве XX века. – М.: Знание, 1976. – 38 с.; Концепция личности в эстетике социалистического реализма. сб. – М.: Мысл, 1977. – 262 с.; Урманов А.Б. Поэтика прозы Александра Солженицына: Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 2001 – 495 с.; Колобаева Л.А. Концепция личности в русской литературе рубежа XIX-XX вв. – М.: Изд-во МГУ, 1990. – 336 с.; Концепция личности в литературе развитого социализма. - Москва – Ереван: Изд. АН АрмССР, 1980. – 372 с.

nazariy xulosalarga zamin yaratishi, adabiyot tarixi va nazariyasiga oid masalalarga yechim topishga yordam berishini ko'rsatdi.

Adabiyotshunos S.Bocharov inson konsepsiyasiga badiiy asarning, umuman, ijodiy jarayonning markaziy muammolaridan biri sifatida qaraydi. L.Ginzburgning "Adabiy qahramon to'g'risida" (1979), "Adabiyot reallikni qidirish yo'lida" (1987) nomli monografiyalarida esa inson konsepsiyasi adabiyotshunoslikning muhim kategoriyasi sifatida nazariy asoslandi. A.Urmanov o'zining "A.Soljenitsin nasri poetikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida atamani "shaxsning badiiy konsepsiyasi" shaklida qo'llaydi va uni "yozuvchining inson mohiyati, uning mavjudlikdagi maqsadi va ma'nosi, insoniylik fitratiga xos bo'lgan unsurlarga qanchalik yaqin (yoki uzoq) ekanligi haqidagi estetik tasavvurlari majmui"¹ sifatida tushuntiradi.

Inson konsepsiyasi kategoriyasining qaror topishi va tizimli tadqiq etila boshlashida L.Kolobayevaning "XIX – XX asrlar oralig'i rus adabiyotida shaxs konsepsiyasi"² monografiyasi ahamiyatli. Olima A.Chexov, M.Gorkiy, I.Bunin, A.Blok, L.Andreyev kabi ijodkorlarning asarlari misolida inson konsepsiyasining rus adabiyotida shakllanishi va tadrijiy taraqqiyotini ko'rsatib beradi.

1980-yili Armanistonning Yerevan shahrida sho'ro adabiyotida shaxs konsepsiyasi muammosiga bag'ishlangan yirik anjuman bo'lib o'tgani ham ahamiyatga molik³. Anjumanda N.Gey, Yu.Borev, S.Agabayan, G.Alibekova, S.Sariyan, M.Shukurov, N.Vorobeva, G.Xusainov, L.Kirakoyan, S.Xitarova, V.Shyerbinna kabi yirik adabiyotshunoslar ishtirok etib mazkur adabiy muammoni atroflicha yoritadilar.

O'zbek adabiyotshunosligida inson konsepsiyasi muammosini monografik planda o'rganish mustaqillikdan so'ng boshlandi⁴. Bu mavzuda H.Karimovning

¹ Урманов А.Б. Поэтика прозы Александра Солженицына: Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 2001 – 495 с.

² Колобаева Л.А. Концепция личности в русской литературе рубежа XIX-XX вв. – М.: Изд-во МГУ, 1990. – 336 с.

³ Концепция личности в литературе развитого социализма. Сборник статей. – Москва – Ереван: Изд. АН АрмССР, 1980.

⁴ Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70 – 80 йиллар): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994. – 313 б.; Муҳиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида

“Hozirgi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi (70 — 80-yillar)” nomli tadqiqoti diqqatga molik. Olim faqat dissertatsiya mavzusida ko‘rsatilgan davr bilan cheklanib qolmay, umuman, zamonaviy o‘zbek adabiyotida shaxs konsepsiyasi ifodasiga doir muhim xulosalarga keladi. U 30-, 40-, 50-yillar o‘zbek nasriga xos tendensiyalarni sanab kelarkan, “katta sifat o‘zgarishi” 60-yillar so‘ngiga kelibgina ro‘y berganini qayd etadi. Uningcha, shu davrdan “yangicha konsepsiyadagi shaxs, yangi tipdagi konflikt va xarakterlar yuzaga keldi”. Olim adabiyotdagi mazkur o‘ziga xosliklar eng avvalo inson obrazida namoyon bo‘lganini aytib, “inson konsepsiyasida davr va jamiyatning butun borlig‘i — rivoji, zamon talabi asosida tug‘ilgan ziddiyatlar, problemalar, negativ holatlar o‘z ifodasini topadi”¹ deya ta’kidlaydi.

Mavzuga doir muhim tadqiqotlardan yana biri M.Muhiddinovning “Alisher Navoiy va uning salafлари ijodida inson konsepsiyasi” nomli dissertatsiyasi hisoblanadi. Mazkur ishda inson konsepsiyasi muammosi mumtoz adabiyot namunalari, tasavvuf g‘oyalari asosida ochib beriladi.

Yuqoridagilardan tashqari, S.Matyaqupovning “Hozirgi o‘zbek hikoyalarida inson konsepsiyasi va shaxs badiiy talqini”, M.Jo‘rayevaning “Zamonaviy o‘zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi (Abduqayum Yo‘ldoshev va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari asosida)”, N.Qobulovning “Erkin A‘zam nasrida davr va inson konsepsiyasi” nomli dissertatsiyalarida ham adabiy hodisalar inson konsepsiyasi muammosi kontekstida o‘rganilgan.

Mustaqillik davri o‘zbek romanlari yaxlit tizim va tadrijiylikda inson konsepsiyasi muammosi doirasida haligacha tadqiq qilinmagan.

инсон концепцияси: Филол. фан. д-ри ... дисс. — Тошкент, 1995. — 288 б.; Матякупов С. Хозирги ўзбек ҳикояларида инсон концепцияси ва шахс бадий талқини: Филол.фан.номз... дисс. — Тошкент, 2006. — 130 б.; Jo‘rayeva M. Zamonaviy o‘zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi (Abduqayum Yo‘ldoshev va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari asosida): Filol.fan.bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. avtoref. — Farg‘ona, 2018. — 46 б.; Qobulova N. Erkin A‘zam nasrida davr va inson konsepsiyasi: Filol.fan.bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. — Samarqand, 2020. — 48 б.

¹ Каримов Х. Хозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70 — 80-йиллар): Филол.фан. д-ри ... дисс. — Тошкент, 1994. — Б. 304.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek romanchiligining tarixiy taraqqiyot yo'lini inson konsepsiyasi kategoriyasi aspektida tadrijiy o'rganish, mustaqillik davri romanlarining badiiy-g'oyaviy shakllanishida muhim rol o'ynagan badiiy, ijtimoiy, ruhiy, ma'naviy omillarni aniqlash va o'zbek romanchiligiga xos insonning yaxlit romaniy portretini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish belgilandi:

inson konsepsiyasi adabiyotning, jumladan, roman janrining markaziy muammosi ekanini dalillash, roman janrining taraqqiyotini inson konsepsiyasi kategoriyasi kontekstida ko'rib chiqish;

mustaqillik davri o'zbek romanchiligiga xos adabiy tendensiyalar ko'p jihatdan sho'rolar davri o'zbek romanchiligi an'analari bilan tutashishini inson konsepsiyasi kategoriyasi asosida ochib berish;

mustaqillik davri o'zbek romanchiligining nafaqat estetik hodisa, balki ayni paytda ijtimoiy-badiiy hodisa ekanini inson konsepsiyasi nuqtai nazaridan asoslash;

mustaqillik davri o'zbek romanchiligini inson konsepsiyasidan kelib chiqqan holda davrlashtirish va har bir davriy bosqichga xos adabiy tendensiyalarni belgilash;

o'tish davri romanchiligini ijtimoiy-adabiy hodisa sifatida maxsus o'rganish, inson konsepsiyasining davr adabiyotiga xos tendensiyalarning shakllanishidagi ahamiyatini ochib berish;

sotsialistik va kapitalistik tuzumlarga xos ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning inson badiiy konsepsiyasiga, romanchilikdagi adabiy tamoyillarga ta'sirini ochib berish;

o'zbek modern romanchiligiga xos adabiy tendensiyalarni inson konsepsiyasi doirasida o'rganish, absurd odam konsepsiyasining o'zbek adabiyotidagi eksperimental tatbiqlarini o'rganish;

o'zbek postmodern romanchiligi va unga xos adabiy tamoyillarni inson konsepsiyasi kategoriyasi asosida belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida sho'ro hamda mustaqillik davrida yaratilgan Oybekning "Navoiy", Said Ahmadning "Jimjitlik", O.Yoqubovning "Adolat manzili", Sh.Xolmirzayevning "Dinozavr", O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar", Omon Muxtorning "Ming bir qiyofa", Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", Erkin A'zamning "Shovqin", Ahmad A'zamning "Ro'yo", Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi", Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li", Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Yo'l", Isajon Sultonning "Alisher Navoiy", "Boqiy darbadar", "Ozod" romanlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning predmetini mustaqillik davri o'zbek romanlarida inson konsepsiyasining yangilanishi, uning sho'ro davri romanchiligidagi inson konsepsiyasi bilan munosabati; yangilanish jarayoniga ta'sir qilgan omillar, bunda jahon badiiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkurining roli va ahamiyati kabi masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy, qiyosiy-tipologik, tarixiy-nazariy tahlil, sotsiologik va germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

roman janrining vujudga kelishi va taraqqiyotida, janrning ikki ming yillik tarixiy bosqichlarini belgilashda, uni tushunish va tushuntirishda inson konsepsiyasi kategoriyasi eng muhim omil ekani dalillangan;

o'zbek romanchiligining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy tafakkurda inson konsepsiyasining o'zgarishi hamda adabiyotda yangi insonning badiiy ifoda etilishiga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan bevosita aloqador ekanligi isbotlangan;

sho'rolar tuzumining tanazzuli yangi inson konsepsiyasining vujudga kelishi uchun imkon bergani hamda mustaqillik davri romanchiligi uchun poydevor yaratgani asoslab berilgan;

o'tish davri romanchiligiga xos adabiy tendensiyalarning shu davrga xos ijtimoiy shart-sharoit va inson konsepsiyasi bobidagi izlanishlar bilan uzviy aloqadorligi ochib berilgan;

o'zbek modern romanchiligini vujudga keltirgan estetik omillar nafaqat milliy-ijtimoiy hodisalar, balki G'arb estetik tafakkuri va falsafasiga xos inson konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq ekani ko'rsatib berilgan;

o'zbek postmodern romanchiligining vujudga kelishi sabab bo'lgan omillar, bu yo'nalishga xos muhim xususiyatlar, taraqqiyotiga asos bo'lgan tamoyillar belgilangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari ilmiy jamoatchilikning roman nazariyasi, janr mohiyati va tarixiy taraqqiyot yo'li xususidagi bilimlarini boyitadi;

o'zbek romanchiligi taraqqiyotini yaxlit, tarixiy-tadrijiy ko'lamda baholash, unga xos badiiy-g'oyaviy tamoyillarni izchil tushunish va xulosa chiqarish imkonini yaratadi;

o'zbek romanchiligining tarixiy taraqqiyoti muayyan davr ijtimoiy shart-sharoitlari bilan aloqadorlikda kechganini o'rganish asnosida uning tarixini davrlashtirish imkonini beradi;

o'zbek romanchiligidagi inson badiiy konsepsiyasi tadrijining tadqiq etilishi jadid, sho'ro davri va mustaqillik davri romanchiligini o'zaro farqlovchi omillarni yaqqol belgilashga sharoit yaratadi;

o‘zbek modern romanchiligi yuzasidan chiqarilgan ilmiy xulosalar mazkur yo‘nalishni tushunish va tushuntirish, taraqqiyot yo‘lini belgilashga ko‘mak beradi;

o‘zbek postmodern romanchiligining yangi inson konsepsiyasi nuqtai nazaridan o‘rganilgani mazkur yo‘nalishni badiiy-g‘oyaviy jihatdan baholash, adabiy jarayondagi ahamiyatini belgilash imkonini yaratadi;

tadqiqot natijalari o‘zbek romanchiligining taraqqiyoti va badiiy-g‘oyaviy o‘ziga xosliklari haqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorijdagi va respublika ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ilmiy-amaliy konferensiyalarda o‘qilgan ma‘ruzalar, nashr etilgan tezis va maqolalar hamda obyektga ilmiy yondashuv va qo‘llangan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, obyekt sifatida olingan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mustaqillik davri o‘zbek romanchiligiga xos asosiy tamoyil va xususiyatlarning aniqlangani, milliy romanchiligimiz taraqqiyotida inson konsepsiyasining ahamiyati va roli ochib berilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sifatida dissertatsiya xulosalari va tavsiyalaridan oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiyot tarixi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Yangi davr o‘zbek adabiyoti”, “Badiiy tahlil asoslari” kabi fanlardan darslik va qo‘llanmalar yaratish, ma‘ruza, amaliy hamda seminar mashg‘ulotlari o‘tishda, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari yozishda, ma‘naviyat asoslariga doir ma‘ruzalar o‘qishda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mustaqillik davri o'zbek romanchiligida inson konsepsiyasi muammosini tadqiq etish davomida olingan ilmiy natijalar quyidagilarda o'z tatbig'ini topgan:

dissertant ilmiy xulosalari "Adabiyotshunoslikning nazariy kurslari bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish" mavzusidagi OT-A1-46 raqamli ilmiy texnik loyiha ishida qo'llanilgan. Dissertant "Adabiyotshunoslik lug'ati"ga kiritilgan roman, konsepsiya, badiiy konsepsiya, badiiy obraz, badiiy obraz turlari, inson obrazi terminlari uchun illyustrativ materiallar tayyorlagan. Bu materiallardan lug'atga kiritilgan istilohlarni izohlashda foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2024-yil, 11-sentyabrdagi 32-01-837-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Adabiyotshunoslik lug'ati"dagi muhim adabiy terminlar qo'shimcha ilmiy izohlar bilan boyitilgan;

dissertant ilmiy xulosalaridan Ozarbayjon Respublikasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutining "Ozarbayjon-Turkmaniston-O'zbekiston adabiy aloqalari" bo'limida tayyorlangan "Emotsionallik badiiy matn kategoriyasi va uning emotsional mohiyatini ta'minlovchi muhim omil" nomli loyihada foydalanilgan (AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu, 2024-yil, 23-sentyabr, 041-178-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, adabiy qahramonning emotsional xususiyatlari va va shu hissiy holatni ifoda etuvchi omillar ochib berilgan;

dissertant ilmiy xulosalaridan umumta'lim maktablari uchun 6-sinf "Adabiyot" (Z.Mirzayeva, K.Jalilov. 2022), 7-sinf "Adabiyot" (Z.Mirzayeva, K.Jalilov. 2022), 10-sinf "Adabiyot" (Z.Mirzayeva, K.Jalilov. 2022) darsliklarini yaratishda, xususan, adabiy qahramon, adabiy obraz kabi mavzularni yoritishda, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon", Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" kabi roman va qissalari tahlili hamda shu mavzular doirasida o'quv topshiriqlarini takomillashtirishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2023-yil 31-martdagi 01/11-01/6-196-

son ma'lumotnomasi). Natijada, darsliklarda adabiy qahramon, adabiy obraz tushunchalarini o'quvchiga ochib berish metodlari boyitilgan;

dissertantning mustaqillik davri o'zbek romanchiligi, adabiy qahramon, adabiy obraz, badiiy asar konsepsiyasi kabi nazariy mavzularni yoritishda, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanlarini Milliy dasturga kiritish va ularga doir o'quv topshiriqlarini takomillashtirishda dissertatsiyaning o'zbek romanchiligida inson konsepsiyasining tadrijiy taraqqiyoti, XXI asr o'zbek romanlarida inson konsepsiyasining asosiy chizgilari, "O'tish davri" romanchiligida inson konsepsiyasini yaratish yo'lidagi badiiy izlanishlar, romaniy tafakkurning yangicha tamoyillariga doir ilmiy xulosalari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining UNICEF bilan hamkorlikda tayyorlangan Adabiyot fanidan Milliy o'quv dasturida foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2023-yil 31-martdagi 01/11-01/6-197-son ma'lumotnomasi). Natijada, dars jarayonlarida mustaqillik yillarida yozilgan romanlar mazmun-mohiyatini o'quvchiga tushuntirish metodlari takomillashgan;

dissertantning XX asr va mustaqillik davri o'zbek romanchiligiga xos adabiy tendensiyalar, romaniy qahramon va tarixiy shaxsning badiiy konsepsiyasi haqidagi xulosalaridan "Madaniyat va ma'rifat" telekanalidagi "Birgalikda ko'ramiz" ko'rsatuvining Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" hamda Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanlariga bag'ishlangan sonlarida samarali foydalanilgan. Mazkur ko'rsatuvlarda tadqiqotchining shaxsan o'zi ham ishtirok etib, tahlilga tortilgan romanlar xususida atroflicha nazariy xulosalari bilan o'rtoqlashgan (O'zbekiston milliy teleradio kompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanali davlat muassasasining 2024-yil 23-yanvardagi 02-16/14-son ma'lumotnomasi). Natijada, keng jamoatchilikka o'zbek romanchiliga xos muhim adabiy tendensiyalar batafsil yoritib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 24 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, jumladan, 12 tasi respublika, 2 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 235 sahifadan iborat.

I BOB.

INSON KONSEPSIYASI ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM NAZARIY MUAMMOSI SIFATIDA

1.1. Badiiy tafakkur evolyutsiyasi va inson talqini

“Inson kim?” – bu banibasharning azaliy va abadiy savoli. O‘tgan ming yillar davomida din, falsafa, tarix, san’at, siyosat, ruhshunoslik, jamiyatshunoslik kabi sohalar mazkur savolga javob izladi. Nafaqat javob izladi, balki javob izlash jarayonida taraqqiy etadi. Ya’ni bu savol barcha madaniy, axloqiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilmalarning shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Tarixning har bir yangi davri insonning borliqdagi o‘rni, uning hayotiy maqsad va vazifalarini o‘ziga xos tarzda tushunish hamda talqin qilish evaziga vujudga kelgan. Zero, insoniyat o‘zi haqidagi tasavvurlari, xulosalariga tayanib jamiyatni tartibga soladi. Yashash tarzi, dunyoqarashini “inson kim?” savoliga javob izlash o‘laroq shakllantiradi. Muhim jihati shuki, ushbu savolning javobi bashar uchun yagona emas. Turli din, millat, madaniyatlarda, hatto, yakka individlarda javoblar farqli bo‘lishi mumkin. Biroq javoblar har qancha farq qilmasin, bu savol odamlarni birlashtirishga, hayotiy maqsad va vazifalarini umumlashtirishga qodir.

Islom diniga ko‘ra, Alloh insonni barcha maxluqotlar ichida aziz va mukarram etib yaratdi. Bu haqida Qur’oni karimda shunday bayon etiladi: “Esla, o‘shanda Robbing farishtalarga: “Albatta, Men loydan bashar yaratguvchidirman. Bas, uni rostlab, ichiga ruhimdan puflaganimda, unga sajda qilib yiqilinglar!” degan edi. Bas, farishtalarning barchalari jamlanib, sajda qildilar” (*“Sod” surasi, 71-73 oyatlar*). Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf mazkur oyatni tafsir qilarkan, “Alloh taolo O‘z ruhidan puflagani loyni oliy maqomga ko‘tardi. Aynan ana shu ruh uni boshqa jonzotlardan ajratdi, ularning hammasidan ustun qildi. Aynan o‘sha ruh Odamga farishtalar sajda

qilishlari uchun sabab bo'ldi"¹ deb aytadi. Islom odam bolasining gunohkor va ojizligidan ko'ra, uning aziz ekaniga ko'proq e'tibor qaratadi. Inson haqidagi ta'limotlar negiziga avvalo azizlik sifatini qo'yadi.

Qur'oni Karimda insonning yaralishi, umuman, uning mavjudligidagi haqiqat ham ochiq-oydin bayon etilgan: "Jin va insonni faqat Menga ibodat qilishlari uchungina yaratdim" ("*Zaariyaat*" surasi, 56-oyat). Mazkur oyat tafsirida "Odamlar va jinlarning yaratilishidan yagona maqsad Allohga ibodat qilish ekan" deyiladi. Shu bilan birga, oyatdagi "ibodat" so'zi keng ma'noda "har bir ishda Allohga bo'ysunish, itoat qilish, Allohning amrlarini bajarish, huzurida o'zini past olish Allohga ibodat qilishni"² anglatishi alohida urg'ulanadi.

Qur'on oyatlari va tafsirdan keltirgan iqtiboslarimizda ilmiylik nuqtai nazaridan e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan muhim nuqta shuki, islomda insonning maqomi ham, hayotiy maqsad va vazifalari ham mutlaq aniq va tugal. Ayni shu jihat dinni insonga bo'lgan munosabatda fan, falsafa va san'atdan farqlaydi. Agar din odamni anglangan va qismati tugal belgilangan maxluq sifatida ko'rsatsa, fan, falsafa va san'at insonni hali to'la anglanmagan xilqat sifatida tadqiq va talqin qiladi.

Tarix silsilasida falsafaning insonga munosabati doimiy ravishda o'zgarib borgan. Binobarin, fanning har bir yangi davri insonning yangicha talqini bilan qaror topgan. Shunga ko'ra, insonning falsafiy talqinlarini quyidagicha tadrijiylikda berish mumkin:

Inson –

- "aqli mavjudot";
- "siyosiy hayvon";
- "tabiat gultoji";
- "hayotning boshi berk ko'chasi";
- "hayotning soxta qadami" ;

¹ Zikr ahliidan so'rang (maqola). (<https://savollar.islom.uz/wpaxiv/82027>).

² Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol (<https://islom.uz/maqola/5784>).

- “mehnat qurollari yasovchi hayvon”;
- “o‘zlikni anglash qobiliyatiga ega mavjudot”;
- “ma’naviy va erkin mavjudot” va hokazolar¹.

San’at, jumladan, adabiyotning ham inson haqida o‘z tasavvurlari, aytish mumkinki, badiiylik asosida aytgan hukmlari mavjud. San’at (xususan, adabiyot)ning boshqa sohalardan farqi shuki, uning inson haqidagi hukmlari aniq belgilangan mezonlar asosida chiqarilmaydi. Balki, nisbatan erkin bo‘lgan san’at boshqa sohalarga xos bo‘lgan mezonlarni o‘zlashtirishi, sintez qilishi va insonning ayricha talqinlarini taqdim etishi mumkin. Shu bilan birga, san’atning hukmlari ham boshqa sohalariga ko‘chib o‘tishi va rivojlantirilishi ehtimoldan holi emas. Quyida, adabiyotning inson talqiniga doir masalalarini insonning badiiy konsepsiyasi muammosi doirasida ko‘rib chiqamiz.

Adabiyotshunoslikka oid asarlarda badiiy adabiyotning bosh vazifasi sifatida *bilish (evristik) funksiyasi* qayd etiladi. Adabiyot borliqni, undagi voqea-hodisalarni, jumladan, insonni o‘rganish maqsadi ustiga bunyod bo‘lgan: “Badiiy adabiyot borliqni obrazlar vositasida badiiy idrok qilish orqali bizning olam, odam, jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitadi”². O‘zining bu vazifasini amalga oshirish yo‘lida adabiyot voqea-hodisalar markaziga insonni qo‘ydi. Negaki, “borliqning o‘zida inson shu xil mavqe egallaydi. Shunday ekan, badiiy adabiyotning borliqni idrok etishida inson obrazining asosiy vosita bo‘lishi ham tabiiy va qonuniydir”³.

Demak, “inson kim?” savoli adabiyotning, jumladan, ijodkorning ham bosh muammosidir. Biroq, bu savolga yechim izlashda, adabiyotning boshqa sohalarga qaraganda katta ustunligi bor. Adabiyot olam va odam munosabatlarining yaxlit badiiy modelini yaratgan holda, turli ijodiy eksperimentlar vositasida savollarga javob izlash, o‘z xulosalarini “tirik” obrazlar

¹ Shermuhammedova N. Falsafa. – Toshkent: Noshir, 2012. – B. 570.

² Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 97.

³ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 53.

orqali ko'rsatish imkoniga ega. Ayni shu jihat, ya'ni **badiiy adabiyotning muayyan bir asar, ijodkor yoki davrda insonning olamdagi maqomi, maqsad va vazifalari yuzasidan chiqargan yaxlit hukmi inson konsepsiyasidir.**

Adabiyotda inson konsepsiyasining namoyon bo'lishi tabiiy va qonuniy jarayondir. Zotan adabiyotning evristik funksiyasidan tashqari badiiy-konseptual funksiyasi ham mavjudki, bu uning yana bir o'ta muhim vazifasi sanaladi. Badiiy adabiyot borliqni, mavjud voqelikni taftish qilish asnosida olam va odam haqida yaxlit badiiy hukm – badiiy konsepsiyani yaratadi. Adabiyotning markazida inson turishini hisobga olsak, badiiy konsepsiyaning negizini ham inson konsepsiyasi tashkil etishi oydinlashadi. Adabiyotshunos Mixail Golberg inson konsepsiyasiga shunday ta'rif beradi: “Inson konsepsiyasi juda ham keng qamrovli kategoriya (tushuncha) bo'lib, odamning olam va dunyoqarash, mafkura, axloq, estetik aloqalar hamda o'zaro boshqa munosabat shakllarining ichki mohiyati majmui sifatida namoyon bo'ladi”¹. Ko'rinadiki, ijodkor olam haqidagi kompleksli, yaxlit hukmga inson konsepsiyasi orqali yetib boradi.

Inson konsepsiyasi badiiy asarni baholashda qanchalar muhim bo'lmasin, adabiyotshunoslikda alohida kategoriya sifatida nisbatan kam o'rganilgan. Adabiyotshunoslik nazariyasiga oid kitoblarda mazkur kategoriya ta'rifiga deyarli to'xtalinmagan, adabiyotshunoslik terminlar lug'atida ham uchramaydi. Bizningcha, bu inson konsepsiyasi kategoriyasining odatda badiiy konsepsiya tarkibida ko'rilgani bilan bog'liq.

Rus adabiyotshunosligida inson konsepsiyasi istilohini ilk bor o'tgan asrning 50-yillarida L.Timofeyev qo'llaydi. Shu davrdan boshlab, turli tadqiqotlarda bu tushunchaga bot-bot duch kelish mumkin bo'ldi. Adabiyotshunos Ye.Gaponning ta'kidlashicha, Timofeyevga qadar adabiyotdagi inson muammosiga “obraz”, “qahramon”, “xarakter” kabi tushunchalar

¹ Голберг М. Человек – время – литература // Вопросы литературы, 1984. – №5. – С. 286.

vositasida yechim izlangan¹. Biroq, inson konsepsiyasi istilohi sanab o'tilgan tushunchalarga nisbatan adabiy qahramonni ancha keng qamrovda, konseptual tarzda tushuntiradi. "Insonning badiiy konsepsiyasi, – *yozadi yana bir rus adabiyotshunosi L. Kolobayeva*, – ma'lum bir adabiy kontekstda odamni shaxs sifatida tushunish va tasvirlash yo'lidagi turli tamoyillar, g'oyalar, qarashlar majmuini anglatuvchi tushunchadir. Inson konsepsiyasi yozuvchi ijodiy olamining mazmuni sifatida faqat bitta asarning emas, balki butun ijodiy yo'lni va uning turli bosqichlarini xarakterlovchi, estetik qonuniyatlarini belgilovchi asosdir"². Anglashiladiki, inson konsepsiyasi tushunchasi bizga muayyan asarni yoki adabiy davrni muallifning badiiy-g'oyaviy konsepsiyasi bilan bevosita aloqadorlikda baholash imkon beruvchi tizimdir.

Shu o'rinda mazkur kategoriyaga nisbatan turli shakldagi terminlar qo'llangani e'tiborga molik. Xususan, o'zbek adabiyotshunosligida mazkur kategoriyaning "shaxs konsepsiyasi" va "inson konsepsiyasi" kabi turli shakldagi terminlarini uchratish mumkin.

Aytish joizki, "inson konsepsiyasi" "shaxs konsepsiyasi"dan kengroq tushuncha. Zotan inson va shaxs bir narsa emas. Shaxs ijtimoiy-axloqiy munosabatlar mahsuli. Ijtimoiy munosabatlar qaror topmagan joy yoki uzoq tarixning alohida individ qadri ahamiyat kasb etmagan muhitida shaxs mavjud emas. Demak, inson shaxsdan qadimiyroq. Aytmoqchimizki, inson ham odam (biologik), ham ijtimoiy shaxs (individ) bo'la oladi. Shu ma'noda, "shaxs konsepsiyasi" kategoriyasini adabiyotning barcha davrlariga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Sababi, adabiyotning arxaik va traditsionalistik bosqichlarida shaxs ifodalanmagan. Ya'ni eposning qahramoni alohida individ – shaxs emas (bu masala mazkur bobning 2-faslida batafsil yoritildi). Shuning uchun biz

¹ Гапон Е. Художественная концепция личности в творчестве В.Г. Распутина 1990-х – 2000-х годов: Дис... канд. филол. наук. – Армавир. 2005. – С. 3.

² Колобаева Л. Концепция личности в русской литературе рубежа XIX-XX вв. – Москва: МГУ, 1990. – С. 35.

dissertatsiyamiz mavzusini “shaxs konsepsiyasi” emas, balki aynan “inson konsepsiyasi” sifatida belgilashni lozim topdik.

Inson konsepsiyasi kategoriyasiga xos bo‘lgan yana bir muhim jihat shuki, biz uning vositasida adabiyotni davrlashtirish va baholash imkoniga egamiz.

Badiiy tafakkur inson tafakkuri bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Ya’ni insonning tarix sahnasidagi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyoti to‘g‘ridan-to‘g‘ri badiiy adabiyotga ko‘chib o‘tadi. Bizning muayyan ijtimoiy shart-sharoitda shakllangan dunyoqarashimiz, borliqdagi maqomimizni qanday belgilashimiz shu davr paradigmasini shakllantiradi: “Insoniyat tarixi – paradigmalar almashuvidir. Inson, o‘z oldiga qo‘ygan oliy maqsadi qadrsizlanayotganini sezgach, yangi maqsadlarini ko‘zlaydi va unga qarab intiladi”¹. Shakllangan yangi paradigma esa konseptual ravishda, avvalo, badiiy adabiyotda bo‘y ko‘rsatadi. Demak, biz “inson kim?” savoliga javob izlash asnosida butun tarixni davrlashtirish bilan birga, adabiyotning tadrijiy taraqqiyot yo‘lini ham yaxlit xaritada ko‘rishimiz va baholashimiz mumkin bo‘ladi.

Mashhur fin olimi P.Kuusi insoniyatning madaniy evolyutsiyasini quyidagi uch yirik bosqichda tasniflaydi:

1. Ovchi va terimchilar madaniyati;
2. Agrar madaniyat;
3. Ilmiy-texnologik madaniyat².

Yana bir mashhur tarixchi, “Sapiyens: Insoniyatning qisqacha tarixi” nomli bestseller muallifi Yuval Noa Harari ham insoniyat taraqqiyotini uch bosqichga ajratarkan, Kuusidan farqli o‘laroq birinchi bosqichni “Kognitiv inqilob” deb nomlaydi: “Bashariyatning tarixiy yo‘lini uch yirik inqilob belgilab beradi. 70 ming yil muqaddam ro‘y bergan kognitiv inqilob tarixni boshlab bergan bo‘lsa, jarayonni 12 ming yil oldingi agrar inqilob tezlashtirdi. Atigi 500-yil oldin

¹ Borev Yu. Inson va insoniyat hayotining oliy maqsadi va ma’nosi // Sharq yulduzi, 2011. – №4. – B. 160.

² Кууси П. Этот человеческий мир. – Москва: Прогресс, 1988. – С. 101.

boshlangan ilmiy inqilob esa tarixni batamom yakunlashi va sayyorada tamomila boshqa bir hodisalarning vujudga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin”¹.

Demak, tarix kontekstida olib qaralsa, madaniyatning, umuman, insonning dunyoqarashi shakllanishida uch omil muhim ahamiyat kasb etgan. Ovchi va terimchilarning dunyoqarashi bevosita tabiat – tabiiylik ta’sirida shakllangan. Bu davrda – inson tabiatning ajralmas bir uzvi. Tabiiylikka qanoat qilib, faqat ovchilik va termachilik ortidan kun ko‘radi. Uning bosh maqsadi tabiatning suronli sharoitlarida omon qolish va nasl qoldirishdan iborat.

Agrar inqilob odamlarning o‘troqlashishi, tabiat ne‘matlarini bo‘ysundirishi – xonakilashtirishi bilan boshlangan. Dehqonchilik va chorvachilik bilan kun ko‘ra boshlagan odamlarning hayot tarzi nisbatan yengillashadi. O‘ta xatarli va mashaqqatli bo‘lgan ovchilikka ehtiyojning kamayishi yer yuzi aholisining ortishiga sabab bo‘ladi. Chunki odamlar endi yegulikni hayotlarini xavf ostiga qo‘ymay, ko‘p miqdorda topishlari va zaxiraga olishlari mumkin edi. Oziq-ovqatning ko‘payishi esa o‘z-o‘zidan tug‘ilish va yashash sifatining o‘sishiga xizmat qiladi. Shu omillar sabab, kichik markaz, shahar va davlatlar yuzaga kela boshlaydi. Natijada, odamlar ijtimoiylashadi. Keyinroq pul ixtiro qilinadi. Savdo-sotiqning vujudga kelishi esa o‘zaro kommunikatsiyani ta’minlaydi. Shunday qilib ko‘p qirrali, murakkab madaniy jamiyatlar yuzaga keladi. Endi inson axloqi, uning olam haqidagi tasavvurlari tabiat hodisalari vositasida emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda shakllanadigan va rivojlanadigan bo‘ldi.

Nisbatan yaqin tarixda sodir bo‘lgan ilmiy inqilobga aynan qaysi voqea turtki bo‘lgani yuzasidan olimlarning farazlari turlicha. Ilmiy hamjamiyat an’anasiga ko‘ra, bu inqilob Uyg‘onish davrining so‘ngida, 1543-yili Nikolay Kopernikning “Osmon sferalarining aylanishi haqida” nomli kitobining e’lon qilinishi bilan boshlangan. Yu. Xarariga ko‘ra 1492-yili Xristofor Kolumb

¹ Харари Ю. Сапиенс. Краткая история человечества. – Москва: Синдбад, 2016. – С. 6.

tomonidan Amerika qit'asining topilishi ilmiy inqilobni boshlab bergan: "Amerikaning kashf etilishi yevropaliklarni real kuzatuvlarni o'tmish an'alaridan ustun qo'yishga undadi. Qit'ani o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoq esa, ulardan yangi bilimlarning tezroq rivojlantirishni talab etardi"¹. Albatta, bu qarashlarning har birida muayyan darajada haqiqat mavjud, shu bilan birga ularning birortasi mutlaq to'g'ri bo'la olmasligi ham ayni haqiqat.

Bizningcha, bu faktlar jahon tarixi sahnasida kichik bir ramz vazifasini o'taydi, xolos. Haqiqat shundaki, ilmiy inqilob XV asrning so'ngi hamda XVII asrning boshlarigacha bo'lgan oralig'ida sodir bo'ldi va zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti uchun zamin yaratdi. Ilmiy inqilob bizga kvantlar olamida "sayr qilish", Oyga uchish, kompyuter bilan suhbatlashish va tana a'zolarimizni sun'iy lashtirish imkonini berdi. Lekin shular bilan birga, u insoniyatga atom bombasini ham "tortiq" qildi. Endi insoniyat nafaqat dunyoni o'zgartirishga, balki undagi hayotni yo'q qilib yuborishga qodir ekani ayon bo'ldi.

Ilm-fanning taraqqiy etishi, bizning olam va odam haqidagi tasavvurlarimizni inqilobiy tarzda kengaytirdi, ayni damda, juda ko'plab bir-birini inkor qiluvchi tarmoqlarga ajratib tashladi. Bu hodisalar shaxs va jamiyat oldiga yangi maqsad va vazifalari qo'yish bilan birga, bizni javobsiz savollar girdobida jarlik tomon tortayotgani ham haqiqat. Zotan, taraqqiyot taqdim etayotgan global isish, yadroviy qurollanish, axborot xurujlari, terrorizm, bir jinslilar nikohi kabi muammolar insoniyatning mavjudlik haqidagi yagona g'oya atrofida birlasha olmasligi, inson konsepsiyasining turfa xilligi oqibatidir.

Yuqorida insoniyat tarixini tadrijiy ravishda, shu davrga xos ijtimoiy shart-sharoit bilan batafsil yoritishimiz bejizga emas. Sababi estetik tafakkur shu tarixiy voqea-hodisalar zahirida, insonning mazkur zamonga xos ta'rifi, hayotiy maqsadlari va ideallari asosida shakllangan. Shunday ekan, adabiyotni

¹ Харари Ю. Сапиенс. Краткая история человечества. – Москва: Синдбад, 2016. – С. 194.

davrlashtirish masalasida ham, xuddi, insoniyatning tarixiy-madaniy bosqichlari kabi uch davr e'tiborga olinadi.

Yetakchi adabiyotshunoslardan iborat mualliflar guruhiga ko'ra, "badiiy tafakkurning eng umumiy va barqaror uchta: 1) arxaik yoki mifopoetik; 2) traditsionalistik yoki normativ; 3) individual-ijodiy yoki tarixiy tiplari"¹ mavjud.

Badiiy tafakkurning *arxaik* bosqichi paleolit davridan boshlab antik Yunonistonda miloddan avvalgi VII – VI asrlar, Sharqda esa milodiy I asrgacha davom etadi.

Traditsionalizm (normativ poetika) bosqichi Yevropada miloddan avvalgi VI – V asrlardan XVIII asr o'rtalarigacha, Sharqda esa milodiy I asrdan XIX asr oxiri – XX asr boshlarigacha davom etib, eng uzoq muddat — ikki yarim ming yillik davrni qamrab oladi.

Individual-ijodiy bosqich Yevropada XVIII asr o'rtalaridan, Sharqda XIX asr oxiri – XX asr avvalidan boshlanib, hozirga qadar davom etmoqda.

Biz yuqoriroqda sanab o'tgan tarixiy bosqichlar va badiiy tafakkur bosqichlarining bu qadar uyg'un kelishi, albatta, tasodif emas. Sababi, adabiyotshunoslik muayyan davr adabiyotini o'rganar ekan, avvalo, shu davr ijtimoiy-tarixiy sharoitini hisobga oladi. Chunki "har bir davr adabiyotining rivojlanish darajasi, undagi turfa adabiy hodisalar ko'p jihatdan ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy-tarixiy sharoit deganda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy holati tushuniladiki, bular bari **badiiy adabiyot taraqqiyotining tashqi omili** (*ta'kid bizniki – S.Q.*) sanaladi"². Shunday ekan, inson konsepsiyasi bir vaqtda ham adabiy-falsafiy, ham ijtimoiy kategoriyadir. Quyida bu xulosaning nechog'lik to'g'ri ekanini, tarixning muayyan bosqichidagi ijtimoiy-tarixiy sharoit, shu davrga xos badiiy tafakkur va

¹ Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринсер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох // Историческая поэтика. Литературные эпохи и типы художественного сознания. Сб. статей. – Москва: Наследие, 1994. – С. 4.

² Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 418.

inson konsepsiyasi masalalarini o‘zaro uyg‘un, yaxlit madaniy hodisa sifatida ko‘rib chiqish orqali baholashga harakat qilamiz.

Badiiy tafakkurning *arxaik* bosqichiga xos asosiy xususiyat sifatida sinkretiklik ko‘rsatiladi. Sinkretizm yunoncha “farqlamaslik” so‘zidan olingan bo‘lib, butun borliqni yaxlit tushunish demakdir. Sinkretizm – “inson tafakkurining hali bo‘linmagan holati”¹. Ya’ni “tabiat bilan insonni, so‘z bilan u anglatgan narsani, “men” bilan “o‘zga”ni, hayotiy amal bilan san’atni farqlamasdan qabul qiladigan, hali abstrakt fikrlash va refleksiya (o‘zini anglash)ga qobil bo‘lmagan ongga xos tafakkur nazarda tutiladi”². Bu davr paradigmasiga ko‘ra odam “bashariyatning yashab qolishi va nasl qoldirishi uchun tabiatning noqulay sharoitlariga qarshi qat’iyatli kurashuvchi”³dir.

Arxaik bosqichda san’at ham bir butun hodisa bo‘lgan (xuddi odamlar jamoaviy yashagani, alohida individ (shaxs) ehtiyojlari ajralmagani kabi). Bu davrda san’atning turlari, umuman, ularni turlarga ajratuvchi chegara mavjud emasdi. Shu ma’noda, san’atshunoslar sinkretizm istilohini san’atning qadimiy, hali turlarga xos spetsifik xususiyatlar bo‘y ko‘rsatmagan shakliga nisbatan ham qo‘llaydilar⁴. Qadimgi odamlarning diniy rituallari sinkretizmga yorqin misol bo‘la oladi. Bunday rituallarda odamlar bir vaqtning o‘zida qo‘shiq kuylashi (tabiatga murojaat qilib omonlik yoki yaxshi o‘lja so‘rashi), raqsga tushishi, nog‘ora chalishi yo sahna elementlarini ko‘rsatishi mumkin edi. E’tiborli jihat, rituallardagi san’at hodisalarining biri ikkinchisidan farqlanmagan. Boshqacha aytganda, bu “san’at” shu rituallardagina mavjud bo‘lgan yaxlit marosimning muhim elementlari hisoblangan.

Arxaik bosqichda “inson tafakkurining hali bo‘linmagan”ligi, paleolit davrining shart-sharoitlari, jamoaviy hayot tarzi bilan bevosita bog‘liq. Zero

¹ Взаимодействие и синтез искусств / Под ред. Д.Д. Благого, Б.Ф. Егорова и др. – Ленинград: Наука, 1978. – С. 6.

² Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.425.

³ Боров Ю. Парадигма современной эпохи (http://www.independent-academy.net/science/library/borev_postsozrealizm/paradigma.html).

⁴ Боров Ю. Эстетика. – Москва: Политиздат, 1988. – С. 312.

yuqorida ham qayd etganimizdek, bu davrda inson ongi serqirra ijtimoiy munosabatlar asosida emas, tabiatning tabiiy hodisalari, tabiiy shart-sharoitlari ta'sirida rivojlangan. Shu omil tufayli, inson o'zini tabiatning ajralmas bir qismi sifatida his qila olardi, xolos. Biz buni qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalari misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Yirik folklorshunos Olga Freydenberg mifga "tafakkurning beixtiyor shakli"¹ deya ta'rif beradi. Darhaqiqat, qadimgi insonlar miflarni qasddan yaratmaganlar. Miflar odamlarning kundalik hayotidagi urf-odatlar va rituallari doirasida o'z-o'zidan, mavjud udumlarning bayoni sifatida paydo bo'lgan.

Ibtidoiy odamlar uchun mif olamni bilishning asosiy vositasi hisoblangan. Shu ma'noda miflar qadimgi odamlarning fikrlash tarzi, dunyoqarashi haqida keng ma'lumot bera oladi. Inson o'zini tabiatning bir qismi sifatida tasavvur qilgan kezlarda atrofidagi narsalarga ham o'zidagi sifatlardan kelib chiqib baho bergan. Shu sababli u tabiatdagi narsalarga insonga xos xususiyatlarni ko'chirgan. Ya'ni qadimgi odamning tasavvuricha, atrofdagi narsalar ham inson kabi fikrlaydi, inson kabi hayot kechiradi. Mifning fetishizm, animizm va totemizm kabi turlari ham ana shu tasavvurlarning mahsulidir.

Adabiyotning keyingi bosqichi – traditsionalizm badiiy tafakkur taraqqiyotida nisbatan eng uzoq muddat, qariyb, ikki yarim ming yil hukm surgan bosqichdir. Mazkur bosqichning bu qadar uzoq muddat davom etgani asrlar davomida ijtimoiy shart-sharoitning deyarli o'zgarmagani, feodal tuzumning barqarorligi, mustahkam diniy e'tiqod, jamiyatlararo kommunikatsiyaning sustligi, ilm-fan inqilobining "kechikkani" kabi qator omillar bilan bog'lanadi.

Ta'kidlash zarurki, traditsionalizmning ikki yarim ming yillik umri dunyo madaniyati tarixidagi umumiy hisob bo'lib, u alohida olingan sivilizatsiyalarda bu qadar uzoq yashamagan. Ijtimoiy shart-sharoitning o'zgarishi, yangi

¹ Фрейденберг О.М. Миф и литература древности. – Москва: Главная редакция восточной литературы, 1978, – С.119.

paradigma va inson konsepsiyasining shakllanishiga qarab traditsionalizm G‘arb-u Sharqda turli davrlarda, turlicha vaqt chegaralarida dominantlik qilgan.

Mifopoetik bosqichda sinkretizm muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, traditsionalizmga kelib san’at turlari o‘zidagi spetsifik jihatlarni yaqqol ko‘rsata boshladi. Jumladan, adabiyot ham alohida soha sifatida shakllandi.

Traditsionalizmni farqlovchi eng muhim jihat ijodiy jarayonda an’anaviylikning ustun turishidir. An’anaviylikning asosiy sababi esa inson konsepsiyasiga doir hukmlarning mutlaq ekani bilan izohlanadi. Ya’ni ijodkorning inson xususidagi qarashlari shu davrga xos adabiy kanonlar doirasidan chetlashishi mumkin emas edi. Agar shunday qilinsa, bu nafaqat san’atga xilof ish, balki e’tiqodiy jihatdan osiylikdir. Binobarin, bu davrda boshqa sohalar kabi san’at ham dindan tashqarida mavjud bo‘la olmas edi. Dinning inson haqidagi hukmlari esa mutlaq va tugal.

Traditsionalizm bosqichida G‘arbgaga nisbatan uzoqroq yashagan Sharq mumtoz adabiyoti ham qat’iy an’analar asosiga qurilgan edi. Jumladan, insonning badiiy konsepsiyasi qat’iy ravishda islom dini ta’limotlari asosida shakllangan. Bu borada, navoiyshunos M.Muhiddinov shunday yozadi: “Komil inson tasavvufning ham, adabiyotning ham ideali edi, shoirlarning ko‘p gumanistik g‘oyalari shu tushuncha vositasida badiiy suvratlangan”¹. Shu ma’noda aytish mumkinki, komil inson konsepsiyasi mumtoz adabiyotning insonga doir yagona badiiy konsepsiyasi bo‘lgan.

Mumtoz adabiyotga xos komil inson konsepsiyasi islom dini ahkomlari bilan bevosita bog‘liqlikda shakllangan. Odamga xos sifatlar faqat din doirasida baholangan. Shu ma’noda komil inson obrazida to‘kis mo‘min-musulmonnigina tasavvur qilish mumkin. Jumladan, Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida insonga quyidagicha ta’rif beradi:

¹ Muhiddinov M. Alisher Navoiy va uning salafllari ijodida inson konsepsiyasi. Filol.fan. d-ri...diss. – Toshkent, 1995. – B. 261.

*“Kimki jahon ahlida inson erur,
Balki nishoni anga imon erur”.*

Navoiy insonni islom dini aqidasi nuqtai nazaridan baholar ekan, imonga eng muhim omil sifatida qaraydi. Ya’ni insoniylikning bosh belgisi imondir. Mutafakkir uchun imoni yo‘q kimsa hayvondan farq qilmaydi:

*“Ulki hadu rasm qo‘yar mantiqiy,
Toki bu hayvoni bila notiqiy.
Ikkisi insong‘a bo‘lub haddi tom,
Zumrai inson aro aylar xirom.
Nav‘ini notiq bila hayvon qilur,
Notiqu hayvonini inson qilur.
Sen dog‘i inson muni qilsang gumon,
Bilki hamon sen-senu hayvon hamon”¹.*

“Hayrat ul-abror”dan keltirilgan baytlarni sharhlar ekan, M.Muhiddinov “Imon insonni hayvondan ajratuvchi asosiy sifat; chunki Navoiy fikricha, garchi nutq, so‘z insonning hayvondan ajratuvchi belgisi bo‘lsa-da, lekin agar kishida imon bo‘lmasa, u inson emas, balki gapiruvchi hayvondir”² deb yozadi.

Mumtoz shoirlar o‘z asarlarida shaxsiy kechinmalarini, an’anadan keskin farq qiluvchi fikr va g‘oyalarini ilgari surmagan. Shu sababli, ijodkor mavzuni yoritishda imkon qadar ijtimoiylikdan qochadi, ifodada zamon va makon uyg‘unligini ta’minlamaydi, talqinda esa o‘ziga xoslikka intilmaydi.

Professor D.Quronov bu haqda shunday yozadi: “...garchi mumtoz she’rda ko‘ngil izhori asosan “men” tilidan berilsa-da, haqiqatda uning ortida muayyan bir shaxs emas, ko‘proq o‘quvchiga avvaldan tanish lirik subyektlardan biri – oshiq, mutafakkir, nosih yo zamonadan kuygan jabrdiyda namoyon bo‘laveradi. Ayni hol jamiyatda shaxs maqomi kuchaygan sharoitga muvofiq emas”³. Olim

¹ Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 7 tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B.103.

² Muhiddinov M. Alisher Navoiy va uning salafllari ijodida inson konsepsiyasi. Filol.fan. d-ri...diss – Toshkent, 1995. – B. 47.

³ Quronov D. Mutoalaa va idrok mashqlari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 192.

aytib o'tgan xuddi shu omillar Sharq mumtoz adabiyotida muallif shaxsiyatiga ham parda tortadi. Ba'zan muallif yozgan asariga o'z imzosini ham qo'ymagan, sababi jamiyatda alohida individ sifatida namoyon bo'lish ehtiyojini sezmagani. Zero, olamni faqat diniy-axloqiy mezonlar asosida tushungan inson, tabiiy ravishda, hayotini qat'iy an'analar asosiga qurgan. Bu davr estetik qarashlarining birlamchi haqiqati sifatida dunyoning foniy ekanligi aytilib, san'atkor uchun chinakam go'zallik olam va odamning botini (boqiy dunyo) hisoblangan.

Mumtoz adabiyotda estetik tasavvurlar etikadan ajratilmagani¹ ham davrga xos inson konsepsiyasi bilan bog'liq. Zero mumtoz mutafakkirlar nazdida insonning asl go'zalligi ma'naviy go'zallikdir. Shu kabi omillar sabab bu davrda insonning realistik tasviri badiiy qiymatga ega emasdi.

Navoiyshunos Aftondil Erkinovning miniatyura san'atidagi Farhod obraziga bergan sharhida fikrimizning dalilini ko'rish mumkin: "Farhod kiyimidagi ko'k rang komil inson timsoli bo'lib, jigar rang riyozat bosqichini o'taganlikni bildiradi, dastor – mutafakkir (tafakkurli shaxs), qizil qalpoq – bahri rahmat (inson tafakkurining ezgulik manbai ekanligi). Uning ko'zi kichikligi esa, dunyoga boqmaslik bo'lib, qo'li ochiqlik irfonning mavjudligi, moddiyatning yo'qligiga ishora"². Ko'rinadiki, xuddi mumtoz shoir kabi musavvir ham real tasvirdan ko'ra ramziylik va an'anaviylikni ustun ko'rgan. Yo'qsa, u muayyan ma'noni ifodalash uchun personaj ko'zlarini reallikka xilof ravishda kichraytirib tasvirlamas edi. Boshqacha aytganda, tasviriy san'at mezonlari ham diniy aqidalardan tashqariga chiqmagan.

Mumtoz ijodkor qahramonlarni real voqelikdagi xatti-harakatlari vositasida emas, balki mutlaq ideal tushunchalar orqali tasvirlaydi. Ya'ni qahramonda eng go'zal islomiy sifatlar (taqvo, ilm, odob, adolat, ma'rifat va b.)ning mavjudligini aytishning o'zi yetarli hisoblangan (ya'ni, masalan, taqvoli odam deyilishining o'zida qiyofa haqidagi an'anaviy tasavvur ham bor). Shu

¹ Полякова Е., Раҳимова З., Минниатюра и литература Востока. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1987. – С.70.

² Erkinov A. Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV – XX asr manbalari. Filol.fan. d-ri...diss. – 1998. – B. 235.

sababli ham shoir qahramondagi shunday sifatlar ta'rifiga ko'proq urg'u beradi: sifat qay darajada mukammal va original ta'riflansa, shu darajada individual qiyofa hosil bo'ladi. Natijada, yerdan butunlay uzilgan, Sharqning ideal g'oya va maqsadlariga yo'g'rilgan qahramon yaratiladi:

*Demon, ham ko'ngli poku ham ko'zi pok,
Tili poku so'zi poku o'zi pok.¹*

“Farhod va Shirin”dan olingan yuqoridagi baytda Farhod obrazi chin so'fiyona qiyofada aks ettiriladi. Navoiy Farhodning tashqi ko'rinishini alohida chizgilar bilan tasvirlab bermaydi, balki uning fe'l-atvori, xulqi va amaliga ta'rif beradi. Deylik, Farhodning go'zalligi haqida so'z ketsa, shoir o'sha davr ideal qahramonlari uchun go'zallik sifatida qabul qilingan shartli ko'rinishlarni qalamga oladi.

Shu o'rinda o'rta asarlar falsafasiga rus adabiyotshunosi Yuriy Borevning: “...inson – gunohkor banda, cho'qqilarni zabt etishga yo'nalish olgan va kamolga yetgach, dunyo saodatiga erishish uchun dunyo ne'matlaridan voz kechgan – muqaddas zot”² deya bergan ta'rifi Sharq mumtoz adabiyotidagi komil inson konsepsiyasiga ham mos ekanini qayd etmoq zarur.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, badiiy tafakkurdagi traditsionalizm Sharqda G'arbga nisbatan ancha uzoq muddat davom etadi. Xususan, milliy adabiyotimizda mumtoz adabiyot an'analari XX asr boshlarigacha davom etgani ma'lum. Bu vaqtga kelib ma'rifatchilik, sentimentalizm, romantizm kabi bosqichlardan o'tib kelgan G'arb badiiy tafakkuri realizm va modernizm ta'sirida sayqal topayotgandi. Bizda mazkur bosqichlarning ancha kech boshlangani, balki, qurama shaklda, bir vaqtning o'zida namoyon bo'lgani ijtimoiy shart-sharoit va kommunikatsiya bilan bog'liq. Zero, Turkistonda XX asrning boshlariga kelibgina an'anaviy badiiy tafakkur qobig'idan chiqish imkonini beruvchi ijtimoiy shart-sharoit vujudga keldi.

¹ Navoiy A. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2011. – B. 366.

² Borev Yu. Inson va insoniyat hayotining oliy maqsadi va ma'nosi // Sharq yulduzi, 2011. – №4. – B. 161.

Individual-ijodiy badiiy tafakkur bosqichning asosiy farqlovchi xususiyati asarda real ijtimoiy shaxs – individ kechinmalari, unga xos nuqtai nazarning ifodalanishidir.

Individual-ijodiy badiiy tafakkur zamonaviy o‘zbek adabiyoti deb ataluvchi katta bir bosqichni qamrab olgan bo‘sa-da, bu bosqichning o‘zi ham bir necha davrlarga ajralishini unutmasligimiz darkor. Zero, XX hamda XXI asrga xos ko‘plab umumiy qonuniyatlar asosida shakllangan individual-ijodiy badiiy tafakkur, shu davrlarning turli ijtimoiy shart-sharoitida vujudga kelgan inson konsepsiyasi ta’sirida vujudga kelgan ichki bosqichlarga ham ega.

Adabiyotshunosligimizda yangi o‘zbek adabiyoti davri uchta adabiy asrga bo‘linadi: 1) o‘zbek jadid adabiyoti; 2) sho‘ro davri o‘zbek adabiyoti; 3) istiqlol davri o‘zbek adabiyoti¹. Bir qarashda, mazkur tasnifning asosi sifatida davr ijtimoiy shart-sharoiti, adabiy avlodlar, badiiy tafakkur va ifodadagi o‘ziga xoslik ko‘riladi. Biroq, sanalgan omillarning negizida ham inson konsepsiyasi turishini nazardan qochirmaslik zarur.

O‘zbek jadid adabiyoti nafaqat mumtoz adabiy an’analarni inkor qilish, balki insonning yangi badiiy konsepsiyasini taqdim etish bilan qaror topdi. Jadidlar yaratgan inson konsepsiyasining markazida esa milliy istiqlol va ma’rifatparvarlik g‘oyalari turadi. Shu ma’noda mazkur harakat XVIII da Yevropada boshlangan ma’rifatchilik harakatiga mohiyatan o‘xshash edi: “Jadid burjuaning ideyasi va tub “ideali” Ovro‘pa sanoat burjuaziyasi planida eskilik – feodalizm va nodonlik bilan kurash ham burjuaziya – kapitalizm yo‘li bilan taraqqiy qilish, madaniyatda kapitalizm asosida Ovro‘pa burjuaziyasi darajasiga borib yetishdan iborat edi”².

XX asr boshlarida ijtimoiy-madaniy hayotimizda sodir bo‘lgan tub o‘zgarishlar, Yevropa jamiyatida XVII – XVIII asrlarda kechgan voqealarga o‘xshash edi. G‘arbda bo‘lganidek, Turkistonda ham feodal tuzum tanazzulga

¹ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 433.

² Sa’diy A. O‘zbek burjua adabiyoti (<https://chulpon.uz/cho-lpon/>).

yuz burib, kapitalistik munosabatlar qaror topa boshlagan, mos ravishda jamiyatda alohida shaxsning oʻrni va maqomi oʻzgarayotgan edi.

D.Quronov XX asr avvalida badiiy tafakkurda kechgan yangilanishning bosh omilini shunday izohlaydi: “Hamma gap XX asr boshlari Turkiston jamiyatida shaxs maqomining oʻzgargani, insonning ijtimoiylashganida. Sodda qilib aytsek, Turkiston kishisi jamiyatning ahvoli, buguni va ertasi, mavjud holning sababi – xullas, siyosat haqida bosh qotiradigan boʻldi”¹. Haqiqatan ijtimoiy hayotda sodir boʻlayotgan keskin oʻzgarishlar shu ijtimoiylikning bir boʻlagi – ijodkor shaxsini chetlab oʻtmadi. Endi ijodkorning inson haqidagi, uning olamdagi oʻrni va maqomi haqidagi tasavvurlari oʻzgara boshlaydi. Ular ham xuddi Yevropa maʼrifatparvarlari kabi “yangi – inson tabiatiga mos, “aql”ga muvofiq jamiyat qurish gʻoyasi bilan”² chiqa boshladilar.

Anʼanaviy qoliplar taʼsiridan chiqa olgan ijodkor olamni individual tarzda badiiy idrok qila boshladi. Badiiy mushohada obyektini sanʼatkor koʻnglidan chiqib, tashqi olamga koʻchib oʻtdi. Yaʼni adabiyot voqelikka, ijtimoiy hayotga yuzlanadi. Bu esa tabiiy ravishda badiiy obrazning, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning realistlik ifodasini talab qilar edi. Shu maʼnoda biz Choʻlponning “Qurboni jaholat”, “Doʻxtir Muhammadyor”, Qodiriyning “Juvonboz”, “Uloqda” kabi hikoyalari, Hamzaning “Yangi saodat”, Ayniyning “Buxoro jallodlari” qissalari, Qodiriyning “Oʻtgan kunlar”, Choʻlponning “Kecha va kunduz” romanlariga nafaqat oʻzbek nasrining tamal toshi, balki adabiyotimizda zamonaviy inson konsepsiyasining asosi sifatida qarashimiz mumkin.

Jadid adabiyotiga xos inson konsepsiyasi Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” asarida ilk bor romaniy kontekstda mujassam topdi. Romanda yangi inson konsepsiyasi nafaqat Otabek obrazida, balki voqelikka nisbatan muallif nuqtai nazaridan ham akslanadi. “Oʻtkan kunlar”ning “Xon qizigʻa loyiq bir yigit” bobida Otabek suhbatdoshlariga chet ellarga qilgan safarlari haqida soʻzlab

¹ Quronov D. Mutoalaa va idroq mashqlari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.191.

² Quronov D. Choʻlpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 10.

berarkan, “Shamayda ekanman, qanotim bo‘lsa, vatanga uchsam, to‘ppa-to‘g‘ri xon o‘rdasiga tushsam-da, o‘risning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tingasa-da, barcha elga yorlig‘ yozib o‘risning idora tartibini dasturilamal etishka buyursa, men ham bir oy ichida o‘z elimni o‘risniki bilan bir qatorda ko‘rsam...”¹ deb hikoya qiladi. To‘g‘ri, Otabekning orzulari amalga oshmadi. Biroq adib uning timsolida zamonaviy fikrlaydigan, ilg‘or, muhimi ijtimoiy-siyosiy islohotlar zaruratini his qilgan shaxsni ko‘radi. Qodiriyning inson konsepsiyasidagi yana bir muhim omil Yusufbek hoji taqdirida namoyon bo‘ladi. Romanda mazkur obraz o‘zligini, millat fojiasini anglagan, “o‘ris istibdodi o‘zining iflos oyog‘i” bilan Turkiston ostonasiga yetib kelganini his etgan ziyoli inson sifatida gavdalanadi. Shu bilan birga, Qodiriy mazkur ikki qahramonning ilg‘or qarashlari, harakatlari davr uchun behuda ekanini, “yolg‘iz o‘z manfaati shaxsiyasi yo‘lida bir-birini yeb, ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar” jamiyatida bunday shaxslar ortiqcha ekanini aytmoqchi bo‘ladi. Ayni vaqtda, adib o‘tgan kunlar haqida yozarkan, endi (yangi davrda) ortiq bunday yashash mumkin emasligini ta’kidlayotgandek bo‘ladi. Islohotning zarurati va yangi inson konsepsiyasi haqidagi g‘oyalar muallif nuqtai nazariga, xulosalariga ko‘chib o‘tadi.

Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani “O‘tgan kunlar”dan o‘n yil o‘tib yozildi va unda nisbatan yaqin o‘tmish voqealari qalamga olindi. Shu sababli bo‘lsa kerak, romanda jadidchilik g‘oyalari, xususan, yangi inson konsepsiyasi yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Unda Miryoqub obrazi tom ma’noda milliy burjuaziya qahramoni sifatida tasvirlangan. Adib uning misolida “milliy burjuaziyaning ham iqtisodiy va ham siyosiy istiqbolga egaligini”² ko‘rsatishga uringan.

Cho‘lponga kelib inson konsepsiyasi yanada hayotlashadi, real ijtimoiy shaxsga yaqinlashadi. Biz ilk bor Miryoqub obrazida murakkab va ziddiyatli

¹ Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – B. 18.

² Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 10.

xarakter – individni ko‘ramiz. O.Sharafiddinov yozadi: “Miryoqub xarakteri muayyan ichki ziddiyatlarga ega. U bir tomondan yangi burjua odamiga xos sifatlar egasi, ikkinchi tomondan esa o‘z muhitidan butunlay uzilib ham ketgan emas”¹. Ya’ni Miryoqub musulmon, namozxon odam bo‘lgani bilan har doim ham shariatga amal qilavermaydi, o‘z manfaati uchun qing‘ir, harom-harish yo‘llardan ham boraveradi. Tadbirkorlik faoliyati ham shunday, bir qarasang, u uddaburon, xayrli ishlarning boshida turgan sarmoyador, bir qarasang, g‘irt qallob va muttaham. Ko‘rinadiki, Miryoqub nafaqat tashqi muhit, zamon va jamiyat bilan qarama-qarshi qo‘yiladi, balki o‘z-o‘zi bilan ham ziddiyatga kirishgan shaxs sifatida tasvirlanadi (inson konsepsiyasining bunday talqini keyingi faslda, M.Baxtinning xronotop va polifonizm nazariyalari asosida ochib berilgan).

Agar Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ida an’anaviy mumtoz adabiyotga xos unsurlar yaqqolroq ko‘rinib, obrazlarning xarakteri va taqdiri ko‘p jihatdan epos qahramoniga yaqin tasvirlangan bo‘lsa, Cho‘lponning “Kecha va kunduz”ida biz tom ma’noda ijobiy va salbiy xususiyati bilan yashayotgan hayotiy inson konsepsiyasini ko‘ramiz.

O‘rinli savol tug‘iladi, nega adib Miryoqub obrazini bunday ziddiyatli planda tasvirladi? Gap shundaki, Cho‘lpon romanda milliy burjuaziya fuqarosini kapitalistik munosabatlar fonida yaratishga uringan. U bunday jamiyatda odam nafaqat harakatchan, balki uddaburon va cho‘rtkesar bo‘lishi kerak deb biladi. Adib qahramonini ayni shu xususiyatlar bilan tasvirlashga urinar ekan, u realistik tamoyillar bilan hisoblashadi. Qolaversa, Miryoqub adib uchun qaysidir ma’noda eskilik va yangilik o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tab beradi. Ya’ni Miryoqub an’analar qobig‘ini yorib chiqa olgan, kapitalistik muhitga tez moslashib yangi tijorat usullarini o‘zlashtirgan muvaffaqiyatli tadbirkor sifatida adib idealidagi ma’rifatparvarga yaqin. Boshqacha aytganda, Miryoqub ilm-ma’rifat yo‘lida

¹ Sharafiddinov O. Sardaftar sahifalari. – Toshkent: Yozuvchi, 1999. B. – 110.

bo'lmasa ham, tadbirkorlik sohasida chinakam jadid. Bunday omilkor shaxslar Turkistonning mustaqilligi va taraqqiyoti yo'lida juda muhim.

Ko'rinadiki, jadidlarning inson konsepsiyasi ham ijtimoiy shart-sharoit, davrga xos ehtiyoj va ideallar bilan hamohang. Ayni damda, mazkur inson konsepsiyasi ijtimoiy ehtiyojlar talabiga ko'ra yangilangan, realistik tamoyillar asosida hayotga yaqinlashgan. Keyingi davrlarda ham ijtimoiy shart-sharoitning o'zgarishi, badiiy tafakkurning, jumladan, inson konsepsiyasining ham yangilanishiga turtki bo'ladi.

Garchi, "sho'ro davri o'zbek adabiyoti" deya ataluvchi yetmish yillik adabiy zamon yagona mafkura va yagona metod ta'sirida o'tgan bo'lsa-da, unda inson konsepsiyasining turli talqinlarini uchratish mumkin. Sababi, mazkur bosqichda ijodkor siyosiy-ijtimoiy, g'oyaviy-badiiy jihatdan turli davrlarda, turli ideallar bilan yashadi. 30 – 40-yillarda yangi jamiyat qurish, sanoatni va xalq xo'jaligini rivojlantirish g'oyalari bilan yashagan adabiyot shunga monand inson konsepsiyasini taqdim etdi. Sadriddin Ayniyning "Qullar", Oybekning "Qutlug' qon" romanlari shu davr adabiyotining yorqin namunalaridir.

Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda front va front orti qahramonlari yaratildi.

1953-yilda Stalinning vafot etishi va ko'p o'tmay shaxsga sig'inishning qoralanishi natijasida mafkura bosimi sezilarli darajada susayadi. Milliy adabiyotimiz xilma-xil mavzular bilan boyidi. Keyinroq "turg'unlik" (1964 – 1986-yillar oralig'i) davrida "Chinor", "Ulug'bek xazinasini", "Ko'hna dunyo", "Diyonat", "Ikki eshik orasi", "Qora ko'zlar" kabi romanchiligimizning nodir namunalari yaratildi. Ularda yalang'och mafkurabozlikdan qochish, inson konsepsiyasini yaratishda nisbatan haqqoniy, realistik tamoyillarni qo'llashga intilish sezila boshladi. 80-yillarning o'rtalaridan "qayta qurish" davri boshlandi. Bu vaqtga kelib ijodkor jamiyatda mafkuraviy targ'ibot va asl turmush o'zaro mos tushmayotganini ochiq-oydin anglay boshladi. Hokimiyatga, islohotlarga nisbatan ishonchsizlik, tanqidiylik, kinoyaviylik ortdi. Milliy romanchiligimizga

o'zini va o'zligini anglashga intilayotgan qahramon obrazi – inson konsepsiyasi kirib keladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida milliy romanchiligimizda 80-yillar so'ngida shakllangan adabiy-g'oyaviy tendensiya davom etdi. Ya'ni inson konsepsiyasining markazida erk va o'zlikni anglashga, mutelik asoratlaridan to'la xalos bo'lishga intilayotgan qahramon tasvirlandi. Bizningcha, ayni shu muammo hali hamon milliy romanchiligimiz, jumladan, inson konsepsiyasining markazida turibdi. Haligacha o'zlikni anglash, tom ma'noda erkin shaxs va jamiyatni tarbiyalash romannavislarimizning og'riqli muammosi sifatida yashab kelmoqda.

Ko'rinadiki, adabiyot tarixiy ijtimoiy shart-sharoit, badiiy tafakkur va inson konsepsiyasining uyg'un, yaxlit hosilasi. Inson konsepsiyasini baholash badiiy asar, jumladan, roman mohiyatini anglashning muhim kaliti. Tadqiqotimizning keyingi boblarida mazkur muammoning milliy romanchiligimizdagi o'rni va ahamiyatini atroflicha yoritishga harakat qilganmiz.

1.2. Inson konsepsiyasi romaniy tafakkurning negizi sifatida

Roman – mazmun-mohiyati, ifoda imkonlari bilan hayotga, shu jumladan, ijtimoiy odamga eng yaqin janr. Zero roman insonni yaxlit ijtimoiy tuzilmalar kontekstida ko'rsatish, olam va odam munosabatlarini yirik epik ko'lamda, bor murakkabligi bilan tasvirlash qudratiga ega yagona janrdir.

Roman insoniyat o'zini ijtimoiy mavjudot sifatida badiiy idrok etish ehtiyoji tug'ilgan pallada vujudga kelgan. "Nomidan ham ko'rinib turibdiki, – yozadi V.G.Belinskiy, – roman nasroniy elatlarining yangi sivilizatsiyasida, qachonki, ijtimoiy-fuqarolik, oilaviy va umuminsoniy munosabatlar cheksiz murakkab hamda dramatik shaklga kirgan, hayot chuqur va keng yoyilgan chigal

elementlarning poyonsiz xilma-xilligiga aylangan davrda vujudga keladi”¹. Ko‘rinadiki, roman insoniyat ijtimoiylashganda, aniqrog‘i, ijtimoiy aloqalar teranlashib, ijodkor istaydimi, yo‘qmi ana shu munosabatlarni qalamga olishga majbur bo‘lgan kezlarda paydo bo‘ldi. Demak, yana aytish mumkinki, roman ijtimoiy odamni anglashda, zamonaviy shaxsning murakkab kechmishlarini badiiy talqin qilishda epos qahramonining imkonlari toraygan, har jihatdan yangi inson konsepsiyasiga ehtiyoj tug‘ilgan davrda yaratildi.

Tadqiqot davomida biz roman nazariyasini imkon qadar kengroq yoritish zaruratini his qildik. Zero romanni vujudga keltirgan tarixiy shart-sharoitdan tortib keyingi davrlarda uning evolyutsion taraqqiyotini ta‘minlagan omillargacha, yaxlit janr sifatida namoyon etuvchi unsurlaridan tortib g‘oyaviy-estetik mohiyatini belgilovchi alomatlarigacha inson konsepsiyasi muammosi bilan chambarchas bog‘liq. Boshqacha aytganda, markazida inson turuvchi romanning shakli ham, mazmuni ham uning bosh qahramoni – odamning tarixiy-ijtimoiy portretidan o‘rib chiqadi. Demak, roman nazariyasining tarixiy taraqqiyot yo‘lini tadrijiy yoritish orqali, bir vaqtda janr mohiyatini ochib berish hamda uning markazida inson konsepsiyasi muammosi turishini isbotlash mumkin.

*Ikki ming yillik tarixga ega*² bo‘lsa-da, roman hamon navqiron janr. Sababi u xuddi kaltakesak kabi eskirgan va shikastlangan “a‘zo”larini tashlab, regeneratsiya qila oladi hamda xuddi buqalamun kabi vaziyat va sharoitga oson moslashadi, muntazam ravishda tusini o‘zgartirib turadi. Ayni shu xususiyatlari uni tushunish va tushuntirish imkonlarini cheklaydi, o‘zi haqida mutlaq hukm o‘qilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Janrning mazkur o‘ziga xosligini ikki asr oldin nemis faylasufi F.Shlegel alohida e‘tiborga olib, romanning mohiyati “mangu shakllanishda bo‘lish va hech qachon tugallanmaslikda”³ ekanini qayd etadi. Shu

¹ Белинский В.Г. Полное собрание сочинений: В 13 т. Т. 5. – Москва: АН СССР, 1954. С. 39.

² Грифсов Б.А. Теория романа. – Москва: Совпадение, 2012. С. – 20.

³ Шлегел Ф. Эстетика. Философия. Критика: В 2-х т. Т. II. – Москва: Искусство, 1983. С.295.

kabi Baxtin ham “roman – shakllanayotgan va hali tayyor holga kelmagan yagona janr” deydi. Unga ko‘ra, romanning janriy asoslari hali ham mustahkamlanmagani sababli, uning barcha plastik imkonlarini oldindan aytish imkonsiz. Agar boshqa janrlarni o‘rganish “o‘lik tilni o‘rganish kabi” bo‘lsa, romanni o‘rganish “tirik va hali yosh tilni o‘rganish” kabi qiyindir¹. Mana, qariyb to‘rt asrki janrga xos muammolar G‘arb olimlari (D.Yue, F.Blankenbourg, F.Shelling, Jan Pol, F.Shlegel, Novalis, F.Gegel, V.Belinskiy, A.Veselovskiy, A.Potebnya, B.Grifsov, D.Lukach, M.Baxtin, V.Kojinov, N.Rimar, T.Pavel va h.k.) tomonidan faol o‘rganib kelinmoqda. Biroq haligacha, romanning janriy xususiyatlarini aniq belgilab, muayyan qolipga solib beruvchi “formula” ixtiro qilingan emas.

Roman nazariyasiga doir dastlabki tadqiqotlarda (XVII–XVIII asr) janrning o‘ziga xosligi faqat eposga qiyosan belgilangan. Ularga ko‘ra, “1) roman boshqa barcha adabiy janrlarga xos poetiklik ma’nosida “poetik” bo‘lmasligi kerak; 2) roman qahramoni so‘zning na epik, na tragik ma’nosidagi “qahramonona” bo‘lmasligi, u o‘zida ham ijobiy, ham salbiy, ham tuban, ham yuksak, ham kulgili, ham jiddiy xususiyatlarni jamlashi lozim; 3) qahramon tayyor va o‘zgarmas (odam) sifatida emas, balki shakllanayotgan, o‘zgarayotgan, hayotning o‘zi tarbiyalab borayotgan (shaxs) sifatida gavdalanishi kerak; 4) qadimgi dunyo uchun epopeya qanday bo‘lsa, roman ham zamonaviy dunyo uchun shunday bo‘lib qolishi lozim”².

Roman haqidagi mazkur hukmlar nazariy jihatdan biroz ibtidoiy bo‘lsa-da, mohiyatan eskirmagan. Ya’ni “eskirmagan” deganimiz ularda hali ham zamonaviy roman nazariyasiga mos keluvchi qator nuqtalar borligini anglatadi. Biroq bu ilmiy hukmlar XVIII dan keyin ham shaklan, ham mazmunan jiddiy o‘zgarishlarga yuz burgan roman tabiatini anglashga ojizlik qiladi. Shu sababli,

¹ Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет. – Москва: Худож. лит., 1975. – С. 447 – 448.

² Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет / М. М. Бахтин. – Москва: Худож. лит., 1975. – С. 455.

XX asarning yirik adabiyotshunosi M.Baxtin mazkur “eng plastik janr”ning muhim o‘ziga xosliklarini qayta belgilashga urinadi: “Bular: 1) romanning o‘z tarkibida amalga oshadigan ko‘ptilli tafakkur bilan bog‘liq uslubiy uch o‘lchovlilik; 2) roman badiiy obraziga xos zamon koordinatlarining tubdan o‘zgarishi; 3) badiiy obrazning romandagi yangi qurilish zonasi va uning hozirgi notugal zamon bilan maksimal bog‘liqligi”¹.

Baxtin o‘z salaflarining roman haqidagi qarashlarini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi. Ayni damda, u roman janrini tushunishda adabiyotshunoslikni muhim “instrument” bilan qurollantiradi. Bu fazoviy vaqt birligi edi. Baxtin roman mohiyatiga xronotop nazariyasi bilan nisbatan yaqinroq borish mumkinligini anglab yetadi (bu masala quyida batafsil yoritilgan). Shu bilan birga, u o‘z hukmlari mutlaq emasligini, roman shakllanishda hamon bardavom ekanini qayd etadi.

Keyingi davrlarda ham roman markaziy muammosini belgilashda o‘xshash ritorika davom etdi. Xususan, roman muammosi “shaxs hayoti bilan ijtimoiy hayot nisbiy mustaqil stixiyalar” (V.Bogdanov), “shaxsning intilishlari bilan umum qabul qilingan me’yorlar ziddiyati”, (A.Mixaylov), “u yoki bu tarzda o‘zi yashayotgan ijtimoiy muhitga qarshi turgan shaxsning ruhiy olami” (Ye.Meletinskiy) kabi shakllarda talqin etilgan². Umuman, mazkur nazariy silsilaga Gegel qarashlarining rivojlanishi sifatida qaragan D.Quronov “mutaxassislar roman asosiy e’tiborni o‘z holicha butun bir olam bo‘lmish odamga qaratadi degan mavqeda sobitlar”³ deb yozadi.

Ko‘rinadiki, roman nazariyasiga doir yirik tadqiqotlarda aytilgan fikrlar bir vaqtning o‘zida turfa xil va ayni vaqtda mushtarak. Nazariy qarashlardagi turfalikni janrning asrlar davomida muntazam shakllanib kelgani bilan izohlash mumkin bo‘lsa, mushtaraklikni bosh muammoning hech qachon o‘zgarmagani

¹ Jo‘raqulov U. Mixail Baxtin kashfiyotlari. // Jahon adabiyoti, 2014-yil, 11-son. – B. 149.

² Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – Toshkent: “Akademnashr”, 2013. – B. 181.

³ O‘sha joyda.

bilan asoslash mumkin bo'лади. Aytmoqchimizki, ming yillar davomida roman har qancha tuslanmasin, tarixning turfa ijtimoiy bosqichlarida shaklan va mazmunan yangi qiyofada tirilmasin, uning yagona, azaliy haqiqati – zamonaviy inson (shaxs)ni anglash muammosi hech qachon o'zgarmadi. Ya'ni avval boshda real ijtimoiy odam – alohida individni o'rganish va uning olamdagi maqomini anglashni maqsad qilgan romanning ibtidoiy maqsadi o'zgarishsiz qoldi. O'ylaymizki, roman tabiatining haqqoniy va to'la qonli bahosi ham janrga xos ayni shu maqsad – insonning badiiy konsepsiyasida mujassam etgan.

Roman taqdiri inson taqdirida yashaydi. Roman – shaxs qalbi va hayotiga tutilgan oyna. Zotan, insonga doir muammolar bir vaqtda romanga ham doir. Romanning tarixiy taraqqiyoti ijtimoiy munosabatlarning o'sib borishi va shaxsning shakllanishi bilan tutashadi hamda parallel rivojlanadi. Shu ma'noda, roman evolyutsiyasini davrlashtirish, shaxs evolyutsiyasini davrlashtirish bilan barobar.

B.Grifsov roman taraqqiyotining to'rt bosqichini sanaydi. Birinchisi, II – XII asrlar oralig'ida shakllangan yunon romani, ikkinchisi, XII – XV asrlardagi ritsarlik romanlari, uchinchisi, Ispaniyada XVI asrdan shakllangan parodik-ritsarlik (satirik) romanlar, to'rtinchisi, XVII asrda avvaliga Fransiyada yuzaga kelib, keyincha butun Yevropa bo'ylab tarqalgan yangi roman (burjua romani)¹. Albatta, roman tarixini davrlashtirish bo'yicha nazariyotchilar orasida yakfirkrlk yo'q. Biroq barcha olimlar davrlashtirish masalasida tarixiy-ijtimoiy sharoitning o'zgarishi va shunga monand inson konsepsiyasining taqdim etilishi qonuniyatiga asoslanadilar. Ya'ni romanning tarixiy bosqichlari ham avvalo inson talqini – insonning badiiy konsepsiyasidan o'sib chiqadi.

Masalan, yunon romanlari hali tom ma'noda epos va uning an'analari bag'ridagi roman edi. Biroq, shunday bo'lishiga qaramay, uning qahramonida birinchi marta individual shaxsga xos xususiyatlar ko'rina boshlaydi.

¹ Грифсов Б.А. Теория романа. – Москва: Совпадение, 2012. – С. 27.

G.Lukachga ko'ra, bu roman Yunonistonda "qadimiy ishlab chiqarish usulining inqirozi munosabati bilan tovarga egalik elementlari vujudga kelgan va shaxs ilk bor rasmiy mustaqillikka erishgan paytdan"¹ vujudga keladi. Ko'rinadiki, romanning tug'ilishi yangi ijtimoiy munosabatlar va "yangi inson"ning vujudga kelishi bilan izohlanmoqda. Ritsarlik romanlari yoki burjua romanlari ham shunga o'xshash omillar sabab vujudga keladi.

Shu sababli ham adabiyotshunoslikda romanni o'rganish insonni tarixiy-ijtimoiy kontekstda o'rganish bilan hamkorlikda kechadi. To'g'ri, xolislik nuqtai nazaridan ayrim olimlar (asosan formal maktab vakillari) romanni immanent tamoyil nuqtai nazaridan, inson va ijtimoiylikni inkor qilgan holda tadqiq etganini qayd etish joiz. O'z vaqtida pozitivizm falsafasi ta'sirida vujudga kelgan mazkur yondashuv roman janrni tarixiy, ijtimoiy, falsafiy, ruhiy unsurlardan mustaqil hodisa sifatida talqin qilgan. Bu yondashuv tarafdorlari romanni faqat ichki elementlarning o'zaro ta'sirlanishi natijasida muntazam shakllanib boruvchi yaxlit lisoniy struktura sifatida ko'radilar. Biz mazkur tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyat kasb etmagani, qolaversa, roman janri yuzasida hukmlari ilmiy hamjamiyatda mustahkam mavqe topmagani sababli immanent tamoyil haqidagi fikrlarimizni muxtasar qilamiz.

Tan olingan yetuk olimlar romanning evolyutsion taraqqiyotini tarixiy-ijtimoiy kontekstda o'rgangan. Mazkur yondashuv namoyandalari roman mohiyatini insoniyatning tarixiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyot yo'li bilan chambarchas aloqada tadqiq etadi. Yevropa ma'rifatchiligining ilk bosqichi namoyandalaridan biri I.Gerder "... umuman, insoniyat mavjudligi biz uchun shu qadar romanga aylandiki, endi tarixni deyarli falsafiy romandan boshqa narsa sifatida o'qishni xohlaymiz"², deb yozadi. B.Grifsov esa romanga "hayot kartinasi, deyarli tarixiy hujjatga teng zamonaviy voqelik tasviri"³ deya ta'rif

¹ Лукач Г. Проблемы теории романа (<http://www.gutov.ru/lifshitz/mesotes/roman-diss.htm>).

² Herder J.G. Briefe zur Beförderung der Hymanität. Achte Sammling // RT. – Pp. 236–237.

³ Грифсов Б.А. Теория романа. – Москва: Совпадение, 2012. – С. – 17.

beradi. Ya'ni roman o'tmishning turli bosqichlarida insonga xos muammolarni o'zida aks ettirgan va ayni shu *insonga xos muammolarning* qamrovi ortgan sari buni badiiy idrok etish maqsadida o'zning ifodaviy imkonlarini ham kengaytirib borgan janrdir.

Roman janri tabiatini yaxshiroq ochish uchun nazariyotchilar odatda uni epos bilan qiyoslaydilar. Zero mohiyatan bir-biriga juda yaqin, olamni katta epik ko'lamda badiiy aks ettirishni ko'zlaydigan bu ikki janr kishilik jamiyatini turli, aytish mumkinki, o'zaro ziddiyatli bosqichlari mahsulidir. Shu sababli ham, epos va romanning qiyosiy tahlili janr nazariyasida o'ziga xos, an'anaviy metodga aylangan. Hozirgi vaqtga qadar kim roman nazariyasi bo'yicha tadqiqot qilsa, albatta, ishni epos va romanni o'zaro qiyoslashdan boshlaydi. Biz ham tadqiqotimizda qo'yilgan muammoning yechimi uchun xuddi shu yo'ldan borishga jazm etamiz.

Epos – real, ijtimoiy dunyoning in'ikosi emas. Epos – ijtimoiy munosabatlar hali mustahkam qaror topmagan, alohida shaxs (indivud) qadri ahamiyat kasb etmagan davrlardagi xalqning ideal dunyo haqidagi tasavvurlari mahsuli. Shu sababli epos qahramonida individual shaxs elementlari mavjud emas. U – shaklan odam, mazmun-mohiyati bilan esa ideal.

Eposda inson konsepsiyasi mavjud, biroq unda shaxs konsepsiyasi mavjud emas. Romanni belgilovchi eng muhim omil esa shaxs (indivud) tasviridir. Roman, qachonki, qahramonda alohida shaxsga xos muammolar, nuqtai nazar va xarakter qirralari ko'rina boshlaganda yoki subyekt (muallif)ning o'zi tasvirlayotgan voqelikka nisbatan individual (shaxsiy) munosabati hamda kinoyaviy qarashlari bo'rtib ko'rina boshlagan kezlarda eposdan ajralib chiqdi. Shunday ekan, romanni epos bilan chog'ishtirish nafaqat janrga xos xususiyatlarini belgilash, balki, unda inson konsepsiyasining ahamiyatini aniqlashda ham juda muhim.

Garchi, roman nazariyasi yuzasidan nemis burjua olimlarining tadqiqotlari ko'proq qadrlansa-da, janr bo'yicha eng dastlabki nazariy asar – “Romanning

kelib chiqishi haqidagi risola” (1666) fransuz mutafakkiri Pyer-Daniel Yue qalamiga mansub. Yue nafaqat zamonaviy roman nazariyasining asoschisi, balki ilk bor janr tabiatini ochishda tarixiy-ijtimoiy yondashuv zaruratini his qilgan tadqiqotchi. Zero unga qadar nazariyotchilar romanni epos tarkibida, eposga xos nazariy mezonlar kontekstida o‘rganib kelgan bo‘lsa, Yue, aksincha, epos va romanni farqlashga harakat qiladi. Harvard universiteti professori Kristin Li bu haqda: “Yuening fikrlari XVII asr roman janri yuzasidan qarashlardagi muhim o‘zgarishni ko‘rsatadi. Agar, uning salafi Chinsio Jiraldi uchun roman hali ham Homer va Vergiliyning buyuk dostonlaridan mazmunan emas, balki faqat shaklan farq qiluvchi qahramonlik poeziyasi bo‘lsa, Yue bu ikki janrni ajratadi. Uningcha, epos ko‘proq mo‘jizaviy voqelikni qamrab oladi, roman esa haqiqatga yaqin turadi”¹.

Yuening zamondoshi va “yangi roman”ning ashaddiy tanqidchisi Nikola Bualo zamonaviy romanni “klassik dostonning buzilgan shakli”² deb biladi. U “Roman qahramonlari” asarida romannavislarni uslub jimjimadorligi, tarixni anglayolmaslik, qadimiyat va zamona belgilarini kulgili darajada qorishtirib yuborishda, bir so‘z bilan aytganda, didsizlikda ayblaydi”³. U, yana, romanni ulug‘ hukmdorlar va qahramonlarning shonli sarguzashtlarini emas, oddiy, maishiy turmushning ikir-chikirlari, “sevgi o‘yinlari” atrofida aylanib yuruvchi va yengiltak burjua hayotini tasvirllovchi janr sifatida yoqtirmaydi⁴. Ko‘rinadiki, Bualo romanga nisbatan o‘z salbiy qarashlarini aytarkan, o‘zi istamagan holda muhim nazariy muammolarni o‘rtaga tashlamoqda. Birinchidan, u romanning eposdan ayricha hodisa ekanini tan olmoqda, ikkinchidan, roman real hayotni va *real insonlarni* tasvirlashini aytmoqda. Shu o‘rinda, K.Li biz uchun juda muhim

¹ Lee Ch.S. 2014. “The Meanings of Romance: Rethinking Early Modern Fiction.” *Modern Philology* 112 (2) (November): 308.

² Nicolas Boileau Despre‘aux, *Les he‘ros de roman*, ed. Thomas Frederick Crane (Boston: Ginn, 1902), 208.

³ Quronov D. *Mutolaa va idrok mashqlari*. – Toshkent: “Akademnashr”, 2013. – B. 172.

⁴ Lee Ch.S. 2014. “The Meanings of Romance: Rethinking Early Modern Fiction.” *Modern Philology* 112 (2) (November): 319.

bir nuqtaga e'tibor qaratib, "Bualo "qahramon" so'zini alpqomat, ulug'vor (ideal) odamga nisbatan emas, (garchi, istehzo bilan bo'lsa-da) oddiy asarning bosh qahramonini tasvirlash uchun qo'llagan ilk nazariyotchi bo'lishi mumkin"¹ deb yozadi. Ya'ni Bualo istehzo aralash, epos va romanning qahramonlari mohiyatan boshqa-boshqa ekanidan kuyunadi.

Albatta, Yue va Bualoning qarashlari roman nazariyasining ibtidoiy shakli. Biroq, shunday bo'lishiga qaramay, ular janr nazariyasining o'zak muammolarini belgilab beradi. Xususan, Yue va Bualo uzoq va afsonaviy o'tmishni emas, hozirgi maishiy hayotni, *real odamni tasvirlashi* romanning farqlovchi xususiyati ekanini aytadilar. Qolaversa, ularning ikkisi ham romanni (nazariy jihatdan) tushuntirishda uni epos bilan qiyoslash tendensiyasini boshlab beradi.

Fransuzlardan bir asr keyin roman muammosiga nemis burjua mutafakkirlari ham jiddiy qiziq boshlaydi. Bu vaqtga kelib roman keskin ommalashgan, ma'rifatparvarlar o'z g'oyalarini keng yoyishda shu janrni eng maqbul deb ko'ra boshlagan edi.

F.Blankenburgning "Roman haqida tajriba" (1774) risolasi nemis adabiyotshunosligida roman janrini tizimli o'rganishga qaratilgan ilk asar hisoblanadi. Blankenburg Yue kabi romanni tushuntirishda uni epos bilan qiyoslaydi va bu ikki janr tarixiy-antropologik jihatdan turli xil "insoniylik"ni taqdim etadi degan xulosaga keladi². Unga ko'ra eposdagi odam "fuqaro" (grajdanin), romandagisi esa "oddiy odam". Epos taqdim etgan fuqaro "muayyan davlat a'zosi", romandagi odam esa buning aksi, "yalang'och odam". Olim bu bilan aytmochiki, epos qahramonida muayyan davlat va xalqning irodasi, orzu-istaklari (jamoaviy shaklda) namoyon bo'ladi, romandagi qahramon esa katta butunlikning inikosi emas, u o'z holicha alohida dunyo. Ya'ni Blankenburg ham

¹ O'sha joy.

² Махов А. Теория романа в Германии: конес ХVIII — XIX вв. // Литературоведческий журнал: Науч. журн. / РАН. Отд-ние ист.-филол. наук. Секция языка и лит.; ИНИОН. Москва, 2013. № 33. – С. 25-56.

alohida individ – shaxs tasvirining vujudga kelishi romanni eposdan farqlovchi muhim omil ekanini aytmoqda.

Yuedan farqli o‘laroq, Blankenburg masala mohiyatiga chuqurroq kiradi va roman tabiatini tarixiy-ijtimoiylik nuqtai nazaridan kengroq yoritadi. Agar Yue roman qahramonida sevgi qissasining real odamga monand qiyofasini ko‘rgan bo‘lsa, Blankenburg bunga qo‘shimcha, roman qahramonida o‘z davriga xos ijtimoiy xususiyatlarni singdirgan, shu bilan birga individual xarakter qirralari bilan namoyon bo‘lgan shaxsni ko‘radi. U romanda qahramon ham ichki, ham tashqi dunyosi bilan namoyon bo‘lishi, mahoratli adib o‘z qahramoni ruhiyatida kechgan evrilishlarni tashqi voqelik bilan aloqadorlikda tasvirlashi lozimligi haqida yozadi: “Sharmanda bo‘lishni istamagan poet, qahramonlarining ichki dunyosini bilmayman deya bahona qidirmaydi. Zotan u personajlarining yaratuvchisidir. Ular o‘zlarining barcha xususiyatlarini, butun borlig‘ini poetdan olganlar va u yaratgan olamda yashaydilar. <...> Biz poet o‘z asarida qahramonlarning butun ichki olamini, ularni harakatga keltiruvchi barcha omillar bilan birga ko‘rishimiz lozim. Aks holda uning oddiy hikoyachidan farqi bo‘lmaydi”¹. Blankenburg romanning muhim omili sifatida unda to‘laqonli shaxs qiyofasining gavdalanishiga e‘tibor qaratmoqda. Roman eposdan eng avvalo insonga bo‘lgan munosabati va tasviriga ko‘ra farqlanadi. Shu ma’noda aytishimiz mumkinki, Blankenburg romanning vujudga kelishi va romaniy muammo shaxs konsepsiyasi masalasi bilan chambarchas bog‘liq ekanini aytgan birinchi olimdir.

Yuqoridagi iqtibosda mutafakkir romanga xos yana bir muhim xususiyat – muallifning “yaratuvchi” ekanligini ham aytmoqda. Agar epos “muallifi” qaysidir ma’noda oddiy ijrochi bo‘lsa, romannavis badiiy voqelikni o‘z shaxsiy-individual qarashlari, axloqiy-estetik mezonlari asosida gavdalandirgan yaratuvchi.

¹ Blanckenburg F. von. Versuch über den Roman // Romantheorie. Texte vom Barock bis zur Gegenwart / Hrsg. von H. Steinecke, F. Wahrenburg. – Stuttgart, 1999. – Pp. 185.

Biz uchun ahamiyatli yana bir jihat shuki, olim o'z xulosalariga epos va romanning o'quvchilari turli davr, turlicha dunyoqarashda ekani bilan ham dalillar keltiradi. Ya'ni zamonaviy o'quvchi o'ta ideallashtirilgan, mo'jizakor qahramonlarga ko'p ham qiziqmaydi. "Agar, – *yozadi Blankenburg*, – dastlabki romannavislar butunlay fuqarolik (grajdanlik) davrida tug'ilgan va shakllangan bo'lsa edi, ular roman emas, balki poema yozardilar"¹. Ya'ni muayyan janrning g'oyaviy-estetik shakllanishi uning subyekti – muallifga emas, avvalo, ijtimoiy shart-sharoitga, estetik ehtiyojga bog'liq. Roman janri vujudga kelgan davrlarda muallif emas, avvalo, jamiyat yangi inson konsepsiyasiga ehtiyoj sezdi. Insonni boshqa nuqtai nazardan bilish, uning olamdagi o'rni va vazifasini qayta baholash zarurati tug'ildi.

F.Blankenburgdan so'ng I.Gerder, F.Shelling, Jan Pol, F.Shlegel, Novalis kabi nemis ma'rifatparvarlari ham roman yuzasidan tadqiqotlar qilib, janrni tushuntirishda uni epos bilan qiyosiy tahlil qilish yo'lidan bordilar. Bu jarayon Gegelga kelib har jihatdan teranlashadi.

Gegel ham epos va romandagi tafovutlarni ijtimoiy shart-sharoit nuqtai nazaridan qidiradi: "Biz olamning hozirgi holatini rivoj topgan huquqiy, axloqiy va siyosiy shart-sharoitlar bilan birgalikda qarab chiqar ekanmiz, ideal obrazlar (*eposdagi kabi* – S.Q.) yaratish imkoniyatlari bugungi voqeligimizda o'ta chegaralangan, degan ishonchli xulosaga kelamiz"². Ya'ni Gegel roman tabiatini ijtimoiylikdan kelib chiqib baholaydi va uni "burjua epopeyasi" sifatida talqin qiladi. Ayni vaqtda, faylasuf bu ikki janr ko'p jihatdan mushtarak ekanini ham qayd etib, romanda ham xuddi eposdagi kabi ko'p qirrali turmush va munosabatlar, "olamning keng, yaxlit, shuningdek, voqealarning epik tasviri" aks etishini, biroq unda "olamning dastlabki poetik holati" mavjud emasligini aytadi.

Xo'sh, "dastlabki poetik holat" nima? Bu poeziya va nasr hali bir butun hodisa bo'lgan, turmush shu ikki tur (poeziya va nasr)ning ziddiyatiga

¹ O'sha manba. – Pp. 181.

² Gegel F. Estetika // Sharq yulduzi, 2014 y. 4-son. – B. 77.

aylanmagan (Belinskiy), san'atning sinkretik (Veselovskiy) holati. Ya'ni Hegelga ko'ra, o'tmish va o'tmish san'ati bir so'z bilan "poeziya" bo'lsa, zamonaviy munosabatlar qaror topgan, yangi sivilizatsiya esa "proza". Shu ma'noda roman "mavjudlikning nasriy barqarorligi"ni akslantiradi¹. "Gegelning roman yuzasidan qarashlari negizida "proza" tushunchasining keng ko'lamda qayta talqin etilishi turadi. Hegel uchun "proza" endi romanning shakliy (tez-tez eslanadigan) xususiyati emas, balki romanda tasvirlangan zamonaviy dunyoning asosiy omilidir"².

Gegel obyektiv olam (turmush, jamiyat) tasvirini "proza" deb bilarkan, alohida individ olamini poeziya sifatida ko'radi. Shu sababli, u roman tabiatida "poetik qalb va uning ziddi bo'lgan maishiy (ijtimoiy) munosabatlar prozasining"³ to'qnashuviga muhim omil sifatida qaraydi. Ya'ni, faylasufga ko'ra, roman murakkab munosabatlarga asoslangan kishilik jamiyati va alohida individ manfaatlarining o'zaro ziddiyatli munosabatining badiiy talqinidir. Shu ma'noda u Blankenburgning epos qahramoni "fuqaro", roman qahramoni esa "oddiy odam" qabilidagi xulosalariga "tuzatish" kiritadi. Ya'ni Hegel o'z salafi kabi romanda faqat individual shaxsning gavdalanishini emas, balki shu shaxsning ijtimoiy hayot bilan ziddiyatli munosabati tasvirini ham ko'rdi.

Gegel romandagi inson konsepsiyasi masalasiga yangi ma'no yuklaydi va roman insonni faqat ijtimoiy kontekstda – "prozaik munosabatlar" fonida tasvirlaydi degan xulosaga keladi.

Aslida, Hegel o'zining estetikaga doir ma'ruzalarida roman masalasiga batafsil to'xtalmagan. Uning roman haqidagi xulosalari naqadar qimmatli va salmoqli bo'lmasin, atroflicha (hijjalab) ochib berilmagan. Keyinchalik, Hegel izidan borgan adabiyotshunoslarning roman nazariyasiga doir tadqiqotlarida mutafakkirning qarashlari rivojlantirilgani ko'ramiz. Xususan, rus

¹ Гегел Ф. Эстетика: В 4 т. Т. 3. Москва: Искусство, 1971. С. 474-475.

² Махов А. Теория романа в Германии: конес XVIII – XIX вв. // Литературоведческий журнал: Науч. журн. / РАН. Отд-ние ист.-филол. наук. Секция языка и лит.; ИНИОН. Москва, 2013. № 33. – С. 38.

³ Гегел Ф. Эстетика: В 4 т. Т. 3. Москва: Искусство, 1971. – С. 474-475.

adabiyotshunosligida ham roman nazariyasiga doir mahobatli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda ham epos va roman qiyosiga janr tabiatini ochishdagi muhim metod sifatida qaralgan.

V.Belinskiy roman tabiatini tushuntirishda Gegel izidan borib, epos va roman mohiyatida “poeziya” hamda “proza”ning ziddiyatini ko‘radi: “Epos xalqning hali go‘daklik davrida, uning hayoti *poeziya* va *proza* sifatida ikki qarama-qarshi qutbga ajralmagan, tarixi hamon afsonadan iborat bo‘lgan, olam haqidagi bilimlari faqat diniy tasavvur doirasida qolgan, uning kuchi, qudrati va faoliyati faqat qahramonliklarda namoyon bo‘lgan kezlarda paydo bo‘lishi mumkin”¹. Olim o‘z qarashlarini “Iliada” misolida tushuntirishga urinarkan, eposda hayot poeziyasi va prozasi shu qadar birlashib ketganidan, unda oddiy hunarmandchilik san‘at deya e‘tirof etilishiga, xudolarning odamlar hayotiga (voqelikka) bevosita aralashishiga, dinning iqtisod, siyosat, umuman, odamlarning o‘zaro munosabatlaridan tashqarida emasligiga, barchasi din va xudolar ishtirokida, qorishiq holda amalga oshirilishiga e‘tibor qaratadi.

Belinskiy epos olamning bir butunligini, o‘zaro qarama-qarshi munosabatlar shakllanmagan mavjudlikni ifodalashini aytib, eposning mohiyatida “o‘z hayotining individual manbasidan hali ajralmagan xalqning holati va hayoti”² aks ettirilishini ko‘radi.

Romanda esa aksincha, unda “qahramonlik hayotining afsonaviy o‘lchovlari”, “qahramonlarning ulkan, beqiyos qomatlari” yo‘q. Unda xudolar ham bevosita voqealar ichida harakat qilmaydi, lekin bunda “oddiy maishiy prozaik hayot hodisalari ideallashtiriladi”.

Albatta, mohiyatan epos va roman ko‘p jihatdan juda o‘xshash, ikki janrning voqelikka munosabatdagi muhim farqi “voqealarning o‘ziga xos xarakteri” hamda shu voqealarning “rivojlanishi va tasvir tabiatida” ko‘rinadi. Shu bilan birga “roman hayotni o‘zining haqiqiy holatida”, ya‘ni “ayni vaqtdagi

¹ Белинский В.Г. Полное собрание сочинений: В 13 т. Т. 5. – Москва: АН СССР, 1954. – С. 33.

² Shu manba. – B. 37.

holatida” ko‘rsatishi mumkin¹. Belinskiy romandagi inson muammosini xuddi Hegel kabi baholaydi va roman hayoti “insonda namoyon bo‘ladi”, janr uchun insonning nafaqat ichki va tashqi olami, balki uning xalq hayoti bilan aloqalari tasviri ham bosh mavzudir² deb yozadi.

Epos va romanning qiyosiy tahlilida biz ko‘rib chiqqan barcha olimlarda (Yuedan tortib Belinskiygacha, alohida to‘xtalmaganimiz A.Veselovskiy, D.Lukach, A.Potebnya, B.Grifsovgacha) muammo yuzasidan deyarli bir xil hukm-xulosaning turli shaklda aytilishini yoki nisbatan to‘ldirilishini ko‘ramiz. Biroq M.Baxtinga kelib mazkur “an’ana”ga barham beriladi, olim ikki janr tabiati va ularga xos inson konsepsiyasini zamon-makon butunligi – xronotop asosida farqlab beradi.

Epos va roman o‘rtasidagi zamon-makon tafovuti masalasini yoritishga o‘tishdan oldin, Baxtinning xronotop (zamon va makon butunligini anglatadi) nazariyasi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Baxtinning xronotop nazariyasi nafaqat falsafiy-estetik, balki sof fizik ilmlar bulog‘idan ham suv ichadi. Qanchalik ajablanarli tuyilmasin, Baxtinning xronotopi Albert Eynshteynning nisbiylik nazariyasi bilan “sinonim” hodisa. Agar nisbiylik nazariyasi zamon va makon butunligi asosida olamni tadqiq qilsa, Baxtin xronotopi ayni shu mezonlar asosida adabiyotni o‘rganadi.

Eynshteynga qadar vaqt omili obyektiv olamni tadqiq qilishda muhim hisoblanmagan: “Klassik fizikada vaqtning fazo bilan materiyaga hech qanday daxli yo‘q”³ deb tushunilgan. Biroq Eynshteynning 1905-yilda e‘lon qilgan maxsus nisbiylik nazariyasi ilm-fan olamida yirik inqilob yasadi. Shundan so‘ng fanda vaqtning makondan ajralmas hodisa ekanligi yuzasidan ilmiy konsensus vujudga keldi. Ya’ni zamon va makon asli yaxlit, bir butun voqelik, zamonsiz makon yohud makonsiz zamon bo‘lmaydi. Shunday ekan, olam klassik fiziklar

¹ Shu manba. – B.37.

² Shu manba. – B.41.

³ Nisbiylik nazariyasi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nisbiylik_nazariyasi

tushuntirganidek uch o'lchamli fazo – shimol-janub, sharq-g'arb hamda tepa-pastdangina iborat emas, olamning asli to'rt o'lchamlidir. Ya'ni klassik uch o'lchamli fazoga to'rtinchi – vaqt birligi qo'shilsagina bizning mavjudligimiz moddiylashadi.

Endi Baxtinning xronotopiga kelsak, u mohiyatan nisbiylik nazariyasi mezonlarini adabiyotshunoslikka joriy etadigan metod. Soddarok shaklda aytsak, bu metod san'atkorning o'zi yaratayotgan badiiy voqelikda zamon va makon uyg'unligini qay daraja ta'minlaganini o'rganadi. Deylik, agar san'atkor o'z asarida vaqt o'lchamini hisobga olmasa, qahramonlari bir zamondan ikkinchisiga (istalgan vaqtda) “sakrab” yursa, qarimasa yo vaqtning o'tishi ularning xarakteriga ta'sir qilmasa, bilingki, siz cho'pchak (ertak, doston va h.k.) o'qiyapsiz. Lekin, agar muallif asarda zamon va makon uyg'unligini ta'minlashga harakat qilgan bo'lsa, badiiy zamonning real vaqt qonuniyatiga monand harakatlanayotgani sezilib tursa, demak siz realistik asar o'qiyapsiz. Albatta, bu xronotopni eng jo'n, aytish mumkinki, chapani uslubda tushuntirish bo'ldi. Aslida, u ko'ringandan ancha murakkab hodisa. Biroq dastlabki bilim o'larok, ana shu “jo'n tasavvur” biz uchun hozircha muhim. Quyida esa xronotop mohiyati va undagi inson muammosini kengroq yoritishga urinamiz.

Klassik san'atshunos va adabiyotshunoslar badiiy asar tabiati, tur va janrlarning kelib chiqishi hamda taraqqiyotini o'rganishda badiiy vaqtni muhim omil sifatida ko'rmaganlar. Baxtin esa aksincha, zamon va makon butunligi asosida adabiyotga xos deyarli barcha qonuniyatlarni o'rganish mumkin deb hisoblaydi: “Badiiy xronotop, – *yozadi Baxtin*, – qat'iy janriy mohiyatga ega. Aytish mumkinki, janr va janrga xos xususiyatlar aynan xronotop vositasida yuzaga chiqadi. Shuningdek, badiiy xronotopning yetakchi xususiyati zamonda ko'rinadi. Xronotop shakliy-mazmuniiy kategoriya sifatida adabiyotda inson

obrazi mohiyatini ham belgilaydi. Chunki badiiy obraz doimo xronotop negizida ma'no kasb etadi"¹.

Yuqoridagi iqtibos bizga xronotopning uch muhim xususiyati haqida ma'lumot beradi:

- 1) janr va janrga xos xususiyatlar aynan xronotop vositasida yuzaga chiqadi;
- 2) badiiy xronotopda vaqt omili makonga nisbatan muhimroq;
- 3) xronotop inson obrazi mohiyatini belgilaydi.

Ko'rinadiki, xronotop badiiy asarning barcha qirralariga daxldor. Jumladan, tadqiqotimizning markaziy muammosi bo'lgan inson konsepsiyasi ham xronotop hosilasi ekan.

Baxtin ijodini maxsus o'rgangan, uning asarlarini tarjima qilgan professor U.Jo'raqulov "Adabiyotshunoslikning badiiy adabiyot va unda harakatlanuvchi inson fenomeniga tomon maksimal darajada yaqinlashuvi M.Baxtin xronotop nazariyasi bois amalga oshdi desak sira mubolag'a qilmagan bo'lamiz"² deb yozadi. Chindan ham Baxtin sharofati bilan adabiyotshunoslik badiiy asar tabiatini baholovchi muhim instrument bilan qurollandi. Ayniqsa, vaqtning inson siymosida zuhur bo'lish darajasiga qarab, uning butun "badiiy umrini" ko'rib chiqish, odam obrazi "yashagan" janrlarni birma-bir tasniflash mumkin. Xususan, epos va roman o'rtasida tafovut ham ularda aks etgan vaqt kengliklaridagi inson tasviriga bog'liq.

Baxtin folklor (jumladan epos)ga xos zamonga ta'rif berarkan, "Mazkur zamon jamoaviydir. U faqat jamoaviy hayot sathida differensiyalashadi va o'lchanadi. Ayni zamonda nimaiki mavjud bo'lsa, faqat jamoaga xosdir. Bunda hali hayotning individual yo'nalishi ajralib chiqmagan (individual hayotning subyektiv zamoni ham mavjud emas, individuum faqat zohirda, jamoa bilan bir

¹ Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 24.

² Jo'raqulov U. Mixail Baxtin kashfiyotlari // Jahon adabiyoti, 2014. 11-son. B.142.

butun yashardi), mehnat ham, ehtiyoj ham jamoaviy edi”¹ deb yozadi. Ya’ni jamoaviy hayotda barcha narsa kabi hatto vaqt ham hammaniki. Biror jamoa a’zosining individual vaqti (zamoniy ehtiyoji) yo’q. Tong otishi (vaqti) barcha uchun bir paytda ish kunining boshlanganini, bir maqsad, bir orzu-armon bilan jamoaviy harakat qilish lozimligini bildirgan. Shunday ekan, u makonda vaqtning “hozirgi, kelasi, o’tgan zamondaligi (qat’iy individuallikni hisobot nuqtasi sifatida talab etuvchi) aniq differentsiatsiyasi yo’q”². E’tibor qiling, hozir ko’rib chiqqan iqtiboslarimizda real hayotga doir zamon munosabatlari haqida so’z boryapti. Real hayotdagi vaqtning muhim ahamiyati yo’q ekan, uning badiiy inikosi bo’lgan eposda ham vaqt hech qanday badiiy ahamiyat kasb etmaydi.

Eposning kompozitsion butunligida ham vaqt omili mavjud emas. Demak, eposga xos inson konsepsiyasida vaqt ahamiyatli sanalmaydi. Ya’ni epos qahramoni – to’kis qahramon. U bunday to’kislikka vaqt sinovlaridan o’tib yetishmagan, uning ma’naviy, jismoniy kamoloti vaqt xronologiyasi bilan bog’lanmagan. Shunday ekan, epos qahramonida real odamga monand biror belgi-alomat mavjud emas. U go’yo boshqa vaqt o’lchamidagi – boshqa olamga daxldor inson. O’quvchi (yoki tinglovchi) unda o’zining ayni vaqtdagi hislarini ko’ra olmaydi, balki ayni vaqtdan tashqari bo’lgan ideallari, orzu-armonlarini ko’radi. Shu o’rinda qaytaramiz, eposda inson konsepsiyasi mavjud, lekin shaxs konsepsiyasi mavjud emas. Zotan shaxs uch o’lchamli *badiiy fazoga* sig’maydi, uni faqat vaqt bilan hisoblashuvchi to’rt o’lchamli *badiiy fazo* – *romandagina* gavdalantirish mumkin, xolos.

Shu o’rinda real ijtimoiy shaxsning vujudga kelishi va uning adabiyotda akslanishi tarixiy davriylik nuqtayi nazaridan boshqa-boshqa narsa ekanini eslatib o’tish zaruratini sezamiz. Shaxs juda ham qadimiy tushuncha. Uning kurtaklari odamlar jamoaviy tarzda yashayotgan, shu jamoaning har bir a’zosi o’zining ibtidoiy huquq va majburiyatlari bilan axloqlangan zamonda

¹ Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 196.

² O’sha manba. – B. 197.

shakllangan. Demak, shaxs adabiyotning o'zidan ancha qadimiyoq. Biroq shaxsning badiiy ifodasi milodning I – II asrlariga qadar ro'y bermadi. Buni, aslo, shu davrda shaxslararo ijtimoiy munosabatlar yo'qligi bilan izohlab bo'lmaydi. Sababi, murakkab va chigal bo'lmasa-da, odamlar ijtimoiy munosabatlar bag'rida yashaganlar. Muammo shundaki, ular hali o'z hayotlarida vaqt omilini chuqur his etmaganlar. Baxtin aytganidek, bu “zamon jamoaviy” bo'lgan.

Baxtin “Epos va roman (Romanni talqin etish metodologiyasi haqida)” nomli boshqa bir tadqiqotida romanni eposdan farqlovchi eng muhim belgilardan biri sifatida “badiiy obrazga xos vaqt koordinatalarining tubdan o'zgarishi”¹ni ko'rsatadi.

Romandan farqli o'laroq, eposning tasvir obyekti “mutlaq o'tmish” va shunga monand qahramon bo'lgan. Eposning “ijrochi”si ham, “tinglovchi” ham bir vaqtda, bir ijtimoiy shart-sharoitda yashagan bo'lishiga qaramay, unda tasvirlanayotgan qahramonlar hayoti mutlaq olis, vaqt nuqtayi nazaridan daxl etish mumkin bo'lmagan qadriyatlar bag'rida kechadi. Eposning qahramoni va uning zamonaviy tinglovchi-o'quvchisini cheksiz “epik masofa” ajratib turadi².

Romandagi vaqt koordinatasi esa mutlaq o'tmish emas, balki ayni zamon: “Biroq obrazlarning vaqt koordinatsiyasi va ularni yaratish makonining o'zgarishi boshqa hech bir narsada adabiyotda inson obrazining qayta qurilishidagi kabi chuqur va sezilarli darajada namoyon bo'lmaydi”³. Ya'ni san'atkorning o'z mavjudligida vaqtni his qilishi va buni badiiy aks ettirishga urinishi, eng avvalo, insonning badiiy obrazi tasvirida tublik o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Shu davrga kelib, tom ma'noda yangi inson konsepsiyasi tug'ildi.

Ayni shu nuqtadan biz Baxtin nazariyasi mohiyatini anglay boshlaymiz. Demak, shaxsni badiiy ifodalash uchun VAQT zarur. Zotan, shaxs ayni zamon

¹ Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет / М. М. Бахтин. – Москва: Худож. лит., 1975. – С. 455.

² O'sha manba. S. 455.

³ Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет / М. М. Бахтин. – Москва: Худож. лит., 1975. – С. 476.

mahsuli. O'quvchi asar qahramoni – shaxsga qo'l cho'zib yetishi, uning dardu tashvishlarini o'zida his qilishi, tanqid qilishi yo ustidan kulishi uchun ham u bilan bir vaqt koordinatasida yashamog'i zarur. Roman san'atkor ana shu haqiqatni tushunib yetgan zamonda, o'z asariga VAQTni olib kirgan kezlarda vujudga keldi.

Shunday ekan, endi ijodkor tarixiy asar bitadimi, fantastik, modernistik yo postmodernistik roman yozadimi farqi yo'q, istasa ham, istamasa ham, shaxsni real vaqt koordinatalarida tasvirlashga mahkum. Ya'ni u tasvirleyotgan voqealar noreal bo'lsa ham, uning qahramoni (individual shaxs sifatida) faqat real bo'la oladi, xolos. Zero subyekt – muallifning o'zi real zamonda, vaqt omili anglangan jamiyatda yashaydi. Endi u butun san'ati yo umrini sarflab ham epos qahramonini yarata olmaydi. Shunday ekan, bizningcha, realizm metodining ziddi bo'lgan har qanday yangi “izm”lar mohiyatan realistikdir. Zotan, Baxtin ta'biri bilan aytganda, romanning tug'ilishi bilan qahramon va o'quvchi o'rtasidagi mutlaq “epik masofa” ham yo'q bo'ladi.

Diqqat bilan kuzatsak, Baxtin o'zining xronotop nazariyasini insonning badiiy obrazi vositasida baholayotganiga guvoh bo'lamiz. U aytadi: “Epik masofaning inqirozi va inson obrazining olis plandan hozirgi (shu bilan birga, kelajakdagi) tugallanmagan zamon bilan aloqa maydoniga o'tishi romandagi (keyinchalik umuman adabiyotdagi) inson obrazining tubdan qayta qurilishiga sabab bo'ldi”¹.

Baxtin romanga xos vaqt koordinatasi sifatida “tugallanmagan zamon”ni belgilaydi. Agar eposdagi “mutlaq o'tmish” – mutlaq tugal zamon voqealariga “bugunning” o'quvchisi hech qanday daxldorlikni his qilmasa, badiiy voqelikning tugallanmagan zamondagi ifodasi o'quvchi va qahramonni yaqinlashtiradi. Aniqrog'i, san'atkor bu yaqinlikka o'zining inson konsepsiyasini

¹ Бактин М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет / М. М. Бахтин. – Москва: Худож. лит., 1975. С. 478.

tubdan yangilash, real vaqt o'lchamidagi yangi insonni taqdim etish bilan erishadi.

Baxtin bu jarayonda antik davrga xos “xalq kulgu madaniyati” muhim rol o‘ynaganini aytib, roman bevosita muayyan shaxs yoki hayotiy voqeani hajviya qiluvchi kulgu janrlaridan o‘tib chiqqanini aytadi. Ya’ni “xalq kulgu madaniyati” o‘quvchi (tinglovchi) va epos o‘rtasidagi mutlaq epik masofani parchalaydi. Tomoshabin (o‘quvchi)ga bevosita uning o‘zi ko‘rgan, tanigan, his qilgan voqeahodisalar haqida so‘zlaydi, ustidan mazax qiladi, kinoyaga oladi. Odam borboricha, butun muvaffaqiyatayu ojizliklari bilan talqin qilinadi. Shu tariqa, o‘quvchi (tinglovchi) ko‘z oldida odamning yangi badiiy talqini namoyon bo‘ladi, muhimi, u shunday talqinga ko‘nika boshlaydi. “Inson obraziga muhim dinamika kirib keldi. Bu dinamika obrazning turli holatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik bo‘lib, odam o‘z-o‘ziga muvofiq kelishni to‘xtatadi”¹.

Biz uchun e'tiborli jihat shuki, Baxtin roman qahramonida o'z-o'ziga muvofiq kelmaydigan odamni ko'rishidir. Zotan bu janr nazariyasi va insonning badiiy konsepsiyasida muhim qadam edi. Agar Gegel romanning markazida jamiyat bilan ziddiyatda turgan qahramon – shaxsni ko'rgan bo'lsa, Baxtin bunga qo'shimcha, nafaqat jamiyat bilan, balki o'z-o'zi, ruhiyati va taqdiri bilan ziddiyatda turgan insonni ko'radi.

Uningcha, romanning markaziy muammolaridan biri “qahramonning o‘z taqdiri va mavqeyiga mos kelmasligi”dir. Shu ma’noda roman qahramoni har doim “yo o‘z taqdiridan balandroq, yo insoniyligidan pastroq”. Ya’ni hech qachon to‘kis emas.

Agar muallif o'z qahramonini to'kis tasvirlashga urinsa va bunga erishsa, u holda zaruriy noto'kislik muallifning o'ziga, uning nuqtayi nazariga ko'chib o'tadi. Romanga xos inson konsepsiyasining to'kis bo'la olmasligiga yagona sabab esa uning tugallanmagan zamon koordinatasida vujudga kelishidir. Negaki,

¹ O'sha manba. – S. 478.

tugallanmagan zamon hali davomli, uning yakuni yo‘q. Shunday ekan, qahramon ham to‘laonli bo‘la olmaydi, unda hali ham yakunlanmagan, namoyon etilmagan nimalardir mavjud.


“Romanda insonning epik yaxlitligi, – *yozadi Baxtin*, – turli yo‘nalishlarda parchalanadi: odamning tashqi va botiniy olami o‘rtasida sezilarli tafovut paydo bo‘ladi, natijada uning subyektivligi (dastlab hazil, familiar tanishuv tarzida) tajriba va tasvir predmetiga aylanadi, (odam) xususiyatlarining o‘ziga xos xilma-xilligi paydo bo‘ladi: o‘z-o‘zi uchun odam va boshqalar nazdidagi odam”¹.

Tugallanmagan zamon xronotopi romanning butun mazmun-mohiyatini, jumladan, undagi inson konsepsiyasini belgilab berdi. Mazkur inson konsepsiyasida qahramon – shaxs bir vaqt koordinatasida turib o‘z-o‘zi bilan, jamiyat, muallif, o‘quvchi va umuman o‘z fazosida bo‘lgan barcha madaniy unsurlar bilan ziddiyatga, bahsga kirishishi mumkin. Bu M.Baxtin o‘zining boshqa tadqiqotlarida keng yoritgan polifonizm² hodisasidir.

Roman nazariyasiga doir tadqiqotlarni tadrijiy o‘rganib shunday xulosa chiqarish mumkinki, roman nazariyasi doirasida ham inson badiiy konsepsiyasining tadrijiy taraqqiyoti kuzatiladi. Buni quyidagi shaklda ifodalash mumkin:

¹ Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет // М. М. Бахтин. – Москва: Худож. лит., 1975. С. 478.

² Қаранг. Бахтин М.М. Проблемы творчества Достоевского. – Москва: Алконост, 1994.



Baxtinning inson konsepsiyasi yuzasidan qarashlari, hozircha, mazkur mavzu doirasidagi eng so‘ngi va muhim nazariy hukm bo‘lishi mumkin. Albatta, biz roman nazariyasiga doir ishlarni to‘la ko‘rib chiqqanlik da’vosidan yiroqmiz. Biroq bunday xulosaga kelishimizning ratsional asoslari ham yo‘q emas.

Baxtinning roman nazariyasi insoniyat ilm-fan olamida yangi eraga qadam qo‘ygan pallada, ana shu ilmiy haqiqatlarni o‘ziga singdirgan holda o‘rtaga tashlandi. Tabiiy ravishda, ilm-fan haqiqatlari insoniyatning tafakkuriga, olam haqidagi tasavvurlariga ko‘chib o‘tdi. Ya’ni biz to‘rt o‘lchamli fazoda yashayotganini anglab yetgan odamlarmiz.

Garchi, nisbiylik nazariyasidan keyin kvant fizikasi, hozirga kelib esa torlar nazariyasi olam haqida yangi xulosalarni berayotgan bo‘lsa-da, ularning haqiqati hali tom ma’noda ijtimoiy hayotimizga ko‘chib o‘tganicha yo‘q. Boshqacha aytganda, biz torlar nazariyasi aytayotgan o‘n bir o‘lchamli fazoda yashayotganimizni hali ijtimoiy ko‘lamda his qila olmadik. To‘g‘ri, an’anaviy romanlarga qiyoslaganda olamning tasavvurga sig‘mas kengligu puchmoqlarini tasvirlayotgan asarlar vujudga kelmoqda. Lekin ularning hech biri, hozircha, Baxtin xronotopidan tashqaridagi badiiy hodisa emas.

So'ngi o'n-o'n besh yilda dunyo va ijtimoiy munosabatlarning tobora virtuallashib borayotganini kuzatyapmiz. Bora-bora yangi avlodlar uchun ijtimoiy-virtual tarmoqlar real olamdan ko'ra realroq tusga kirishi, insonning tafakkur tarzi jonli hayotda emas, virtual reallikda shakllanishi mumkin. Balki yaqin kelajakda, ana shu sharoitda inson boshqa bir fazoviy o'lchamlarda yashayotganini tani bilan his qila boshlar. Balki ana shunday jamiyatda yashagan va ijtimoiy munosabatga kirishgan shaxs uchun tom ma'noda yangi inson konsepsiyasiga ehtiyoj tug'ilar. Bunisi bizga qorong'i: farazlar esa ilmiylikdan yiroq bo'lsa ham, haqiqatdan u qadar olisda emas.

Biz yuqorida inson konsepsiyasi muammosini romaniy tafakkurning negizi sifatida ko'rib chiqdik. Ko'rinadiki, romanning janr sifatidagi maqsadlari ham, shakli va mazmuni ham inson konsepsiyasidan o'sib chiqadi.

Biz mazkur faslda romanni asosan inson va olamni o'rganuvchi janr sifatida talqin qildik, lekin uning yana bir muhim vazifasi inson uchun muallim bo'lish ekani haqidagi fikrlarni xulosa uchun asrab qo'ydik.

O'z vaqtida Gegel romanning bosh muammolaridan biri sifatida "mavjud voqelik asosida shaxsni tarbiyalash"ni ko'radi¹. Gegel nazarda tutgan "tarbiya"ni kengroq talqin qilish va mutafakkir fikrlaridan ilhomlanib aytish mumkinki, roman nafaqat insonni badiiy ifodalashi yoki anglashi, balki uning muammolariga real yechim taklif etishi mumkin bo'lgan janr.

Inson o'z oldida turgan muammolarga yechim topish maqsadida olamning romaniy-badiiy modelini yaratishi, shu badiiy olamda ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, qo'yilgan muammoga reallikka monand harakatlar, taqdirlar va kechmishlar asosida javob izlashi, olam va odamning yaxlitligi yuzasidan hukm hamda xulosalar chiqarishi mumkin.

Aslida, bu inson real dunyoda bosib o'tishi mumkin bo'lgan hayot sabog'idan kam bo'lmagan tajriba. Shunday ekan, romanga insoniyat tarixidagi

¹ Махов А. Теория романа в Германии: конес ХВІІІІ — ХІХ вв. // Литературоведческий журнал: Науч. журн. / РАН. Отд-ние ист.-филол. наук. Секция языка и лит.; ИНИОН. – Москва, 2013. № 33. – С. 39.

sivilizatsiyalarning almashinuvini tezlashtirgan, madaniyatlar to'qnashuvini jadallashtirib, yangi kayfiyat, yangi g'oya va yangicha falsafiy oqimlarga asos solgan, alaloqibat real ijtimoiy dunyoda tublik o'zgarishlarni boshlab bergan janr sifatida ham qarash mumkin.

Boshqacha aytganda, roman insoniyat – jamiyatning ijtimoiy ongiga qadalgan urug' – fikriy-genetik urug'. U avvaliga ijtimoiy munosabatlar ta'sirida subyektiv ibtido o'laroq tug'iladi. So'ng subyekt (muallif) unga ishlov beradi va yana qayta jamiyatga taqdim qiladi, jamiyat ongiga ekadi. Yillar, asrlar o'tib u oldiniga novda, keyin daraxt misol bo'y cho'zadi, atrofga keng tomir yoyadi. Roman insonga nisbatan ana shunday aksta'sir etadi, insoniyat subyektini ana shunday reallashtiradi.

Bobda o'rganilgan muammolar yuzasidan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

Birinchidan, Adabiyotning markazida inson muammosi turadi. Ijodkor mazkur muammoni olamning badiiy modelini yaratgan holda o'rganadi. Insonning borliqdagi maqomi, maqsad va vazifalari yuzasidan xulosa – inson inson konsepsiyasini ilgari suradi.

Ikkinchidan, inson konsepsiyasi badiiy asarni baholashda eng muhim omillardar biri. U bizga muayyan asarni yoki adabiy davrni ijodkorning badiiy-g'oyaviy qarashlari bilan bevosita aloqadorlikda o'rganish imkonini beruvchi tizimdir.

Uchinchidan, badiiy tafakkur inson tafakkuri bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Ya'ni insonning tarix sahnasidagi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyoti to'g'ridan-to'g'ri badiiy adabiyotga ko'chib o'tadi. Shunday ekan, inson konsepsiyasini o'rganish bilan adabiyotni davrlashtirish ham mumkin.

To'rtinchidan, roman insoniyat ijtimoiylashganda, ijtimoiy aloqalar teranlashganda paydo bo'ldi. Roman ijtimoiy odamni anglashda, zamonaviy

shaxsning murakkab kechmishlarini tasvirlashda eposning imkonlari toraygan, inson konsepsiyasiga ehtiyoj tugʻilgan davrda yaratildi.

Beshinchidan, markazida inson turuvchi romanning shakli ham, mazmuni ham uning bosh qahramoni – odamning tarixiy-ijtimoiy portretidan oʻsib chiqadi. Roman nazariyasining tarixiy taraqqiyot yoʻlini tadrijiy yoritish orqali, bir vaqtda janr mohiyatini ochib berish hamda uning markazida inson konsepsiyasi muammosi turishini isbotlash mumkin.

Oltinchidan, eposda inson konsepsiyasi mavjud, biroq unda shaxs konsepsiyasi mavjud emas. Romanni belgilovchi eng muhim omil esa shaxs tasviridir. Shunday ekan, romanni epos bilan chogʻishtirish nafaqat janrga xos xususiyatlarini belgilash, balki, unda inson konsepsiyasining ahamiyatini aniqlashda ham juda muhim.

II BOB.

IJTIMOIIY-TARIXIY SHART-SHAROITLAR VA INSONNING BADIYY TALQINI

2. 1. Sho‘ro jamiyati tanazzuli va adabiyotda yangi inson ehtiyoji

Mustaqillik davri o‘zbek romanlari tom ma’noda 80-yillar romanchiligining vorisidir¹. Zero yangi davr romanchiligi yuzi bo‘lgan aksar yozuvchilarning adabiy-estetik qarashlari 70 – 80-yillarda shakllangan. Bundan tashqari, 90-yillar avvalida siyosiy, ijtimoiy shart-sharoit imkoni bilan ijodga kirib kelgan erkinlik epkinlari ham aslida “qayta qurish” va “oshkoralik” davrlarida boshlangan. Xuddi shunday, istiqlol yillaridagi ijodiy eksperimentlar: modernistik, postmodernistik asarlarning ildizlari ham 80-yillar adabiyotiga borib tutashadi. Shunday ekan, mustaqillik davri romanchiligidagi inson konsepsiyasini to‘laqonli o‘rganish uchun, avvalo, Sho‘ro jamiyati tanazzulga yuz tuta boshlagan va yangi inson konsepsiyasiga ehtiyoj tug‘ilgan davrga qaytish, mazkur muammoning badiiy, ijtimoiy-ruhiy omillarini qidirish zaruratini his etamiz.

O‘tgan asrning 80-yillari nafaqat sobiq Ittifoq xalqlari hayotida, balki umuman dunyo tarixida muhim siyosiy jarayonlarni qamrab olgan davr hisoblanadi. Ikkinchi jahon urishidan keyin boshlangan Sovuq urush nihoyalab, sekin-asta G‘arbning qo‘li baland kela boshlagan, SSSRda ichki ziddiyatlar ortib, siyosiy elita tuzumning muqarrar halokatini his etib ulgurgan, bunga qarshi turli chora va tadbirlarga zo‘r bergan davrlar edi.

80-yillar romanchiligi ham shu davrning shiddati, siyosiy shart-sharoitning keskin o‘zgarishi, avlodlar almashinuvi, “qayta qurish” davridagi nisbiy erkinlik va turfa xil qarashlarga mos ravishda rivojlandi, romannavislar yangi zamon uchun yangi inson konsepsiyasini taqdim eta boshladi.

¹ Quronov D. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida badiiy ifodaning yangilanishi (<https://quronov.uz/mustaqillik-davri-o‘zbek-romanchiligi/>).

Kommunistik mafkura va uning adabiy “quroli” bo‘lgan sotsialistik realizm metodi nuqtayi nazaridan qaralsa, Sho‘ro davri romanlaridagi inson konsepsiyasini anglash u qadar murakkab ish emas. Sababi shuki, bu davr adabiyoti badiiy-g‘oyaviy jihatdan hukmron mafkuraga bo‘ysundirilgan, sosrealizmning g‘oyaviy chegaralari aniq va qat‘iy belgilangan “estetik qolip”ga solingan. Mazkur adabiy metodga ko‘ra “asarning inqilobiy faol gumanizm bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi, uning markazida kommunistik g‘oyalar g‘alabasiga ishongan va shu yo‘lda tolmay kurashayotgan ijobiy qahramonning turishi, davr ziddiyatlarini marksistik sinfiylik nuqtayi nazaridan tushunish hamda baholash”¹ talab etilgan. Shunday ekan, aksar romanlarni shu tayyor qolip va mezonlar asosida baholash, davr adabiyoti uchun tipik bo‘lgan inson konsepsiyasini uchratish mumkin bo‘lgan. Biroq 70-yillarga kelib sosrealizmning hayotni haqqoniy tasvirlash va chinakam san‘at asarlarini yaratish yo‘lidagi ojiz taraflari yaqqol ko‘rina boshladi. Bunga ijodkorning Sho‘ro mafkurasini va real voqelik o‘rtasidagi nomutanosiblikka ko‘proq duch kela boshlagani sabab bo‘ldi. Oshkora bo‘lmasa-da, sekin-asta sosrealizm qoliplaridan chekinish, insonning hukmron mafkuraga u qadar mos bo‘lmagan badiiy konsepsiyalarini yaratishga urinishlar kuzatildi. Ayniqsa, hokimiyat tepasida Brejnev bo‘lgan “turg‘unlik davri” adabiyotida ana shu “qolipdan og‘ish” holati ko‘proq uchradi. A.Muxtorning “Chinor”, Mirmuxsinning “Degrez o‘g‘li”, O.Yoqubovning “Diyonat”, P.Qodirovning “Qora ko‘zlar”, O‘.Hoshimovning “Nur borki, soya bor” romanlarida Sho‘ro jamiyatining ichki muammolari: adolatsizlik, mansabparastlik, poraxo‘rlik, zo‘ravonlik kabi illatlar atroflicha ochib berildi. Ammo “bu asarlarda hali butun boshli ijtimoiy tuzumning, shu tuzum uchun hayotini tikkan shaxs faoliyatining fojiali ildizlarini tag-tugi bilan ochib berish yetishmaydi”². Ya’ni ijodkor qaysidir ma’noda sosrealizm mezonlaridan

¹ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 280–282.

² Normatov U. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2021. – B. 393.

chekingan (jamiyatda keng tomir yoygan illatlarni ro'y-rost ko'rsatishining o'ziyoq muallifning mavjud tuzum bilan ziddiyatini anglatadi) bo'lsa-da, sanalgan mualliflar sosrealizmning ustuvor maqsadlaridan biri — “kommunistik g'oyalar g'alabasiga ishongan”, bu yo'lda “tolmay kurashayotgan ijobiy qahramon” yaratish tamoyilidan chekinishga jur'at eta olmaydilar. Ha, buni aynan “jur'atsizlik” deyin mumkin. Zotan ular inson konsepsiyasini o'z estetik ideallaridan emas, balki *grajdanlik majburiyatidan* kelib chiqib yaratadilar. Tuzum boshqachasiga imkon bermagan ekan, demak ularning maqsadlarini *ichki istak* sifatida talqin qilish adolatsizlik bo'lar edi. Muxtasar qilib aytganda, “Brejnev turg'unligi” davri romannavislari ijtimoiy muammolarni tanqidiy baholashga qodir inson konsepsiyasini yaratdilar va “an'anaviy” roman tafakkurida ilk “og'ish”ni qayd etdilar.

1985-yilga kelib sobiq Ittifoqda siyosiy-ijtimoiy shart-sharoit o'zgardi, tarixda “qayta qurish” nomi bilan mashhur bo'lgan siyosiy bosqich boshlandi. Shunga mos ravishda adabiy-estetik qarashlar tublik o'zgarishga yuz tutdi, adabiyotimizga 70-yillarda kirib kelgan avlodning ijodiy salohiyati yuksaldi, ularda voqelikni katta epik ko'lamda tasvirlash layoqati shakllandi. Boshqa tarafdin G'arb adabiyoti va san'ati uchun “yopiq eshiklari” ochildi. Lekin eng muhimi, yangi inson konsepsiyasini yaratish uchun ulkan ijtimoiy ehtiyoj – DARD pishib yetildi.

Mazkur ishda Sho'ro tuzumining tanazzulga yuz tutgan so'ngi yillaridagi insonning badiiy talqinini o'rganish uchun Said Ahmadning “Jimjitlik”, Murod Muhammad Do'stning “Lolazor” romanlarini tanlab oldik. Bu ikki asar deyarli bir vaqtda yozilgani, badiiy voqeligida bir tarixiy davr aks ettirilgani, romanlarda qo'yilgan muammoning yechimi hukmron siyosiy elita va mavjud siyosiy tafakkurdan qidirilgani bilan juda o'xshash. Lekin asarlarda bir xil ijtimoiy shart-sharoit va o'xshash taqdirlar qalamga olinsa-da, ikki adibning inson konsepsiyasini yaratishdagi ham uyg'un, ham o'zaro paradoksal talqinga ega ekani tadqiqotimiz uchun ahamiyatli sanaladi.

“Jimjitlik” tom ma’noda sobiq Ittifoqning ijtimoiy-siyosiy muhitida tug‘ilib o‘sgan, hayotiy, badiiy-estetik qarashlari kommunistik mafkura ta’sirida shakllangan eski avlod ijodkoriga mansub roman. Said Ahmad eski avlod vakili bo‘lsa-da, “Jimjitlik”da ilgari o‘zining boshqa asarlari bilan qo‘llab-quvvatlagan tuzumni jiddiy tanqid ostiga oladi. Jamiyatdagi muammolarning asl ildizini jamiyatning quyi qatlamidan emas, eng yuqori doiralardan qidiradi, ishora-belgilar beradi. Biroq roman oxirlab, muallif xulosalarini o‘rtaga tashlay boshlaganda, bosh qahramon tilidan jamiyat ahli Marks va Lenin g‘oyalarining asl mohiyatiga qaytishi zarurligini, qachondir ular orzu qilgan kommunizm bunyod bo‘lishiga ishonishini aytadi. Albatta, roman so‘ngidagi bu xulosalarga “senzura talabi” sifatida qarash ham mumkin. Balki shu gaplar bo‘lmasa, roman chop etilmasligi ham mumkin edi. Lekin romanni sinchiklab o‘qigan o‘quvchi muallifning hukm va xulosalarida o‘zaro ziddiyatli o‘rinlar juda ko‘p ekaniga guvoh bo‘ladi. Bu hol adibning mavjud voqelikka nisbatan aniq pozitsiyasi, xulosasi yo‘qligidan, aniqrog‘i, real voqelikning o‘zi paradoksal ekanidan dalolat beradi. Ya’ni jarayonni kuzatayotgan yozuvchi qat’iy hukm va xulosa chiqara olmaydi, muammo uchun biror yechim ko‘rsatmaydi, sababi buni o‘zi ham bilmaydi. Uning inson konsepsiyasi markazida muammoni ko‘rib turgan, unga nisbatan nafrat bilan qarayotgan va ortiq bunday yashash mumkin emasligini anglab yetgan, ammo keyingi qadamni qanday bosishni bilmaydigan odam turadi.

Said Ahmaddan farqli o‘laroq, Murod Muhammad Do‘st “Lolazor”da o‘z xulosalarini konkretlashtiradi. Barcha muammolarning sababiyati mavjud siyosiy tafakkurga bog‘lanishini asoslaydi. Ayni vaqtda, u ham muammo uchun aniq yechim taklif qila olmaydi. Lekin, har holda, paradoksal jamiyatga nisbatan ziyoli odam qanday pozitsiyada turishi kerak ekanini anglab yetadi. Bu “yolg‘onda yashamaslik”¹ pozitsiyasi edi. Ya’ni yolg‘onga asoslangan tuzum va

¹ Александр Солженицын. Жит не по лжи (эссе).

(https://www.solzhenitsyn.ru/proizvedeniya/publizistika/stati_i_rechi/v_sovetskom_soyuze/jzit_ne_po_ljzi.pdf)

manipulyativ hukmron elita ta'siridan ma'nan xalos bo'lish, mavjud siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning yolg'on ekanini anglash, shu yolg'onga hissa qo'shmaslik ziyoli insonning burchi. Bu burch mohiyatida nafaqat obyektiv voqelikni haqqoniy baholash, balki o'zlikni anglash masalasi ham turadi. Boshqacha aytganda, yozuvchi yolg'on jamiyatda yashayotganini anglagan shaxsni o'ziligini anglagan shaxsga tenglashtiradi. Shu sababli u "Lolazor" romanini to'laligicha kinoya asosiga quradi. "Boshqalar ko'ra olmaganini ko'ra olish M.Muhammad Do'stning ularga kinoyaviy pozitsiyadan turib munosabat bildirishiga obyektiv asos yaratdi"¹. Yoki adib uchun kinoya shunchaki badiiy vosita emas, balki inson konsepsiyasi – o'zligini anglagan shaxsning muhim asosi. Binobarin, shaxsning yolg'onlardan yuqorida ekaniga yagona dalil uning shu voqelikka nisbatan kinoyaviy pozitsiyada turishidir. Ya'ni faqat aldanmagan odamgina kinoya qila oladi.

Yuqorida S.Ahmad va M.M.Do'stning inson konsepsiyasi haqida yaxlit fikr aytish, o'ziga xos "keys"lar yaratishga urindik. Quyida ana shularning batafsil bayoniga kirishamiz.

S.Ahmadning "Jimjitlik" romani 1986 – 1987-yillarda "Sharq yulduzi" jurnalida chop qilingan. Adabiyotshunoslar mazkur romanni Odil Yoqubovning "Oq qushlar oppoq qushlar", Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq", Nurali Qobulning "Unutilgan sohillar" kabi "turg'unlik davri"ni qoralovchi, "qayta qurish" siyosatiga muvofiq asarlardan biri sifatida ko'radilar. Albatta mazkur qiyosda jon bor, biroq "Jimjitlik"ni sanalgan romanlardan farqlovchi xarakterli jihatlar borki, bular uni ko'proq "Lolazor" romaniga yaqinlashtiradi.

Adabiyotshunos M.Namozov yoshlik jurnalidagi davra suhbatida "Menimcha, "Lolazor" adabiyotimizda bizni "kechagi kun"ga olib kelgan odamlarning ruhini tadqiq qilishga dastlabki jiddiy urinish bo'ldi. Ma'lumki,

¹ Sheraliyeva M. Hozirgi o'zbek nasrida kinoya. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B. 156.

keyingi vaqtlarda adabiyotimizda turg'unlik davri hayotini tasvirlagan bir talay asarlar yaratildi. Biroq biz bularda davrni ko'proq tashqi tomondan kuzatdik. Turg'unlik davrining asosiy xususiyatlari bo'lgan poraxo'rlik, qo'shib yozish, o'zgalar fikrini pisand qilmaslik kabi illatlarning birmuncha soddalashtirilgan sxemasi bilan tanishdik. Aynan shu illatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan kimsalarning ruhiyati esa doimo xam yetarli darajada ochilavermagan"¹. M.Namozov o'sha vaqtlarda biroz pardalab aytayotgan "kechagi kun"ga olib kelgan odamlar"dan murod hukmron elitadir. Chindan ham "Lolazor"da jamiyatdagi muammolarning tub sabablarini Stalin davrida shakllanib, turli ko'rinishlarda yashab kelayotgan total siyosiy tafakkur bilan bog'lashga, hukmron elita ruhiyatidagi evrilishlar tadrijini ko'rsatishga urinish kuchli. Biroq ayni shu harakat milliy romanchiligimizda ibtidoiy shaklda bo'lsa-da "Jimjitlik"dan boshlanganini qayd etmoq zarur.

Adabiyotshunoslar "Jimjitlik" romanidagi markaziy qahramonlardan biri Shavkat Rahimovning hayotiy prototipi sifatida O'zbekiston SSR rahbari (1959–1983) bo'lgan Sharof Rashidovni ko'rsatadilar². S.Ahmad ham yurtning eng katta rahbarlari, ministrlar va yirik tashkilot raislarining ruhiyatini taftish etishga, ularning kechinmalarini tasvirlashga harakat qiladi. Biroq adib bu yo'lda hayot haqiqatidan biroz chekinadi, biryoqlamalikka yo'l qo'yadi. Aytmoqchimizki, "Jimjitlik" romanining "Lolazor"dan farqi inson konsepsiyasini yaratishdagi maqsadda emas, balki avvalo mahorat bobida ko'zga tashlanadi. Shunday ekan, "Lolazor"ni hukmron elita ruhiyatini ochib bergan dastlabki roman sifatida talqin qilish to'g'ri bo'lmaydi. Bu boradagi burilish nuqtasi "Jimjitlik"dan boshlangan.

S.Ahmad "Jimjitlik" romani markaziga sovxoz direktori Mirvali hamda olim Tolibjonning o'zaro qarama-qarshi taqdirini qo'yadi. Adibning inson konsepsiyasi mana shu ikki obraz asosiga quriladi. Bu ikki qahramon bir xil

¹ Ma'naviy inqiroz ildizlari. Davra suhbatlari // Yoshlik, 1989. – №3. – B. 66-72.

² Karimov H. Hozirgi o'zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi: Filol. fanlari d-ris...diss. – Toshkent: – 1994. – 301 b.

muhit, shart-sharoitda voyaga yetgan. Ularning har ikkisi ham navqiron, iqtidorli, mehnatkash.

Mirvali uddaburon, sharoitga moslashib, odamlar bilan til topishishga usta, bezbet va dovyurak, biror ishni bitirish uchun har qanday qabihlikdan qaytmaydi, xullas, sirdan jimjitdek ko‘ringan, biroq ichkarisida “o‘rmon qonunlari” hukm suradigan jamiyatning tipik rahbari. Tolibjon esa kamsuqum, halol inson. Adolatsizliklarga chidab tura olmaydi, har qanday ishni qonuniy yo‘l bilan bitirishni istaydi. Asarning ayrim o‘rinlarida jur‘atsiz, qo‘rqoq odam sifatida ham tasvirlanadi.

Mirvali ana shu xarakteri bilan sovxozda, umuman, respublika miqyosida katta ishlar qildi, yurtni obod etdi, minglab odamlarni ish bilan ta‘minladi, davlat xazinasiga ulkan foyda keltirdi. Biroq u bu maqsadlarga erishish yo‘lida to‘g‘ri bo‘lmadi, aniqrog‘i, mavjud tuzum, ijtimoiy sharoit uning to‘g‘ri ishlashiga yo‘l qo‘ymadi. Romanda Mirvaliga eng yaxshi ta‘rif Abdulla Qahhor tilidan beriladi: “Direktorlaringizni yaxshi taniyman. Uning asli qiyofasini chizish kiyin. Bir tanda ikki odam yashayotganga o‘xshaydi. Biri beqiyos ishbilarmon, tashkilotchi, biri yovuz. Ikkovi ham avj pardada. Biri birini siqib chiqaraman, demaydi. Ikkovi yonma-yon mustaqil yashaydi. Bir tanga ikkovi navbatma-navbat hokimlik qiladi. Biri uyg‘onganda, biri mudraydi”¹. S.Ahmad Mirvali timsolida kolxoz, sovxoz hamda viloyat va tuman miqyosidagi rahbarlari ish tutimi, hayotiy maqsad, kechinmalarini ochib berishga intiladi. To‘g‘ri, yozuvchi bu yo‘lda biroz biryoqlamalikka yo‘l qo‘yadi, insofli, adolatli rahbarlar obrazini deyarli yaratmaydi. Biroq bir muhim g‘oyani ilgani suradi. Unga ko‘ra bu rahbarlarning ish tutumi davr taqozosidan, tuzum ularni shunday shakllantirganidan. Zotan, shuncha qabihliklar qilgan Mirvali ham hali rahbar bo‘lmagan yoshlik chog‘larida toza niyatli shaxs bo‘lgan. U do‘sti Tolibjonga “Seni tilingni kesolmayman. Ko‘zlaringda yoshligim yashayapti. Sening bu turish-turmushing

¹ Ahmad S. Jimjitlik. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1989. – B. 143.

mening yoshlikdagi o‘t-olov, hali haromga qo‘l urmagan paytlarimni eslatadi. Yoshligimni, pokligimni bir marta o‘ldirganman. Endi senda qolgan bo‘lagini o‘ldirolmayman”, deb aytarkan, o‘zi holini anglashini bildiradi. Uni shavqatsiz zamon shu ko‘yga solgani oydinlashadi.

Tolibjon esa halolligi uchun jamiyatga sig‘madi. Bilagi kuchga to‘lgan yoshlik davrlarini xorijda o‘tkazdi. Aniqrog‘i, adolat talab qilgani uchun quvg‘in qilindi.

Tolibjon hali yoshlik chog‘laridayoq “katta odam”larning nazariga tushadi, partiya safiga kiritiladi. Shu kezlarda oblast partiya konferensiyasida respublikada katta obro‘ga ega bo‘lgan rahbar Shavkat Rahimovni ayovsiz tanqid qiladi. Rahbarning ko‘zlariga tik qarab: “Yor-birodarlarini atrofiga to‘playotganini, bo‘ysunmaganlarini badnom qilayotganini, butun mamlakat bo‘ylab shaxsga sig‘inish oqibatlari tugatilayotgan bir paytda respublikada yangi bir shaxs paydo bo‘lganini ochiq-yoriq aytdi”¹. Adib Tolibjonning mazkur nutqidan keyingi holatni tasvirlarkan, romandagi inson konsepsiyasining yana bir muhim jihatini urg‘ulaydi: “O‘shanda qiziq bir holat ro‘y bergandi. Zal bo‘ylab gulduros qarsaklar yangrab ketdi. Bu qarsak tovushlari qaydan chiqayotganini bilib bo‘lmasdi. Odamlar stul tagiga qo‘llarini tiqib qarsak chalardilar. Ammo ularning yuzlaridan, ko‘zlaridan qarsak chalayotganlari sezilmas edi”². Mazkur o‘rinda adib mustabid tuzumning bosh quroli – qo‘rquvning odamlar shuurida naqadar chuqur tomir otganini ko‘rsatib beradi. Bu haqda adabiyotshunos Islom Yoqubov “romanning g‘oyaviy konsepsiyasida qo‘rquv saltanati millat tiynatida paydo qilgan ojizlik, haqsizliklarga dadil qarshilik ko‘rsata olishdan cho‘chish, ijtimoiy kurashchanlikka noqobillik kabi o‘sha yillarga xos illatlarning ijtimoiy-ma‘naviy ildizlari badiiy taftish etildi”³, deya qayd etadi. Chindan ham, S.Ahmad Tolibjon obrazida jasur, faol insonning qo‘rqoq, jur‘atsiz

¹ O‘sha manba. – B. 8.

² O‘sha manba. – B. 8.

³ “Said Ahmad ijodining ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyati va zamonaviy o‘zbek adabiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent, 2020. B. – 29.

shaxsga aylanib qolishini ishonchli ijtimoiy dalillar bilan tasvirlaydi. Tolibjon shu gaplari uchun Afrika davlatlariga “surgun” qilinadi, o‘n yillar davomida yurtiga kiritilmaydi. Musofirlikda xotini va farzandidan ajraladi. Yosh va iste’dodli olim ruhan majruh bo‘lib qoldi. Said Ahmadning inson konsepsiyasi javharida ana shu qo‘rquvdan, siyosiy jur’atsizlikdan xalos bo‘lish g‘oyasi turadi. Bu g‘oya romandagi Jayrona obrazi orqali namoyon bo‘ladi: “Tolibjon aka, siz kurashga yaramaydigan, irodasi bo‘sh odam ekansiz. Siz Tolstoy nazariyasiga amal qiladigan kishilardansiz. Bilasizmi? Tolstoy zulmga qarshi bosh ko‘tarma, degan g‘oyani oldinga suradi. Siz bir marta bosh ko‘tarib yerparchin bo‘ldingiz... Erkak odam olov bo‘lib yashashi kerak. Butun irodasini, kuchini, aqlini o‘zining haq ekanligini isbot qilishga sarflashi kerak”¹, deydi Jayrona. Bu dovyurak qizning qistovi, undovlari ta’sirida Tolibjonda sekin-asta jur’at paydo bo‘ladi. Keyinchalik jur’at isyonga aylanadi va ayni shu isyoni uni halok qiladi. Bu haqida biror quyiyoqda to‘xtalib o‘tamiz.

S.Ahmad o‘zining inson konsepsiyasida davr rahbarlariga xos unvonparastlik – “oltin yulduz” talvasasini juda katta mahorat bilan, ijtimoiy-ruhiy omillarini ko‘rsatgan holda tasvirlab beradi. Ayniqsa, yurtning eng katta rahbari, qo‘li har qayoqqa yetadigan odamning ana shunday unvon talvasasida bo‘lishi achinarli. Rahimov o‘z-o‘ziga hayotda hamma narsaga erishganini ta’kidlab tursa-da, yagona orzusi uchinchi “oltin yulduz”ga erishishni intiqlik bilan kutaveradi. Adib Rahimovning hayot mazmuniga aylangan “yulduz” orzusini asarda o‘tkir kinoyaga oladi: “biron nimadan diqqat bo‘lib qolsa, ish kabinetiga kirib olardi-da, eshikni berkitib, dilini yozish uchun stolga hamma ordenlarini terib tomosha qilardi. Mana, yettita Lenin ordeni. Shunchasini na marshal Jukov, na Rokkosovski, na Xrushchev olgan. Mamlakatda yettita Lenin ordeni olgan shu Rahimovning o‘zi edi. Qo‘sh “Oltin Yulduz”, Oktyabr revolyutsiyasi, Mehnat Qizil Bayroq, Qizil Yulduz, Hurmat belgisi”². Adib davlat

¹ Ahmad S. Jimjitlik. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – B. 114.

² O‘sha manba. – B. 293.

rahbarining har ishni el-yurt ravnaqi, odamlarning farovon turmushini ko'zlab emas, balki aslida Moskvaga yoqish, unvonlarga erishish uchungina bajaradi deya talqin qiladi, buni millat va davrning fojiasi sifatida baholaydi. Eng yomoni bu "orzu" bilan butun tizim, katta-yu kichik rahbarlargacha "kasallangan", go'yo ruhiy kasallikka o'xshaydi. Endilikda, ya'ni roman vaqtiga kelib Mirvalini harakatga keltiruvchi, butun borlig'ini mahv etgan qudratli kuch ham shu "oltin yulduz"lar orzusi bo'lib qolgan: "Ko'pdan olisda jilva qilgan ikkinchi "Oltin Yulduz" ancha beri kelib qolgan paytda, Tolibjon ekan-ku, undan yaqinroq jigarini ham qurbon berishga tayyor"¹.

Romanda sobiq Ittifoq davri siyosati, propagandasi va shaxsga sig'inish illatlari odamlarni ana shunday "ruhiy kasal" qilishi, alaloqibat bundan oddiy xalq jabr ko'rishi mahorat bilan ochib berilgan.

Rahbarlar faoliyatidagi millatga eng ko'p zarar yetkazgan tutum, eng qabih ishlardan biri odamlarning bilimli bo'lishini ongli ravishda istamaslik edi. Bu borada Mirvalining: "Menga ishchi kerak, olim emas, ishchi. Ilmi bo'lsa tog'da echki boqadimi?... Savodi bo'lmasa katta bo'lganda anonim yozolmaydi, bildingmi". Bunday qarash pinxona tarzda o'sha davr rahbarlarining ta'lim borasidagi "strategiyasi"ga aylana boshlagan edi. Amalda bu strategiya kelajak egalari – o'quvchi talabalarni o'quv yilining qariyb yarmida paxta dalalarida qulday ishlatishda namoyon bo'ladi. Zero, rahbarlarning o'z kursilarida uzoq qolib unvonlar olishi uchun bu yurtga faqat paxtakorlar, chorvadorlar kerak, ENG yuqoridagilar O'zbekistondan faqat shuni kutadi.

Bu rahbarlar tepaga ko'proq yoqish uchun yurtning har bir qarichiga paxta ekishga tayyor. Ular ko'proq hosil olish uchun daryo suvini cho'lni o'zlashtirishga burishi, zaminni tonnalab kimyoviy dorilar bilan zaharlab kuydirishi, aholini turli kasalliklarga duchor qilishi mumkin. Hammasi unvon, hammasi "tepaga" yaxshi ko'rinish uchun. S.Ahmad o'zining inson konsepsiyasi

¹ O'sha manba. – B. 208.

markaziga ana shu haqiqatni, buning jabrini ko‘rayotgan odamlarni qo‘yadi va buni davr rahbarlarining ish tutumi misolida ochib beradi.

Tolibjon va Jayrona romanda jamiyatdagi illatlarning aslini anglab yetgan qahramonlar sifatida tasvirlanadi. Ular ortiq bunday yashab bo‘lmasligini tushungan, bunga qarshi isyon ko‘tarish zaruratini his qilgan kishilar edi. Ular Rahimov va Mirvalining butun kirdikorlari aks etgan hujjatlarni yig‘ib, Moskvaga yuborishni reja qiladilar. Biroq bu reja amalga oshmaydi, Mirvali ularning boshiga yetadi. Baribir oddiy xalqning istagi, irodasi ro‘yobga chiqmaydi, siyosatga yem bo‘lib ketaveradi. Balki shu sababdan ham roman xalq dardi aks etgan quyidagi misralar bilan xotima topadi:

“Otim oriq...
Rangim sariq...
Daryo to‘lqin,
Suvlar toshqin...”

Bu tog‘larda qashqirlar bor,
Qoplonlar bor, sirtlonlar bor,
Men benavo, yurak yutib,
Birontasin otolmayman”.

S.Ahmadning badiiy konsepsiyasiga ko‘ra, xalqning musibatlari, odamlarning ayanchli taqdiri nafaqat kattayu-kichik rahbarlarning ish tutimi oqibati, balki umuman mavjud siyosiy tafakkurning hosilasidir. Mirvali o‘lishi, Rahmonov qamali mumkin, lekin bu bilan ijtimoiy hayot o‘zgarib qolmaydi, toki siyosiy tafakkur o‘zgarmas ekan, xalq baribir ro‘shnolik ko‘rmaydi.

Qayd etish lozimki, S.Ahmad o‘zbek adabiyotining qanchalar yirik namoyandasi bo‘lmasin, “Jimjitlik” romanida o‘zining badiiy niyatini, bizningcha, yuksak darajada ifodalab bera olmagan. Romanda hayot haqiqatiga zid keluvchi voqealar, o‘z-o‘zini inkor qiluvchi xulosalar ko‘p. Ayniqsa, muammoning bosh omili hukmron elita va siyosiy tafakkurda degan g‘oya

yetarlicha yoritib berilmagan. Quyida biz tahlilga tortishni maqsad qilgan “Lolazor” romanida esa ayni shu g‘oya keng ijtimoiy, ruhiy, falsafiy ko‘lamda ochib berilgan.

Ustoz U.Normatov XX asr romanchiligi haqida fikr yuritarkan, “80-yillar oxirlariga kelib asr odamlari umri va faoliyatining bema’niligini o‘ziga xos tarzda dadil va yaqqol aks ettiruvchi bir roman dunyo yuzini ko‘rdi. Bu Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor”idir”¹, deb aytadi. Albatta, bu o‘rinda olimning fikri biroz mubolag‘ali, katta bir davr odamlari umri va faoliyati bema’niga chiqarish esa o‘rinsiz qiyosdek ko‘rinishi mumkin. Biroq Murod Muhammad Do‘stning badiiy niyati, “Lolazor”da namoyon bo‘lgan inson konsepsiyasi mohiyatidan kelib chiqsak, yuqoridagi qiyos aslo o‘rinsiz emas. Zotan yozuvchi “Lolazor” romani orqali yolg‘on asosiga qurilgan davlat va jamiyatning yolg‘on turmush tarzi: fuqaroning taqdiri, faoliyati, orzu-istaklarini bor murakkabligi hamda fojiasi bilan ko‘rsatishni maqsad qilgan.

“Lolazor” romanida ko‘tarilgan muammo va inson konsepsiyasini to‘laqonli anglash uchun kishida avvalo sobiq Ittifoq tuzumiga xos bo‘lgan siyosiy madaniyat va siyosiy tafakkur haqida tasavvur bo‘lishi lozim. Shu ma’noda chexiyalik yirik siyosatchi Vaslav Havelning Sho‘rolar tuzumining butun mohiyatini ochib bergan “Kuchsizlar kuchi” asari “Lolazor” romanidagi inson konsepsiyasini tushunishda judayam qo‘l keladi.

Vaslav Havel SSSR tuzumi “siyosiy byurokratiyaning *nivelirlangan*”² jamiyat ustidan diktaturasi” sifatida xarakterlanishini aytadi va “diktatura” itilohida ijtimoiy ma’no – “ma’lum bir to‘da manfaatlari yo‘lida jamiyat a’zolarini osonlik bilan manqurtlashtirish”³ nazarda tutilishini qayd etadi.

Ma’lumki, sobiq Ittifoq tipidagi siyosiy madaniyat jamiyatni uzoq yillar davomida mafkuralashtirish evaziga shakllanadi. Ayni damda, bu tipidagi siyosiy

¹ Normatov U. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2021. – B. 393.

² **nivelirlangan** – “jamiyatdagi insonlarning o‘ziga xos va farqli jihatlari yo‘q qilingan, qolibga solingan” – ma’nosida qo‘llanilgan.

³ Havel V. Kuchsizlar kuchi. – Toshkent: Trust and support, 2023. – B. 8-9.

madaniyatlarda mafkura barqaror siyosatning poydevori hisoblanadi. Albatta, hududi jihatdan dunyoda birinchi o‘rinda turuvchi ulkan “imperiya” aholisini uzoq yillar davomida faqat zulm va total nazoratda boshqarib turish imkonsiz edi. Shu sababli sovet hukmron elitasi siyosatning muhim quroli bo‘lmish yolg‘ondan samarali foydalanadi. Zero “ijtimoiy va siyosiy kontekstda axborotni ongli ravishda buzish (yolg‘on) odamlarga ta’sir o‘tkazishning muhim omili, fenomenal muloqot shakli sanaladi”¹. Shu sababli ham, yolg‘on hokimiyatni mustahkam tutib turish va siyosiy maqsadlarga erishish yo‘lida muhim qurolga aylantirilishi mumkin. Sho‘rolarning buyuk yolg‘oni esa ularning mafkurasidir: “Mafkura bu – tizim tashqi barqarorligining ustunlaridan biridir. Ayni paytda, bu ustun beqaror poydevor, ya’ni yolg‘onlar uzradir. Shuning uchun, mafkura – yolg‘onga rozi bo‘lsangizgina sizni ko‘tarib turadi”². E’tiborli jihati shuki, siyosiy mafkuralar har doim mohiyatan yolg‘on asosiga quriladi. Sho‘rolar davridagi real hayot va “targ‘ibot”ning o‘zaro paradoksal munosabati ham shundan. Ya’ni “tizimdagi hayot ikkiyuzlamachilik va yolg‘on bilan qorishib ketgan bo‘lib, bunda byurokratik hokimiyat – xalq hokimiyati deyiladi; ishchilar sinfi nomi bilan – ishchilar qul qilinadi; insonni total tahqirlash – inson erkinligi deb qaraladi”³.

“Lolazor” romanidagi ijtimoiy dardni his qilishimizda rus yozuvchisi, Nobel mukofoti sohibi Aleksandr Soljenitsinning 1974-yilda yozilgan “Yolg‘onda yashamaslik” (“Jit ne po lji”) nomli essesi ham muhim ahamiyatga ega. Essening o‘ziga xosligi shuki, u sobiq Ittifoqning yolg‘on siyosati bilan birga, davr ziyolilarining iztiroblarini ham butun mohiyati bilan ochib beradi: “zo‘ravonlik tez qariydi, bir necha yil o‘tadi – endi u o‘ziga ishonmaydi, tutib turish, munosib ko‘rinish uchun, albatta, ittifoqchilikka yolg‘onni chaqiradi. Zotan, zo‘ravonlikni yolg‘ondan boshqa hech vaqo yashira olmaydi, ayni damda,

¹ Черных А. Политическая лож как механизм удержания власти // Власт. 2014. №12. – С. 105.

² Havel V. Kuchsizlar kuchi. – Toshkent: Trust and support, 2023. – B. 33.

³ O‘sha asar. – B. 22.

yolg'onni faqat zo'ravonlikka tutib tura olishi mumkin. Zo'ravonlik har kuni, har bir odamning yelkasiga og'ir panjasini qo'yavermaydi. Biroq u bizdan yolg'onga bo'ysunishni va har kuni unda ishtirok etishni talab qiladi. Sadoqatning mohiyati ayni shudir"¹. Soljenitsin sobiq Ittifoqning ibtidoiy siyosati zo'ravonlikka, keyingi bosqichlarda esa zo'ravonlik va yolg'on tandemiga asoslanganini aytmoqda. E'tiborlisi, bu yolg'on siyosat shaxsdan nafaqat bo'ysunishni, balki jarayonda "yolg'onchi ishtirokchi" bo'lishni talab qiladi. Bizningcha, ayni shu omil Murod Muhammad Do'stning inson konsepsiyasini tushunishda muhim ochqich vazifasini o'taydi.

O'tgan asrning 70–80-yillar adabiyoti xususida so'z yuritarkan, Mashhura Sheraliyeva shunday yozadi: "o'zbek nasrining 70-yillar avlodi vakillari asarlaridagi eng muhim muammo insonning o'z-o'zini anglashi va o'zligini namoyon etishi masalasi bo'lib qoldi"². Shu ma'noda, M.Muhammad Do'stning inson konsepsiyasiga ham shaxsning *o'z-o'zini anglash* va *o'zini namoyon etish* ehtiyoji nuqtayi nazaridan qarash to'g'ri bo'ladi. Lekin total siyosat va yolg'onlar asosiga qurilgan jamiyatda o'zlikni anglash nimani bildiradi? Uning mazmun-mohiyati, asli nimada? Va ayni sharoitda o'zlikni namoyon etish imkonlimi? Biz mazkur savollarga ham javobni Soljenitsinning essidan topamiz: "Shu vaziyatda bizning erkimizni ta'minlashi mumkin bo'lgan eng oddiy, eng kamtarona va imkonli vosita: yolg'onda shaxsan ishtirok yetmaslik! Mayli, yolg'on hamma narsani qamrab olsin, mayli, yolg'on barcha narsani egallab olsin, lekin siz eng kichik imkon bilan ayting: mayli egallab olsin, faqat men orqali yemas!"³ "Yolg'onda yashamaslik" essisini o'qib xulosa qilish mumkinki, Soljenitsin uchun sobiq Ittifoq muhitida o'zlikni anglash, shu tuzumning yolg'on ekanini anglash bilan yuzaga chiqadi. Bu kabi *o'zlikni anglash* mavjud sharoitda

¹ Александр Солженицын. Жит не по лжи (эссе).

https://www.solzhenitsyn.ru/proizvedeniya/publizistika/stati_i_rechi/v_sovetskom_soyuze/jzit_ne_po_lji.pdf

² Sheraliyeva M. Hozirgi o'zbek nasrida kinoya. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B. 31.

³ Александр Солженицын. Жит не по лжи (эссе).

https://www.solzhenitsyn.ru/proizvedeniya/publizistika/stati_i_rechi/v_sovetskom_soyuze/jzit_ne_po_lji.pdf

shaxs imkoni doirasidagi juda jo'n, ayni damda kurashning samarali, yolg'on tuzum uchun eng halokatli quroldir. Ya'ni jamiyatda yolg'onda yashamaslikni ixtiyor etgan kishilar soni ortib borsa, yolg'on tuzum o'z-o'zidan yemirila boshlaydi.

Endi, o'zlikni namoyon etish masalasiga kelsak, bu qadam biroz murakkab va xatarli ekanini qayd etmoq zarur. Zotan *o'zlikni namoyon etish* zamirida yolg'onda ishtirok etmaslikni baralla oshkor etish, isyon g'oyasi turadi. Bu sobiq Ittifoq muhiti uchun nodir hol. Bunga jur'at etganlar eng kamida ishdan olingan yoki qamalgan (Soljenitsin taqdiri yorqin misol).

“Lolazor” romanining markazida uch qahramon turadi. Bu uchovlonning roman mazmunida tutgan o'rni va vazifasi, yozuvchining inson konsepsiyasidagi ahamiyatini tushunishda Saidqul Mardonning quyidagi tasnifi muhim rol o'ynaydi: “Oshno – Iskandari Zulqarnayn, Yaxshiboyev Iskandarning shoxini ko'rib ichiga singdirolmagan sartarosh, men esam – quduq, chuqur va zimiston quduq”¹. Oshno, Nazar Yaxshiboyev va Saidqul Mardonlarning taqdiri, a'moli, fe'li-huyidan kelib chiqsak, ularning birortasi ham bir vaqtda *o'zligini anglagan* va *o'zligini namoyon etgan* shaxslar emas. Aytmoqchi bo'lgan fikrimizni urg'ulash maqsadida, quyida mazkur qahramonlar taqdirini teskari tartibda sharhlaymiz.

Saidqul Mardon yolg'on jamiyatda ziyoli odam imkonidagi eng kichik maqom – “yolg'onda yashamaslik”ni tanlaydi. Ya'ni iste'dodli bo'la turib panapasqam joylarda yashashni va yolg'onda ishtirok etmaslikni afzal biladi. Ayni damda, u o'z ta'biri bilan aytganda, “chuqur va zimiston quduq”. Jamiyatning muammolarni anglasa-da o'ziga yutadi, tashqariga chiqarmaydi. Borligi ham, yo'qligi ham ahamiyatsiz. Boshqacha aytganda, o'zligini anglaydi, biroq o'zligini namoyon qilmaydi. Bu uning jur'atsizligi, qo'rquvidan. Uning fojiasi

¹ Muhammad Do'st M. Lolazor. – Toshkent: SHARQ, 1998. – B.329.

“quduq”ligi va shu sabab iste’dodi hamda mavjudligini to‘la namoyon qila olmaganidir.

Yaxshiboyev kechroq bo‘lsada *o‘ziligini anglagan* odam. “Iskandarning shoxini ko‘rib” qolishi yolg‘onni anglashidan darak. Biroq o‘tmishdagi nopok ishlari, hatto qarigan vaqtida ham ba‘zan ongli ravishda yolg‘onning faol ishtirokchisi bo‘lib kelayotgani sabab ma‘nan o‘zligini namoyon etishdan mahrum “sartarosh”. Buni Yaxshiboyevning o‘zi ham yaxshi biladi va shu mahrumlik uning fojiasidir.

Oshno o‘zligini anglamaydi, turgan gapki, o‘zligini namoyon ham etmaydi. Bu borada uning jamiyatdagi boshqa odamlardan farqli, o‘ziga xos maqomi ham bor. U nafaqat yolg‘onning faol ishtirokchisi, balki yaratuvchisi hamdir. E’tiborlisi, u “yaratuvchi”likka shu qadar berilib ketganidan o‘zi to‘qigan yolg‘onga ongli ravishda o‘zi ishonadi. Romanda hukmron elitaga xos ayni shu jihat chuqur ruhiy-falsafiy ko‘lamda ochib beriladiki, quyiroqda buni misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

Yuqoridagi uch qahramondan tashqari, yana bir muhim “qahramon” borki, usiz “Lolazor”dagi inson konsepsiyasini anglashning imkoni yo‘q. U barini zimdan kuzatib turgan, asarda na roviy, na muallif sifatida bevosita ishtirok etgan va voqelikka nisbatan kinoyaviy pozitsiyada turgan yozuvchi obrazidir. Yozuvchi o‘z romanidagi voqealarni aynan kinoyaviy uslubda tasvirlagani uchun ham badiiy voqelikning bilvosita ishtirokchisiga aylanadi. Ya’ni u yolg‘on jamiyatni yuqoridan turib kinoyaga olarkan, bu bilan yolg‘onda yashamayotganini, o‘ziligini anglagani va shu asar misolida o‘zligini namoyon etayotganini “ta’kidlovchi” jamiyat a’zosi. Va ayni shu “ta’kid” bilan Murod Muhammad Do‘stning inson konsepsiyasi to‘la qonli shakllanadi. Shu o‘rindan, mazkur adabiy talqinimiz M.M.Baxtinning “Insoniylikning haddan tashqari

ifodalash imkonsiz sifatlarini qahramonda emas, balki muallif nuqtayi nazarida ham anglash mumkin”¹ degan soʻzlariga uygʻun ekanini eslaymiz.

M.Sheraliyeva yozadi: “Nazar Yaxshiboyev ham M.Muhammad Doʻstni olamga nisbatan alohida nuqtayi nazar egasi sifatida qiziqtiradi, uning oʻz-oʻziga va atrofdagilarga nisbatan “maʼno beruvchi va baholovchi pozitsiyasi” romanda eng muhim badiiy funksiyani bajaradi”². Darhaqiqat, Yaxshiboyev yozuvchi uchun olamni koʻrish va baholash vositasi, lekin, bizningcha, bosh maqsad emas. Yaʼni adib oʻzining inson konsepsiyasida tuzumning “yaratuvchilari” – hukmron elita, hokimiyatga xos tafakkurini anglashni pirovard maqsad qilib oladi. Yaxshiboyev esa bu jarayonda muhim qurol, qahramonning oʻz taʼbiri bilan aytganda Oshno uchun “ilova” xolos.

Nazar Yaxshiboyevning yoshlik davrlarini eslaylik. U kelishgan, aqli-hushi joyida, binoyidek qalami bor, qolaversa, urushdan koʻksi medallarga toʻlib qaytgan yigit. Ammo shuncha imkoniyati boʻla turib oʻzi istaganidek, vijdon amri bilan yashamadi, yashay olmadi. Bir umr Oshnoning soyasi boʻlib yurishga mahkum etildi. Yaxshiboyevning tanlagani “daxldorlik” boʻldi. U bu soʻzni GES quruvchisi nutqidan olgan edi: “Men, – deb soʻzladi oʻsha quruvchi kattakon yigʻinda, – asrimizning buyuk qurilishiga daxldor ekanimdan baxtiyorman”³. Yaxshiboyev “daxldorlik”ni oʻzi ixtiyor qilmadi. Oshno hali yurtning “kattasi” boʻlib ulgurmay, Yaxshiboyev uning izmidan chiqishga urindi. Biroq Oshno bunga yoʻl qoʻymadi. Oliyani qamatdi, Sharifni ishga soldi, xullas, amalladi.

Yuqorida qayd etganimizdek, Shoʻro siyosiy tafakkuriga koʻra boshqaruv iyerarxiya, byurokrtiyaga asoslangan. Bunday vertikal tizimda unib-oʻsish, muayyan martabaga erishish uchun xodim oʻzidan yuqorida turuvchi rahbarga soʻzsiz itoat etishi lozim. Tabiiyki, tizim xodimdan nafaqat itoatni, balki qoʻrquv

¹ Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975. – С. 480.

² Sheraliyeva M. Hozirgi oʻzbek nasrida kinoya. – Toshkent, Akademnashr, 2016. – B. 168.

³ Muhammad Doʻst M. Lolazor. – Toshkent, SHARQ, 1998. – B. 7.

aralash sadoqatni ham talab qilgan. Bu “siyosat va qo‘rquv aralashgan nikoh”dan⁴ o‘zga narsa emas. Xodim uchun esa “o‘shish”ning shu tizimdan o‘zga muqobili (deylik, xususiy sektorlar) bo‘lmagan. Shunday ekan, “yuqori”ga intilgan va to‘kis hayot istagan har kim “daxldorlik”ni tanlashga majbur. O‘z vaqtida Yaxshiboyev qarshisida ham shu ikki yo‘l: “daxldorlik”ni tanlab to‘kis yashash yoki isyon qilib g‘arib hayot kechirish tanlovi turardi. Tabiiyki, u birinchi yo‘lni tanlaydi va “oqimga tushib”, o‘zligini yo‘qotadi. Adabiyotshunos H.Karimov Yaxshiboyevning holatini “O‘zining vijdoni buyurgan ishni bajara olmaydigan holatga tushib qolganidan nihoyatda alamzada. Bu alamzadalik Yaxshiboyevninggina emas, balki jamiyatning fojiasidir”² deya ta’riflaydi.

Yaxshiboyev kech bo‘lsa-da o‘zligini anglaydi. Bir umr yolg‘on siyosatning quli, yolg‘onning faol yaratuvchisi bo‘lib kelganini tushunib yetadi. Oshno kabi respublika, viloyat, tuman miqyosidagi rahbarlar, Qurbonoy, To‘pori kabi “yulduzli” qahramonlar, Xotam Sho‘ro, Munisaxon, Sharif, Chorshanbi kabi tipik obrazlar misolida millat fojiasining miqyosini ko‘rsatib beradi.

Qayd etish lozimki, romanda hech bir qahramon Nazar Yaxshiboyevga o‘zlikni anglash darajasida teng kela olmaydi. U yolg‘on siyosatning ko‘lamini hammadan ko‘ra kengroq his qiladi, eng katta rahbardan tortib, oddiy cho‘pon taqdirigacha kirib boradi, ruhiy evrilishlarni kuzatadi, baholaydi, davr fojiasini butun murakkabliklari bilan ko‘radi. Aslida, Murod Muhammad Do‘stni qiynagan muammo ham shu – davr ziyolisi, agar u juda ildamlab ketsa, fojiani faqat ko‘ra oladi, xolos, undan ortiq emas. Ya’ni yaxshiboyevlar o‘zligini to‘la anglasalar ham, o‘zligini namoyon (isyon) qila olmaydi. Zero yolg‘on tizimli tuproqqa tomir otgan, har sohani total nazoratga olgan “qo‘rquv saltanati” bunga yo‘l qo‘ymaydi. Sababi undagi siyosiy tafakkur “o‘zaro siyosiy munosabatlarda

¹ Muhammad Do‘st M. Lolazor. – Toshkent, SHARQ, 1998. – B.428.

² Karimov H. Hozirgi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi: Filol. fanlari d-ri...diss. – T.– 1994. – B.294.

keskin o'zgarishlar bo'lmaydigan bir xil va siyqa siyosiy faoliyatni nazarda tutadi"¹.

Demak, Nazar Yaxshiboyevning qismati ma'lum. Uni bir so'z bilan "ilojsizlik" deb atash mumkin. U hayoti oxirlab, o'tgan umrini sarhisob qilarkan, faqat ro'yoni ko'radi. Na turmushda, na ijodda va na mansabda yuk bosadigan biror xayrli ish qilganini bilmaydi. "Bulduruqda bog' qilolmadim. Armonki, qolgan hammasini bir tiyin qiladi: obro'yimni xam, unvonimni xam, boringki, butun xonumonimni!"² deydi, u. Shu sababli, u dunyoga kelib zig'ircha bo'lsa ham yolg'on aralashmagan, qo'l bilan ushlash mumkin bo'lgan rost ish qilishni ko'ngliga tugadi. O'z qishlog'ida bog' yaratadi. Bu bog' Nazar Yaxshiboyev dunyoga kelib topgan yagona haqiqati, birdan bir yupanchi edi.

Adabiyotshunos R.Qo'chqor "Lolazor" romani haqida "Bunda biror ijtimoiy tip nigohi orqali uning o'zi yaratishda qatnashgan va oxir-oqibat o'zi qul bo'lgan muhitning mohiyati tahlil qilinadi"³ deya asarning muhim g'oyasiga e'tibor qaratadi. Chindan ham romanda tasvirlangan paradoksal ijtimoiy muhit uning faol a'zolari – hokimiyat vakillari tomonidan yaratiladi. Unda yolg'on siyosiy madaniyatning ajralmas uzvi, aytish mumkinki, davlatchilikning asoslaridan biri. Ya'ni davlatchilik aholini mafkuralashtirish evaziga qurilarkan, shu mafkura propagandasining o'z yolg'onga asoslanadi.

Yolg'on ijtimoiy-siyosiy muhitda shu qadar keng quloq yozganki, kishilar uning mavjudligiga tabiiy holdek qarashga o'rgangan. Matbuot, televideniye yoki radio "musaffo osmon", "farovon hayot", "yorqin kelajak" haqida bong urishi va bularning birortasi real ijtimoiy vaziyatga mos kelmasligi mumkin. Lekin ish berishi aniq. Zotan propaganda shunday qurolki, u sekin-asta "farovon hayot" haqida illyuziya yaratishi va odamlarni osongina manipulyatsiya qilishi mumkin.

¹ Гаджиев К.С. Политическая культура: концептуальный аспект // Полис. Политические исследования. 1991. № 6. – С. 69.

² Muhammad Do'st M. Lolazor. – Toshkent: SHARQ, 1998. – B.327.

³ Qo'chqor R. Ma'naviy inqiroz ildizlari. Davra suhbatlari // Yoshlik, 1989. – №3. – B. 66-72.

Sho'ro hukumati propagandaning ayni shu qudratidan samarali foydalanadi. Qizig'i shundaki, bu yolg'onga avvalo uning yaratuvchilari ishonadi. Murod Muhammad Do'st mazkur fenomenal hodisaga alohida e'tibor qaratadi va uni anglashga intiladi. Shu sababli Oshnoning hali beg'ubor, sofdil yigitlik chog'laridan tortib, mansab zinalaridan birma-bir ko'tarilishi, unda siyosiy madaniyatning shakllanishi hamda ruhiyatidagi evrilishlarni muayyan tadrijiylikda tasvirlaydi. "Agar ta'rif joiz bo'lsa, – yozadi Shuhrat Rizayev, – men romanni shaxsning yemirilishi haqidagi muayyan bir davr voqealari bilan bezalgan badiiy tadqiqot deb ta'riflagan bo'lardim"¹. Olimning fikrlariga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, bu "badiiy tadqiqot"ning bosh obyekti Oshnodir.

Adib shaxsga sig'inish, bir kishi irodasini mutlaqlashtirish, maddohlik, mansabparastlik, unvonparastlik, poraxo'rlik, qo'rqqoqlik kabi illatlarning siyosiy elita ruhiyatida evolyutsion shakllanishi va bu jarayonga ta'sir etuvchi ruhiy-ijtimoiy omillarni birma-bir ko'rsatishni niyat qiladi. Oshnodek aqli, zukko, begona joyda "boshqa mazhab-ku" deya go'sht yeyishdan tiyiladigan, haromdan qattiq hazar qiladigan odamning butunlay boshqa, yig'lasa ham "jilmayibroq yig'laydigan" yuzsiz kimsaga aylanish jarayonini tasvirlaydi. Eng muhimi, yozuvchi sanalgan illatlarning siyosiy qarorlarga qanday ta'sir etishini ikirchikirlari bilan, ishonarli tarzda tasvirlab beradi.

Yaxshiboyev do'stining "siyosiy hushyor" bo'lib qolganini hali u Kattaqo'rg'on miqyosidagi yuqori lavozimlarga o'tirgan vaqtda payqaydi. O'shanda Oshno hatto yolg'iz chog'larida ham do'stiga "Nazar", "jo'ra" deb emas, "Nazar Yaxshiboyevich" deb murojaat qiladigan, sizlab gapiradigan bo'lib qolgandi. Keyinchalik, Oshno yanada kattaroq lavozimlarga ko'tarilganda Yaxshiboyev ilk bor "tilini tishlagan", "siyosiy hushyorlik"ni yo'qotgan voqea sodir bo'ldi. U bilmasdan Oshnoga haqiqatni aytib qo'yadi. Chunki u hali

¹ Rizayev Sh. Ma'naviy inqiroz ildizlari. Davra suhbatlari // Yoshlik, 1989. – №3. – B. 66-72.

Oshning haqiqatdan ko'ra yolg'onga moyil bo'lib qolganini bilmasdi. O'shanda Yaxshiboyev do'stiga Xotam Sho'roning halolligi, fidoyiligi haqida so'zlab, "Men kolxozchidan bir chaqa pora olmadim" degan gaplarini aytib beradi va o'zidan ilova qiladiki "kolxoz rayonga pora bermasa, rayon oblastga pora bermasa, oblast respublikaga pora bermasa, respublika Maskovga pora bermasa... qanday soz bo'lardi-ya!"¹ Yaxshiboyev bularni samimiyatdan, azbaroyi xayr istab aytgani rost. Biroq shu rostlik Oshnoga yoqmaydi, "Xo'sh, o'rtoq Yaxshiboyev, deb so'raydi salmoq bilan, siz qayerda bizning sistemadan yaxshiroq sistemani ko'rdingiz; hamma teng huquqli; hamma barobar mehnat qiladi; mehnatiga yarasha haq oladi; o'qish bepul; meditsina bepul; dam olgani borsangiz profsoyuz yo'llanma beradi; bu gaplar esa – g'irt ko'cha gaplar, xo'sh, ayting-chi, qaysi kolxoz rayonga pora beribdi, qaysi rayon oblastga pora beribdi, oblast-chi? <...> Moskvaga tuhmat qilishga qanday haddingiz sig'di?"² Gap shundaki, totalitar tuzum uchun yolg'onga "moyillik" ayni tabiiy va qonuni jarayon. "Hokimiyat, – yozadi V.Havel, – o'z yolg'onlari asiri bo'lganligi uchun soxtakorlikka ehtiyoj sezadi. O'tmishni, bugunni, kelajakni va statistikani qalbakilashtiradi"³.

Romanda Oshning haqiqatdan ko'ra yolg'on siyosatga moyilligi Xotam Sho'ro va Qurbonoy obrazlarining o'zaro qiyosida chiroyli ochib beriladi. Yozuvchi Xotam Sho'ro misolida halollik, rostgo'ylik, fidokorlik timsolini yaratishga, o'z davrining haqiqiy qahramonini ko'rsatishga urinadi. Ayni damda, undaylar haqiqat tarafida turgani uchun ham hayotda ro'shnolik ko'rmasligini urg'ulaydi. Xotam Sho'ro o'zi vasiylik qilgan hamqishloqlari yurtning katta rahbari bo'lsa-da, qishlog'iga bir tegirmon suv olib kela olmasligidan kuyinadi. Qurbonoy esa mohiyati bilan soxta qahramon. Bir nafasda "menbiroddiydehqonningqizi" deyishga o'rgatilgan, asli holvafurushning qizi

¹ Muhammad Do'st M. Lolazor. – Toshkent: SHARQ, 1998. – B.345.

² O'sha joyda.

³ Havel V. Kuchsizlar kuchi (Hamid Sodiq tarjimai). – Toshkent: Trust and support, 2023. – B. 23.

“Qurbonoy qizingizning tarjimai xolida ayrim nuqsonlar bor, masalan, uning yaqin o‘tmishda pistafurush-savdogar bo‘lgani – borib turgan qusur, lekin biz uchun uning *tuzalgani* muhim emasmi, o‘rtoq Yaxshiboyev”¹ deydi Oshno. E’tibor qilinsa, Oshno “yolg‘on joyi” demayapti, balki “tuzatilgani” deyapti. Zero Oshno uchun bu yolg‘on emas, aksincha, mafkuraga xizmat qiluvchi oliy haqiqat.

Vahti kelib Oshno yolg‘onni yaratishga shu qadar berilib ketadiki, endi u o‘zi to‘qigan yolg‘onlarga sidqi dildan ishona boshlaydi. Hatto shu darajaga boradiki, burnining ostini ko‘rmay qoladi. Romanda bu holat o‘tkir kinoyaga olinadi: “... minbarda Oshno, hay’atda – Yaxshiboyev, *doxillik* mayidan mast bo‘lgan mahalliy faollar <...> Yig‘ilganlarning ayrimlari istehzo bilan kulganini Oshno ko‘rmaydi. Yaxshiboyev ko‘radi lekin sirtiga chiqarmaydi”². Oshno obod maskanda, anvoyi gullar, yashil daraxtlar qurshovida jo‘shib nutq so‘zlarkan, bu uning kelishi oldidan tayyorlangan “vaqtinchalik dekoratsiya” ekanini bilmaydi. Yerdagi yorqin lolalar aslida tuvak gul ekanini, u ketgandan so‘ng yig‘ib olinishini va yana keyingi manzilga ekilishini, minbar ortida yashnab turgan teraklar esa qayerdandir kesib kelib shunchaki qadab qo‘yilganini sezmaydi, chippa-chin ishonadi. Shu sababli ham Yaxshiboyev bu qishloqqa suv kerak deganda “Bulduruqning suvi o‘ziga yetarli, nahotki yashnab turgan teraklarni ko‘rmagan bo‘lsangiz!?”³ deya jahl qiladi.

Oshnoning yolg‘onda yashashi yurtga juda qimmatga tushdi. U g‘o‘zashunos Aleksandr Shoymardonov bilan til biriktirib yurtni “obod” qilmoqni, hamma joyni paxtazorga aylantirmoqni niyat qiladi. Natijada, yurtda ekologik, epidemiologik talafotlar boshlanadi. Yaxshiboyev jo‘rasining bu holiga shunday ta’rif beradi: “... ikki ko‘zing ham ochig‘-u, hech baloni ko‘rmaysan. So‘qirlik yomon, loaqal o‘zingni sal chekkaroqdan turib kurolmasang yomon!”⁴

¹ O‘sha manba. – B. 347.

² O‘sha manba. – B. 324.

³ Muhammad Do‘st M. Lolazor. – Toshkent: SHARQ, 1998. – B.452.

⁴ O‘sha joyda.

Yozuvchi tobora “kolxoz”lashib borayotgan yurt kelajagidan qayg‘uradi. U xalqi boshiga kelgan qullik qismati, bog‘lari buzilib o‘rniga paxta ekilishi, daryolarning bo‘g‘ilishi, dengizning qurishi, odamlarning ham ma‘nan, ham jismonan mayib-majruh bo‘lishi – bari-bariga yurtning kattalari, ularning ish tutumini belgilovchi siyosiy madaniyat sababchi demoqchi bo‘ladi. Zotan, yurtda shakllangan siyosiy tafakkurga ko‘ra islohotlar xalq uchun, barchasi inson uchun emas, balki bir hovuch mansabdorning manfaati uchun, “ochko” uchun amalga oshirilishini ro‘y-rost ko‘rsatishga urinadi.

Xo‘sh, Oshno qanday qilib bu ahvolga tushib qoldi? Albatta, u o‘zi istab yolg‘on hayotni tanladi deb atash qiyin. Chunki, Yaxshiboyev Oshnodan qo‘rqib hamda nafsiga quloq tutib yolg‘on hayotga ko‘nganidek, Oshnoning tepasida ham “nado!” deb turguvchi Katta Paxtakor bor. Katta Paxtakorning tepasida yana bittasi... Hammadan tepada esa asliyati yolg‘on bo‘lgan mafkura turadi.

Murod Muhammad Do‘st o‘zining inson konsepsiyasi markaziga “yolg‘onda yashayotgan” shaxslarni qo‘yarkan, ularning taqdiri, o‘y-xayollari, ruhiy evrilishlarini Sho‘ro tuzumi tabiatidan kelib chiqib tasvirlaydi. Xulosa qiladiki, yolg‘on g‘oya asosiga qurilgan jamiyatda odamning to‘g‘ri bo‘lishi deyarli imkonsiz. Balki ayrimlar go‘yo “to‘g‘ri” yashagandek, lekin bu ham aslida yolg‘onning mezonlariga ko‘ra “to‘g‘ri”, romanda buning ochib berilishi esa, albatta, adibning mutafakkirona kashfiyotidir.

“Lolazor” milliy adabiyotimizda hokimiyatni anglashni, hukmron elitaga xos murakkab ruhiy tovlanishlarni ko‘rsatishni maqsad qilgan nodir asar. Shu ma’noda o‘lmas asar, o‘lmaski, “har kishining o‘z zamoni va o‘z Oshnosi bor”¹. Mutafakkir adib SSSR parchalangani bilan unga xos siyosiy tafakkur yangi hokimiyat vorislariga o‘tishini, asr boshlarida kommunizm otalari yaratib ketgan total, yolg‘on siyosat, xuddi, estafeta tayoqchasidek, “avtokratiya”, “demokratiya” kabi otlar bilan hali uzoq yillar yashashini sezganmi, eldoshu

¹ Muhammad Do‘st M. Lolazor. – Toshkent: SHARQ, 1998. – B.551.

tildosh ukalarim “o‘zga avlod odamlarining ahvolini tushunsa, o‘shalarning hayotini o‘z umriga juda qisqa bir muddat payvand qilsa, so‘ng o‘ylasa, ko‘p va xo‘p o‘ylasa! Qiynalib, azoblanib, kulib, yig‘lab o‘ylasa-da, minba‘d o‘zlari o‘sha yo‘riqqa tushmasa!”¹ deb niyat qiladi.

Qayd etish lozimki, Murod Muhammad Do‘st o‘zining inson konsepsiyasini davr va o‘zlikni anglashdek ulkan ehtiyoj pishib yetilganda, favqulodda katta mahorat bilan yaratdi. Keyingi davrlarda “Lolazor” kabi siyosiy tuzum va hukmron elitani anglashga qaratilgan romanlar yozilmadi. Sababi ehtiyoj bo‘lmadi. Zotan, biz roman badiiy voqeligida tasvirlangan siyosiy madaniyat, ijtimoiy-siyosiy munosabatlardan hali u qadar olislab ketganimizcha yo‘q.

2. 2. Mustaqillik davri romanchiligi: yangi inson

1991-yil O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini e‘lon qildi. Qariyb bir yarim asr davom etgan mustamlakadan so‘ng xalqimiz nafaqat siyosiy-iqtisodiy jihatdan, balki, tom ma’noda, ruhiy-ma’naviy jihatdan erkinlikka erishdi.

Mustaqillikdan so‘ng jamiyatda qaror topgan sifat o‘zgarishini bir so‘z bilan *plyuralizm* deyish mumkin. Zotan istiqlolning dastlabki yillarida yangi jamiyat xilma-xil qarashlar, g‘oya va manfaatlar ustiga qurila boshlandi. Ayni holat adabiy jarayonda ham kuzatildi. “O‘zgarishlarning mohiyati shundaki, ijodkor tafakkuri millat mentalitetiga yot mafkura asoratidan ozod bo‘ldi”².

Istiqlolning dastlabki yillarida o‘zbek romanchiligi ijodiy tajribalar maydoniga aylandi. Buning bosh sababi necha o‘n yillar davomida badiiy-g‘oyaviy tushov bo‘lgan mafkuradan adabiyotning ozod etilishi edi. Ya’ni erkin adabiyot, erkin odam haqida aniq badiiy konsepsiyaga ega bo‘lmagan ijodkorlar

¹ O‘sha joyda.

² Hamdam U. Istiqlol adabiyoti – ozod tafakkur adabiyoti // Istiqlol. Adabiyot. Tanqid. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 3.

tabiiy ravishda tajribalarga qo‘l uradilar va turli qarash va g‘oyalarga bog‘liq ravishda insonning turfa xil badiiy konsepsiyalarini taqdim etadilar.

Kimdir mavjudlikni falsafiy aspektda o‘rganib, modernizm, postmodernizm kabi yo‘nalishlar talqinidagi inson konsepsiyasini ilgari sursa, yana kim diniy-tasavvufiy ta’limotlarga murojaat etadi. Kimdir insonni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan talqin qilsa, boshqasi milliy-tarixiy omillarga tayanadi. Mazkur kuzatishlarni tizimlashtirib, inson konsepsiyasini yaratishga doir quyidagi tendensiyalarni alohida qayd etish mumkin:

1. Sho‘rolar zamonini anglash orqali mustaqillikni va erkin shaxsni anglash.
2. Tarix va tarixiy shaxslarni bilish orqali o‘zlikni anglash.
3. O‘tish davridagi voqealarni baholash orqali bozor iqtisodiyoti va ekonomik odamni anglash.
4. Insonni diniy-tasavvufiy kontekstda o‘rganish orqali komil insonni anglash.
5. XIX asr G‘arb faylasuflarining ta’limotini o‘zlashtirish orqali absurd odamni anglash.
6. Sharq va G‘arb tafakkurini sintez qilish orqali insonni global miqyosda anglash.

Kuzatuv va tahlillarimizdan ma’lum bo‘ldiki, mustaqillik davri o‘zbek romanlari markazida erkin inson konsepsiyasi turadi. Ijodkorni ko‘proq insonning erki, qadr-qiymati va sha’ni qiziqtiradiki, bu ayni postkolonial, posttotalitar jamiyat tafakkuriga xos tabiiy jarayondir. Ya’ni uzoq yillar davomida erki bo‘g‘ilgan odam ozod etilgach, albatta, shu erkinlikni anglashga urinadi.

Bir qarashda, *erkini anglash* masalasi jo‘ngina jarayondek tuyilishi ham mumkin. Biroq u aslida juda ham chuqur ruhiy-ijtimoiy muammo bo‘lib, ijodkor jamiyatning ijtimoiy ongida “qulliq”, “mutelik” alomatlari hali-hamon saqlanib qolganini his qilgani uchun ham mazkur mavzuga qayta-qayta murojaat qiladi.

Shuning uchun ham Sho‘rolar davri, sobiq mustabid tuzum voqealarini badiiy idrok etish mustaqillik davri romanlarining bosh mavzusiga aylangan.

Mustaqillik davri romanlaridagi inson konsepsiyasining bosh mavzusi Sho‘ro tuzumi hamda paradoksal shart-sharoitda umr kechirgan insonning mavqei masalasi bo‘lgan. Romannavislar istiqlol yillarida turib o‘tmish manzaralariga qaytish, voqea-hodisalarni qayta baholash va ko‘p hollarda, o‘tmishni o‘zlari yashayotgan davrga qiyoslashga ehtiyoj sezganlar. Mazkur tendensiya qariyb 25-yil, to 70–80-yillarda shakllangan adabiy avlodning ijodiy faolligi tabiiy ravishda so‘na boshlagunga qadar davom etdi. Bunday asarlar sirasidan “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Adolat manzili”, “Kapalaklar o‘yini”, “Jaziramadagi odamlar”, “Shovqin”, “Ro‘yo yohud g‘ulistonga safar”, “Go‘ro‘g‘li” va yana o‘nlab romanlarni sanash mumkin.

“O‘tmishni xotirlash” tendensiyasining eng so‘ngi yorqin namunalari sifatida Erkin A‘zamning “Shovqin” (2011), Ahmad A‘zamning “Ro‘yo” (2011), Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” (2012) romanlarini ko‘rsatish mumkin. To‘g‘ri, bu asarlarda go‘yo o‘tmish voqealari xotirlansa-da, ko‘proq roman yozilgan davr muammolari nazarda tutilgandek ko‘rinadi. Ya‘ni yozuvchi bugungi kun yuzasidan xulosalarini o‘tmish manzaralari orqali aytishga urinayotgandek taassurot qoldiradi. Lekin nima bo‘lganda ham romaniy voqelik o‘tmishdan ekani kundek ravshan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, nima sababdan davr romannavislari o‘zlarining inson konsepsiyasini o‘tmish manzarali fonida yaratishni maqsad qildilar, o‘ziga xos an‘anaga aylangan mazkur fenomenal hodisaning asl sabablari nimada? Quyida mazkur omilning qator subyektiv va obyektiv sabablarini ko‘rsatishga harakat qilamiz.

Obyektiv sabablar:

a) **Senzura.**

Sho'rolar tuzumining total nazorati ostida ijodkor o'z davrining muammolarini ayta olmagan. Istiqloldan so'ng shu muammolarni aytish imkoni tug'ilgan.

b) Aksilsenzura.

Mustaqillik davrida ijodkor senzura bosimi sabab o'z davridagi muammolarni ayta olmagan va buni Sho'rolar davri manzaralari vositasida ifodalashga uringan.

v) Badiiy ijod xususiyati.

Muayyan davr va voqelik qachonki o'tmishga aylansagina chinakam estetik obyektga aylanishi mumkinligini ko'plab mutaxassislar qayd etgan. Xususan, X.Ortega-i-Gasset "Muayyan bir fakt haqida haqqoniy fikr yuritishimiz uchun biz undan shunchalik olisda bo'lishimiz kerakki, toki u mavjudligimizning tirik qismi sifatida yashamasin"¹ deb yozgandi. Ya'ni ijod tabiatiga ko'ra, odatda san'atkor o'zi bosib o'tgan yo'lni sarhisob qiladi, badiiy idrok etadi. Ayniqsa, romandek epik ko'lami keng janr uchun bu juda muhim olim (Albatta, ijodkorning o'zi yashab turgan davri haqidagi romanlar ham kam emas. Bunday asarlarning tabiati haqida ishning 3-bobida to'xtalib o'tganmiz). Yozuvchi o'z romani misolida olam va odam haqida yaxlit hukm – badiiy konsepsiya taqdim etmoqchi ekan, tabiiyki, "badiiy mo'ljal"ni hukm va xulosalari pishib yetilgan (o'tgan) davrga qaratadi. "Tarixiy voqealar, – yozadi D.Quronov, – (aytaylik, muayyan jamiyat hayotidagi bir bosqich) mohiyatining ular yuz berayotgan vaqtda badiiy idrok etilishi mahol. Bu holda obyektiv kuzatish imkoniyati torayganidan asarda tendensiozlik kuchayib ("Chodralik ayol", "Amu", "Unutilgan sohillar", "Jimjitlik"), mohiyatining birmuncha chetda qolishi xavfi ortadi"².

d) Yangi mafkura talabi.

¹ Ортега-и-Гассет Х. Эстетика словесного творчества. – Москва: Радуга, 1991. – С.509.

² Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 108.

Garchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12 moddasida “Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas”¹ deb qayd etilgan bo‘lsa-da, o‘tgan davr mobaynida Milliy istiqlol g‘oyasini yagona mafkura sifatida belgilashga jiddiy urinishlar bo‘ldi. Maktab va oliy o‘quv yurtlarida shu nomdagi darslar tashkil etildi. Mazkur mafkura o‘z oldiga qo‘ygan muhim vazifalardan biri “istibdod davri asoratlari, qullik va mutelik kayfiyatlarining ongimizda, tafakkurimizda saqlanib qolayotgani sabablarini tahlil etish, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish zarurati bilan bog‘lik vazifalarni hal etish”² bo‘lgan. Shu ma’noda, yozuvchining Sho‘rolar davrini badiiy idrok etishga kirishishini ijtimoiy buyurtma sifatida ham baholash mumkin.

Subyektiv sabablar:

a) Mustaqillikni anglash ehtiyoji.

Sir emas, 1991-yil O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga kurashlar, qon to‘kishlar evaziga erishmadi. Balki SSSRning parchalanishi oqibatida mustaqillikni e‘lon qilish majburiyati yuzaga keldi. Hatto, o‘sha vaqtlarda davlatning ichki imkoniyati, ishlab chiqarish salohiyatini sovuqqonlik bilan tahlil qilgan ayrim siyosatchilar SSSR tarkibida qolish uchun ham kurashdilar. Xullas, tarixni xolis baholashni istasak, mustaqillik nashidasi sobiq Ittifoq davlatlariga kutilmaganda kelib qolganini e‘tibordan qochirmasligimiz kerak. Ana shunday chigal vaziyatda ijodkorlar “o‘z qo‘llaridagi” mustaqillikni, ozod jamiyat va erkin odamni anglashga ehtiyoj sezadi. Bu anglash esa ozod jamiyatni o‘tmishning qora kunlari bilan chog‘ishtirishda amalga oshiriladi.

b) Ijodkorning ulg‘ayishi.

Ulg‘aygan odam tabiiy ravishda xotiraga moyil bo‘lib qoladi va o‘tmishni sarhisob qilishga ehtiyoj sezadi. Ko‘p yozuvchilar Sho‘rolar davri manzaralarini qalamga olarkan, o‘zlari bosib o‘tgan hayot yo‘lini anglashga urinadilar.

¹ <https://constitution.uz/uz>

² Ergashev I. va b. Milliy istiqlol g‘oyasi. – Toshkent: Akademiya, 2005. – B. 11.

v) **O‘tmishni qumsash.** Istiqlolning dastlabki yillari davlatimiz iqtisodiy jihatdan juda og‘ir ahvolga kelib qolgani, jamiyatning turli jabhalarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar ziyolilarni bir muddat depressiya tushirgani sir emas. Ana shunday kezlarda jamiyatda intuitiv ravishda o‘tmishni qumsash, ijodkor ruhiyatda kognitiv dissonans, paradoksal kayfiyat vujudga kelgani rost. Bunday kayfiyat o‘tish davrida yozilgan qator romanlarda aks etgan. Xususan, Shukur Xolmirzayevning “Dinozavr” romani bosh qahramoni Mahkam obrazida ana shunday kognitiv dissonans holati alohida urg‘ulangan. Mahkam mustaqillikni orziqib kutgan, u bu ne‘matni qadrlaydi, biroq ayni vaqtda o‘tmishdagi farovonlikni qumsaydi. Aytmoqchimizki, “nostalgiya” kayfiyatiga tushib qolgan ijodkor, bu chigal vaziyatdan avvalo o‘zini, so‘ng jamiyatni qutqarish ehtiyojini his qilgan. Shu tufayli erkinlikning tub mohiyatini anglash uchun sobiq Ittifoqning qabih jinoyatlari, inson sha‘ni va qadri toptalgan zamonni eslash, badiiy idrok qilish zarurati tug‘iladi. Erkin inson konsepsiyasini yaratarkan, ijodkor shu yo‘l bilan o‘zi va jamiyat uchun taskin qidiradi.

d) **“Shaxsiy uyat” hissi.**

Istiqlol yillarida turib Sho‘rolar davrini badiiy idrok etish ehtiyojining subyektiv omillaridan yana biri “shaxsiy uyat” hissini yengish, ijodkorning ruhiy-ma’naviy jihatdan yangi zamon bilan tezroq qovushib ketish istagidan bo‘lishi mumkin.

Sir emas, sobiq Ittifoq qulagan dastlabki yillarda jamiyatda ma’naviy parokandalik kuzatildi. Ayniqsa, yoshi 50-60 dan oshgan ziyolilarda ruhiy-ma’naviy zo‘riqish kuchli bo‘ldi. Sababi ular bir umr to‘g‘ri deb bilgan, sadoqat bilan xizmat qilgan, o‘rni kelganda sharaflagan mafkuraning sarob ekani ma’lum bo‘ldi. Endi ziyolilar nafaqat shu sarobni tan olishi, balki qoralashi zarur ham edi.

Yoshini yashab qo‘ygan odam uchun aldanganini, qilgan ko‘p ishlari esa sarob ekani tan olish juda og‘ir. Ziyolilardagi ayni shu kechinmani O.Sharafiddinov “E’tiqodimni nega o‘zgartirdim” nomli maqolasida ro‘y-rost, butun murakkabliklari bilan ochib berishga uringani ham bejizga emas: “Axir,

men 30-yillik partiya a'zosi edim, 60 yoshga kirganda partiyadan chiqdim, butun umrim davomida mamlakat haqida, xalq to'g'risida yaxshi gaplar aytib kelgandim, bugun esa o'zimning kommunistik o'tmishimni astoydil qoralash bilan bandman"¹. Olim mazkur maqolasi bilan e'tiqodini o'zgartirganini mardonavor tan oladi va buning sabablari ko'rsatib o'tadi. Umuman, maqolani o'qib muallif avvalo o'zi, so'ng o'zidek ziyolilar uchun taskin qidirganini, o'z holatini tushuntirishga uringanini anglash qiyin emas.

Shu tariqa, umrining asosiy qismini yolg'on mafkuraga bag'ishlaganini anglab yetgan mo'ysafid(lar)ning iztiroblari aks etgan qator romanlar yozildiki, ular jumlasidan, O'tkir Xoshimov "Tushda kechgan umrlar" (1992), Odil Yoqubovning "Adolat manzili" (1994), Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlari e'tiborga molik.

Istiqlolning dastlabki yillarida O'tkir Xoshimov "Tushda kechgan umrlar"² romani bilan birinchilardan bo'lib Sho'ro tuzumi, o'zbek millatining 70-yillik azob-uqubati va fojiasi ko'lamini anglashga urinadi. O.Sharafiddinov mazkur asarga "konkret insonlar taqdiri orqali farmonbardor ma'muriy tizim deb atalgan tuzumning, hukmron kommunistik mafkuraning g'ayriinsoniy mohiyatini fosh qiluvchi romandir"³ deya ta'rif beradi.

O'.Xoshimov roman markazida ikki qahramonning parallel qismatini tasvirlaydi. Ularning biri, sho'rolarning yolg'on siyosati, bosqinchilik manfaatlari, bema'ni gegemoniyasi yo'lida qurbon bo'lgan 22 yoshli Rustam bo'lsa, ikkinchisi, soxta g'oyalarga o'z umrini baxshida qilgan va manqurtga, tirik murda aylangan Soat G'aniyev – Komissar obrazlaridir. Bu ikki qahramonning butun umri, ko'rgan-kechirganlari fojia. Eng yomoni, ular yolg'on mafkura asosiga qurilgan jamiyatda o'zligini anglay olmaydilar.

¹ Sharafiddinov O. E'tiqodimni nega o'zgartirdim // Tanlangan asarlar. – Toshkent: SHARQ, 2019. B.155.

² Xoshimov O'. Tushda kechgan umrlar // Sharq yulduzi, 1992. №6–7.

³ Sharafiddinov O. El ardoqlagan adib // O'tkir Hoshimov zamondoshlar nazdida. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2011. – B. 34.

Komissar – tuzumning o‘zi yaratgan “yirtqich maxluq”. U butun umr ongli ravishda tuzum va mafkuraning sodiq quli, qalqoni bo‘lib yashadi. O‘ziday fikrlamagan har qanday odamga zulm qildi, qanchadan qancha begunohning yostig‘ini quritdi. Lekin u o‘z qilmishlarini mutlaq to‘g‘ri, xalq farovonligi va kommunistik kelajak uchun xayrli deb bildi. Shu ma’noda Komissar sobiq Ittifoq jamiyatida na o‘z faoliyati va na tuzumning mohiyatini anglab yetgan katta bir guruhning tipik vakili.

Soat G‘aniyevdan farqli o‘laroq Rustam tuzumning ongli qurboni emas. Ya’ni tuzum Rustamga boshqacha yashashga imkon qoldirmagan. U fojiaiy qismatga mahkum etilgan shaxs.

Harbiy xizmatga chaqirilgan Rustam afg‘on urushiga olib ketiladi. Urush yigitni ham ruhan, ham jismonan majruh qiladi. Rustam urushdan yurtiga qaytarkan, yana bir urush – “o‘zbek ishi”, “paxta ishi” kabi talato‘plar qarshisidan chiqadi. Bu orada otasi tuhmat bilan qamaladi. Urushdagi jarohat tufayli erkakligiga putur yetgan yigit shaxsiy turmushda ham baxt topa olmaydi. U insonning erki, qadr-qiymati toptalgan jamiyatda yashashdan ma’ni yo‘q degan xulosaga kelib o‘z joniga qasd qiladi.

Romanda adibning g‘oyalari Rustamning otasi Shomansur Shomatov so‘zlarida yaqqol ko‘rinadi: “o‘ylab qarasam, o‘tgan umrim – umr emas, tush ekan. Go‘yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirgan-u tush ko‘rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko‘rib. O‘sha “birov” qayoqqa sudrasa ketidan ergashib ketaverganman... Uyg‘onishga esa qo‘rqqanman... Mana endi, uyg‘onib, yon-verimga qarasam menga o‘xshaganlar ko‘p ekan”¹. Shomansur Shomatov bir umr tuzum va mafkuraga halol xizmat qilib kelgan shaxs. Lekin yoshi bir joyga borganda ko‘zi ochiladi, yolg‘on, manfur tuzum uchun mehnat qilganini anglab yetadi. Ayni shu hislar uning butun fojiasini

¹ Xoshimov O‘. Tushda kechgan umrlar // Sharq yulduzi, 1992. № 7. – B. 58.

mujassam etadi: “inson uchun o‘zi bosib o‘tgan hayot yo‘lining ma’nisiz ekaniga amin bo‘lishdan alamliroq taqdir yo‘q”¹.

O‘.Xoshimov o‘z qahramonlari taqdirini tushdagidek alg‘ov-dalg‘ov, bema’ni voqealar zahirida tasvirlarkan, Sho‘rolar davrida yaxshi ham, yomon ham insondek yashay olmaganini, aniqrog‘i u yoki bu shaklda mafkuraga aldanganini aytmoqchi bo‘ladi. Shuning uchun ham roman “Tushda kechgan umrlar” deb nomlanadi. Adibning inson konsepsiyasida ijtimoiy shart-sharoit imkon bermas ekan, kishi har qancha urinmasin o‘zini anglash va namoyon etish baxtidan mahrum degan g‘oya ustuvorlik qiladi.

Odil Yoqubovning “Adolat manzili” nomli romani mohiyatan “Tushda kechgan umrlar”dan jiddiy farq qilmaydi. Undagi inson konsepsiyasi markazida ham “aldangan shaxs” fojiasi turadi. Roman qahramoni qariyb sakson yoshlik Sherbo‘ta Norbo‘tayev – Veteran butun umr yolg‘on tuzumga xizmat qilganini juda kech anglab yetadi. Mustaqillik davri romanlari bo‘yicha yaxlit va yirik tadqiqot olib borgan adabiyotshunos Islom Yoqubov bu haqida shunday yozadi: “Yarim asrlik umrini Hukumat ishiga bag‘ishlagan Veteran noinsof, diyonatsiz, battol, haromxo‘rlar, muttaham amaldorlarga ro‘baro‘ bo‘lar ekan, o‘zini bolalarcha ojiz sezib, o‘kinch-armon bilan: “Yo‘q, sho‘ro hukumati yo‘q endi! ... Essiz bu hukumatga bag‘ishlagan yarim asr umrim!”, – deya xitob qiladi”².

Xuddi “Tushda kechgan umrlar”dagi kabi “Adolat manzili”da ham “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” kabi nomlar bilan tarixda qolgan alg‘ov-dalg‘ov zamon manzaralari tasvirlangan. Unda Moskvadan yuborilgan tergovchilarning istalgan xizmatchining uyiga bostirib kirib tintuv qilishi, har turli bo‘htonlar bilan jinoyat ishi ochib qamoqqa olishi, qanchadan-qancha oilalarning parokanda etilishi ishonarli tarzda jonlantiriladi. Bu romanda ham nohaq qamalgan otasi uchun

¹ Sharafiddinov O. El ardoqlagan adib // O‘tkir Hoshimov zamondoshlar nazdida. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – B. 34.

² Yoqubov I. O‘zbek romanining ma’naviy-ruhiy asoslari // Sharq yulduzi, 1992. № 4. – B. 111.

iztirob kechayotgan, o‘zini har joyga urib bir misqol ham adolat topa olmagan va joniga qasd qilishga uringan o‘g‘il qismati mavjud.

Tog‘ay Murodning “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida esa biroz boshqacharoq munosabatga duch kelamiz. Agar “Tushda kechgan umrlar”, “Adolat manzili” romanlarida o‘tgan umrining yolg‘on ekanini anglab yetgan va shu umrga achinayotgan qahramon jonlansa, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida yolg‘on ekanini anglasa-da umridan rozi bo‘layotgan shaxs turadi.

I.Yoqubov “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romani haqida so‘z yuritib, yozuvchi asar qahramoni Botir firqa misolida “tarixda o‘z o‘rnini belgilashga urinayotgan, mehnatkash va vijdonli, tabiatan kamtar, halol, pokiza insonni tasvirlaydi”¹ deb yozadi. Chindan ham Botir firqa bir umr o‘zi to‘g‘ri deb bilgan tuzumga sidqidildan halol xizmat qildi, katta-kichik mansablarda ishlab xalqi uchun ko‘p xayrli ishlar qildi. Biroq mustaqillikka kelib odamlar uni “qizil” deb so‘ka boshladi. Mafkuraning sodiq xizmatchisi bo‘lganini aytib ta’na qilishdi. Biroq Botir firqa o‘tgan hayotini sarhisob qilarkan, barcha ishlari ham sarob emas ekanini anglaydi, “tarixda o‘z o‘rnini belgilashga” urinadi. “Botir firqa o‘zi uchun “Biz ekkan chinorlar... Buyuk ipak yo‘li bo‘ldi” degan haqiqatni kashf etdi, “Biz endi Buyuk ipak yo‘lida yuramiz”, deya faxr etdi. Avvalgi biz boshqa, keyingisi boshqa. Avval u o‘zini tamom ortiqcha sezgan, o‘zini eldan ajratgan edi – endi qo‘shilyapti, uni “qizil” deya chiqitga chiqarmoq bo‘lishgandi – chiqarolmadilar: “Odamning chiqiti bo‘lmaydi”; uni songa qo‘shdilar – u qayta tirildi”².

T.Murodning “Sho‘ro odami”ga nisbatan ayrica munosabatini uning O.Yoqubov va O‘.Xoshimovga nisbatan yoshroq bo‘lgani bilan izohlash ham mumkin. Ya’ni katta avlod vakillarida tabiiy ravishda “uyat hissi” vujudga kelgani rost (O.Sharafiddinov maqolasida ko‘rib chiqdik). Zotan, ular bir vaqtlar sharaflagan, qo‘llab-quvvatlagan tuzum quladi. Qulaganda ham qabih yolg‘onlari

¹ Yoqubov I. O‘zbek romanining ma’naviy-ruhiy asoslari // Sharq yulduzi, 1992. № 4. – B. 111.

² Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 105.

bilan bo'y ko'rsatib turib quladi. Shunday ekan, katta avlod vakillari yangi zamonda o'zlarini noqulay sezishi, o'tgan umri va ishlariga achinib qarishi tabiiy. Bu ularning asarlarida ham aks etgan. T.Murod esa "uyat hissi"dan birmuncha forig' bo'la oladi (70–80-yillar avlodi "kommunist ijodkor"larga muxolif o'laroq maydonga chiqqani sir emas). Shu sababdan ham T.Murod tevaragidagi qariya "qizil"larga achinadi, bir vaqtda, ularni tushunishga, qilgan ishlariga haqqoniy baho berishga urinadi, inson konsepsiyasini gumanizm asosiga quradi.

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" nomli romanida ham Sho'rolar davri qalamga olinadi. Adib insonni fojiaiy turmushning mutlaq ichidan turib, alam va iztirob bilan tasvirlaydi. Ya'ni uning qahramonlari biz o'tgan faslda tahlil qilgan "Lolazor"dagi qahramonlar kabi ijtimoiy munosabatlarni yuqoridan turib baholashga, milliy tanazzulga sabab bo'layotgan ruhiy-ma'naviy, ijtimoiy omillar bilan ziddiyatga kirishishga ko'p ham urinmaydi. Shu ma'noda, mazkur romanda o'zligini anglagan yoki o'zligini namoyon etgan qahramonlarni uchratmaymiz.

Umuman olganda, adib roman oldiga bu kabi maqsadlari qo'ymaydi. U o'zbek millatining mustamlakachilik siyosati ostida o'tgan 130-yillik fojiaiy hayotini bor-boricha, ayrim o'rinlarda biroz bo'rttirib, ramziy voqelikka mos ravishda hayot haqiqati va realistik tamoyillardan biroz chekinib tasvirlaydi. "Unda hammamizning – "dehqon" ("dehqon" – yer egasi demak emasmi?!) bo'la turib "qul"likda umrguzaronlik qilgan sizni bizning kayfiyatimiz, parchalangan zanjirlar ustida turgancha kechmishimizga sog'lom nazar solgan, mustabid tuzumni yanib turgan holatimiz akslangan"¹. T.Murodning inson konsepsiyasida o'zining fojiaiy umrini anglashga urinayotgan shaxs emas, butun hayoti fojiada o'tgan inson tasviri pirovard maqsad bo'lgan.

Umarali Normatov romanda Dehqonqul obrazi o'zbek xalqining timsoli sifatida tasvirlanganini aytarkan, yozuvchini "birinchi galda Dehqonqulni qul,

¹ Qurnov D. Qalblarni larzaga solgan xirgoyi // Murod T. Tanlangan asarlar. – Toshkent: SHARQ, 2012. – B. 13.

mute qilib shakllantirgan hayotiy omillar”¹ qiziqtirganiga e’tibor qaratadi. Ya’ni muallif bosh qahramon misolida jo’mard o‘zbekning mute dehqonga evrilishini muayyan tadrijiylikda tasvirlaydi.

Dehqonqulning bobosi asli farg‘onalik Jamoliddin ketmon diyonatli, jasur va tanti kishi bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiyasi qo‘shiniga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlarda ishtirok etib, ta’qibga tushadi. Keyincha, “Kofir yumalab yotar dalada fayz qoladimi?” deb Surxon taraflarga kelib qoldi. Dehqonqulning dadasi ham bosqinchi o‘rislarga qarshi kurashgan jasur o‘g‘lonlardan. U Sho‘rolarning “biz to‘ng‘ich, siz kenjasiz”, “biz sizlarning katta akalaringiz bo‘lamiz”, “sizlar bizga bo‘ysunishlaringiz lozim” degan gaplarini hazm qila olmay milliy ozodlik harakati ishtirokchilari safiga kiradi, Aqrab qo‘rboshi nomi bilan dong‘i chiqadi. So‘ngi nafasgacha bo‘yin egmay, mardonavor halok bo‘ladi. Biroq Dehqonqulga kelganda ana shu mardlik silsilasiga putur yetadi. Endi qo‘rqoq va mute avlod shakllana boshlaydi. Biroq bu avlod o‘z-o‘zidan mute bo‘lib qolmadi. Mustabid tuzum ularni dini, qadriyatlarini, o‘zligidan ayirib ana shunday ahvolga soldi. “O‘z yaratuvchisini tanimagan, unga e’tiqod qilmagan, tanimog‘i va e’tiqodli bo‘lmog‘i uchun fursati qoldirilmay, mehnatga quldek bog‘lab tashlangan insonning o‘zini tanimog‘i, o‘ziga e’tibor qilmog‘i dushvor ekani romanda butun dahshati, ba’zan esa, hatto naturalistik darajadagi ko‘rinishlari bilan namoyon bo‘ladi”².

Yozuvchi Dehqonqulning mute shaxs sifatida shakllanish tadrijiga e’tibor qaratarkan, bu jarayon uning bolaligida – 5-sinfda ilk bor paxta dalasiga chiqqan vaqtdan boshlanganiga ishora qiladi. O‘shanda bolalar paxta terishga ketsak o‘qish nima bo‘ladi deb so‘rashganda, direktor “Paxtazor – daftaring bo‘ladi, g‘o‘zalar husni-xating bo‘ladi!” deya javob beradi. Ya’ni tuzum bolalarning o‘qishidan manfaatdor emas, tuzum maqsadli ravishda faqat mute dehqonni

¹ Normatov U. Nafosat gurunglari. – Toshkent: Muharrir, 2010. – B. 220.

² Qo‘chqor R. “O‘tkan kunlar”ning davomi (<https://ziyouz.uz/matbuot/mustaqillik-matbuoti/rahmon-quchqor-utkan-kunlar-ning-davomi-1993/>)

ko‘zlaydi. Yo‘qsa, hali paxta terish tugul, etakni eplab bo‘yniga ila olmaydigan bolalarni dalaga haydashda qanday ma’ni bor?

Mazkur haqiqatlar romandan olingan quyidagi ramziy vaziyatda butun fojiasi bilan mujassam topgan: “Adabiyot etagim ikki uchini belimga aylantirib boylaydi. Tag‘in ikki uchini bo‘ynimga osib tugadi”¹. Bu o‘rinda “adabiyot” ham ta’lim, ham ma’naviyat, ham muallimni anglatadi. Odamni shaxs sifatida shakllantiruvchi ayni shu omillarning o‘zi murg‘ak bolaning bo‘yniga “sirtmoq” taqmoqda. Shu tariqa u “totalitar tuzum, qizil imperiya siyosati tarbiyalab yetishtirgan “mehnat kishisi”, “yangi inson” timsoli, mustabid hokimiyat munofiqona mafkurasining tirik qurboni”ga² aylanadi.

Tog‘ay Murod mute inson konsepsiyasi orqali odamning muayyan davr va shart-sharoitda shaxslik alomatlarini yo‘q qilishga urinish qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkinligi ochib bergan. Adib mute dehqonning fojia-viy umrini ko‘rsatish barobarida, o‘zini va millatining qismatini anglashga urinadi.

Erkin A‘zamning Sho‘rolar davri haqidagi “Shovqin” romanida asoratlari hatto hozirga qadar davom etib kelayotgan millat muammosi ko‘tariladi. Yozuvchi sobiq Ittifoq davrida o‘zbekning millat sifatidagi xos xususiyatlari yemirilgani va buning oqibatlari haqida yozadi. Mazkur muammo istiqlol yillaridagi ko‘plab romanlarda e’tiborga olingan bo‘lsa-da, E.A‘zam boshqalardan farqli o‘laroq, inson konsepsiyasida millatning sifat masalasini ustuvor qo‘yadi. Ya’ni yozuvchi boshqa romannavislar urg‘ulaganidek inson fojiasini ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ekologik muammolar fonida emas, balki tanazzulga yuz burgan millat axloqi doirasida ochib berishga urinadi.

E.A‘zamni Sho‘ro davri shart-sharoitida o‘zbekning putur yetgan g‘ururi, sha’ni, tili, tafakkur tarzi va ayniqsa millat geni (genofondining tozaligi) ko‘proq qiziqtiradi. Shu ma’noda, “Shovqin” Sho‘ro siyosati va mafkura targ‘iboti sabab “baynalmilallashib”, “duragaylashib”, ittifoq parchalangandan so‘ng esa

¹ Murod T. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: Sharq, 1994. – B.30.

² Normatov U. Nafosat gurunglari. – Toshkent: Muharrir, 2010. – B. 220.

dunyoning turli burchaklariga sochilib ketgan butun va “chala o‘zbek”lar qismati haqidagi romandir.

Erkin A‘zam inson konsepsiyasida o‘zining muayyan millatga, o‘ziga xos xarakterga daxldor ekanini anglamaydigan, anglasa ham ayni shu sifatlardan soqit bo‘lishga urinadigan kimsalarni tanqid ostiga oladi. Adib mazkur g‘oyani amalga oshirish uchun eng baynalmilal soha egalari – kino ijodkorlarining hayotiga yuzlanadi. Umummillatga xos muammoni bir soha vakillari qismati misolida ochib beradi.

Sho‘ro davrida asos solingan o‘zbek kinosi dastlab mahalliy mutaxassislar evaziga emas, asosan ittifoqning turli hududlaridan kelgan kinochilar hisobiga rivojlangani ma‘lum. Keyinroq, o‘zbek millatiga mansub kinochilar soni ortsa-da, ular ham sohaning o‘ziga xos “talabi” bilan ruslashib, yozuvchi ta‘biri bilan aytganda “duragaylashib” qoladilar. Alaloqibat, bu hol o‘zbek kinosining sifatiga, milliy xarakterning ifodasiga jiddiy salbiy ta‘sir o‘tkazadi. Yozuvchi ayni shu nuqtaga e‘tibor qaratib, o‘z xarakteriga ega bo‘lmagan millatning milliy kinosi, umuman, san‘ati ham bo‘lmasligini aytmoqchi bo‘ladi. O‘zbek kinosining jahon miqyosida tan olinmasligi, e‘tirof etilgan kino ijodkorlarning deyarli yo‘qligini ayni milliylikning, o‘ziga xoslikning yo‘qligi bilan izohlaydi.

“Shovqin” romanining voqealari taniqli kinodramaturg Farhod Ramazonovning uchoqda, Toshkentdan Moskvagacha bo‘lgan yo‘ldagi o‘y-hayollari, xotiralari asosiga quriladi. Adib olamga Farhod Ramazonov ko‘zlari bilan nazar soladi, voqea-hodisalarni uning kechinmalari, o‘y-xayollari asosida baholarkan, o‘zining inson konsepsiyasiga doir hukm va xulosalarini shakllantiradi.

Romanda Sho‘ro tuzumining qulash pallalari, asosan, 1990-91-yil voqealari qalamga olingan. U vaqtlarda Farhod Ramazon hali yosh bo‘lsa-da, o‘zbek tilida suratga olingan birinchi o‘zbek filmi ssenariynavisi sifatida tanilib ulgurgan. U asarda anchagina millatparvar shaxs sifatida tasvirlanadi. Shu sabab,

otasi “Fidellar, Anjelayu Robertinolar zamoni”da¹ havas qilib qo‘ygan asl ismi “Fidel” ekanini birovga bildirmaydi. Yozuvchi ism mavzusiga to‘xtalarkan, “U zamonda o‘zi hammaning oti shunday qo‘sha-qo‘sha bo‘lardi: Ravshan – Roma, Gulsum – Gulya, Sobir – Sashka, Zuhra – Zoya va hokazo”² deya izoh beradi. Umuman, romanda biror qahramon yo‘qki, ismining ana shunday ruscha muqobili bo‘lmasa. Qolaversa, bu kino ijodkorlarining aksari tayinli o‘zbek ham emas, “Tavba, bunisiyam aralash! – dedi u ichida. – Shunday bir toifa paydo bo‘lgan o‘zi. Duragay keyin duragayini topadi. Bora-bora qonlari aralash-quralash bo‘lib ketadi. “Aralashfilm” mahsuloti!”³ Lekin ayni holat ayrimlarga yoqadi, ayniqsa, “kommunist bobo”lar baynalmilal oiladan ekanini aytib faxrlanadilar. “O‘zbekning o‘zi-chi? Qoni aralashib ketsa, o‘zbek deganimiz nima bo‘ladi”⁴, deya xunobi chiqadi qahramonning.

Millatning “duragaylashishi”, “baynalmilallashishi” dastlab ijodga, alaloqibat, millat xarakteriga salbiy ta’sir etishi romanda mahorat bilan ochib berilgan. Farhod Ramazonovning ssenariylari qanchalik yaxshi bo‘lmasin, ko‘p asarlari “milliy-ekzotik bo‘yoqlar me‘yoridan ortiq”⁵ degan vaj bilan o‘tkazilmaydi. Qizig‘i, ayni shunday “ayblov” qo‘yayotganlarning o‘zi ham o‘zbek kinochilari. Omma san’ati bo‘lgan kinoning “milliy-ekzotik bo‘yoqlar”dan tozalanishi, millatning “aynish” jarayonini yanada tezlashtiradi. Endi bu jarayon kinochilar muhitidan chiqib keng ommaga yoyila boshlaydi. Yozuvchi talqinida xotinini birovdan qizg‘onmaydigan erkaklar, qo‘ldan-qo‘lga o‘tib yuradigan aktrisalalar, erli bo‘la turib gastrolma-gastrol yallo qilib yuruvchi kinokelinlar... bularning bari “duragayparast”lar.

Yozuvchi Sho‘rolar zamonida boshlangan “aynish” jarayoni mustaqillikdan keyin ham davom etayotganiga, zamonaviy kinochilar ham

¹ A’zam E. Shovqin. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B.16.

² O‘sha manba. – B. 17.

³ O‘sha manba. – B. 38.

⁴ O‘sha manba. – B. 57.

⁵ O‘sha manba. – B. 40.

eskilarining ma'naviy vorisi ekaniga ishoralar beradi: "Hammayoq o'zbekcha, O'zbekiston bo'lib ketganiga falon yil o'tdi-yu, bular hamon o'sha "ikkinchi ona til"larini qo'ymaydi. Filmni ovozlashtirganda binoyidekkina o'zbekcha sayrab berishadi-yu, o'zaro gap-so'zga kelganda mana shu ahvol!"¹ Muxtasar qilganda, E.A'zam baynalmilal, duragay shaxs konsepsiyasi orqali milliy fojiani ochib bergan.

Tarixiy romanlar yozish tendensiyasi istiqlol yillari o'zbek adabiyotida kuzatilgan yana bir yirik hodisadir. Yozuvchilar xalqimizning qadim va yaqin tarixini jonlantirish, o'tmishda yashab o'tgan ulug' ajdodlarimiz siymosini yaratish orqali istibdod davrlari jamiyatda yo'qola yozgan milliy o'zlikni shakllantirishga uringanlar. Bunday romanlar sirasidan "So'g'd o'g'loni", "Ibn Sino", "G'aznaviylar" (Maqsud Qoriyev), "Ahmad Yassaviy", "Tangri qudug'i", "Sulton Jaloliddin" (Sa'dulla Siyoyev), "Turon malikasi", "Movarounnahr" (Mirmuhsin), "Sarbadorlar", "Ulug' saltanat" (Muhammad Ali), "Mahmud Torobiy", "Pahlavon Muhammad" (Asad Dilmurod), "Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich" (Nurali Qobul), "Maxtumquli" (Qurbon Muhammad rizo), "Sardoba" (Jumaqul Qurbon), "Bibixonim" (Shahodat Isaxanova), "Langar fojiasi" (G'ulom Karimiy), "Tegirmon" (Nabi Jaloliddin), "Alisher Navoiy", "Bilga xoqon" (Isajon Sulton) va yana qator o'nlab romanlarni sanash mumkin.

Tarixiy mavzuda roman yozish, birinchidan, ijodkorning shaxsiy ehtiyoji va tashabbusidan bo'lsa, ikkinchidan, ijtimoiy buyurtma ham edi. Ya'ni hukumat va Milliy g'oya ziyolilar oldiga mutelik illatidan holi, o'zligini anglagan va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash masalasini qo'ydi, bunga yurtimizning boy va shonli tarixini badiiy idrok etish bilan erishish mumkin edi. Shunday ekan, mazkur romanlardagi tarixiy shaxs konsepsiyasi ham ayni shu maqsadlarni o'zida mujassam etadi.

¹ O'sha manba. – B. 9.

Ma'lumki, Sho'rolar davrida ham "Navoiy", "Ulug'bek xazinasini", "Yulduzli tunlar" va boshqa qator tarixiy romanlar yozildi. Biroq mazkur romanlarda tarixiy shaxs konsepsiyasi sotsialistik realizm metodi asosida shakllangani bilan xarakterli. Ularda tarixiy qahramonlar kommunizm g'oyalariga mos ravishda, marksistik sinfiylik nuqtayi nazaridan talqin qilingan. Asarlarda matonatli xalq va zulmkor feodal elita o'zaro qarama-qarshi qo'yiladi, barcha muammolarga feodalizm va din aybdor degan g'oya ustuvorlik qiladi. Shu tariqa ajdodlarimizning sun'iy, tarixiy haqiqatlarga nomutanosib badiiy qiyofalari yaratildi. Davr adabiyotidagi bu tendensiya uchinchi bobda I.Sultonning "Alisher Navoiy" romani misolida atroflicha yoritildi.

Mustaqillikdan so'ng jamiyatning ijtimoiy ongiga jiddiy ta'sir o'tkazgan, ijtimoiy-madaniy, ruhiy-ma'naviy evrilishlarning asosiy sababchisi bo'lgan omil, bizningcha, iqtisodiy islohotlardir. Ya'ni o'zbek xalqi sotsialistik jamiyatdan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kapitalistik jamiyatga qadam qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida insonga, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga bo'lgan munosabatni tubdan yangilash zaruratini tug'dirdi. Mazkur zaruratni his qilgan "o'tish davri" romannavislari kapitalistik jamiyatni badiiy idrok qilish orqali ekonomik odamni anglashga urindilar. Shu tariqa Sh.Xolmirzayevning "Dinozavr", X.Do'stmuhammadning "Bozor", U.Hamdamning "Muvozanat" romanlarida ekonomik shaxs konsepsiyasi yaratildiki, bu masalaga ishning 3-bobida maxsus to'xtalib, atroflicha yoritdik.

Istiqlol har bir fuqaroga e'tiqod erkinligini ham taqdim etdi. Bu orada azaldan qadriyatlari islom dini bilan mushtarak bo'lgan, biroq Sho'rolar davridagi ateistik siyosat tufayli e'tiqodi bo'g'ilgan xalqimizning diniy ilmga naqadar chanqoq ekani ko'rinib qoldi. Bunday holatda turli botil oqimlarga aldanib qolgan odamlar ham ko'paydi. Ana shunday chigal vaziyatda yurtning yirik ulamolari va ziyolilar xalqni sof islom ma'rifati bilan sug'orish lozim ekanini his yetdilar. Jumladan, romannavislari ham o'z asarlarida islomni,

umuman, Iloh va inson munosabatlarini anglashga urindilar. Shu tariqa, o‘zlarining talqinidagi dindor odam konsepsiyasini taqdim eta boshladilar.

Dindor odam konsepsiyasi mustaqillik yillarida yaratilgan juda ko‘plab asarlarda uchraydi. Romannovislar har doim ham mazkur masalani bosh mavzusiga aylantirmasa-da, ikkinchi darajali personajlar misolida din va dindorlik haqidagi qarashlarini aytishga uringanlar. Bunday asarlar qatoriga “Dinozavr”, “Ming bir qiyofa”, “Tepalikdagi xaroba”, “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Jaziramadagi odamlar”, “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Alisher Navoiy”, “Yo‘l” va yana boshqa ko‘plab romanlarni qo‘shish mumkin.

Masalan, Sh.Xolmirzayevning “Dinozavr” romanida bosh qahramon Mahkam shahardan qishlog‘iga qaytganda qishloq odamlarining dinga berilib ketganiga e‘tibor qaratadi. Bir vaqtlar yaxshigina shoir bo‘lgan Abzal akasining soqol qo‘yib, arablarga xos kiyinib olganidan taajjublanadi, “bu tomonga” o‘tib ketganiga achinadi. Ayrim ijodkorlarning asarlarini “Bismillahir rohmanir rohim” kalimalari bilan boshlayotgani, arabiy-forsiy so‘zlarni haddan ortiq qo‘llayotganini eslab g‘ijinadi, “bular hali havaskor musulmonlar, xolos”¹ deya xulosa qiladi.

Shu ma’noda, Abzal hoji obrazi yozuvchi tomonidan kinoyaga olinadi, “...men qolgan umrimni tovba-tazarru bilan o‘tkazishga ahd qildim <...> kechagi yashash tarzimdan butkul voz kechdim, shariat qoidolari bo‘yicha umrguzaronlik qilaman, o‘qiydigan yolg‘iz kitobim – Kur’oni karim bo‘ladi”² deb turgan odamning ko‘p o‘tmay dasturxondagi aroqqa qo‘l cho‘zishi, mehmonlarga o‘zi soqiylik qila boshlashi shunga dalolat qiladi. Tabiiyki, bu epizod bugungi o‘quvchi nazdida hayot haqiqatiga zid ko‘rinadi. Biroq romanda qalamga olingan 90-yillar boshlarida hali ko‘pchilik islom e‘tiqodi va shariati mohiyatini yuzakigina anglagan, shu bois bu kabi hollar tez-tez kuzatilib turgan. Natijada “yangi musulmon”lar muhokama obyektiga aylangan, ularning qilmishlari

¹ Xolmirzayev Sh. Dinozavr // Yoshlik, 1996. – №4. – B. 47.

² O‘sha asar. – B. 51.

kishilar og‘zidagi latifayu zarbulmasalga aylangan. Yozuvchi shunday odamlardan birini qalamga olib, aksidan borish yo‘li bilan o‘zining dindor odam konsepsiyasini ifoda etadi. U musulmonlik ibodat yoki diniy atributlar bilan emas, odamning qalbi, amali bilan belgilanadi degan xulosada. Umuman, din va dindorlikka nisbatan bunday biryoqlama nuqtayi nazar 90-yillar romanchiligida juda ko‘p uchraydi. Bizningcha, bu 90-yillarda aholining katta bir qismi islomiy lashgani va yana bir katta qismning esa kommunistik, ateistik karashlardan to‘la xalos bo‘la olmaganini bilan bog‘liq.

Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” (2005) romanida esa, aksincha, jamiyatdagi muammolar odamlarning dinsizligi, shariat ahkomlariga amal qilmasligi oqibatida paydo bo‘layotgani asoslangan.

“Jaziramadagi odamlar” o‘zligini yo‘qotgan qavm haqida roman. Aniqrog‘i, azaliy qadriyatlari, dinu diyonatidan yuz o‘g‘irgan odamlarning bema’ni hayoti tarzi, achchiq kechmishlari haqidagi asar. Romandagi inson konsepsiyasi markazida yolg‘on mafkura hech qachon odamlarni baxtli qila olmaydi degan g‘oya turadi. Adib jazirama o‘lkada buyuk kelajak – kommunizm qurish orzusi bilan yashayotgan “cho‘lquvar” kishilar hayoti misolida, o‘z tiynati, azaliy qadriyatlariga yot bo‘lgan g‘oyalarga ergashib yashayotgan va hayot mazmunini yo‘qotgan jamiyatni tasvirlaydi.

Roman voqealari 41-sovxoza qarashli kichik posyolkada sodir bo‘ladi. Bir vaqtlar bu joylar cho‘lu biyobon bo‘lgan, Sho‘rolar hukumati “oq oltin” dardida olis-yaqindagi daryolarni jilovlatib, katta ariqlar qazdirib bu yerlarga suv keltirgan”¹. Keyin uzoq-yaqinda yashovchi chorvador, ko‘chmanchi qavmlarni bu joylarni bo‘stonga, ya’ni paxtazorga aylantirish, sahroda buyuk kelajak qurish g‘oyasi bilan ko‘chirib keladi, chorvador tog‘liklar dehqonga aylantiriladi. Shunday qilib, “Odamlar tog‘dagidan battar uqubatli tirikchilik tashvishlariga

¹ Bo‘rixon L. Jaziramadagi odamlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2005. – B.6.

sho'ng'ib" ketishadi. "Bora-bora aroqxo'rlik, qartabozlik cho'lquvarlarning avval ermagiga, so'ng chinakam madaniy hayotiga aylanib ketdi"¹.

Luqmon Bo'rixon o'zining inson konsepsiyasini Lolaxon ismli qahramoni taqdiri misolida ochib beradi. Zotan Lolaxonning guldek umri yolg'on mafkura, zo'raki targ'ibot, yasama qahramonlikning qurboniga aylandi. Qozoqboy Yo'ldoshev yozadi: "zo'raki kahramonlar yasash, insonni tabiati va istagiga muvofiq yashashga qo'ymaslik, uning turmush tarziga tazyiq o'tkazish izsiz ketmasligi "Jaziramadagi odamlar"da katta samimiyat bilan tasvir etilgan"². Olimning fikriga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, Luqmon Bo'rixon jamiyatning islomdan, shariat ko'rsatmalaridan yiroqlashishi qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishini ko'rsatishga uringan. To'g'ri, romanda bu g'oya biroz pardalangan bo'lsa-da, yozuvchi tuzum mafkurasi asosida shakllangan jamiyat tutumlariga shariat ko'rsatmalarini qarshi qo'yadi. Buni asardagi yagona dindor – mulla Mirza orqali amalga oshiradi.

Lolaxon shaharlik qiz. Qishloqdan shaharga o'qish uchun borgan O'roq institutda qiz bilan tanishib qoladi. Ikki o'rtada muhabbat rishtalari paydo bo'ladi. Shunday qilib Lolaxon jazirama qishloqqa kelin bo'lib tushadi.

Yozuvchi O'roq va Lolaxonning to'y marosimlarini tasvirlarkan, axloqsiz jamiyatni jiddiy tanqid qiladi. To'yda aroq ariq bo'lib oqayotgan, mast-alast erkagu ayol behayo ishlar bilan band bo'lib turgan vaqtda Mulla Mirza "shayton nag'malari"ga e'tibor bermay "hovli etagida bamaylixotir tahorat olar, hademay, birinchi darajali an'ana, olomon rizoligini ko'zlab berilayotgan bazm tutagach, ikkinchi darajali an'ana, xudo rizoligi uchun yeng uchida o'tkaziladigan "shar'iy nikoh" marosimiga astoydil taraddud ko'rmoqda"³. Umuman, mulla Mirza roman voqealarida har-har zamon ko'rinish berib jamiyatdagi turli illatlarga nisbatan qarshi qo'yiladi.

¹ O'sha asar. – B. 8.

² O'sha asar. – B. 323.

³ O'sha asar. – B. 53.

Lolaxon juda ham go‘zal va odobli bo‘lgani uchun uni butun qishloq ahli suyib qoladi. Hamma Lolaxondek kelini bo‘lishini orzulay boshlaydi. Biroq ikki yoshning baxti uzoqqa bormaydi, O‘roq harbiy xizmat vaqtida vafot etadi. Hali yigira beshga ham to‘lmagan Lolaxon bir farzand bilan beva qoladi.

Oradan ancha fursat o‘tib, marhumning “yillik” marosimida mulla Mirza jamoatga qarata “hammamiz musulmonmiz. Xudoyim taolo Kur’oni Karimda, shariatda beva qolgan ayol xo‘jayiniga ko‘pi bilan uch oy aza tutsin, deb ruxsat bergan. Ana keyin ayolning boshi ochiq, hisoblanadi. Unga zulm...”¹ deydi. Biroq uning gapini bo‘lishadi, O‘roqdek qahramonning bevasi kerak bo‘lsa yuz yil turmush qurmaydi qabilidagi gaplar aytiladi. Go‘yo bu qahramonning ruhini toptash bo‘lar ekan. Xullas, oradan kunlar o‘tadi. Odamlar Lolaxondan sadoqatli ayol siymosini yaratadilar. Yosh kelin-kiyovlar to‘yda undan oq fотиha olishni an‘anaga aylantiradilar. Lolaxon rasmiylarning ham e‘tiboriga tushganidan so‘ng, faxriy deputat etib ham saylanadi. Adashib kelgan sovchilarni esa quvib solinadigan bo‘ladi. Xullas, hali o‘n gulidan bir guli ham ochilmagan Lolaxon o‘zi istaganidek yashay olmaydi. Asar so‘ngida esa O‘roqning ukasi aroqxo‘r Ashur yangasini xiyonatda gumon qilib o‘ldirib qo‘yadi.

Luqmon Bo‘rixon roman asosidagi inson konsepsiyasini odam islomga, milliy-axloqiy qadriyatlarda monand hayot kechirmog‘i lozim degan g‘oya asosiga quradi. Adib mazkur g‘oyani Sho‘rolar davrida dindan ihotalangan jamiyatning har turli fojialari misolida ko‘rsatib beradi.

D.Quronov mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida badiiy ifodaning yangilanishi xususida so‘z yuritarkan, “Endi hayotni nechog‘li haqqoniy aks ettirmasin, adabiyotning dolzarblik, haqqoniylik, tahliliylik kabi jihatlardan publitsistika bilan raqobat qilolmasligi tayin bo‘lib qoldi. Xuddi shu vaziyatda badiiy ifodaning adabiyotga o‘zligini namoyon etish, o‘z o‘rnini topish va mavqeini tiklash imkonini bera oladigan yangi shakl va usullarini topishga

¹ O‘sha asar. – B.201.

qaratilgan ijodiy izlanishlar avj oldi”¹ deya ta’kidlaydi. Istiqlol yillarida ayrim romannavislarning modernizm yo‘nalishiga xos shakl va mazmun xususiyatlarini o‘zlashtirishi ham, avvalo, ana shu ehtiyoj mahsuli edi.

Modernizm XIX oxirlarida, G‘arbiy Yevropa davlatlarida vujudga kela boshladi. Garchi, mazkur yo‘nalish san’at hodisasi sifatida ko‘rilsa-da, u inson va uning borliqdagi maqomi haqidagi yangi falsafiy ta’limotlar zahiridan o‘tib chiqdi. Ya’ni modernizm G‘arbda yangi inson konsepsiyasi tug‘ilganidan so‘ng, shu konsepsiyaning badiiy ifodasi o‘laroq vujudga kela boshlagan. Shunday ekan, o‘zbek modern romannavislari ham faqat shakliy yangiliklar bilan cheklanib qolmay, o‘z davrlari uchun insonning yangi badiiy konsepsiyasini ham taqdim etdilar.

O‘zbek modern romanlarining xarakterli jihati shuki, ularning deyarli barida “erkin inson” konsepsiyasi bosh mavzu bo‘ldi. Bunday romanlar sirasidan “Ming bir qiyofa”, “Tepalikdagi xaroba” (O.Muxtor), “Kapalaklar o‘yini” (To‘xtamurod Rustam), “Bozor” (X.Do‘stmuxammad), “Ro‘yo” (A.A‘zam), “Go‘ro‘g‘li” (N.Eshonqul), “Mavhumot” (Ne‘mat Arslon) asarlarini sanash mumkin.

Q.Yo‘ldoshev modern adabiyot haqida yozarkan, “har qanday o‘zbek san’atkori shaxs bilan jamiyatni bir-biriga mutlaq va o‘zgarmas qarama-qarshi bo‘lgan hodisalar tarzida qaramaydi. Shuningdek, o‘zbek borliqqa shaxsni mahv etishgagina xizmat qiladigan yaratiq sifatida yondashmaydi. O‘zbek ijodkori minglab yillik etno-genetik xususiyatlariga ko‘ra va e’tiqod jihatidan mo‘min bo‘lgani sabab u odam deb atalmish yaratiq aqlan qanchalik yetishmasin, ma’nan nechog‘lik kamolotga erishmasin, olam hodisalari mohiyatini hech qachon to‘liq anglab yetolmasligini biladi”² deya xulosa chiqaradi. Biroq, tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek adabiyotida ham borliqni “shaxsni mahv etishgagina xizmat

¹ Quronov D. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida badiiy ifodaning yangilanishi (<https://quronov.uz/мустақиллик-даври-ўзбек-романчилиги>)

² Yo‘ldoshev Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar (<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/qozoqbo-oldosh-modernizm-ildiz-mohiyat-va-belgilar/>).

qiladigan yaratiq” sifatida baholovchi roman mavjud. O‘zbek yozuvchisi N.Eshonqul o‘zining “Go‘ro‘g‘li” romanida Nisshening falsafiy qarashlariga, Jan Pol Sartr va Alber Kamyuning ekzistensializm g‘oyasiga tayanadi va o‘zbek adabiyotidagi absurd odam konsepsiyasini yaratadi. Bu masala ishning 4-bobida maxsus o‘rganildi.

XXI asr axborot asri. Fan-texnika, kommunikativ vositalarning hadsiz rivoji davr kishilariga tarqoq kayfiyatlarni ulashmoqda. Olam bugungi kun kishisi uchun turli rakurslardan akslanmoqda. Dunyoda sodir bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar, siyosiy-iqtisodiy vaziyat, o‘ziga xos “demokratik” tamoyillar kishi xayolini shoshiradi, uning azaliy maqsad va vazifalariga ta’sir etadi.

Fan taraqqiyoti ham shunga monand. Ya’ni postnoklassik fan o‘zidan oldingi metodlarni rivojlantirgan, eksperimentlar jarayonida takomillashgan esada, uning har bir kashfiyoti o‘z qarshisida o‘nlab jumboqlarni yuzaga keltirmoqda. Yangi fan olg‘a surayotgan universal evolyutsionizm g‘oyasi va sinergetika borliqning bir butunlik paradigmasini tasdiqlaydi. Unga ko‘ra, olam – biosfera, noosfera, jamiyat, inson – yagona, yaxlit tizimda mujassamdir. Buning natijasi o‘laroq ma’lum bo‘ladiki, inson o‘zi tadqiq etayotgan “obyektiv” voqelikdan aslo tashqarida tura olmaydi. Demak, uning olamni bilish jarayonidagi tasavvur va xulosalari ham haminqadar.

Albatta, fan taraqqiyotining xos tamoyillari o‘z yo‘liga. Ammo fan va madaniyat rivoji o‘zaro bog‘liq tendensiyalar asosida davomlidir. Shu ma’noda postmodernizm yo‘nalishi bugungi ilm-fan, ijtimoy-siyosiy hayotning butun nozikliklari bilan ifodalovchi asosiy metodlardan biri sanaladi.

Postmodernizm o‘ta murakkab va serqirra yo‘nalish bo‘lib, u ifoda shakllari, mazmun-mohiyatiga ko‘ra rivojlanib bormoqda. Uning asosida olamni xaos deb bilish, parokanda va bema’ni dunyoda inson mavjudligining ahamiyatsizligi ifodasi yotadi. Hamonki shunday ekan, san’atkor ham o‘zi yaratayotgan asarda olamni bilish, uni tushunish va tushuntirishga bo‘lgan ehtiyojini unutadi, dunyoni yaxlit, maqsadli “metarivoyat”lar o‘rniga uzuq-yuluq,

tartibsiz “rivoya” asosida ifodalaydi. Postmodernizm bugungi kundagi “omma madaniyati” (popkultura) va “ommaviy didsizlik” istilohlari bilan ham uzviy aloqadagi hodisadir. Ko‘rinadiki, bu yo‘nalish davr hayotini akslantirishda keng imkoniyatlarga ega. Ammo G‘arb kishilarining kayfiyati kaosni tasdiqlab turgan, jamiyatlar turmushida ideal va oliy maqsadlar yemirilayotgan bir vaqtda biz postmodernizmni aynan ko‘chirib olishimiz aslo mumkin emas. Buni teran anglagan bir qator o‘zbek yozuvchilari Sharq va G‘arb tafakkurini sintez qilish orqali global dunyoga komil inson konsepsiyasini taqdim etmoqdalar. Bunda ular ba‘zan mumtoz adabiyot an‘analariga, ba‘zan esa postmodernizmning ifodaviy imkoniyatlariga tayanmoqda.

Mustaqillik yillarida Sharq mumtoz falsafasi, xususan, tasavvuf ta’limotini qayta badiiy idrok etish natijasida ham yozuvchilar tomonidan romaniy miqyosdagi inson konsepsiyalari taqdim etildi. Bu borada I.Sultonning “Ozod” romanlarini e’tiborga molik.

Yozuvchi Isajon Sultonning “Ozod” romani Sharqona mumtoz falsafa va bugungi global dunyo manzaralarini o‘zida sintez qilgan asardir. Romanni o‘qir ekansiz, musulmon sharqiga xos dunyoqarashning zamonaviy falsafiy ifodasiga duch kelasiz. Unda bugungi global dunyoda o‘zligini yo‘qota yozgan insoniyatning saodatga erishish yo‘li xususida so‘z boradi. Tom ma’noda, yozuvchi insonning sharqona, islom ta’limoti asosidagi konsepsiyasini yangicha ifoda yo‘sinida ilgari suradi.

“Ozod” romani badiiy-ifodaviy jihatdan ham Sharq mumtoz adabiyoti, tasavvuf ta’limoti bilan tutashadi. Asar syujeti Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarlaridagi syujetga mohiyatan yaqin turadi. Semurg‘ni izlab yo‘lga otlangan qushlar 7 vodiyni bosib o‘tgani kabi, baxtu saodatga yetkazuvchi sirli lolani izlab yo‘lga otlangan Ozod ham 7 ta maskanni bosib o‘tadi: “Yo‘l aniq: Uchyong‘oqdan oshib o‘tilsa, undan narida Tuz cho‘liyu Oydinko‘l bor. Oydinko‘ldan ham narida yaydoq biyobon, biyobon ortida esa toshloqlar yastanib yotadi. Keyin tog‘u tosh boshlanib ketadi, yanayam

ichkariroqda, ikki tog‘ orasida sip-silliqliq baland qoyalar bo‘y cho‘zgan, o‘sha qoyalarning eng tepasiga chiqib borilsa bas”¹.

Roman markazida musulmon kishisi uchun moddiyuncha maqsadlar emas, balki uni ma’naviy kamolotga yetaklovchi ideal jarayon muhim degan g‘oya turadi. Ayni shunday g‘oya, I.Sultonning yana bir “Boqiy darbadar” nomli romanida va U.Hamdamning “Yo‘l” romanlarida ham ilgari suriladi. Biroq bu romanlarda ijodkorlar an’anaviylikdan biroz chekinib, postmodernizmning shakliy-ifodaviy imkonlaridan samarali foydalanadilar. Mazkur tendensiya bo‘yicha ishning to‘rtinchi bobida mufassal to‘xtalamiz.

Ko‘rinadiki, mustaqillik davri romanchiligi ijodiy tajribalarda ham, badiiy-g‘oyaviy jihatdan xilma-xillikda ham, olamni turfa rakurslardan badiiy idrok etishda va yangi inson konsepsiyasini taqdim qilishda ham Sho‘rolar davri romanchiligidan ancha ilg‘orlab ketdi. Ahamiyatlisi, romanchiligimizdagi har bir to‘lqin va insonning badiiy konsepsiyasi o‘tgan davr mobaynida ijtimoiy hayotimizda sodir bo‘lgan muayyan hodisa, kayfiyat, jarayon va shunga monand ehtiyojning natijasidir. Zotan Abdulhamid Cho‘lpon aytganidek, “Adabiyot har bir millatning hisli ko‘ngul tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg‘on bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasida aning to‘lquni odamning har xil maishatiga qarab o‘zgaradir”².

Bobda o‘rganilgan muammolalar yuzasidan quyidagi xulosalarni sanash mumkin:

Birinchidan, mustaqillik davri o‘zbek romanlari 80-yillar romanchiligining vorisidir. Shunday ekan, mustaqillik davri romanchiligidagi inson konsepsiyasini o‘rganish uchun, 80-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan romanlarni tahlilga tortish zarur.

¹ Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 7.

² Cho‘lpon. Adabiyot nadir. – Toshkent: Cho‘lpon, 1994. – B. 35–36.

Ikkinchidan, Said Ahmadning “Jimjitlik”, Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” romanlari deyarli bir vaqtda yozilgani, bir tarixiy davrni aks ettirilgani, romanlarda qo‘yilgan muammoning yechimi hukmron siyosiy elita va mavjud siyosiy tafakkurdan qidirilgani bilan o‘xshash. Biroq ikki adibning inson konsepsiyasi o‘zaro ziddiyatli talqinga ega. Buning sababi romannavislarning turli adabiy avlodga dahldor ekani bilan bog‘liq.

Uchinchidan, M.Muhammad Do‘stning inson konsepsiyasiga ham shaxsning o‘z-o‘zini anglash va o‘zini namoyon etish ehtiyoji nuqtayi nazaridan qarash to‘g‘ri bo‘ladi.

To‘rtinchidan, “Lolazor” romanidagi inson konsepsiyasiga ko‘ra, total siyosiy muhitda shaxs “yolg‘onda yashamaslik” pozitsiyasida turishi lozim. Yolg‘onga asoslangan tuzum va manipulyativ hukmron elita ta‘siridan ma‘nan xalos bo‘lish, mavjud siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning yolg‘on ekanini anglash, shu yolg‘onga hissa qo‘shmaslik ziyoli insonning burchi. Shu ma‘noda, yozuvchi yolg‘on jamiyatda yashayotganini anglagan shaxsni o‘ziligini anglagan shaxsga tenglashtiradi.

Beshinchidan, istiqlolning dastlabki yillarida o‘zbek romanchiligi ijodiy tajribalar maydoniga aylandi. Buning bosh sababi necha o‘n yillar davomida badiiy-g‘oyaviy tushov bo‘lgan mafkuradan adabiyotning ozod etilishi edi. Erkin adabiyot, erkin odam haqida aniq badiiy konsepsiyaga ega bo‘lmagan ijodkorlar tabiiy ravishda tajribalarga qo‘l uradi. Turli qarashlar bilan insonning turfa xil badiiy konsepsiyalarini taqdim etadi.

Oltinchidan, kuzatuv va tahlillardan ma‘lum bo‘ldiki, mustaqillik davri o‘zbek romanlari markazida erkin inson konsepsiyasi turadi. Ijodkorni ko‘proq inson erki, qadr-qiymati kabi mavzular qiziqtirishi postkolonial, posttotalitar jamiyat tafakkuriga xos tabiiy jarayondir.

III BOB.

DEMOKRATIK JAMIYATDA INSON TALQINI

3.1. “O‘tish davri” romanlarida jamiyat va shaxs ziddiyati: ekonomik inson

Mustaqillik – buyuk ne‘mat. Unga erishish yo‘lida minglab yurt farzandlari jon berdi. Biroq mustaqil bo‘lib davomli yashash, mustaqillikka erishishdan ko‘ra qiyin va murakkab jarayondir. Shu ma‘noda, O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillari xalqimizga iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy-ruhiy jihatdan oson bo‘lmagani tayin. Uzoq yillar davomida asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va sanoat xom ashyosi yetkazib berishga ixtisoslashgan davlat iqtisodiyoti deyarli bankrot holatiga keldi. Ishsizlik, uning ketidan yo‘qchilik yuzaga keldi. Boshqa tarafdin, yagona mafkura atrofida birlashib, shu mafkurani o‘z e‘tiqodi darajasiga ko‘targan, biroq bu “e‘tiqod”ning yolg‘on ekanini anglab yetgan jamiyat ma‘naviy jihatdan kuchli falajlandi.

Mazkur “falajlik”ka professor Ozod Sharafiddinov mana bunday izoh beradi: “...ma‘naviy suyanchig‘i barbod bo‘lgan, ixlos bilan ishongan ideallari sarob bo‘lib chiqqan salkam 20 million odam! Hayot yo‘lining yarmidan ko‘pini o‘tib qo‘ygach, birdan o‘tgan umri behuda ketganini anglab qolgan, dunyoni poklashdek oliy niyatga xizmat qilyapman deb uylagan, aslida esa buning o‘rniga o‘zi butkul kirlanib bitgan 20 million inson. Insoniyat tarixida hali hech qachon bunaqa katta falokat, bunchalik hududsiz fojia ro‘y bergan emas edi va ehtimolki, bundan keyin hech qachon ro‘y bermas xam”¹. Ustoz adabiyotshunos sobiq sovet xalqlarining istiqloлга erishgan ilk yillaridagi ma‘naviy-ruhiy evrilishlarga bejiz “hududsiz fojia” deya tarif bermaydi. Sababi sovet ittifoqi suyanib kelgan kommunistik mafkura shunchaki shior emas, balki bu hududda yashovchi qariyb 300 million odamning olamni bilish vositasi edi. Ya‘ni kommunistik mafkura

¹ Sharafiddinov O. Dovondagi o‘ylar. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2004. – B.53.

insonning yashash tarzi, orzu-istaklari, moddiy ehtiyojlari, ideal va maqsadlarini belgilab beruvchi hayotiy dastur bo'lgan.

Mustaqillikdan so'ng Sovet ittifoqining boshqa xalqlari qatorida o'zbek jamiyati ham mazkur hayotiy dasturni nafaqat yo'qotdi, balki uning puch ekanini anglab yetdi. Endi ular sotsializmning butunlay ziddi bo'lgan kapitalizm qonuniyatlari asosida hayot kechirishi, shunga mos ravishda orzu-istaklari, ideal va maqsadlarini qaytadan belgilab olishi zarur edi. Ayni shu murakkab jarayon O'zbekistonning yangi tarixida o'tish davri nomi bilan muhrlanib qoldi.

O'tish davri keng qamrovli tushuncha bo'lib, davlat va jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan yangi bir tuzum, muhitga o'tishini anglatadi. Balki yangi qonun va qarorlar bilan siyosiy-iqtisodiy jihatdan yangi tuzumga moslashish nisbatan oson kechar, biroq millatning madaniy, ruhiy-ma'naviy jihatdan yangilanishi, bozor munosabatlariga moslashishi oson kechmaydi. Mazkur jarayonda, ayniqsa, ziyolilar qiyinchilikka duch keladi. Bu haqda professor Umarali Normatov shunday yozadi: "Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tish oson kechadigan jarayon emasligini hammadan ko'ra ijod ahli yaxshi biladi, teran his etadi. Shaxsan o'zim guvoh bo'lgan hodisalarga, qolaversa, o'z tajribamga tayanib ayta olamanki, bu jarayon shavqi va og'riqlarini, avvalo, ijodkorlarning o'zlari tatib ko'rganlar"¹.

Mustaqillik davri milliy adabiyotimizda eksperimentlar, ijodiy tajribalar davri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi qariyb 70-yil davomida sosrealizm belgilagan chegaralardan chiqmay ijod qilgan, shu metod asosida fikrlagan, kerak bo'lsa, olamni shu metod asosida tushungan va talqin qilgan ijodkor ruhi endi ozod bo'lgandi. Bu haqida aynan o'tish davri yillarida faol ijod qilgan o'zuvchi Ulug'bek Hamdam shunday deydi: "Bu tamomila yangi davr edi. Lekin, buni qarangki, yangi davrda yangi adabiyotning zimmasiga hech qanday mafkuraviy vazifa yuklatilmadi, u o'z holiga qo'yildi"². Albatta, biz ishning

¹ Umarali Normatov. Badiiyat ko'zgusida millat taqdiri (<https://www.e-adabiyot.uz/maqola/1008>).

² Hamdam U. Istiqlool davri o'zbek adabiyoti haqida ikki og'iz so'z // Jahon adabiyoti, 2019, № 2.

oldingi boblarida milliy romanchiligimizdagi ijodiy tajribalarga alohida to‘xtalib o‘tdik. Mazkur bobda esa faqat o‘tish davriga xos ayrim ijodiy tajribalarga, aniqrog‘i, kapitalistik tuzumga moslashishga urinayotgan shaxs, ekonomik inson (*Homo Economicus*) konsepsiyasi yuzasidan qilingan eksperimentlarga to‘xtalamiz.

Adabiyotning markazida inson turadi. Shunday ekan, sho‘ro adabiyoti va istiqlol adabiyotini farqlovchi eng muhim omil ham shaxs talqinida, adabiyotdagi inson konsepsiyasida ko‘rinadi. “XX asr yangi o‘zbek adabiyoti, – yozadi Umarali Normatov, – shaxs talqini bobida alohida bosqichni tashkil etadi. Muayyan sabablarga ko‘ra, asr adabiyotida shaxsni ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida ko‘rsatish ustuvorlik qildi¹”. Olim nazarda tugan “ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida”gi shaxs yuqorida qayd etilgan ekonomik inson (*Homo Economicus*)ning ziddi – ijtimoiy odam (*Homo sociologicus*)dir. Bu ikkisi keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy tushunchalar bo‘lib, quyiroqda bu masalalarga aholida to‘xtalib o‘tganmiz.

O‘tish davri ijodkorlar chekiga yangi davrni anglash, kapitalistik jamiyatda shaxs maqomi, uning axloqi, ideal va maqsadlarini belgilash, bir so‘z bilan aytganda, yangi inson konsepsiyasini yaratish vazifasini yuklar edi. Buni teran his qilgan ijodkorlar qator asarlar yaratdilar.

Shu o‘rinda o‘tish davri deb ataluvchi tarixiy bosqich va o‘tish davri adabiyoti deb ataluvchi madaniy bosqichni o‘zaro farqlab olishga zarurat sezamiz. Ma’lumki, o‘tish davri deb atayotgan qariyb o‘n yillik davr oralig‘ida milliy adabiyotimizda ko‘plab romanlar yaratildi. Biroq ularning hammasiga ham o‘tish davri adabiyoti namunasi sifatida qaray olmaymiz. Professor Yo‘ldosh Solijonov o‘tish davri adabiyoti haqida so‘z yuritarkan, shunday yozadi: “Bozor munosabatlari o‘z-o‘zidan insonning jamiyat, oila, jamoa, o‘zga yurt va odamlar o‘rtasidagi ziddiyat hamda aloqalar silsilasini ham yuzaga chiqaradi. Bunday

¹ Normatov U. Eng muhim muammo // O‘zAS, 2003. 21-mart.

vaziyatda turmushini o'nglash uchun urinayotgan shaxs manfaati bilan yangilanishga yuz tutayotgan jamiyat va siyosat manfaatlari o'rtasida o'zaro to'qnashuvlar vujudga keladi"¹. Bizningcha, olim nazarda tutgan yangi tuzumga moslashishga urinayotgan shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar ifodasi o'tish davri adabiyotini belgilovchi eng muhim omildir. Lekin mustaqillikning dastlabki o'n yilligida yozilgan barcha romanlarda ham jamiyatda bir tuzumdan ikkinchi bir tuzimga o'tish vaqtidagi ijtimoiy-ruhiy, madaniy evrilishlar keng miqyosda tasvirlanmagan. Aniqrog'i, bu barcha romannavislarning ham badiiy-ijodiy maqsadiga aylanmagan. Shunday ekan, o'tish davri romanlari deganda zamon ijtimoiy kayfiyatini ifodalagan, davr va shaxs ziddiyatlari tasvirini o'z badiiy maqsadiga aylantirgan asarlarnigina tushunishimiz maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi talablarga Shukur Xolmirzayevning "Dinozavr", Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" hamda Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanlarida juda mos keladi. Biz ularda o'tish davri manzaralarini bor murakkabliklari ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Sanalgan asarlar o'tish davrini romaniy kontekstda taftish etgani, bozor munosabatlariga qadam qo'ygan jamiyatning ko'p tarmoqli badiiy modelini yaratib, olam va odam munosabatlari haqida yaxlit badiiy konsepsiya taqdim etgani bilan qadrlidir. Ya'ni bu romanlarda o'tish davrida jamiyat ahli ro'baro' kelgan muammolar, ayniqsa, ziyolilarning iztiroblari, ruhiy-ma'naviy evrilishlari, buning sabab va oqibatlari qalamga olinganki, mazkur omillar romanlarning nafaqat muvaffaqiyatini, balki unikalligini ta'minlaydi.

O'tish davri ijodkorlari oldidagi eng muhim muammo yangi davrda inson maqomini belgilab olish edi. Ya'ni kapitalistik jamiyatda yashashni boshlagan insonning badiiy konsepsiyasini yaratish zarurati tug'ildi. Bu yo'lda Sh.Xolmirzayev, X.Do'stmuhammad, U.Hamdami kabi romannavislar o'tish davrini baholashga, unda ijtimoiy, iqtisodiy, ruhiy-ma'naviy muvozanatni

¹ Solijonov Y. XXI asr nasri manzaralari // Sharq yulduzi, 2011, №4.

ta'minlovchi omillarni izlab topishga, kapitalistik jamiyatda "Inson kim?", "Uning hayotiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?", "U barqaror va farovon jamiyatni qanday quradi?" kabi savollarga javob izlashga urinishgan.

Deyarli bir vaqtda (1996 – 1999-yillar oralig'ida) yozilgan "Dinozavr", "Muvozanat", "Bozor" romanlarining mazkur tadqiqot uchun yana bir muhim jihati shundaki, ularning barida bozor munosabatlari qaror topgan jamiyat fuqarosi – ekonomik inson (*Homo Economicus*) konsepsiyasi yaratilgan.

*Ekonomik inson*¹ kategoriyasi kapitalizmning, umuman, iqtisodiyotning falsafiy asosi hisoblanadi. XVIII asrda yashagan G'arb faylasuflari A.Fergyson, F.Xatcheson va D.Yunga ko'ra, insoniyatning moddiy munosabatlari uning egoizmi asosiga qurilgan². Ya'ni har bir individ o'zining shaxsiy ehtiyojlari, manfaatidan kelib chiqibgina harakatlanadi va doim maksimal darajadagi foydani ko'zlaydi. Ayni damda, inson tabiatiga xos mazkur omil jamiyatni boshboshdoqlikka emas, balki, aksincha, ijtimoiy muvozanatga, adolatga yetaklaydi. Zero, qandolatchining o'z mahsulotini sifatli tayyorlashi azbaroyi odamlarni o'ylaganidan emas, balki ularning ishonchini qozonib, ko'proq foyda ko'rish istagidandir.

Keyinroq zamonaviy iqtisod nazariyasi otalaridan biri shotlandiyalik iqtisodchi va faylasuf Adam Smit ekonomik odam kategoriyasining nazariy asoslarini yaratdi. Unga ko'ra, inson faqatgina o'z manfaatini ko'zlab harakatlanadi va bu jarayon har doim ham anglangan tarzda kechmaydi. "Ko'rinmas qo'l" insonni, hatto, u maqsad qilmagan ne'matlar tomon ham yetaklaydi, bu yo'lda u jamiyat manfaatlari uchun anglangan, maqsadli harakatlaridanda ko'proq foyda keltiradi"³. Demak, biz ekonomik inson deganda o'z nafsining quli, pul uchun hamma narsaga tayyor odamni tushunishimiz xato.

¹ Экономическая теория: Учебник // Под общ. ред. акад. В.И. Видяпина, А.И. Добрынина, Г.П. Журавлевой, Л.С. Тарасевича. – Москва: ИНФРА-М, 2003. – С.130.

² Филатов В.П. Модели человека в социальных науках // Эпистемология & Философия науки, 2012, № 1. – Б.127.

³ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – Москва: Издательство социально-экономической литературы, 1962. – С. 332.

Ekonomik odam ham o‘z mohiyati bilan ijtimoiy odam. Faqat u insonning shaxsiy manfaatlarini ko‘proq himoya qilib, ijtimoiy tenglikka manfaat orqali yetib borishni ko‘zlaydigan nazariyadir. Shu jihatdan, ekonomik odam tushunchasi ijtimoiy odam (Homo sociologicus)ga qarama-qarshi qo‘yiladi. Ijtimoiy odam maksimal darajada faqat o‘z manfaatini emas, balki ongli ravishda umummanfaatini ko‘zlaydi¹. Biroq kapitalizmning “otalari” ayni shu jihat, odam o‘zi anglagan holda, maksimal darajada umummanfaatini ko‘zlab yashashi mumkin emasligini ta’kidlaydilar. Kapitalizmning poydevorini esa ayni shu haqiqat, insonga xos ehtiyojlar asosiga quradilar. Umuman, sotsializm va kapitalizmning o‘zaro farqi ham shu nuqtada ravshan ko‘rinadi.

Biz yuqorida qayd etganimiz “Dinozavr”, “Muvozanat”, “Bozor” kabi romanlarning o‘ziga xosligi shundaki, ularda asli ijtimoiy odam bo‘lgan bosh qahramonning voqealar rivojida asta-sekin ekonomik odamga evrilishiga guvoh bo‘lamiz. Bu romanlarning butun ma’no-mazmuni, voqea-hodisalarning zanjir kabi tizilishi mana shu evrilishning tasviri, ifodasi uchun bo‘ysundirilgandek, go‘yo.

“Dinozavr” romani bosh qahramoni Mahkam halol, samimiy va judayam iste’dodli ijodkor. Dunyoni san’at qutqarishiga, ideal jamiyat o‘zaro mehr-oqibat, adolat, tenglik va hamjihatlik ustiga qurilishiga ishonadigan kommunist. Biroq u ayni shu soddadilligi, to‘g‘riligi tufayli kapitalistik jamiyatga moslasha olmaydi. Zero unda egoizmdan asar ham yo‘q. Muammo shundaki, u kapitalizmning “otalari” kabi egoizmni jamiyat muvozanatini ta’minlovchi omil sifatida emas, balki tanazzul tomon yetaklovchi illat sifatida biladi. Chunki u atrofidagi odamlarning o‘z nafsi deb tuban maxluqqa aylanib borayotganini ko‘rib turadi. Ammo Mahkam sekin-asta bozor munosabatlariga moslashib ulgurgan bu odamlarni o‘rganishga, ularni tushunishga urina boshlaydi, har qalay, ko‘nglida shu ishga nisbatan rag‘bat sezadi.

¹ Felli Ch. Homo Economicus vs Homo Sociologicus
(https://www.academia.edu/2346314/Homo_Economicus_vs_Homo_Sociologicus)

“Muvozanat” romani bosh qahramoni Yusuf – tarixchi olim. U butun umrini ilm olishga va uni yoyishga bag‘ishlagan. Ilmini har qanday manfaatlaridan ustun qo‘ygan va buni hayotiy dasturilamalga aylantirgan. Biroq uning hayotiy dasturi kapitalizmga u qadar mos kelmaydi. Endi u yangi tartibotga moslashish yo‘llarini – ruh va moddiyat munosabatining muvozanatini qidirishga mahkum.

“Bozor” romani qahramoni Fozilbek – fozil yigit. U dunyoning ramzi bo‘lgan bozor – jamiyatdan adolat, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlar ko‘tarilayotganidan tashvishda. O‘zi va yaqinlarining bu xil yangi davrga ma‘nan tayyor emasligini his qiladi. Jonini fido qilib bo‘lsa-da “bozor”ni isloh qilishga urinadi. Qanday qilib to‘laligicha bozor munosabatlari ustiga qurilayotgan jamiyatda inson bo‘lib qolish yo‘llarini qidiradi.

Ko‘rinadiki, “Dinozavr”, “Muvozanat”, “Bozor” romanlari badiiy-g‘oyaviy jihatdan ham, ijtimoiy jihatdan ham mushtarak asarlardir. Ularni jamiyat va shaxs, ruh va modda munosabatlaridagi muvozanatni, ularni bog‘lovchi oltin ko‘prikni qidirayotgan qahramonlar obrazi birlashtirib turadi. Quyida mazkur romanlarni birma-bir tahlil qilib, aytilgan fikrlarni atroflicha dalillashga harakat qilamiz.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev qalamiga mansub “Dinozavr” romanining birinchi kitobi 1996-yilda “Yoshlik” jurnalida, muallifning ikki enlik izohi bilan e‘lon qilinadi: “Hayotdagi anchayin o‘zgarishni ham hazm va qabul qilish oson kechmaydi: ko‘nikmalar-qanoatlar bu yo‘lda teran to‘siqlar hisoblanadiki, avvalam bor, ana o‘shalarni “yengish”ga to‘g‘ri keladi. Endi, tasavvur eting: hayotning o‘zi tubdan o‘zgarib, o‘zga bir izga tushsa, uni hazm va qabul qilish – ayniqsa, ijodkor uchun juda mushkul bo‘ladi. “Dinozavr” romanim – ana shu jarayon tasviridan iborat bo‘lib, uch kitobni o‘z ichiga oladi: birinchisi ushbu – KUZ, qolganlari – QISH, BAHOR”¹. Bundan ma‘lum

¹ Xolmirzayev Sh. Dinozavr // Yoshlik, 1996. – №2.

bo'ladiki, adib avval boshda roman-trilogiya yozishni niyat qiladi. Lekin, afsuski, adib vafotiga qadar asarning birinchi – Kuz qismini, keyingi kitobdan esa faqat ayrim boblarni e'lon qilishga ulguradi, xolos. Shunday ekan, biz Sh.Xolmirzayevning kapitalistik jamiyat va uning bosh omili ekonomik inson haqidagi badiiy konsepsiyasini to'laqonli tasavvur qila olmaymiz. Ammo birinchi kitobning o'zidayoq yozuvchining ijodiy-badiiy maqsadini anglash, yangi inson konsepsiyasining muayyan darajadagi tugal chizgilarini ko'rish imkoniga egamiz.

“Dinozavr” romani 1996-yil “Yoshlik” jurnalining ilk sonlarida chop etilganini hisobga olsak, uning yozilishi ilgariroq, mustaqillikning dastlabki yillarida boshlangani ma'lum bo'ladi. Aytmoqchimizki, Sh.Xolmirzayev o'tish davri muammolarini romaniy tafakkur darajasida taftish etishda peshqadam bo'lgan: “Dadil aytish mumkinki, – ta'kidlaydi Umarali Normatov – o'sha tub burilish asnosida, avvalo, adib qalbidagi, qolaversa, odamlar ruhiyatidagi evrilishlar, ularning holat-kayfiyati milliy adabiyotimizda ilk bor “Dinozavr” orqali roman ko'zgusida o'z aksini topdi¹.

“Dinozavr” – har bir qahramoni, har bir satri bilan o'tish davrining kayfiyati ufurib turgan roman. Go'yo adib davr manzaralariga ko'zgu solgan, unda har kim (o'quvchi)ga o'zini ko'rish imkonini yaratgan. Asarda “...mamlakatdagi, jamiyatdagi tub burilish, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida odamlar hayoti, tabiati, ruhiyati, taqdirida, o'zaro munosabatlarida yuz bergan o'zgarish, evrilishlar qalamga olinadi”².

Roman bosh qahramoni Mahkam – sobiq sovet davrida obro'li kinorejissyor, keyingi davrda kinoindustriyaning qulashi bilan martaba va kasbini boy bergan iste'dodli ijodkor. U samimiy, vijdonli, to'g'ri fuqaro. Biroq ayni shu xislatlari unga bozor munosabatlariga moslashib ketishida monelik qiladi. Allaqachon yangi mezonlarga ko'nikib ketgan sobiq aktrisa xotini Shahlo esa

¹ Normatov U. Badiiyat ko'zgusida millat taqdiri. // Sharq yulduzi, 2011. – № 3. – B. 119.

² Shu manba. – B. 119.

chet eldan mol olib kelib tijoratchilik bilan shug‘ullanadi. Bu ayolning xarakteri va tutumlarida san’atkorga, ijodkorlarga xos nazokatdan asar ham qolmagan, u batamom “bozorchi ayol”ga aylanib ulgurgan.

Asar qahramon va oilasining safarga chiqish voqealari bilan boshlanadi. Aytish mumkinki, Mahkam va uning oilasi otlangan yo‘l hamda yo‘l ustidagi dovon asarda ramziy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham birinchi kitobdagi voqealarning kattagina qismi shu yo‘l ustida kechadi.

Mahkam kech kuzning izg‘irin kunlarida xatarli safarga otlanarkan, qosh qoraygunga qadar eson-omon dovondan o‘tib olishni niyat qiladi. Agar yo‘lovchilar bunga erisha olishsa, qolgani ravon yo‘l, hammasi yaxshi bo‘ladi...

Vodiyga olib o‘tuvchi dovon nafaqat Mahkam oilasining, balki butun jamiyat va davlatning oldida turgan katta mashaqqat, muammoni anglatadi. Ya’ni dovon yo‘li jamiyatning o‘tish davrida duch keladigan qiyinchiliklari ramzidir. Qishning qirovli kunlari yaqin qolganda jamiyat ahli eski “Volga”ga minib yo‘lga otlanarkan, dovonning qorli, xatarli yo‘llaridan ko‘tarilib, bir makondan ikkinchi bir makonga – bir tuzimdan ikkinchi bir tuzimga oshib o‘tishlari lozim. Biroq eski “Volga” sinovli yo‘lga dosh bermaydi. “Cho‘qqiga chiqishlariga taxminan bir chaqirim qolganda”¹ avtomobilning motori ishdan chiqadi. Mahkamning oilasi qahraton sovuqda, kimsasiz tog‘lar bag‘rida qolib ketadi...

Adib yo‘l-yo‘lakay qahramonlarning nutqi, o‘y-xayollari orqali ularning xarakter chizgilarini bir-bir ochib, oiladagi ma’naviy-ruhiy vaziyat bilan tanishtirib boradi. Oiladan tinchlik, mehr-oqibat, murosa ko‘tarilgan. Tijoratchilik bilan shug‘ullanayotgan Shahlo erining noshudligi, omadsizligidan eziladi, uchragan kimsaga undan nolib, zahrini sohib olishdan hech tiyilmaydi. Yaqinda maktabni bitiradigan Sobit esa ota-onasini kuzatib, ulardan qay biri haq, kim to‘g‘ri yo‘lda ekanini anglashga urinadi:

¹ Xolmirzayev Sh. Dinozavr // Yoshlik, 1996. – №2. B.22.

“– Uf, dadangni tengdoshlari allaqachon yo‘l topib ketishdi. Birovlari allaqanday fondlar ochvotti, film qilvotganlariyam ko‘p...

– E, manga yoqmiydi o‘sha filmlar.

– Lekin kerak ekan-da. Yashash uchun qilish kerak! Davlat qaramay qo‘yganidan keyin..

– Umuman-ku, siz haqsiz.

– Albatta haqman-da! Ust-boshiga qara, uch yil burungi kastyum-shim. Durust bir paltosi yo‘q... Bu kishiga bari-bir. Man uyalaman dadang bilan yurishga!”¹

Romandan olingan yuqoridagi parchada Sobit endigina urchiy boshlagan, tijorat filmlariga munosabat bildirib, qisman bo‘lsa-da bozor munosabatlari davrida didsizlikning ortishiga qarshi turibdi. Biroq ayni shu didsizlarcha yaratilgan filmlar odamlarni boqib, ust-boshini butun qilayotgani bilib, onasiga “Umuman-ku, siz haqsiz” deya javob beradi. Shahlo uchun esa boshqacha mezonning o‘zi yo‘q. Bu borada u yuzda-yuz haq, chunki erining ust-boshi eski, durustroq paltosi ham yo‘q. Keltirilgan parcha misolida o‘tish davriga xos bo‘lgan eng muhim omil – jamiyatda o‘zgarib borayotgan mezonlarni ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni bu davrda muvaffaqiyatli, iste’dodli yoki ziyoli insonni belgilovchi mezonlar o‘zgardi. Shahlo va jamiyatning yana ko‘plab a’zolari nazdida eplab qornini to‘ydirish muvaffaqiyat omili: “– Dadasi bo‘lsa – unaqa. Qaysarlikda tuyadan ham oshib tushadi. “Haqiqat, adolat”, deydi... Adolat qoldimi? Qo‘lidan kelgan bir narsa topib yeyapti. Qo‘lidan kelmagan, ana, magazinlar yonida tilanchilik qilib...” Bularga qaramay, yozuvchi Shahlo obrazida salbiy qahramonni tasvirlashga urinmaydi. U xolislik tarafdori. Zero Shahloning bunday fikrlashiga ijtimoiy-ruhiy asoslar bor. Bir vaqtlar san’atkor bo‘lgan, hozir ham biror yaxshi she’r tinglasa ta’sirlanib ko‘zidan yosh

¹ O‘sha manba. – B. 25.

qalqiydigan, eri, oilasi uchun kuyadigan, o‘zini o‘qqa-cho‘qqa uradigan ayol. U bu ko‘yga o‘zi istab kelgani yo‘q. Vaziyat taqozo qildi.

“Dinozavr” romanini tahlil qilarkan, ustoz U.Normatov “asardagi eng katta jumboq – bosh qahramon Mahkam obrazidir”¹ deya ta’kidlaydi. Chindan ham Mahkam – jumboq. Uning timsolida na eski va na yangi tuzum yuzasidan aniq xulosaga kelgan shaxsni ko‘rasiz. Aslida bu romanning keyingi qismlari yaratilmagani bilan ham bog‘liq. Ya’ni biz hozircha Mahkamning voqea-hodisalar ta’sirida rivojlanib, pishib yetilgan yakuniy qiyofasini ko‘ra olmaymiz. U romanning Kuz qismida xolis kuzatuvchi, ikki davr – tuzumning yutuq va kamchiliklarini to‘g‘ri baholay oluvchi, hali bir tuzumni ikkinchisidan ustun qo‘yishga shoshmayotgan, mulohazakor qahramon sifatida taassurot qoldiradi.

Bizningcha, adib bosh qahramonni bejizga arosatdagi shaxs sifatida tasvirlamagan. Sababi o‘tish davrida aksar ziyolilar Mahkam kabi fikr-xulosalari hali to‘la shakllanib ulgurmagan, arosatda yashayotgan shaxslar edi. Arosatdagi shaxs tushunchasini Shahloning oilaviy davralarning birida eriga qo‘ygan quyidagi tashxisi yanada oydinlashtiradi: “Manimcha, bu kishiga Sho‘ro davrini tiklab berish kerak, xolos... O‘sha sistemada yashab, bu kunlarni orzu qilib o‘taversalar, bas”. Shahloning fikricha, uning eri bir vaqtda Sho‘ro davridagi “farovonlik” bilan birga, milliy-madaniy istiqlolni ham xohlaydi.

Yozuvchi “arosatdagi shaxs” tasviri orqali o‘tish davri ziyolilarining reallikka monand qiyofasini yaratish bilan birga, o‘tmish va bugunni muqoyasa qilayotgan qahramon vositasida yangi davrni obyektiv baholashni maqsad qiladi. Shu sababdan o‘quvchi ko‘p hollarda Mahkam obrazida o‘z-o‘zini inkor qilayotgan, fikr-xulosalari tarqoq shaxsni ko‘radi. Quyidagi parcha nafaqat Mahkamni, balki shu davrda ziyolilarini o‘ylantirgan eng katta muammoni anglashimizda, ularni tushunishimizda muhim ahamiyatga ega:

¹ Normatov U. Badiiyat ko‘zgusida millat taqdiri. // Sharq yulduzi, 2011. – № 3. – B. 119.

“– Jamoljon, manda tayyor mavzu yo‘q, – dedi Mahkam birdan xo‘mrayib. – To‘g‘rirog‘i, ham bor, ham yo‘q. Borligi shundaki, man bugungi hayot haqida... o‘zimning, qalbimning ovozigga quloq solib, qandaydir muhim bir asar qilgim bor. Bunga material serob... Ammo kansovka yo‘q. Yakun yo‘q, – deya hamsuhbatiga boqdi; nigohida: “Sizlarda bormi?” degan iltijo mavjud edi. Chunki hayotning o‘zida o‘sha kansovkani ko‘rmayapman”¹.

Jamoliddin shu zamonda ishi yurishib, katta boylikka erishgan tijoratchilardan. U Mahkamga biror jiddiy mavzuda film suratga olishni taklif qilib, xarajatlarini o‘zi ko‘tarishi mumkinligini aytadi. Lekin Mahkam asarning “kansovkani ko‘rmayapman” deb javob beradi. Mahkam arosatda qolgan shaxs. U tiyiqsiz bo‘ron kabi bostirib kelayotgan kapitalizmning oqibatlarini ham, o‘zi kabi oqimga qarshi turib, odamiylik fazilatlarini saqlab qolishga urinayotgan ziyolilarning borar manzilini ham bilmaydi. Yuqorida O.Sharafiddinov so‘zidan iqtibos qilib olganimiz – “hududsiz fojia” aslida shu bo‘lsa, ajab emas.

Romanga Jamoliddin obrazining kirib kelishi va Mahkamning u bilan bo‘lib o‘tgan suhbatini asnosida o‘quvchi Sh.Xolmirzayev badiiy konsepsiyasida kapitalizmning bahosini ravshanroq ko‘ra boshlaydi. Adib judayam badavlat tadbirkor siymosida xalqparvar, ma‘rifatparvar shaxsni ko‘rishni istaydi. Albatta, yozuvchining bu xulosalari biz yuqorida qayd etgan ekonomik odam konsepsiyasiga zid keladi. Zero kapitalizmga ko‘ra, tadbirkor xalqparvar yo ma‘rifatparvar bo‘lishi amrimahol. U o‘z xalqiga tadbirkorlik faoliyatini shunchaki rivojlantirib, pul aylanmasini kengaytirib ham foyda keltirishi mumkin. Lekin yozuvchi biroz ijtimoiylashgan, egoizmdan holi tijoratchini ideallashtirishga urinadi. Bir gal Jamoliddin turmushning achchiq sinovlaridan sabr kosasi to‘lgan Shahloga “O‘zbekiston iqtisodiy tomondan o‘zini tiklab olsin, kennoyi, ajoyib zamon keladi. Barcha hunarlar, kasblar bab-baravar o‘sadi... Ijod ahli o‘z mavqeini egallaydi” deb taskin beradi. Chindan ham bu badavlat shaxs

¹ Xolmirzayev Sh. Dinozavr // Yoshlik, 1996. – №2. B.42.

tadbirkorlik faoliyatida faqat boylik orttirishni emas, balki shu yo‘l bilan davlatni taraqqiy ettirishni ham ko‘zlaydi. Davlat boy bo‘lsa, san‘at va madaniyatning rivojlanishiga yo‘l ochiladi deb hisoblaydi. U millatning shonli tarixi, ulug‘ ajdodlar haqida filmlar yaratib, bunday tushkun vaziyatda odamlar ruhini ko‘tarish kerakligini his qiladi. Shuning uchun ham Mahkamga buyuk sarkarda Amir Temur haqida film suratga olish kerakligini aytadi. U hatto Amir Temur haqidagi qadimiy qo‘lyozmalarni o‘rganish, ssenariy yozish uchun ketadigan vaqt uchun ham Mahkamga alohida maosh tayinlashini aytadi. Biroq Mahkam qanchalik samimiy, istiqbolli bo‘lmasin, bu taklifga rad javob beradi. Ayni shu javobda biz bosh qahramon obrazidagi juda muhim chizgiga guvoh bo‘lamiz. U Amir Temur seriali bo‘yicha boshqa bir ijodiy guruh ish olib borayotganini, ularning hurmati uchun bu taklifga rozi bo‘la olmasligini aytadi. Ya‘ni ishsiz, pulga muhtoj bo‘lishiga qaramay Mahkam boshqalarning manfaatini o‘z manfaatlaridan ustun qo‘ya oladigan, tom ma’noda ijtimoiy shaxs edi.

Roman voqealari rivojida biz Mahkamning ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar yuzasidan fikrlari asta-sekin o‘zgarib borayotganini qo‘ramiz. Ayniqsa, Jamoliddin bilan uchrashuvdan so‘ng tadbirkorlarga munosabati o‘zgaradi. Xayolan o‘z o‘g‘li Sobitning ham tijoratchi bo‘lishiga rozi bo‘lib, faqat “Jamol tipida” deya niyatini to‘g‘rilaydi. Tadbirkor do‘stining xayrlashish oldidan “...man teri sotib olaman, qancha bo‘lsayam” degan gapidan so‘ng qishloqqa borib ukasidan teri savdosi haqida, uni qayerdan topish mumkinligi haqida surishtiradi. Ya‘ni unda tijoratga qiziqish, balki shunga ehtiyoj tug‘iladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Dinozavr” romani yakunlanmagan asar. Shunday ekan, roman asosidagi yozuvchining inson konsepsiyasini to‘la-to‘kis tasavvur qilishga ojizmiz. Shunday bo‘lishiga qaramay, biz birinchi kitobdagi ayrim ishoralarga tayanib muayyan xulosalar chiqarishga harakat qildik. Bir o‘rinda Mahkam kapitalizmni hayvonlarning yashash tarziga qiyoslab “Jamoljon, tunlari biz bilmaydigan ko‘p fojialar yuz beradi bu o‘rmonda. U – boshqa hayot, eng ibtidoiy qonunlar amalda bo‘ladi... Da. Kuchlilar g‘olib, kuchsizlar mag‘lub:

bu – hayvonotning yashash qonuni... Nahotki shu qonunni bus-butun insoniyatga tatbiq etib bo‘lsa?” deya savol beradi. Mahkamning bu savoli ritorik edi. Ya’ni istaydimi, yo‘qmi, hayot “odam – odamga bo‘ri” qonuni ustiga qurilganini tan olishga mahkum. Biroq u boshqalar kabi to‘la-to‘kis hayvonga aylanib qolishni istamaydi. Kapitalizm qonunlari qanchalar suronli bo‘lmasin, u o‘zida insoniylikning eng go‘zal fazilatlarini saqlab qolishga intiladi. Balki butun roman, Sh.Xolmirzayevning o‘tish davridagi inson konsepsiyasi mana shu g‘oya ustiga qurilgan bo‘lsa ajab emas.

O‘tish davrining eng yorqin romanlaridan yana biri, so‘zsiz, Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanidir. O‘z davrida qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qilgan, adabiy davralarda keskin bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan mazkur asar o‘tish davrini butun murakkabliklari bilan qamrab olgani bilan qadrlanadi. Xususan, Pirmqul Qodirov o‘z davrida “Muvozanat”ga so‘ngi o‘n yilliklarda yaratilgan eng yaxshi romanlardan biri¹ deya baho bergan bo‘lsa, Matyoqub Qo‘shjonov uning shiddat bilan yozilganini e‘tirof etadi². Ozod Sharafiddinov mazkur roman misolida realizmning hali ochilmagan imkoniyatlari ko‘p ekaniga amin bo‘lganini ta’kidlagan³.

Professor Dilmurod Quronov “Muvozanat” haqida so‘z yuritarkan, “Kechirib turilgan kun haqida roman yozish oson emas: hodisaning estetik obyektga aylanishi uchun undan uzilish taqozo etiladi. Yuz berib turgan hodisotlar ichida bo‘lgani holda ularni badiiy mushohada etish g‘oyat mushkul”⁴ – deydi. Darhaqiqat, Ulug‘bek Hamdam badiiy ijodning murakkab yo‘lini tanlaydi. U hali yakunlanmagan, bo‘lib turgan voqea-hodisalarning hissiy ta’siri arib ulgurmagan kezlarda roman yozishga kirishadi. Biroq, nazarimizda, ayni shu

¹ Qodirov P. Ma’naviyat, modernizm va absurd // O‘zAS, 2004. 26-mart.

² Hamdamov U. Muvozanat. – Toshkent: Minhoj, 2004. – B.3.

³ Sharafiddinov O. Modernizm jo‘n hodisa emas // O‘zAS, 2002. 7-iyun.

⁴ Quronov D. “Muvozanat” – o‘tish davri ko‘zgusi / Muvozanat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 3.

omil romanning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Asarda biror satr, jumla yo'qki, o'quvchi unda yozuvchini, u boshidan kechirayotgan ijtimoiy dardni his qilmasa.

“Muvozanat” romanining yana bir o'ziga xosligi shundaki, unda katta bir davr, jamiyat hayoti yaxlit badiiy modelga jo etilgan. O'quvchi asar mutolaasiga kirisharkan, mazkur badiiy model vositasida o'tish davri manzaralari: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyat, turli tabaqa, soha vakillarining kechmishi, yoshu qari, qishlog'u shahar aholisining hayot tarzidan boxabar bo'ladi. Ayni shu jihatni hisobga olgan D.Quronov “Muvozanat”ni “...milliy tariximizdagi burilish pallalarini, hayoti shunday pallalarga to'g'ri kelgan insonlar ruhiyatidagi evrilishlarni keng epik ko'lamda aks ettirgan “O'tgan kunlar”, “Kecha va kunduz”, “Lolazor” singari barmoq bilan sanarli romanlar qatordan joy oldi”¹ deya e'tirof etadi.

Akademik M.Qo'shjonovning “Roman syujeti asosan uchta qahramon sarguzashtlari tashkil qiladi. Uchalasi ham bugungi zamon qahramonlari. Biroq uchta qahramon – uchta hayot yo'li. Mana shu uchta hayot yo'lining birligi romanda aks etgan voqelikning qay darajada dolzarb ekanini ko'rsatib turibdi”² deya asar markaziy qahramonlarini tasniflaydi. Ammo bu o'rinda hurmatli ustozning mazkur tasnifiga qo'shila olmaymiz. To'g'ri, asar syujetidan kelib chiqsak, “Muvozanat” romani asosan uch qahramon: tarixchi olim Yusuf, amaldor Said, tadbirkor Mirazizlarning ko'rgan-kechirganlari asosiga qurilgandek. Biroq muammoga U.Hamdamning roman asnosida yaratgan inson konsepsiyasi nuqtayi nazaridan qarasak, Yusufning akasi Amir obrazining badiiy-g'oyaviy ahamiyati yuqorida sanalgan qahramonlardan aslo kam emasligi oydinlashadi. Bu jihatdan professor Umarali Normatov “Romandagi eng yorqin, konseptual personajlardan biri shu Amir obrazidir, Amir yosh yozuvchining chindan-da badiiy yutug'idir”³, deb yozganda to'la haqli edi. Zero 90-yillar

¹ Quronov D. Adabiy jarayonda mom sindromi. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 14.

² Hamdamov U. “Muvozanat” romani, Toshkent: Minhoj, 2004. – B.3.

³ Normatov U. Eng muhim muammo // “O'zAS”, 2003. 21-mart.

avvalida hukumat taqdim etgan diniy erkinlik va jamiyatdagi diniy ilmsizlikning o'zaro qovushmasligi oqibatida ayrim dindorlarda e'tiqodiy, ruhiy, ijtimoiy muvozanatning buzilishi kuzatildi. Demak, Amir 90-yillar jamiyatiga xos katta bir guruhning tipik vakili. Shunday ekan, u romanning markaziy qahramonlaridan biridir. Boshqa tarafdin, professor Yo'ldosh Solijonovning "Romandagi har bir obrazning o'z o'rni, o'z taqdiri, o'z "men"i bor. Muhimi, "o'yindan tashqari" holatda bironta ham personajni uchratmaysiz"¹ degan xulosasi har jihatdan asosliroq ko'rinadi. Sababi yozuvchi hatto ikkinchi plandagi qahramonlarga ham (masalan, Gulshoda, Zahro) o'z badiiy konsepsiyasidan kelib chiqib muhim ijtimoiy-ruhiy, falsafiy g'oya yukini beradiki, ularsiz asarning badiiy mukammalligini tasavvur etib bo'lmaydi.

U.Hamdin o'zining olam va odam haqidagi badiiy konsepsiyasini to'rtta markaziy qahramon asosiga qurarkan, romanda ularni o'zaro qarama-qarshi qo'yadi. Ya'ni mazkur qahramonlarning xarakteri, dunyoqarashi, hayotiy maqsadlari bir-biridan keskin farq qiladi. Shu bilan birga, ularning bari hayotiy-ruhiy muvozanatni yo'qotgani bilan umumiylikni kasb etadi. Asar esa mana shu buzilgan muvozanatni izlash yo'llarini, bu yo'lda qahramonlar ruhiyatida kechgan evrilishlar va xulosalarni ko'rsatishni maqsad qiladi. U.Hamdin o'zining inson konsepsiyasiga olam va odam munosabatlaridagi muvozanatni asos qilib oladi. "Asar bilan tanishib – yozadi M.Qo'shjonov – shunday xulosaga kelasiz: butun olam muvozanat qonuni asosida turgan bo'lsa, jamiyat ham, uning asosini tashkil qilgan insonlar ham ayni muvozanat tufayli barqarordir. Muvozanat buzilgan zahoti hayotda, demak, uning a'zolari orasida har xil kutilmagan o'zgarishlar, hatto izdan chiqishlar boshlanadi"².

Professor Umarali Normatov roman bosh qahramoni Yusufni "romanchiligimizda o'tish davri deb atalgan murakkab tarixiy jarayonning

¹ Solijonov Y. Roman kashfiyotlar manbaidir // O'zAS, 2003. 5-sentyabr. B. 4.

² Qo'shjonov M. Shiddat bilan yozilgan roman // Muvozanat. – Toshkent, Minhoj, 2004. – B. 3.

qahramoni”¹ deganda topib aytgan. Chunki biz Yusuf siymosida o‘tish davrining suronli sharoitlarida o‘zligini yo‘qotmay, oqu-qorani anglab bozor munosabatlariga moslasha olgan ziyoli shaxsni ko‘ramiz.

Yusuf romanning bosh qahramoni o‘laroq moddiy, ma‘naviy, ijtimoiy muvozanatsizlikning barcha alomatlarini o‘zida mujassam etadi. Agar Saidida hokimiyat va ruhiyat, Mirazizda moddiyat va ma‘naviyat, Amirda e‘tiqod va amal o‘rtasidagi muvozanatsizlikka urg‘u berilgan bo‘lsa, Yusuf shularning barini umumlashtirib, yozuvchining inson konsepsiyasini yaratishdagi bosh laboratoriyaga aylanadi. Boshqacha aytganda, Ulug‘bek Hamdam roman markazidagi to‘rt qahramonga insoniyatga xos to‘rt muhim omil: ma‘rifat, pul, hokimiyat va dinni taqsimlab berarkan, aslida, bularning bari bir shaxsda, muvozanatli yo‘sinda mujassam bo‘lishini orzu qiladi. Shuning uchun ham voqealar rivojida Yusufning inson, jamiyat, davlat haqidagi qarashlari teranlashib o‘zi uchun muhim xulosalar chiqarganiga guvoh bo‘lamiz.

Asar avvalida Yusuf ham “Dinozavr” romani misolida tanishganimiz Mahkam kabi sof ijtimoiy shaxs edi. U hayotini ilmga bag‘ishlagan. Hayotiy maqsad, orzu-istaklarini ilm-fan vositasida qondirishni ko‘zlagan. Yusuf “pul va hokimiyat lazzatini bilsa-da, uni bulardan-da ko‘proq bezovta qilgan ehtiyoj – turkiy xalqlar tarixini – haqiqiy tarixni bir necha kitob sahifalariga abadulabad muhrlash”² edi. U bularni “bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tish jarayonini boshidan kechirayotgan millatning ertangi holiga ta’sir etadi, deb tushunar va bu vazifani qolgan barcha dolzarb ishlardan-da muhimroq hisoblardi”³. Lekin O.Sharafiddinov aytganidek “...bozor munosabatlari bu odamni chirpirak qilib uchiradi”⁴. Endi u barini qayta mushohada qilishga, olam va odam haqidagi qarashlarini yangi zamon talablari asosida qayta baholashga mahkum bo‘ladi.

¹ Normatov U. Badiiyat ko‘zgisida millat taqdiri // Sharq yulduzi, 2011. – № 3. – B. 120.

² Hamdamov U. Muvozanat. – Toshkent, Sharq, 2007. – B. 60.

³ O‘sha manba. – B. 61.

⁴ Sharafiddinov O. Modernizm jo‘n hodisa emas // O‘zAS, 2002. 7-iyun.

Yozuvchi roman avvalida qahramonlari xarakteriga bergan ilk chizgilar dayoq, ular o'rtasidagi ziddiyatni yaqqol ko'rsatishga urinadi. Shahardan qishloqqa, ota uyiga kelgan Yusuf akasi Amir bilan suhbat qurarkan, u bilan diniy-e'tiqodiy masalada murosqa qila olmaydi. Amir Yusufdan so'raydi:

– Namoz o'qimay qo'yibsan deb eshitdim. Shu rostmi?

– Musulmonchilikda birlamchi nima, aka? – savolga savol ila javob qaytardi Yusuf.

– Iymon.

– Nega unda sizning birinchi savolingiz iymon haqida emas?"

Yusufning akasi bilan bahsi imon va amal haqida. Amir imon amal (ibodat) bilan birga bo'lishi shart ekanini aytsa, Yusuf musulmon uchun eng avvalo namoz emas, qalbdagi poklik muhim ekanini ta'kidlaydi: "...odamlar o'z amallariga ko'ra uchga bo'linadi: Oliy Nizomni himoya qiluvchilar, Uni buzuvchilar va loqaydlar. Negadir ko'nglimda shunday bir qanoat borki, agar kishi o'sha Oliy Nizomning quruvchilaridan bo'lsa, u namoz o'qiydimi, o'qimaydimi, hajga boradimi-yo'qmi, bari bir chin musulmondur"¹. Yusuf akasining faqat ibodat bilan cheklanib, oilaga, ro'zg'orga e'tibor qilmay qo'yganidan ranjiydi. U akasiga dinda o'rta yo'lni tutish lozimligini, ibodat tushunchasi kengroq tushuncha ekanini, halol mehnat bilan rizq topish va bola-chaqani boqish ham farz amallardan ekanini uqdirmoqchi bo'ldi. Lekin Amir ham bo'sh kelmaydi, "Har qancha vaj-korson ko'rsatmagin, Xudoning farz qilganlari o'z o'rnida qoladi. Uni o'zgartirish uchun qancha bahona to'qimagin, bekor"² deb javob beradi. Bu o'rinda yozuvchi ikki tarafning ham xulosalarini mutlaqlashtirishga urinmaydi. Zero, e'tiqod masalasida har ikki qahramon ham muvozanatni yo'qotgan.

Said – Yusufning kursdoshi, yaqin do'sti. Do'stidan farqli o'laroq ilmni emas, hokimiyatni tanladi. Odamlarni, jamiyatni harakatlantiruvchi asosiy kuch

¹ O'sha manba. – B. 61.

² O'sha manba. – B. 63.

sifatida PUL va HOKIMIYATni ko‘rdi. Yusufning tarix, milliy g‘urur, madaniyat, ma‘rifat kabi tushunchalar haqidagi qarashlariga xomxayol deb qaraydi. Ayni shu kabi qarashlari uning “hokimiyatida” bo‘shliqlarni paydo qiladi.

Miraziz esa butunlay boshqa olam, dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydi. “Qornim to‘q, boshim sog‘, shuning o‘zi bas manga. Yetti ajdodimiz savdogar o‘tgan, men hech o‘ylanmay o‘shalarning ishini davom ettiraman”¹, derdi u.

U.Hamdam o‘zining jamiyatshunoslik yuzasidan xulosalarida faqat shaxsiy kuzatishlariga asoslanib qolmaydi. Biz adibning ilmiy faoliyatiga murojaat qilib, uning jamiyat haqidagi xulosalarda Rumiy, Kant, Freyd, Yung kabi mutafakkirlarning tadqiqotlariga tayanganiga amin bo‘lamiz². “Inson faqat sotsial mavjudot emas. – yozadi U.Hamdam – U yana biologik, ruhiy asoslarga xam ega, o‘z hayotida ayni shu jihatlarning ham ifoda etilishiga ehtiyojmanddir”³. Shu ma‘noda adib o‘z vaqtida insonni “sotsial mavjudot” deb biluvchi Yusufni inson hayoti mohiyatini alal-oqibat jism ehtiyojlarini qondirishda ko‘radigan ko‘radigan Said va Mirazizga yoki faqat ruhoniyl asosni tan oluvchi Amirga qarama-qarshi qo‘yadi.

Romanni o‘qirkanmiz, voqealar rivojida Yusufning izchillikda ijtimoiy shaxsdan ekonomik shaxsga evrilishini kuzatamiz. Muhimi, bu evrilish ishonchli hayotiy dalillar, muqarrar ijtimoiy-ruhiy zarurat evaziga sodir bo‘ladiki, o‘quvchi inson mavjudligining ijtimoiy, moddiy, ruhiy muvozanatini teran anglay boshlaydi, hayot haqida xulosalar chiqaradi. Bu xulosalar roman voqeligi bo‘ylab Yusuf bilan qadamma-qadam yo‘l bosilarkan, yanada mustahkamlanib boradi. Quyida “Muvozanat” romanidagi inson konsepsiyasining asosini tashkil etuvchi xulosalariga yetaklovchi voqea va taqdirlarni atroflicha ko‘rib chiqamiz.

¹ O‘sha manba. – B. 29.

² *Qarang.* Hamdamov U. Yangi o‘zbek she‘riyati. – Toshkent: Adib, 2012.

³ O‘sha manba. – B. 17.

U.Hamdam o'zining inson konsepsiyasida ma'naviyatsiz boylikni qoralaydi. Albatta, moddiyat muhim, biroq moddiyat insondagi zaruriy sifatlarning bittasi xolos: "...odamzod o'z ma'naviyatini moddiyat orqali namoyish etishu o'z moddiy olamini ma'naviyat tufayli tiklash va saqlashga majbur va mahkum"¹. Yozuvchi bu qarashlarini Mirazizning hayoti misolida asoslashga urinadi.

Miraziz juda ham badavlat tadbirkor. Ko'ngli nimaniki tusamasin, bari muhayyo. Dang'illama uy-joylar, eng so'ngi rusumdagi avtomobillar, ko'ngilxushlik uchun go'zal ayollar, dabdabali bazmlar – bular Miraziz topgan hayotiy "ne'mat"lar. "Hayot Mirazimdan hech narsani ayamayotgan edi, u nimaga qo'l uzatsa, uzib olayotgandi. Faqat bir narsa – oldinda uni kutib turgan maqsad – manzil yo'q edi"². Muammo shundaki, uning boshqa orzu-istaklari mavjud emas. Aniqrog'i, boshqa istaklarning tug'ilishiga zamin yaratuvchi ma'naviy asosning o'zi yo'q. Shunday ekan, pul bilan erishish mumkin bo'lgan barcha ne'matlarni qo'lga kiritgan Miraziz qalbining tub-tubida katta bo'shliqni ko'ra boshlaydi. Oilaviy baxt topa olmaydi. Xotini Zahro bilan munosabatlari darz ketadi. Qolaversa, o'zi qurgan biznes imperiyaning juda ham mo'rt ekanini, birgina amaldorning mansabidan ketishi oqibatida bu imperiyaning kuli ko'kka sovurilishini his qiladi, doim halovatsizlikda yashaydi.

U.Hamdam Said obrazi misolida zamonaning tipik amaldorini tasvirlaydi. Uning otashin nutqlari real hayotga sira mos emas, balki butunlay zid keladi. "Mana endi, – bazmlarning birida aytadi Said – ko'krakni kerib yashaydigan zamon keldi. Nihoyat, o'zbekning yelkasiga ham oftob tegdi"³. Endi shu Saidning zamonida qishloqdagi Yusufning bolalik do'sti Sodiqning bergan savolni eslang: "Nega biz ochmiz?!". Adibning kinoyasi shuki, Said qanchalik aqlli, farosatli bo'lmasin, aytganlari samimiy – bunga, avvalo, uning o'zi ishonadi. Agar

¹ Hamdamov U. Muvozanat. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 100.

² O'sha manba. – B. 95.

³ O'sha manba. – B. 102.

shunday bo'lmaganida tor doirada, necha yillik qadrdonlariga bunday havoyi gaplarni aytmagan bo'lardi. Saidning otashin nutqi davom etadi: "O'zbekistonni necha o'nlab mamlakatlar tan oldi. Necha o'nlab mamlakatlar poytaxtida bizning elchixonamiz, necha o'nlab mamlakatlarning elchixonalari bizning Toshkentimizda mavjud. Yusuf, ishon, bizga Mirazimboydek puldoru, senga o'xshagan fidoiy kishilar judayam zarur"¹. Yusuf do'stining so'zlari samimiy ekaniga ishonsa ham, uning gaplari o'ziniki emasligini biladi. Ya'ni barcha amaldorlarga xos bo'lgan qolip gaplar bu, "...o'zining gapini qanday topib gapirsin? Axir buning uchun kishining oyog'i o'z zaminida – o'z aqlu idroki, kuchu g'ayrati orqali bino etgani muhitda mustahkam turmog'i kerak bo'lmaydimi?"² deya xayolidan o'tkazadi Yusuf. O'qishni bitibdiki, mansab zinalarining yuqoriga ko'tarilib borgan Said ma'lum bosqichga yetganda reallikdan – yashab turgan muhitidan uzilib qoladi. Yozuvchi bu holni aravani tortib ketayotgan bosh amaldorning yo'rig'iga yo'rg'alash, u qaysi qo'shiqni kuylasa, atrofidagi barcha anglab-anglamay shu unga jo'r bo'lishga majbur ekanidan deb biladi.

Biroq voqealar rivojida Saidning davlat va jamiyat haqidagi qarashlari o'zgarib boradi. Ayniqsa, Yevropa davlatlariga qilgan sayohatidan so'ng unda tuzumga, umuman, davlatchilikka nisbatan tanqidiy munosabat shakllanadi. Avvalo, uning tasavvurlari yangilandi: "...shundagina sobiq imperiya qariyb yetmish yil mobaynida adashib yurganligini ilk bora o'z aqli bilan angladi"³.

Said dunyoqarashi qancha keng bo'lmasin, taraqqiy etgan jamiyatlarni o'z ko'zi bilan ko'rmagunicha, sho'rolar davriga obyektiv baho bera olmasligi tabiiy edi. U rivojlangan kapitalistik davlatni, uning bag'rida turib o'rganganidan keyingina sotsializm va kapitalizmning farqini ravshan ajrata boshladi: "Fuqarolarning inkubatordan chiqqan jo'jalar misol bir xil kiyintirib, bir xil

¹ O'sha manba. – B. 102.

² O'sha manba. – B. 103.

³ O'sha manba. – B. 158.

yedirgan, hayot sharoitini ham yakrang qilib, shaxsiy tashabbus va manfaatni bo‘g‘ib kelgan sovetlar-ku! Yana o‘shalarning yo‘lidan boramizmi? Yo‘q, bu mumkin emas”¹, – deya xayolidan o‘tkazadi, u.

Yuqorida keltirilgan parchada, sotsializmning eng katta xatosi sifatida shaxsiy tashabbus va manfaatni bo‘g‘ish ko‘rsatilmoqda. Mazkur omil kapitalizmning, jumladan, ekonomik odam konsepsiyasining butunlay ziddidir. Zero, davlat qachonki har bir fuqaroning manfaatlarini qonun doirasida himoya qilsa, orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarish sharoitini yaratib bersagina, barqaror hamda qudratli bo‘ladi. Bu xulosalarni adib yana Said vositasida ifodalaydi: “Axir, VATAN MANFAATI yo‘q yerdan bino qilinmaydi, balki har bir fuqaro manfaatidan, ha-ha, aynan HAR BIR VATANDOSH MANFAATIDAN O‘SIB CHIQADI! Ya’ni yakka shaxs manfaatiga Vatan, Vatan manfaatiga yakka shaxs manfaatini qarshi qo‘ymaslik kerak. Ular go‘yo bir-birini taqozo qilib yashovchi ikki qutb – biri ikkinchisiz chinakamiga qad rostlay olmaydi”². Shu o‘rinda yozuvchi g‘oyalarini yana iqtisodchi va faylasuf Adam Smit qarashlari bilan muqoyasa qilishga ehtiyoj sezamiz: “Har bir odam – yozadi Adam Smit – o‘z manfaatlariga mos keluvchi ne‘matni doimiy ravishda, eng foydali shaklda topishga intilib yashaydi. Bu yo‘lda u faqat o‘z manfaatlarini ko‘zlaydi, aslo, umum manfaatini emas. Biroq odam tabiiy ravishda o‘z e‘tiborini faqat shaxsiy manfaatlariga qaratar ekan, bu faoliyat alaloqibat jamoa manfaatlariga ko‘proq mos keluvchi jarayonga aylanadi. Tabiiyki, kishi bu faoliyati bilan jamiyat manfaatlariga xizmat qilayotganini yoki qay darajada foyda keltirayotganini anglab yetmaydi... U manfaatlari yo‘lida harakatlanib borarkan, odatda o‘zi anglagan holda, maqsadli ravishda jamiyat foydasi uchun qilgan xizmatlaridan, anglamay qilgan xizmatlari nisbatan ko‘lamliroq bo‘ladi”³. U.Hamdam ham Saidning tilidan vatanga “HAR BIR VATANDOSH MANFAATIDAN O‘SIB

¹ O‘sha manba. – B. 158.

² O‘sha manba. – B. 184.

³ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – Москва: Издательство социально-экономической литературы, 1962. – Б.331.

CHIQAADI” deya ta’rif bermoqda. Ya’ni davlatchilikni shakllantiruvchi omil, avvalo, odamlarning manfaatidir. Buni Said hayolidan o’tkazgan quyidagi mulohazalar orqali yanada oydinroq tushunish mumkin: “Xorijda yashab-ishlovchi o’zbek vatandoshi nahotki moddiy manfaati bo’lmagani uchungina O’zbekistonning kelajagiga befarq qarasa? Said-chi? Said ham shunday qilarmidi? Axir, Saidning holi boshqacha-ku! U shu yerda ishlayapti. Yana mas’ul vazifada. Demak, mamlakat, millat manfaati haqida gapirish va qayg’urishdan manfaatdor. Ya’ni u egallab turgan lavozimi nuqtayi nazaridan shunga burchli va majbur. U xuddi ana shu xizmatlari evaziga haq oladi, oilasining porloq kelajagini ta’min etadi. Agar hol o’zgacharoq bo’lganda-chi?”¹. Yozuvchi odamlar tabiatiga xos egoizmni imkon qadar kengroq ko’lamda ta’riflashga urinarkan, vatan va vatandoshlik tushunchalari ham mazkur egoizm (manfaat) bilan bevosita aloqador ekanini asoslashga harakat qiladi. Ayni damda yozuvchi davlat va hokimiyatning burchlari haqida ham to’xtaladi. U kishilarning manfaati vatansiz (bu o’rinda davlat ma’nosida) qad rostlay olmasligini ta’kidlaydi. Xo’sh, kapitalizmga davlatning vazifalari qanday bo’lishi kerak? Bu borada ham Adam Smitning g’oyalari haligacha zamonaviy davlatchilikning asosi bo’lib kelmoqda. Mutaфakkir davlatning rolini fuqarolar moli va joni xavfsizligini kafolatlashda, qonun ustuvorligini ta’minlashda ko’radi. U iqtisodiyot davlatning ortiqcha aralashuvisiz, tabiiy o’sishi kerak degan g’oyani ilk bor o’rtaga tashlagan mutafakkirlardan biri hisoblanadi.

Shu o’rinda Saidning Yevropa mamlakatlarining taraqqiyotiga sabab bo’lgan omillar va o’z vatanida olib borilayotgan islohotlarni taqqoslab qilgan mulohazalariga e’tibor qarating: “Ovro’pa mamlakatlari faqat bir hovuchgina oligarxiyaninggina emas, balki har bir jamiyat a’zosining ham moddiy-ma’naviy ahvoli yaxshilangandagina yurt haqiqatan qudratli bo’lishini bundan bir-ikki asr muqaddam tushungan. Yo’qsa, bunday ma’murlikni bir pasda bunyod etish

¹ Hamdamov U. Muvozanat. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 183.

mumkin emas”¹. Jamiyatda faqat bir hovuch toifa – monopol, lobbistlarning boyishi aslida kapitalizm g’oyalariga zid. Zero kapitalizm hammaga birdek imkoniyat berish, sog’lom raqobat yaratishdan manfaatdor. Sog’lom raqobat bo’g’ilganda, davlat o’z burchlarini to’la qonli ado etmaganidagina kapital bir hovuch odamlar qo’lida yig’ilishni boshlaydi. Adib bularni Said timsolida aytishga urinadi.

Biroq Saidning bu xulosalari amaliyotga ko’chmay, xayol sifatida qolaveradi. Said uning o’zi ham sherik bo’lgan adolatsiz tuzumning qurboni bo’ladi. Arzimas sabablar tufayli bo’shatilib, keraksiz buyumdek uloqtiriladi. Kuni kecha odamlar soyasiga salom berib yurgan salobatli amaldordan asar ham qolmaydi. Keyinroq, go’yo hammasini kech tushunib yetgan odamdek Yusufga “Sen ishlashing kerak bo’lgan joyda o’tirdim. Agar dunyoda haqiqat bo’lganda o’sha o’ringa men emas, sen o’tirishing kerak emasmidi? Yo’q-da haqiqat!”² deya hasratlanadi. Lekin Yusuf do’stining samimiyatiga ishonmaydi. Bu shunchaki mansabidan ayrilgan odamning diydiolari, dardini kimgadir aytib yengil tortishiga o’xshardi. Zero, bu odam uchun ayni vaqtdagi yagona yupanch yana mansabga o’tirish, yana o’sha adolatsiz tizimda faoliyat yuritishdir...

Amir romandagi eng murakkab, ziddiyatli qahramonlardan biri. U ba’zan juda ham aqlli, mutafakkir ko’rinadi, ba’zan esa johil. Yana ba’zan mo’tadil dindor bo’lsa, ba’zan mutaassibga aylanadi. Xullas, bir qarashda Amirni tushunish qiyin. Lekin uning murakkab hayoti, taqdiriga qaralsa, qahramonning bunday chigal xarakterini tushunish mumkin bo’ladi.

Amir fojiasining asl ildizlari sho’rolar davrida dinning jamiyat hayotidan ihotalanishiga borib taqaladi. Ya’ni odamlarning muhim hayotiy-ruhiy ehtiyojlaridan biri bo’g’iladi. “Mening o’ttiz besh yoshimgacha o’risning zamoni edi. Qur’onning nimaligini bilmasdik”³ deydi Amir. Yurt mustaqillikka

¹ Hamdamov U. Muvozanat. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 183.

² O’sha manba. – B. 232.

³ O’sha manba. – B. 47.

erishgach, odamlarga diniy erkinlik berildi. Biroq ayni vaqtda zamon murakkablashdi, iqtisodiy muvozanat buzildi. Qishloqda o'qituvchilik qilib, durustgina kun kechirib kelayotgan Amirning turmushi parokanda bo'ldi. Ana shunday pallada Amir najotni dindan izladi. Davlat va jamiyat bag'rida himoyasiz qolgan o'qituvchi butun borlig'i bilan o'zini din bag'riga otdi. Din buyurganlarini o'zicha talqin qilishi natijada bu dunyoni unutib, hayotiy muvozanatini yo'qotdi.

Amir obrazi adibning inson konsepsiyasida din va dunyo, imon-e'tiqod masalalariga doir qarashlarini ifodalash vositasiga aylangan. O'zaro suhbatlaridan birida Amir ukasiga "O'zingni qiynama, ukajon, bu dunyoda hamma narsa xudoniki. Sen aytayotgan Oliy Nizom ham, uning himoyasiyu buzilishi ham, xullas, hamma-hammasi. Sen o'z takabburligingdan voz kecha olsang, bas – dunyo qayg'usiyu unda tartib o'rnataman degan tashvishing ham seni tark etadi. Shunda sen bir ish qolganini ko'rasan: farzlarni ado etish. Qolgani behuda, safsata..."¹, deydi. Amirning mazkur chuqur falsafiy xulosalari, aslida, haqiqat va har bir musulmon imon keltirishi zarur bo'lgan aqidaviy masalalar. Ammo Amir o'z hayoti misolida mazkur e'tiqodiy masalani ijtimoiylikdan butunlay ajratib talqin qiladi. Farz amallar deganda faqat namoz, haj, zakot kabi muhim amallari tushunib, ijtimoiylikka daxldor, masalan, o'z farzandlarini boqish, himoya qilish kabi farz amallarni chetlab o'tadi. U imonsizlik va beamallik ruhiy muvozanatni izidan chiqarishini aytib, bunga G'arb hayotini misol tariqasida ko'rsatadi. Shunda Yusuf "Aka, o'shalar barpo etgan moddiy hayot darajasiga erishmas ekanmiz, bizning ham ruhiy butunligimizga darz ketishi aniqqa o'xshaydi"² deya izoh beradi. Muxtasar qilib aytganda, biz Amirning taqdirida Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning kimki dinda qattiq (g'uluv) ketsa, din uni mag'lub qilishi haqidagi hadisining hayotiy misolini ko'ramiz.

¹ O'sha manba. – B. 141.

² O'sha manba. – B. 142.

D.Quronov “Muvozanat” romani va muallifning badiiy niyati haqida to‘xtalib, “yaqin o‘tmishimiz – odatlanilgan turmush tarzidagi tublik o‘zgarishlar ruhiyatimizda keskin evrilishlarni keltirib chiqargan davrdagi muvozanatsizlik holatini qalamga oldi. Yozuvchi qahramoni ruhiyatida yo‘qolgan muvozanatning tiklanish jarayonini tasvirlash asnosi kunning o‘tkir muammolariga javob izladi, anglash va anglaganlarini yaxlit konsepsiya – badiiy falsafa tarzida ifodalashga intildi”¹ deb yozadi. Darhaqiqat, Ulug‘bek Hamdam millatimiz tarixida har jihatdan tub burilishlarga sabab bo‘lgan voqea mustaqillikdan keyingi ilk davrlarni bor murakkabliklari bilan tasvirlay olgan. Ayniqsa, jamiyatning sotsialistik tuzumdan kapitalistik tuzumga o‘tishdagi qiyinchiliklar, ruhiy-ma’naviy evrilishlar turfa taqdilar, turfa xarakterlar misolida ochib beriladi. Professor Abdug‘afur Rasulov aytganidek, “Muvozanat” romanida inson, uning mangu xususiyati, tarixan shakllangan xususiyatlari ishonarli yoritilgan”².

Yuqorida biz ko‘rib chiqqan qator masalalar asosida xulosa qilib aytish mumkinki, “Muvozanat” milliy adabiyotimizda ekonomik shaxs siymosini konseptual ravishda ifodalagan ilk romandir. Ya’ni “Muvozanat” romanida ilk bor sosrealizmning maqsadi bo‘lgan sotsial shaxs o‘rnida to‘la qonli ekonomik shaxsni ko‘ramiz. Albatta, o‘sha davrda yozilgan boshqa romanlarda ham ekonomik shaxsning alomatlari mavjud. Lekin Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romani kapitalizm fuqarosining falsafiy, iqtisodiy, ijtimoiy asoslarini tizimlashtirib, yaxlit yangi inson konsepsiyasini ifodalay olgani bilan ahamiyatga molik. Boshqacha aytganda, “Muvozanat” kapitalistik dunyoda inson kim, uning maqomi nima, hayotiy maqsad va vazifalari nimadan iborat, rag‘bati nimada, ijtimoiy muvozanatni ta’minlovchi omillar qaysi kabi savollarga romaniy tafakkurda yechim izlangan ilk asardir.

Jamiyatning bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga o‘tish davri manzaralari, jarayonning ijtimoiy, ruhiy-ma’naviy oqibatlari qalamga olingan asarlardan yana

¹ Quronov D. Adabiy jarayonda mom sindromi. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 14.

² Rasulov A. Yangilanayotgan roman // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2003. 22-avgust.

biri Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanidir. Mazkur roman tasvirlash prinsipiga ko'ra biz yuqorida ko'rib chiqqan "Dinozavr", "Muvozanat" romanlaridan tubdan farq qiladi. Ya'ni "Bozor" an'anaviy realistik uslubda emas, balki modernistik uslubda yozilgan bo'lib, to'laligicha ramziylik asosiga qurilgan. Umarali Normatov bu haqida "Yozuvchining diqqat-e'tibori bozor manzaralari va mojarolarining bevosita o'zini emas, personaj ongi, ruhiyatidagi aks-sadosini ifodalash, badiiy tahlil etishga qaratiladi, bunda "ong oqimi" tajribalaridan ijodiy foydalanadi"¹ deb yozadi. Abdug'afur Rasulov G'arb adabiyoti, xususan modernizmning milliy adabiyotimizdagi namunalari haqida so'zlarkan, "Bozor" romanini alohida qayd etib o'tgan² bo'lsa, Yo'ldosh Solijonov uni "o'zbek nasrining so'ngi yillardagi original qiyofasini belgilaydi"³ deya e'tirof qiladi.

Bundan tashqari, "Bozor" romani voqealari noma'lum makon va zamonda sodir bo'ladi. Aniqrog'i, o'quvchi voqealar qay vaqtda va qay makonda sodir bo'layotganini taxminan his etib tursa-da, muallif asarning biror joyida o'rin-joy nomlari va sodir bo'layotgan voqealikning aniq vaqtini ko'rsatmaydi. Shu jihatdan asarda fentezi hamda antiutopiya janrlariga xos elementlarni ham ko'rish mumkin. Yozuvchining ijtimoiy munosabatlarni qandaydir ilohiy qudrat tarozisiga qo'yib baholashga urinishi esa romanni mistikaga yaqinlashtiradi. Xullas biz "Bozor" romanida bir qancha janr va yo'nalishlarning sintezini ko'ramizki, bu asarni o'z davrining chinakam modern hodisasi sifatida baholashga asos bo'ladi. Shularga qaramay, romanning tom ma'noda milliy zamindan, ming yillik badiiy tafakkurimiz bag'ridan unib chiqqaniga ham shubha yo'q.

¹ XX asr o'zbek adabiyoti masalalari. *To'plam*. – Toshkent: FAN, 2012. – B.40.

² Rasulov A. Yangilanayotgan roman. // UzAS, 2003. 22-avgust.

³ Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Fil.fan.doktori diss.avtoref. – Toshkent, 2002. – B. 13.

Romanda bozor obrazi jamiyatning, balki butun dunyoning badiiy modeliga aylantiriladi. Yozuvchi ta’biri bilan aytganda “bozor – dunyo”. Ya’ni adib inson mavjudligining barcha omillarini bozorga muqobil tarzda talqin qiladi.

Adib insoniyatni bozor vositasida tushunishga va tushuntirishga harakat qilarkan, bundan muayyan g’oyaviy-badiiy maqsadni ko’zlaydi. U o’zining inson konsepsiyasi uchun “bozor modeli”ni poydevor qilib oladi. Bu poydevorga esa insoniyat xos manfaat – nafsning ramzi sifatida qaraydi: “Bu yorug’ dunyoda bir-biriga tariqcha o’xshagan-o’xshamagan tirik jon borki, nafs o’xshaydi, nafs bir xil, nafs odamlarni birxillashtiradi, tafovutlarni yo’qqa chiqaradi, bozor manaman degan insoni komilni ham yalpisiga – bitta kuymay bozorga soladi”¹ (7-bet). Yozuvchining badiiy konsepsiyasida manfaat odamlarni har ko’yga soluvchi va barchani umumlashtiruvchi qudratli omil sifatida talqin qilinadi. Zero inson hech qachon o’z nafsidan to’la forig’ bo’la olmaydi. Lekin nafsni o’z holiga tashlab qo’yish ham mumkin emas.

Muallif o’zini qiynayotgan muammolarni birma-bir o’rtaga tashlarkan, o’tish davriga ishora qilib, bu davrni “shayton oralagan bozor”ga mengzaydi. Uni jamiyatdan halollik, ma’rifat ko’tarilib, tobora o’g’rilik, johillik kabi illatlar urchib borayotgani tashvishga soladi. Aynan shu davrga kelib odamlar nafsini jilolay olmay qoldi, bozor izidan chiqdi. Lekin “bozor aynidi, izdan chiqdi deb undan yuz o’g’irish kerakmi?” Bizningcha, asarning markaziy savoli, bosh muammosi shu savolda mujassam topgan. Albatta “bozor”dan voz kechish imkonsiz, biroq yechim mavjud – “bozorning yovuzlashib ketishiga yo’l qo’ymasligimiz kerak”².

Xurshid Do’stmuhammad o’z badiiy konsepsiyasi markaziga MANFAATni qo’yarkan, g’oyaviy jihatdan Adam Smit qarashlariga yaqinlashadi, shu bilan birga, MANFAAT jamiyatni harakatlantiruvchi kuch

¹ Do’stmuhammad X. Roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B.7.

² O’sha manba. – B.113.

sifatida talqin qilingan “Dinozavr” hamda “Muvozanat” romanlariga har jihatdan hamohang asarga aylanadi.

Dilmurod Quronov “Bozor”ning badiiy falsafasini uchta asosiy obraz: bozor, choyxona va qiroatxona tutib turadi, boshqa barcha obrazlar ularning atrofida uyushadi”¹ deb yozgandi. Romanda o‘zaro ziddiyatga kirishgan mazkur uch obrazning har biri o‘z muvozanatini yo‘qotgan. Bozorga shayton oralagan bo‘lsa, hokimiyat ramzi bo‘lgan choyxona o‘g‘ri va muttahamlarning makoniga aylangan, ziyo maskani hisoblanuvchi qiroatxona (kutubxona) esa nurab, kimsasiz maskan bo‘lib qolgan.

Romanning bosh qahramoni Fozilbek ismi-jismiga mos, fozil yigit. U asarda yangi avlod vakili, kapitalizm fuqarosining ramziga aylangan. Fozilbek muallif ideallarini o‘zida mujassam etib, uning inson konsepsiyasida bosh omiliga aylantirilgan.

Fozilbek obrazining “Dinozavr” romanidagi Mahkam va “Muvozanat”dagi Yusufdan farqli jihatlari talaygina. Avvalo, u ijtimoiy odam (Homo sociologicus) emas. Hali uylanmagan bu yosh yigitning ongu shuuri sotsializm g‘oyalari bilan zaharlanib ulgurmagan, ya’ni chinakamiga sotsialistik tuzumda yashab ko‘rmagan. U kapitalizm farzandi. Shunday ekan, biz Fozilbek siymosida ijtimoiy odamning ekonomik odamga evrilishini kuzatmaymiz. Qolaversa, Mahkam va Yusuf o‘tish davri voqeligining bevosita qahramoni, barcha ziddiyatlarni taqdirida, tanasida his qilib turgan obrazlar bo‘lsa, Fozilbek ko‘proq kuzatuvchi maqomida turadi. Shukur Xolmirzayev va Ulug‘bek Hamdam o‘tish davrini keng epik ko‘lamda qamrab olib, jamiyatning reallikka monand modelini yaratgan va o‘z badiiy konsepsiyasini bilvosita qahramonlari taqdiri orqali ifodalashga uringan bo‘lsalar, Xurshid Do‘stmuhammad ijtimoiy koloritni nisbatan torroq oladi, davrning ramziy-falsafiy modelini yaratib o‘z

¹ Normatov U., Quronov D. Romanning yangi umri // Jahon adabiyoti, – 2001. – №9.

g'oyalarini bevosita Fozilbek orqali ifodalashga urinadi. Boshqacha aytganda, Fozilbek – bosh qahramon va bir vaqtda muallif siymosi.

Fozilbek asarning boshidanoq ekonomik odam. U “bozor”da “hamma qatori oluvchi”, faqat “hayotda har kim didi-farosatiga yarasha oladi”¹ degan aqida bilan yashaydi. Shu bilan birga bozorning cho'kib borayotganini, odamlarda hayvonlarga xos xislatlarning ortib borayotganini ham yaxshi biladi: “Inson tabiatida barcha yirtqich va yovvoyi jondorlarga xos xususiyat uchraydi. Ya'ni, odamda bo'rilik ham, tulkilik ham, musichalik ham... nojinslik ham, insofiylik ham bor. Faqat insonda ana shu xususiyatlarni izga soluvchi qo'riqchi tuyg'ular yo'qolmasa bas”² (176). Bu qo'riqchi tuyg'ularning onasi esa ma'rifatdir.

“Bozor” romanining markaziy qahramonlaridan yana biri Qadriya isli kutubxonachi qiz bo'lib, u nurab borayotgan qiroatxona – ma'naviyatning ramzidir. U pul bilan muomala qilishni bilmaydi. Faqat kitob o'qish, kutubxonani obod qilish haqida o'ylaydi. Fozilbek va Qadriya o'rtasida muhabbat rishtalarining bog'lanishi esa “bozor odami” va ma'naviyatning qovushishi demakdir. Zero yozuvchi badiiy konsepsiyasiga ko'ra bozorning cho'kishi odamlardagi ma'naviyatsizlik bilan bog'liq. Fozilbek va Qadriyaning quyidagi suhbatida shu qayg'u mujassam topgan:

- Bozor – suvsiz bo'lsa-da, odamlarni g'arq, qiladigan hovuz.
- Unga g'arq bo'lmaslik uchun...
- G'arq bo'layotganini anglab yetishi kerak. Keyin...
- Qutulish chorasini...
- Qutulish uchun tepaga intiladi, bozor tubidan...
- Intila-intila qiroatxonaning poyidan chiqadi. Odamlar “Shuur”ni qiroatxonadan topadilar”³.

¹ Do'stmuhammad X. Roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B.7.

² O'sha manba. – B.176.

³ O'sha manba. – B.226.

Muallifning inson konsepsiyasini ochib berishda Fozilbek sinfdosh do'sti Baxtish bilan jamiyatdagi illatlar haqidagi suhbat muhim rol o'ynaydi. Shu suhbatda Fozilbek aytadi: "Bozorning yovuzlashib ketishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak... Bozor odamlar bilan emas, ularning nafsi bilan til topishganining kasofati bu"¹. So'ng suhbat davomida muammoning bosh ildizi sifatida odamlarning qiroatxonadan uzoqlashganini ko'rsatadi: "Xayolini yo'qotgan bozor o'zini ham yo'qotadi, dedim-ku... Qiroatxona – bozorning xayoli-da!.. Menga qolsa, har bitta bozor o'rtasiga bittadan qiroatxona qurdirgan bo'lur edim"².

Fozilbek davrning eng katta fojialaridan yana biri sifatida ma'rifat ulashuvchi ijodkor va olimlarning o'zini "bozorga urishi"da ko'radi: "Sa'dulla, Qadamboy, Berdiboylar shoirlik dov-dastgohini yig'ishtirib, o'zlarini bozorga urdilar... Olimjonni aytmay sizmi?! Nima, bu umrlar esiz emasmi? Emin shoir bozor bilan bellashaman degandi, naq belini sindirishdi".

Xurshid Do'stmuhammadning inson konsepsiyasidagi muhim qahramonlardan yana biri bozorboshi – Qosimbekdir. Qosimbek ijtimoiy odam – eski odam. Umr bo'yi bozorni epaqaga solaman deb yashadi. Lekin umri poyoniga yetib qolganda buning imkonsiz ekanini tushunib yetdi. Endi u yangi bozorni epaqaga solish tugul, uning mohiyatinida anglab olishga ojiz ekanini bilib qoladi. O'z o'rnini munosib o'rinbosarlarga bo'shatib berish maqsadida, o'g'illari va shogirdlarini chaqirib bunday nasihat qiladi: "...unutmalaring, bozorni izga solish uchun qimirlagan jon borki, bari o'zicha urinadi. Xudo xayrini bersin, hammasini o'z holiga qo'y, Xudo har bandaga o'ziga yarasha aql-hush bergan, bozorboshi o'sha aql-hushning baridan foydalana bilishida gap ko'p". Qosimbekning bu nasihati kapitalizmning bog' g'oyalariga hamohang. Kapitalizmga ko'ra, bozor mustaqil rivojlanishi, ma'muriyat tomonida jilovlanishi yo izga solinishi kerak emas. Bozor o'z ichki qonuniyatlari asosida,

¹ O'sha manba. – B.113.

² O'sha manba. – B.109.

o'zing xato va yutuqlaridan xulosa chiqarib rivojlanaveradi. Hukumat esa adolatni, shaxs va mulk daxlsizligini ta'minlasa bas. Qosimbek gapida davom etib, "Bozor uchun Shomirza bilan Diyorbek qanchalik zarur bo'lsa, ularning yonida Sabriddin bilan Fozilbek turishi yuz karra shart". Ya'ni bular pul, qudrat, adolat, ma'rifat ramziga aylangan qahramonlar. Ularning har biri bozor uchun suv va havodek zarur, yo'qsa, bozor cho'ka boshlaydi.

Fozilbek otasining nasihatlariga quloq tutadi. Endi u otasi kabi umrini bozorni epaqaga solaman, jilovlay degan orzu uchun sovurib yubormaydi, lekin o'zi ham shayton oralab yuruvchi bozorning izmiga tushib yashamaydi. U oraliq yo'lni topib, bozorni pul, hokimiyat va ma'rifatning o'zaro adolatli muvozanati asosiga qurishni istaydi. Xurshid Do'stmuhammadning badiiy konsepsiyasi esa mana shu xulosalarda mujassam topadi.

3.2. Tarixiy shaxsning demokratik jamiyatlardagi badiiy ifodasi.

Roman yozish – mashaqqat. Tarixiy roman yozish esa ikki hissa mashaqqatdir. Zero, bunday asarda romannavis tarixiylik tamoyillarini mahkam tutishi, o'zining olam va odam haqidagi badiiy konsepsiyasini tasvirlanayotgan tarixiy voqelikka tayangan holda ifodalashi lozim.

Albatta, badiiy g'oya talabi bilan tarixiy roman syujetiga to'qima obrazlar, to'qima voqelik ham kiritilishi mumkin. Romanda to'qima obraz va voqealardan foydalanishning aniq chegarasi, qat'iy o'lchovi bo'lmasa-da, bu unsurlarning me'yori tarixiy asar saviyasini belgilovchi asosiy omil hisoblanishini mahoratli muallif yaxshi anglaydi. Shu bois doim tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'rtasidagi oltin ko'priknı izlaydi. Bu yo'lda yozuvchi "tarixiy manbalarnı o'rganadi, faktlar, voqealar, ularning ishtirokchilari haqida ma'lumotlarnı yig'adi. Uning endigi vazifasi – o'rganganlarini badiiy qayta ishlash: badiiy

voqelikda faktlar jonlanishi, voqealar yuz berishi, shaxslar yashashi lozim”¹. Mazkur jarayon tarixiy asarda muallif ijodiy imkoniyatlarini ma’lum darajada cheklashi tabiiy. Agar roman millatning ulug‘ siymolariga bag‘ishlangan bo‘lsa, yozuvchining ijodiy mas’uliyati bir necha karraga ortib, tarixiy asar yozish yanada mashaqqatliroq jarayonga aylanadi.

Yozuvchi Isajon Sultonning 2021-yilda nashr etilgan “Alisher Navoiy” romanini mutolaa qilgan o‘quvchi, beixtiyor yuqoridagi kabi masalalarni mulohaza qiladi. Chunki Hazrat Navoiy nafaqat o‘zbek millatining, balki butun turkiy xalqlarning eng ulug‘ mutafakkirlaridan biri. Navoiyning shaxsi, hayot yo‘li hamda ijodi ko‘p va xo‘p o‘rganilgan. Shunday ekan, Isajon Sulton nima yangilik qila oldi, salaflaridan farqli o‘laroq Navoiy siymosini qanday tasvirladi degan savol, tabiiyki, birinchi o‘ringa chiqadi.

Avvalo shuni ta’kidlash joizki, adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiyning to‘laqonli badiiy siymosini yaratishga bo‘lgan urinishlar u qadar ko‘p emas. Oybekning “Navoiy” (roman, 1944), Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” (drama, 1945), Omon Muxtorning “Ishq ahli” (roman, 2007) va nihoyat Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” (roman, 2021) kabi asarlarida ulug‘ shoir siymosi tarixiy-ijtimoiy voqealar markazida badiiy talqin etilgan.

Yuqorida sanalgan asarlar ichida Navoiy shaxsiyatining nisbatan to‘laqonli, konseptual badiiy qiyofasi Oybek va Isajon Sulton romanlarida ifodalangan. Bu ikki roman yozilgan davr oralig‘i esa qariyb sakson yilni tashkil etadi. Biz bu ikki roman haqida so‘z borganda shu katta davrni e’tibordan qochirmasligimiz lozim. Ya’ni o‘tgan sakson yil davomida ijtimoiy shart-sharoit ham, tuzum ham, adabiy-estetik qarashlar ham, hatto, tarixning o‘zi ham yangilanganini hisobga olishimiz zarur. Shunday ekan, Isajon Sultonning Alisher Navoiy siymosini qaytadan badiiy talqin etishga bo‘lgan urinishiga shunchaki

¹ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 55.

shaxsiy ijodiy ehtiyoj sifatida emas, balki ijtimoiy-estetik hayotimizda yetilib kelgan umumestetik ehtiyojning mevasi sifatida qarash o‘rinli bo‘ladi.

Tarixiy romanda muallif tarixiy shaxs konsepsiyasini (asosan) bosh qahramon timsolida ilgari suradi. Ya’ni ijodkor olamni bilish yo‘lida o‘z badiiy talqinidagi tarixiy shaxs ruhiyatini taftish qiladi, uning murakkab taqdiriga nazar soladi. Shu tarixiy shaxs vositasida zamon va makonni o‘rganadi. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, falsafiy qarashlarini ilgari suradi. Demak, tarixiy asarni baholashda o‘tmishning qay darajada haqqoniy jonlantirilgani emas, balki mavjud voqelik, tarixiy shaxs qay tarzda badiiy tafakkur qilingani hisobga olinadi. Ya’ni tarixiy asarda muallifning inson konsepsiyasi shu asarning ham badiiy-g‘oyaviy, ham kompozitsion butunligini belgilovchi eng muhim omilga aylanadi. Inson konsepsiyasiga doir mazkur xususiyat “Navoiy” va “Alisher Navoiy” romanlarining o‘zaro qiyosida yaqqol ko‘rinadi. Ikki adibning ulug‘ mutafakkir obrazi vositasida yaratgan tarixiy asari – tarixiy voqelik inson konsepsiyasi omili sabab o‘zaro sezilarni farqlanadi. Sababi tarixiy shaxs bir bo‘lgani bilan, adiblarning inson konsepsiyasi farqli edi.

Oybekning “Navoiy” romani haqida so‘z borganda, muallif yashagan davr, shart-sharoit, senzura va mafkura bosimini nazardan qochirmaslik lozim. Zero, Oybek dahosi istagan taqdirida ham Navoiyni o‘z idealidagi kabi tasvirlay olmasdi.

Sotsializm va uning g‘oyalari ta’sirida Oybek ko‘proq Navoiyning xalqparvarlik, kambag‘alparvarlik kabi jihatlariga e’tibor qaratib, tarixiy shaxsning ijtimoiylashganiga urg‘u beradi. Adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonov “Navoiy” romani haqida yozarkan, “Romanda adibning asosiy maqsadi ulug‘ shoir Alisher Navoiyning keng va ko‘lamli ijodiga xos insonparvarlik g‘oyalarini ochib berishdan iborat edi”¹ deya ta’kidlaydi.

¹ Qo‘shjonov M. Oybek // Jahon adabiyoti, 2005. – №1. – B. 20.

Ozod Sharafiddinov ham ayni masalada shunga yaqin soʻzlarni yozadi: “Oybek Navoiy xarakterini yaratar ekan, birinchi navbatda, uning buyuk gumanist ekaniga, nafaqat san’atkor, balki mutafakkir sifatidagi qarashlarini ifodalashga alohida ahamiyat beradi”¹. Chindan ham Oybek asarida Navoiy insonparvar shoir oʻlaroq xalqning farovonligi, ravnaqi, tinchligi yoʻlida tinim bilmas fidokor shaxs sifatida jonlantiriladi. Jumladan, Navoiy ukasi Darveshali bilan suhbatlarning birida shunday deydi: “Biz yurt koʻkidan zulmning qora bulutlarini quvmogʻimiz kerak. Kimdan xalqqa jabr-zulm sodir boʻlsa, u bizning beomon dushmanimiz bulgʻusidir. Alhamdulillah, zulm tigʻini, qoʻlimdan kelgancha, ushatmoqqa bel bogʻlaganmen. Bu muqaddas ishda hammamiz yakdil, yaktan boʻlmoqligʻimiz, oʻz manfaatlarimizni emas, yolgʻiz xalq foydasini nazarda tutmoqligimiz kerak. Kamina uchun bu haqiqatlarning haqiqatidir”².

Toʻgʻri, Navoiy tarixan shunday sifatlardan holi emasligi kundek ravshan. Biroq bu oʻrinda biz Oybekning Navoiy hayoti va xarakteridagi ayni shu jihatga urgʻu berayotgani, tarixiy shaxs konsepsiyasida shu omilni birinchi oʻringa olib chiqishga, “haqiqatlarning haqiqati” sifatida talqin qilishga uringaniga eʼtiborni qaratmoqdamiz.

Yana bir yetuk adabiyotshunos Naim Karimov Oybekning tarixiy shaxs konsepsiyasidagi ayrim jihatlarga alohida eʼtibor qaratadi: “Adib adolatli shoh va xalq, Navoiy va xalq, Navoiy va urush, Navoiy va madaniyat taqdiri, Navoiy va xalqlar doʻstligi singari masalalarni badiiy talqin etdi hamda zamondoshlari uchun muhim, kelgusi avlodlar uchun esa ibratli boʻlgan ijtimoiy-falsafiy qarashlarini shoir obrazi orqali olgʻa surdi”³. Yaʼni yozuvchi Navoiy obrazi vositasida koʻproq ideal jamiyat, ideal davlat gʻoyalarini ilgari surishga urunadiki, aslida bu qarashlar sosrealizm metodining adabiyot oldiga qoʻygan

¹ Sharafiddinov O. Millatni uygʻotgan adib // OʻzAS, 2004-yil. 3-noyabr.

² Oybek. Mukammal asarlar toʻplami. 19 tomlik. 6-tom. – Toshkent: Fan, 1976. – B. 171.

³ Karimov N. Oybek choʻqqisi // Jahon adabiyoti, 2004. – №12. – B. 65.

talablari natijasi edi. Jumladan, Navoiy ideal davlat haqida shunday deydi: “Hurosonda bir davr yaratmoq lozimki, o‘zga xalqlar ibrat ola bilsinlar... Toqaygacha insonlar vahshat sahrosida qolurlar! Inson barcha maxluqotning tojidir. U sharaflı, sof, go‘zal yashamog‘i kerak. Davlat arboblari aql va adolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini oltinga aylantirmoq mumkin”¹.

Adib mazkur g‘oyalarini yanada mustahkamlash, ta’sir doirasini kengaytirish maqsadida asarning ko‘p o‘rinlarda noinsof, zulmkor amaldorlar va ulardan jabr-zulm ko‘rayotgan oddiy xalq ziddiyatlarini tasvirlashga harakat qiladi. Masalan, Majididdin soliq yig‘ib kelish uchun To‘g‘onbekni tumanlarga yuborganda qishloq aholisi unga ko‘p zorlanadi. Bir kampir “Bolam, tangri martabangni ulug‘ qilsin, bizga rahmu-shafqat et. Zakotga bergulik hech nimamiz yo‘q. Bor-yo‘g‘imizni berib bo‘lganmiz. O‘laqolay, soliqlaridan boshimiz chiqmay qoldi, hali “qo‘sh” puli, hali “sohib jam”, hali “mirob”, hali “sarona” – sanay bersang odog‘i yo‘q”². Bunday sahnalar Navoiyning gumanistik qarashlarini ochib berish va xalqparvar amaldor sifatidagi faoliyatini ko‘rsatib berishda juda qo‘l kelar edi.

Bundan tashqari, romanda Navoiy – gumanist, qaysidir ma’noda xalq vakili o‘laroq, o‘rta asrlar feodalizmiga qarama-qarshi qo‘yiladi. Oybekning o‘zi roman haqida shunday yozadi: “Navoiy” romanida asosan u davrdagi sotsial hayotni, kuchli intrigalarni, murakkab siyosiy voqealarni aks ettirishga tirishdim”³. Adib ta’kidlaganidek, “Navoiy” romanida “kuchli (siyosiy) intrigalar” tasviriga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda to‘qima obrazlardan ham foydalaniladi. O‘z davrining mafkuraviy talabi nuqtayi nazaridan ham Oybek shunday qilishi, feodalizmning badkirdorligini imkon qadar bo‘rttirib tasvirlashi zarur edi. Ayniqsa, bu hol Sulton Husayn va uning ayonlari, amir va beklar bilan

¹ Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 19 jildlik. 6-tom. – Toshkent: Fan, 1976. – B. 44.

² O‘sha manba. – B. 57.

³ Oybek. “Navoiy” romanini qanday yozdim / Badiiy ijod haqida. – Toshkent: O‘zSSR Davlat badiiy ijod nashriyoti, 1960. – B. 210.

munosabatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu haqida akademik Matyoqub Qo'shjonov shunday yozadi: "...asl haqiqat birmuncha boshqacha. ...Hatto mavjud bo'lgan manbalarga qaraganda, Husayn Boyqaro she'riyatda o'zi ham savodxon bo'lganligidan Navoiy asarlarini tahrir qilishga o'zini huquqli hisoblagan. Alisher Navoiyning har bir muvaffaqiyati uni quvontirgan. ...Ba'zi manbalarga qaraganda, Alisher Navoiy Husayn Boyqaroni o'ziga pir darajasida ko'rgan. Bu voqeadan keyin esa, aksincha Husayn Boyqaro Navoiyni pirim deb tan olgan"¹. Olim shular haqida yozib, "Oybek totalitar mafkura talablarini yaxshi tushungan adib bo'lganidan bu voqealarni asarga kirita olmagan"² deya ta'kidlaydi.

Oybekda Xusayn Boyqaro va Navoiy munosabatlari mafkura bosimi ostida tarixiy haqiqatlarga zid tasvirlangan: "Taassufki, – dedi Navoiy g'ijinib, boshini tebratib, – bu ma'nosiz g'avg'o podshohning farmoni bilan ro'y berdi. Xalq orasiga tafriqa solmoqdan o'zga ish yo'qmi, ajabo? Davlatning moliyasi ne holda, qo'shin ne ahvolda, madrasalarda tolibi ilmlar, olim va fozillarning tirikchiliklari qanday, xar nav amaldorlar poytaxtda, tumanlarda, viloyatlarda xalqqa ne turli muomala qilurlar; dehqonning ro'zg'ori nechik, kosibning kori nechik – mana bu vazifalarni aql va idrok ko'zi bilan ko'rib, tadbir va salohiyat bilan hal qilmoq kerak edi"³. "Navoiy" romanida Bayqaro maishatparst, yon-atrofidagi zodagonlarning ta'siriga tushib qolgan, xalq g'amini yemaydigan adolatsiz hukmdor sifatida tasvirlanadi. Lekin tarixdan ma'lumki, Huroson sulton Xusayn davrida ancha rivojlanib, o'lkada kuchli davlatchilik qaror topgan. Ammo biz "Navoiy" romanida ana shu tarixiy haqiqatga ham zid keluvchi lavhalarga ko'p duch kelamiz. Masalan, bir kuni sulton arkoni davlatni majlisga chorlaydi. Beklar, vazirlar, ulug' mansabdorlar, xullas, davlat ma'muriyati jam bo'ladi. Bayqaro beklar bilan "qo'shin to'g'risida biroz suhbatlashadi", viloyatlardagi

¹ Qo'shjonov M. Oybek // Jahon adabiyoti, 2005. – №1. – B. 21.

² O'sha manba. – B. 21.

³ Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 19 jildlik. 6-tom. – Toshkent: Fan, 1976. – B. 40.

holatlar haqida ma'lumot oladi, shayxulislomdan shariatda doir masalada so'rab, javob aytilguncha sabrsizlanib ketadi. Keyin Islim barlos suhbatni ov mavzusiga burib yuboradi. Shunda majlis birdan jonlanib ketadi: "Ov to'g'risida ertakka o'xshash qiziq gaplar asta-asta hammaning diqqatini tortdi. Podshoh dam kulib, dam jiddiy o'y bilan quloq soldi. Nihoyat, Xusayn Boyqaro katta va davomli ovga tayyorgarlik ko'rishni va umuman ovga doir jamiki ishlarni Islim barlosga topshirdida, qo'l ishorasi bilan o'ltirishni yopdi"¹. Davlat ahamiyatiga molik bunday yirik majlisning, asosan, ov mavzusi muhokamasi bilan bu qadar tez o'tib ketishi tarixiy haqiqatlarga biroz mos kelmaydi.

Albatta, Xusayn Bayqaro, ayniqsa, umrining so'ngi yillarida mayishatparastlikka berilgani haqida tarixiy manbalar ham so'zlaydi. Lekin, gap shundaki, bu hukmdorning butun hayoti kayfu-safoda, ov va bazmlarda o'tganini bildirmaydi. Agar shunday bo'lganda, o'z vaqtida sulton va uning ma'muriyati kuchli davlatchilikka asos sola olmagan bo'lar edi. "Navoiy" romanida esa Bayqaro va uning ayonlari imkon qadar qusurli tasvirlanadiki, bu sotsialistik jamiyatda yashab turgan adibning feodalizmni qoralash "majburiyati"dan o'zga narsa emas. Lekin Oybek sosrealizm chegaralarini buzmaslikka qanchalik "harakat" qilmasin, imkon qadar feodalizmni chirkin tasvirlashga urinmasin, baribir asar tanqidchilari ayni shu jihatga e'tibor qaratadilar. Yozuvchini o'tmishni ulug'lashda ayblaydilar. Shu darajaga boradilarki, natijada "faqat "Navoiy" romani qismati emas, balki roman muallifining ham hayoti qil ustida turgandek bo'ldi"².

Tan olib aytish kerak, ommaning Navoiy hayoti, u yashagan davr va unga zamondosh bo'lgan tarixiy shaxslar haqidagi tasavvurlari "Navoiy" romani vositasida shakllangan. Sababi, mazkur romanga qadar o'zbek adabiyotida Navoiy haqida, umuman, o'rta asrlar feodalizmi haqida katta hajmli badiiy asar bo'lmagan: "Oybek romani keng xalq ommasiga Navoiyning siymosi, qiyofasi

¹ O'sha manba. – B. 49.

² Qo'shjonov M. Oybek // Jahon adabiyoti, 2005. – №1. – B. 20.

va ijodi haqida, aytish mumkinki, ilk marta atroflicha tasavvur berar edi. Hatto qay bir nuqtalarda biz bugunga qadar ham Navoiyni shu roman orqali tasavvur qilamiz”¹. Oybekning bu romani Navoiy dahosini ommaga olib kirish, anglatish bilan birga, o‘quvchini besh asr naridagi tarixiy, siyosiy-ijtimoiy hayot bilan ham tanishtirgan. Boshqacha aytganda, o‘tgan asrning 40-yillarida Husayn Boyqaro, Jomiy, Xadicha begim, Majididdin singari tarixiy shaxslarni ommaga yozuvchi Oybek mashhur qilgan. Bu tarixiy shaxslar haqidagi tasavvurlarimiz ham Oybek talqinida ongimizga muhrlangan.

Zamonlar o‘tishi, sotsializm o‘rnida kapitalizmning qaror topishi, ijtimoiy shart-sharoitning o‘zgarishi, olam va odam munosabatlarining yangi talqinlari paydo bo‘lishi natijasida tarixiy shaxslarning badiiy qiyofasini qaytadan yaratish ehtiyoji ham tabiiy ravishda tug‘iladi. Ayniqsa, tarix yuzasidan olib borilgan yangi tadqiqotlar, aniqlangan so‘ngi tarixiy ma’lumotlar o‘z-o‘zidan tarixiy shaxslar talqinida yangicha munosabatni talab qila boshlaydi. Isajon Sulton ayni shu ehtiyojni his qilgan holda Navoiy obrazini boshqa rakurslardan turib yaratishga urinadi.

Shu o‘rinda qayd etish lozim, Oybekning “Navoiy” romani mafkura bosimi ostida yozilgan bo‘lsa-da, badiiyati, kompozitsion butunligi, epik ko‘lami jihatidan shu mavzudagi boshqa asarlardan ancha yuksakda turadi. Biz quyida keltiradigan tahlillar, mohiyatan, bir yoqlamadir. Ya’ni xulosalarimiz faqat inson konsepsiyasi nuqtai nazaridan aytiladi.

Aytish mumkinki, Isajon Sulton Navoiy siymosini yaratishda Oybek talqiniga nisbatan butunlay zid yo‘lni tanlamaydi, balki mafkura bosimi tufayli Oybek Navoiy obrazida ifodalay olmagan ayrim qirralarni ko‘rsatib berishga, mutafakkir siymosining nisbatan to‘laqonli badiiy konsepsiyasini yaratishga urinadi.

¹ Sharafiddinov O. Millatni uyg‘otgan adib // O‘zAS, 2004-yil. 3-noyabr.

Isajon Sultonning tarixiy shaxs konsepsiyasida ham xuddi Oybek kabi Alisher Navoiyning insonparvarlik, elparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi fazilatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Biroq mazkur jihatlar Isajon Sultonda Navoiy siymosini yaratishdagi bosh omil emas. Adib "Alisher Navoiy" romanida ko'proq mutafakkir shoirning ijodiy-ruhiy olamini taftish etishga harakat qilgan. Ya'ni Isajon Sultonni yozuvchi, alohida bir individ sifatida Navoiyning aslida kim bo'lgani, uning kechinmalari, ma'naviy dunyosi, o'y-xayollari, armoni, shaxs sifatidagi qadriyatlari, iymoni, axloqi ko'proq qiziqtirgan.

Yangi romanning yutug'i shundaki, adib Navoiy hayoti va ijodini diniy-e'tiqodiy nuqtayi nazardan talqin qilishga, ulug' mutafakkirning islom bilan yo'g'rilgan axloqi, aqidasi, tariqatdagi yo'li va maqomi, umuman, avliyolik sifatlarini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Bundan tashqari, Isajon Sulton navoiyshunoslikning so'ngi tadqiqotlariga, istiqlol yillarida aniqlangan tarixiy manbalarga asoslanadiki, bu o'z-o'zidan Navoiy hayoti va ijodining tom ma'noda zamonaviy badiiy talqinining yaralishiga olib keladi.

Isajon Sulton Navoiy siymosini yaratar ekan, u yashagan davrni, tarixiy-ijtimoiy muhitni imkon qadar jonli tasavvur qilishga va tasavvurini so'z vositasida aniq ifodalashga urinadi, "yozmoqning mohiyatan tasavvurdagi o'quvchiga gapirmoq, o'qimoq esa tasavvurdagi yozuvchini tinglamoq ekani"¹ni doim yodda tutadi. U shu yo'l bilan buyuk mutafakkirni shakllantirib bergan ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy omillarni zargarona mahorat bilan terib chiqadiki, natijada o'quvchi Navoiy olamiga oson kirib boradi. Bu yo'lda yozuvchi eng avvalo tarixning ishonarli, jonli manzaralarini yaratadi. Asarda Huroson va Movoraunnahrning go'zal tabiati, shahar, qishloq, ovul, bozorlaru guzarlar, sultonlar saroyiyu, oddiy aholi uylari, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari, ish qurollari, harbiy qurol-aslahalar, xullas, tarixni jonlantiruvchi barcha unsurlar ipidan-ignasigacha mahorat bilan tasvirlangan. Mutolaa

¹ Quronov D. Talqin imkonlari. – Toshkent: Turon zamin-ziyo, 2013. – B. 12.

jarayonida o'quvchi o'zini xuddi tarixga tushib qolgandek his qiladi. Masalan, asar boshlanishida Alisher Navoiyning bolaligi o'tgan amir G'iyosiddinbekning tashqi hovlisi mana bunday tasvirlanadi: "Keng tuproqko'chadan to'g'ri kelinsa, uzun, qalin paxsa devor orasida kichik yog'och eshik va darvoza ko'rinadi. Eshikda temir halqa va kichik to'qmoqcha bo'lib, kelgan kishi erkak bo'lsa halqani, xotin bo'lsa to'qmoqchani uradi. Hovli gulu gulzor, mevali og'och ko'p. Chapda katta murabba', ya'ni to'rtburchak hovuz ko'rinadi. Yana uy yonida kichikroq qilib qurilgan obxona ham bor, sopol quvuridan jildirab suv tushib turadi. Obxona yonida ochiq va yopiq oshxona, oshliqxon, zerzamin, ya'ni yerto'la. Zerzamindagi katta sopol ko'zalar ichidagi suv jazirama mahali ham muzday bo'ladi. Uning yonboshida ustiyo ichi somon suvoq bilan suvalgan pastak yaxchol ko'rinadi. Yaxchol shuki, chuqur qazilgan yerto'la kuzda suvga to'ldiriladi, qishda u tubiga qadar muzlaydi. Qalin devorlari va sersomon suvog'i yerto'laning jazirama issiqda ham muzday tutib turadi, Hiriya yozda muz bo'lishining sababi shunda"¹. E'tibor qilinsa, birgina tasvir bilan aholining yashash shart-sharoitlari, axloqi, texnologik yutuqlariga ishora berilmoqda. O'quvchi asardagi bu kabi tasvirlar vositasida Navoiyning bolaligi o'tgan muhitga tushib boradi. Bosh qahramonni uning atrofidagi voqeliklar bilan to'laqonli tasavvur etadi.

Oybekning "Navoiy" romanida voqealar Navoiyning 25-30 yoshlarida Samarqanddan Hirotga qaytishi bilan boshlanadi: "Adib "Navoiy" romanini yozgan vaqtda "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari muallifining muhabbati tarixi hamda bolalik va yoshlik yillarini tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan edi"². Aytish mumkinki, Oybek Navoiy xarakterining shakllanish bosqichlarini ko'rsatishni maqsad qilib olmagan: "Asarda qahramon xarakterning shakllanishi mukammal berilmaydi. Yozuvchi bu haqda ba'zi bir

¹ Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 16.

² Nasrullayev E. Oybekning "Navoiy" romani talqinlari yuzasidan mulohazalar // Tafakkur ziyosi, 2018. – № 2. – B. 70.

izohlar berish yoki qisqa mulohazalar yuritish bilan cheklanadi, xolos”¹. Oybekdan farqli o‘laroq, Isajon Sulton o‘z asarida Navoiyning butun hayotini qamrab oladi. Albatta, buning o‘ziga yarasha jiddiy sabablari bor. Birinchidan, Navoiy yoshlik davrlaridayoq shoir sifatida Movarounnahr va Hurosonda mashhur bo‘lib ulgurgan edi. Demak, Navoiyning tarixiy shaxs sifatidagi yaxlit qiyofasini yaratishda uning bolalik va o‘spirinlik chog‘idagi hayotini tasvirlash, shoir sifatida kamol topishiga ta’sir etgan asosiy omillarni shu davrdan izlash ehtiyoji bor. Qolaversa, hozirgi dunyo xaritasi nuqtayi nazaridan qaralganda, Navoiyning ayni o‘smirlik davri O‘zbekiston bilan chambarchas bog‘liq. Bu davrda Navoiy Samarqandda yashab ijod qiladi va tahsil oladi.

Isajon Sulton Navoiyning bolalik va o‘smirlik davrini tasvirlash orqali yana bir qo‘shimcha imkoniyatga erishadi. Bu Navoiyni kamol toptirgan olim-u fuzalolar, shoir bilim olgan dargohlar, umuman, o‘rta asrlar ta’lim tizimi haqida atroflicha ma’lumot berish, mazkur jarayonlarni badiiy tasvirlash imkoniyati edi. Zero, Navoiyning g‘azal mulki sultoni, buyuk mutafakkir bo‘lib yetishish bosqichlarini haqqoniy ko‘rsatib berish uchun ta’lim omili juda ham muhim edi.

Romanda Navoiyning ilk ustozlari – Abu Abdulloh Kulohiyning darslari juda jonli tasvirlangan bo‘lib, bunda yozuvchi muayyan badiiy-g‘oyaviy maqsadni ko‘zlaydi. Kulohiy toliblariga Qur’on, handasa, abyotu nazmdan ta’lim berarkan, bir darsda so‘z haqida ma’ruza qiladi. Ma’ruzada so‘zning ilohiy qudrati, vazifasi, ma’no qirralari haqida aytib, jahon tillariga alohida to‘xtalib o‘tadi. U arab tiliga ta’rif berarkan, “...fasohat va balog‘at sayqali bilan ziynatlangan bo‘lib, Tangri taoloning kalomi shu tilda nozil bo‘ldi. U tilning mukammalligiga shubha yo‘qdir”², deydi. Biroq boshqa tillarning mavjud ekanida ham katta hikmat borligini eslatadi: “... Tangri azza va jalla xalqlarni va tillarni yaratganining hikmati ham bor. Ya’ni, o‘ziga o‘sha til ila hamd aytilmog‘ini iroda

¹ O‘sha manba. – B. 65.

² Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 27.

ayladi¹. Mavlono Kulohiy toliblariga turkiy tilning maqomini ko'rsatib "... turkcha, forsha va hindcha – asl tillarning manbaidir"², deydi. So'ng turkcha so'zlardan misollar keltirib, mazkur tilning naqadar muhtasham ekanini ko'rsatib beradi. Aytganlarining dalili sifatida Fariduddin Attordan bir g'azal keltirib uni sharhlab beradi. G'azalni tinglagan toliblar turkiy tilning jozibasiga mahliyo bo'lib, ma'nolar ummoniga sho'ng'ib ketadi. Navoiyni turkiy tilda ijod etishga undagan ilk omillar romanda ana shunday ifodalanadi.

Hijriy 846-yilda Alisher Navoiy Samarqandga ko'chib o'tadi. Romanda Samarqand Navoiyning ijodiy-ma'naviy hayotida tub burilish yasagan maskan o'laroq tasvirlanadi. Muallifning bu maqsadini samarqandlik olim Fazlulloh Abulaysning Navoiyga aytgan mana bu so'zlari bilan dalillash mumkin: "Siz endi Samarqandda ulamo suhbatida bo'ling, kerakli ilmlarni o'rganing, Samarqand sizning taqdiringizda ilm bulog'i bo'lib qolsin"³.

Alisher Navoiy Samarqanddagi Qozizoda Rumiyl madrasasida tahsil olib, mudarrislardan fiqh, tarix, handasa, ilmi nujumga doir juda qimmatli bilimlarni o'zlashtiradi. Ayniqsa, Fazlulloh Abulays bilan bo'lib o'tgan suhbatlar Navoiyga katta ma'naviy ozuqa bo'ladi. Zero, mavlono Abulays Navoiyga "e'tiqod sirlari"dan saboq beradi: "Madrasa darslari va Fazlulloh Abulays suhbatlari Alisher o'y-fikrini behad kengaytirib, shu xulosaga olib keldi: nafaqat yer yuzi, balki Koinot ham tengi yo'q qudrat ko'rgazmasidir, uning haqiqatlari esa ilm tufayli ma'lum bo'lgay. Har dam, har nafasda bir savob hosil qilishga sa'y qilingaydir, savob esa niyatdan paydo bo'lishi ma'lum"⁴. Suhbatlarning birida Alisher "Menga so'fiylar borasida ham so'z aytsangiz" deya mavlono Abulaysga murojaat etadi. Mavlono "so'fiy" so'zining lug'aviy ma'nosini Abu Rayhon Beruniy, Abul Fath Butiy izohlari bilan tushuntirishga harakat qiladi. So'ng

¹ O'sha manba. – B. 28.

² O'sha manba. – B. 28.

³ O'sha manba. – B. 147.

⁴ O'sha manba. – B. 146.

e'tiqod, ibodat masalalarida fikr yuritib, Xo'ja Ahror valiyning so'zlaridan iqtibos keltiradi. Romanda mavlono Abulays bilan bo'lgan suhbatlar Navoiyning tariqatdagi yo'lini belgilab olishida muhim ahamiyat kasb etgan omil sifatida urg'ulanadi: "Siz avliyouллоh yo'lini tavsiya qildingiz!" deydi Navoiy mavlononing suhbatidan xulosa chiqarar ekan.

Navoiy samarqandlik yana bir yetuk olim mavlono Rizo Afzal qo'lida fiqhdan saboq oladi. Bir darsda mavlono ilmi nujumning halolligini Qur'oni Karim oyatlari bilan isbotlab berarkan, falakiyot ilmining afzalliklariga to'xtaladi. Beruniy, Mirzo Ulug'bek tadqiqotlaridan misollar keltiradi. Romanda muallif shu tarzda Navoiy ijodida alohida o'rin tutgan osmon jismlarining badiiy talqinini Samarqanddagi saboqlar bilan bog'lashga urinadi.

Mavlono Xoja Misliy esa Navoiyga tarixdan dars beradi. Bu olimga ta'rif berilarkan, "musulmon va ma'jusiy tarixining tengi yo'q bilimdoni bo'lib chiqdi", deyiladi romanda. Xoja Misliy dars o'tarkan, "...turfa uluslarning e'tiqodi, urf-odatlari, qavmlarning qalqishini va tanazzuli haqida shunchalar jonli va haqqoniy hikoyalar so'zlab berdiki! Arastuning "Tarix", Abu Rayhonning "Osoru-l-boqiya" va ibn Kasirning "Al-bidoya va-n-nihoya" kitoblarini bir-biriga qiyoslab, toliblar tasavvurini to Odam Ato zamonasiga qadar yetkazdi"¹. Aytish mumkinki, Isajon Sulton Xoja Misliy timsolida Navoiy ijodidagi tarixiy voqealar, shaxslar, afsona va asotirlarning go'zal badiiy ifodasiga manba bo'lgan shaxsni ko'radi. Yozuvchining mazkur ijodiy maqsadini asardagi mana bu gaplarda yaqqol ko'rish mumkin: "Har holda, Xoja Misliy ushbu hikmatlarning abytga muhrlanishini va san'at libosiga o'ranishini juda istardi. Shu sababli, davrada Navoiy bo'lgan kezlari shoyon berilib, sevinib dars o'tardi"².

Ulug' shaxslarning millatlar o'rtasida talash bo'lishi tabiiy hol. Alisher Navoiy siymosi haqida gap borganda ham butun turkiy xalqlar bu mutafakkirni o'z tarixi bilan bog'lashga urinadi. Isajon Sultonning mahorati shundaki, u hazrat

¹ O'sha manba. – B. 155.

² O'sha manba. – B. 155.

Navoiyning kamolotga chiqishida, yetuk ijodkor va olim, mutasavvuf bo‘lib yetishishida Samarqandda egallagan bilimlarining ahamiyatini yuqori o‘ringa olib chiqadi. Mazkur voqelik asarda haqqoniy, zo‘raki talqinlarsiz tasvirlanadiki, bu o‘zbek o‘quvchisida iftixor tuyg‘ularini uyg‘otmay qo‘ymaydi.

Isajon Sulton Navoiy obrazini, umuman, romandagi boshqa tarixiy shaxslar obrazini yaratish masalasiga juda ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Imkon qadar to‘qima obrazlar, to‘qima voqelik yaratishdan chekinadi. Bu haqda munaqqid Bahodir Karimov shunday yozadi: “Badiiy so‘z san’atida iyjoz maqomi – kam so‘z bilan ko‘p ma’nolar anglatish san’ati qadrlanadi. O‘ylamay aytilgan yoki yozilgan ortiqcha so‘z ofat keltiradi. To‘qima obrazlar ta’rifida badiiyat qoidalarini o‘z vazifasini bajaradi, ko‘pincha xarakter mantig‘iga mos tarzda ularning xatti-harakatlarini badiiy g‘oya ifodasi tomon burish ham mumkin. Ammo tarixiy shaxslar qismatini muallif juda ehtiyot bo‘lib, bilib, o‘rganib, ularga ro‘baro‘ bo‘lishdagi hisob-kitobini o‘ylab yozadi va juda to‘g‘ri qiladi”¹.

Isajon Sulton tarixiy voqelikni bo‘rttirib, siyosiy intrigalar qo‘shib, bosh qahramonni syujetning turli ziddiyatlarida “sinov”dan o‘tkazishi, uning xarakter qirralarini yanada kengroq ochib berishi mumkin edi. Ammo u bunday qilmaydi. Balki adib ulug‘ mutafakkirga hurmat va ehtirom yuzasidan bunday “intriga”lardan tiyilgan bo‘lishi mumkin. Biroq chin roman tarixning shunchaki solnomasi emas, balki qahramonning davr va jamiyat bilan (Gegel), qahramonning o‘z-o‘zi bilan (Baxtin) ziddiyati ifodasidir.

I.Sulton mutafakkirni feodallarning dushmani sifatida tasvirlashga urinmaydi. Umuman, sulton, saroy ayonlari, bek va amirlarning obrazini yaratishda bir yoqlamalikdan qochadi. Hatto tarixan Navoiyga dushman sanalgan, saroyda turli fitnalar keltirib chiqargan Nizomulmulk, Madjiddin,

¹ Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom // Yangi O‘zbekiston, 2021-yil. 10-avgust.

Muzaffar Barlos, Xadicha Begim kabi amaldorlarning ham davlat ishlaridagi tadbirkorligi, oliy nasablarga xos mulohazakorligi ko‘rsatib berilgan.

Romanda Husayn Boyqaro adolatli, tanti, kengfe‘l va mulohazakor hukmdor sifatida tasvirlashgan. Sulton Husayn taxtga o‘tirishi bilan “saltanat tartibiga g‘ayrat bilan kirishib ketadi... Astroboddan Peshovarga qadar mulklaru navohiyalarda adolat joriy etilishini ma‘lum qilib, choparlar yelday uchishdi. Ko‘zlari horisligu ayyorlik ila yiltiragan, molu sarvat hirsida xiyonat yuliga kirgan qancha qishi juvonmarg qilindi”¹.

Oybekning romanida Navoiy sultonni davlatning muhim ishlari qolib, xalq ichida tafriqa chiqaruvchi farmonlar chiqarganlikda ayblasa, Isajon Sultonda Boyqaro ko‘proq xalq g‘ami va saltanat ishlari bilan band hukmdor sifatida gavdalantiriladi. Jumladan, Majididdin qo‘shinning urush istayotganini aytib, sultondan jangga hozirlik uchun ruxsat so‘rab kirganida, hukmdor “Sen saltanat ishlariga boqish o‘rniga, nechuk harbiy ishlarga boshingni qotiryapsan?” deya koyib beradi. Xalqqa soliq solish taklifi berilganda esa, “Fuqaro qashshoq. Sabru tahammul qilgaydirmiz, vazirlarimiz ila xazinani boyitishning boshqa yo‘llarini izlagaymiz”² deydi.

Oybek Navoiy va Boyqaro munosabatini xiyla sovuq talqin qiladi: “Husayn Boyqaro ham shoir bilan uchrashganda o‘zini qadimgi do‘stdek tutishga tirishar edi”. Buning sabablarini yuqorida M.Qo‘shjonovning izohi bilan dalilladik. Isajon Sulton esa shoir va shoh o‘rtasidagi samimiy yaqinlik, mustahkam do‘stlikka alohida urg‘u qaratgan. Xususan, “Xamsa” yozilganidan so‘ng, Sultonning Navoiyga siz pir, men esa muridingizman deb, o‘zining Aqzab laqabli oq otiga mindirib, jilovdan tutib yetaklagani. Bu holdan Navoiy hushidan ketib qolgani tasvirlari mavjud. Biroq, bizningcha, Isajon Sulton ayrim o‘rinlarda Navoiy va Boyqaro munosabatlarini tasvirlashda mubolag‘aga yo‘l qo‘ygan.

¹ Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 202.

² O‘sha manba. – B. 223.

Isajon Sultonning Navoiyga bo'lgan ehtiromi romandagi "muhabbat" mavzusi talqinida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda yana Oybekka qaytamiz. Ulug' adib ham o'z romanida Navoiyning "muhabbat tarixi" haqida to'xtalmaydi. Romanda bu masalaning boshqa bir yechimini topadi: "...asarda bosh qahramonning muhabbat tarixini emas, balki Sultonmurod bilan Dildorning – ikkinchi rejadagi qahramonlarning muhabbatini tasvir etdi va kitobxondagi ruhiy ehtiyojni shunday yo'l bilan qondirdi. Ayni paytda bu muhabbat chizig'ini romandagi asosiy voqealar tizmasi bilan uzviy ravishda bog'lay bildi"¹. Isajon Sulton esa "Alisher Navoiy" romanida ishqiy liniya yaratmaydi. Bu haqida og'iz ochilganda, go'zal axloq, andisha bilan "izoh" beriladi va mavzu butunlay yopiladi: "Tavba, – dedi Majididdin bir oz jimlikdan so'ng, har ishni saqich kabi chaynashni xush ko'radiganlardan achchiqlanib: – Kishilarga qiladigan ish qolmabdimi, birovning birovga mayli bor yo'qligini surishtirgaylar? Modomiki so'z kanizagu joriyalar haqida emas, darajotda teng nikoh, ya'ni o'ta mahram mavzuda bo'lsa, aqlli kishi buni qandoq muhokama qilsin?"²

"Alisher Navoiy" romanida yozuvchi Navoiyning ijodiy olamini taftish etishga, mutafakkirning ijod lahzalarini badiiy talqin qilishga alohida e'tibor qaratadi. Adib Navoiyning ilhom pallasidagi ma'naviy olamini, o'y-xayollarini uning mahobatiga mos ravishda tasvirlashga, shu yo'l bilan o'quvchini Navoiy olamiga olib kirishga, uni anglatishga, tushuntirishga harakat qiladi: "Kecha-kunduzning almashishi, quyosh chiqib botishi, oyning hiloldan badrga qadar o'zgarishlari sezilmasdi. Ma'nolar olami uning ruhini o'ziga to'la singdirib oldi. U olam insonlikning eng oliy cho'qqilari sari chorlardi"³. Navoiyning "Xamsa"ni yozish chog'idagi holat esa bunday tasvirlanadi. "Kecha qorong'usida sham shu'lasiga g'arq bo'lgan xona go'yo behad kengayib ketganday, bu yerda turfa voqealar ro'y berardi. Qushlar inson tilida so'zlar, ko'k uzra suzgan quyosh o'z

¹ Karimov N. Oybek cho'qqisi // Jahon adabiyoti, 2004. – №12. – B. 69.

² Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 239.

³ O'sha manba. – B. 270.

taqdiridan hikoya qilar, Ko‘hi Qof ortidan mo‘ralagan ya’juj-ma’jujlaru ularga qarshi borayotgan imon lashkari o‘z mazmunidan so‘zlar...”¹. Asardagi bu tasvirlar o‘quvchi xayolotini kengaytirib, ijod onlarida go‘yo butun koinot bilan qovushib, olamni turli o‘lchamlarda ko‘ra boshlagan ulug‘ mutafakkirning ruhiyat dunyosiga kirib borish imkonini beradi.

Yana bir muhim jihat, romanda Navoiy ijodidagi muayyan asarning yaratilishiga turtki bo‘lgan ijtimoiy, ruhiy omillarni ko‘rsatib berishga urinish kuchli. Bu esa Navoiy ijodini biografik nuqtayi nazardan “badiiy tadqiq” etish bo‘lib, o‘quvchi bu talqindan so‘ng shoir ijodini nisbatan yaxshiroq tushuna boshlaydi. Masalan, o‘spirinlik chog‘ida Alisher tag‘oyisi bilan lola sayliga chiqadi. Ular tog‘da tosh kesayotgan yosh sangoyi yigitni uchratib qolishadi. Yigit qoyatoshni yo‘nib vodiya suv chiqarish ilinjida mehnat qilayotgan edi. Alisherga yigitning mashg‘uloti juda qiziq tuyilib uni suhbatga chorlaydi:

“Ismingiz ne? – deb so‘radi Alisher. Norg‘ul, sodda bu yigitning ishtiyoqi unga xush kelgan edi.

– Xusrav, – dedi yigit. Suhbatdoshining hayron bo‘lib qaraganini ko‘rib, izoh berdi: – Ajablandingizmi? Otam ko‘p kitob o‘qiydilar. Xusrav Dehlaviy degan shoirning “Xamsa”sini o‘qib, havas qilib, menga shu otni qo‘ygan ekanlar.

– U holda, bu aroda Shirin ham bo‘lgaydir, – dedi Alisher ham, “Xamsa”i eslab.

– Aytsam inonmaysiz, biroq ulusda rostdan ham Shirin degan bir qiz bor”².

Alisher sangoyi yigit bilan bir muddat suhbat quradi. Ketish chog‘ida yigitga bir qancha tilla tanga hadya qiladi. Bu huzurbaxsh suhbat Navoiy qalbidan bir umrga joy oladi. U qachonki “Farhod va Shirin” dostonini yozishga kirisharkan, xayolan sangoyi yigitni va uning Shiringa bo‘lgan muhabbatini jonlantiradi. Sangoyi yigitning qalb harorati zarradek bo‘lsa-da Farhod obraziga ko‘chib o‘tadi.

¹ O‘sha manba. – B. 270.

² O‘sha manba. – B. 28.

Isajon Sulton ayrim o‘rinlarda Farhod va Majnunning o‘y-xayollari, kechinmalarini Navoiy shaxsiyati bilan ham bog‘lashga urinadi. Ayniqsa, “Xamsa”dagi ikki qahramonning o‘z ota-onasi uchun chekkan iztiroblari Navoiyning qalb jarohatlari bilan uyg‘unlashtirilgani asarda juda ham jonli, ta’sirli chiqqan. Zero, Alisher ham ota-onasidan erta yetim qoladi. Ota-onasining fojiali vafoti, ular bilan vidolasha olmagan Navoiyning bir umrlik fig‘oni edi: “Yazd cho‘lida¹ onayizorining etaklariga o‘ralasha-o‘ralasha, yuzidan pardasi uchib, “Qo‘zim!” deya yig‘lab chopib kelganlarini qalam qismat qog‘oziga shunday naqshladi: “...So‘ng ajal o‘z o‘qini Farhodning joniga urdi. U o‘z umrining tugab borayotganini tushunib, otasini yodladi va bir sovuq oh tortib qo‘ydi. Onasi ko‘z oldiga kelar ekan, ko‘zidan ikkita qonli irmoq ochilganday bo‘ldi”². Yoki Majnunning ota-onasi qabriga borib qilgan faryodi Navoiyning o‘z ohu-zori edi: “Onaizor qabriga kelib to‘xtagach, faryod-fig‘onlari olamga sig‘may ketdi. Yoqa o‘rniga ko‘ksini chok qilib, yuragiga rahmsiz tig‘lar urdi. Ko‘z yoshining selidan yerlar dengizga aylanib, qabrlari baliqlar kabi ko‘rindi”³.

Isajon Sulton navoiyshunoslikdagi so‘ngi tadqiqotlar, yangi tarixiy manbalarga asoslanib “Navoiyning Astrobodga surgun qilinishi” masalasiga ham oydinlik kiritadi. Oybek o‘zining Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida buni “markazdan uzoqlashtirish” deb aytaydi: “Husayn Bayqaro boshida bir savol tug‘iladi. Majdiddinmi, Mir Alishermi? Majdiddinni yuqori darajaga ko‘tarmoq uchun Mir Alisherni markazdan uzoqlashtirish lozim edi. Sulton Husayn shoirni Astrobodga jo‘natib, Majdiddin uchun mansabga yo‘l ochadi”⁴. “Navoiy” romanida Sulton Husaynning bunday qarorga kelishida Majdiddinning qanday rol o‘ynagani mahorat bilan tasvirlanadi. Asarda Navoiyning o‘zi bu holatni poytaxtdan chetlashtirish sifatida baholaydi: “Ammo

¹ Bola Alisherning cho‘lda uxlab qolib aravadan yiqilgani va adashib qolganiga ishora.

² Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 275.

³ O‘sha manba. – B. 273.

⁴ Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 13-jild. – Toshkent: Fan, 1976. – B. 20.

menga maqsadingiz fonus ichidagi o't kabi, ravshan ko'rinadi. Siz meni poytaxtdan yiroqlatib, xato qilmasam, ba'zi zotlarga tadbir yo'l ochmoq tilaysiz"¹.

Isajon Sulton esa o'z asarida Navoiyning Xuroson janubidagi Astrobod viloyatiga hokim etib tayinlanishida uni Hirotidan uzoqlashtirish, "surgun" qilish maqsadi bo'lmaganini ko'rsatib bergan. Ya'ni Husayn Boyqaro shu yo'l bilan janubda tobora kuchayib kelayotgan safaviylarga qarshi munosib himoya o'rnatishni, bunda Navoiyning mavqei, kuchli siyosatdonlik mahoratidan foydalanishni ko'zlaydi: "Sulton Husayn ayonlar bilan kengashib, saxovatu xulkda benazir Alisher Navoiyni Astrobodga hokim qilib tayinlashdan boshqa chora qolmaganini, yuqsa, sovutlar kiyilib, qilichlar qinidan chiqib, qon to'kilishini tushunib yetdi"². Romanning shu bobida Navoiyning naqadar o'tkir siyosatchi, odil, tashabbuskor rahbar bo'lgani ham batafsil ochib beriladi.

Yuqorida qayt etganimizdek, davr o'tishi, tuzum, ijtimoiy shart-sharoit o'zgarishi bilan tarixiy voqelikka, tarixiy shaxslarga boshqa rakurslardan qarashga, badiiy talqin qilishga bo'lgan ehtiyoj tabiiy ravishda yuzaga kelaveradi. Isajon Sulton tarixiy shaxs kotsepsiyasini yaratishda bugungi kunning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy shart-sharoitidan kelib chiqadi. Shu tariqa, Alisher Navoiyning adabiyotimizda mavjud bo'lgan sakson yil oldingi badiiy qiyofasidan jiddiy farq qiluvchi yangi siymosi yaratiladi. Bu asar Navoiy haqidagi tasavvurlarimizni kengaytirib, besh asr naridagi tarix borasidagi bilimlarimizni ham boyitadi.

Biz mazkur bobda turli davr, turli ijtimoiy shart-sharoitlarda yozuvchining insonga, uning badiiy talqiniga munosabati turlicha bo'lishi va bunga sabab bo'luvchi omillarni atroflicha ko'rib chiqdik. Xususan, sho'rolar davridagi sotsialistik jamiyat adabiyotida qaror topgan insonning badiiy konsepsiyasi,

¹ Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 269.

² O'sha manba. – B. 296.

mustaqillikdan keyingi kapitalistik jamiyatdagi inson talqini bilan qiyoslandi. Ushbu qiyosiy tadqiqotimiz natijasida, quyidagicha xulosalar olindi.

Birinchidan, Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek xalqi sotsializmning ziddi bo‘lgan kapitalistik jamiyat qurishga intildi va bu tariximizda o‘tish davri nomi bilan qayt etildi. O‘tish davri ijodkorlar oldiga yangi davrni badiiy tafakkur qilish, kapitalistik jamiyatda shaxs maqomi, uning axloqi, ideal va maqsadlarini belgilash hamda yangi insonning badiiy konsepsiyasini yaratish vazifasini qo‘yadi.

Ikkinchidan, o‘tish davri adabiyoti deb ataluvchi madaniy bosqich va shu nom bilan ataluvchi tarixiy bosqich o‘zaro farqlanadi. O‘tish davri romanlari deganda shu zamonga xos ijtimoiy kayfiyati ifodalagan, davr va shaxs ziddiyatlari tasvirini o‘z badiiy maqsadiga aylantirgan asarlarnigina tushunish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, Shukur Xolmirzayevning “Dinozavr”, Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” romanlari o‘tish davri adabiyotining eng yorqin namunalaridir. Bu asarlarda o‘tish davri romaniy kontekstda taftish etilgan. Bozor munosabatlariga qadam qo‘ygan jamiyatning ko‘p tarmoqli badiiy modeli yaratilib, olam va odam munosabatlari haqida yaxlit badiiy konsepsiya taqdim etgan. Ularda kapitalistik jamiyat fuqarosi – ekonomik inson konsepsiyasi yaratilgan.

To‘rtinchidan, Sh.Xolmirzayev “Dinozavr” romanini yozishga kirishganda asarni uchta kitobdan iborat bo‘lishini aytgan. Biroq adibning vafoti tufayli romanning qolgan ikki qismi yozilmay qolgan. Shu sababli adibning kapitalistik jamiyat va uning bosh omili ekonomik inson haqidagi badiiy konsepsiyasini to‘la qonli ko‘rish va tadqiq etish imkoni mavjud emas. Lekin birinchi kitobning o‘zidayoq yozuvchining ijodiy-badiiy maqsadini anglash, yangi inson konsepsiyasining muayyan darajadagi tugal chizgilarini ko‘rish imkoni mavjud.

Beshinchidan, “Muvozanat” milliy adabiyotimizda ekonomik shaxs siymosini konseptual ravishda ifodalagan ilk romandir. Unda ilk bor sosrealizmning maqsadi bo‘lgan sotsial shaxs o‘rnida to‘la qonli ekonomik shaxsni ko‘rish mumkin. Albatta, o‘sha davrda yozilgan boshqa romanlarda ham ekonomik shaxsning alomatlari mavjud. Lekin Ulug‘bek Hamdam o‘z romanida kapitalizm fuqarosining falsafiy, iqtisodiy, ijtimoiy asoslarini tizimlashtirib, yaxlit yangi inson konsepsiyasini yarata olgan.

Oltinchidan, “Bozor” romani tasvirlash prinsipiga ko‘ra modernistik uslubga xos. Bundan tashqari, roman voqealari noma’lum makon va zamonda sodir bo‘lgani bilan fentezi, antiutopiya janrlariga, yozuvchining inson omili va ijtimoiy munosabatlarni qandaydir ilohiy qudrat tarozisiga qo‘yib baholashga urinishi bilan esa mistikaga yaqin turadi.

Yettinchidan, Oybekning “Navoiy” romani haqida so‘z borganda mafkura bosimini nazardan qochirmaslik lozim. Oybek istagan taqdirida ham Navoiyni o‘z idealidagi kabi tasvirlay olmasdi. U sotsializm ta’sirida Navoiyning ko‘proq xalqparvarlik, kambag‘alparvarlik kabi fazilatlariga e’tibor qaratib, tarixiy shaxsning ijtimoiylashganiga urg‘u beradi. O‘rta asrlar feodalizmiga qarshi qo‘yadi.

To‘qqizinchidan, Isajon Sulton ham Navoiyning insonparvarlik, elparvarlik, ma’rifatparvarlik kabi fazilatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Biroq mazkur jihatlar yozuvchida Navoiy siymosini yaratishdagi bosh omil emas. Adib “Alisher Navoiy” romanida ko‘proq mutafakkirning ijodiy-ruhiy olamini taftish etishga, alohida bir individ sifatida tasvirlashga urinadi.

IV BOB.

SHARQ VA G‘ARB ESTETIK TAFAKKURI SINTEZI VA INSON KONSEPSIYASI

4.1. Modernistik romanlarda inson konsepsiyasi

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida F.Nisshe, Z.Freyd, A.Bergson, K.Yung¹ kabi faylasuf va ruhshunoslarning qarashlaridan ta’sirlangan bir guruh ijodkorlar san’atda yangi – modernizm yo‘nalishiga asos soladilar. Dastlab, Yevropa madaniyatida keng tarqalgan mazkur yo‘nalish, ko‘p o‘tmay butun dunyoda ommalasha boshladi. Modernizm jahonda globallashuv jarayonlari boshlanayotgan bir vaqtda siyosiy, madaniy, iqtisodiy omillar o‘zaro kesishgan nuqtada vujudga keladi.

Modernistlar olamni mantiqqa tayanmagan hissiy “tafakkur” asosidagina to‘laqonli tushunish mumkin deb hisoblaydilar. Ular bunda mantiqiy-analitik mushohadaga qarshi turib, irratsional ongni yetakchi sanaydilar. Shuning uchun modernistlar an’anaviy metodlarni inkor etib, abstrakt, noreal ifoda shakllarida ijod eta boshlaydi. Bu yo‘nalish vakillari ijtimoiylikdan chekinib, o‘z shuuri tomon yuzlanadi. “Ya’ni bu o‘rinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o‘z-o‘zini ifodalashi ustuvor ahamiyat kasb etadi”².

Modernizmni vujudga keltirgan ijtimoiy-ruhiy omillar haqida adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam shunday yozadi: “XX asrga kelib insonning turmush tarzi sivilizatsiya natijasida misli ko‘rilmagan darajada o‘zgardi, murakkablashdi, odamlarning o‘zaro ruhiy-ma’naviy muloqotiga putur yetdi – kamaydi, natijada ruhiy muloqot ehtiyoji insonning ichiga hibs etildi. Tashqaridan kutilgan baxt, najot ikkita jahon urushi oqibatida sarobga aylandi va

¹ Qarang. Nitshe F. Zardusht tavallosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007; Фрейд З. Психоанализ. Религия. Культура. – Москва, 1991; Бергсон А. Творческая эволюция. Материя и память. – Москва: Харвест, 1999; Юнг К.Г. Аналитическая психология: прошлое и настоящее. – Москва: Марис, 1995.

² Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent, Akadernashr, 2010. – B. 201.

inson o‘z ehtiyojlari bilan yolg‘iz qoldi”¹. Darhaqiqat, asrlar davomida insoniyatning bunyodkorlik salohiyatiga ishonib, ilm-fan va texnologiyaning taraqqiyoti evaziga yerda jannat qurish umidi bilan yashayotgan san’atkor XX asr boshlarida dunyoda yuz bergan hunrezliklardan qayg‘uga botadi. U dunyoni o‘zgartirish va barqaror jamiyat qurish bema’ni xomxayol ekanini anglaydi. Insoniyat o‘z madaniy tarixida erishgan barcha tajriba, qadriyat va an’analaridan yuz o‘girib, yolg‘izlikka yuz tutadi.

Modernizmga kelib insonga bo‘lgan munosabat o‘zgardi, odamning mavjudlikdagi maqomi qaytadan baholandi. Boshqacha aytganda, san’atkorda insonning olamdagi maqomini qayta baholash ehtiyoji tug‘ilgan nuqtada modernizm vujudga keldi. Shunday ekan, modernist ijodkorlar haqli ravishda adabiyotda yangi inson konsepsiyasini ham ilgari sura boshladilar. Rus adabiyotshunosi Yu.Borev modernizmdagi inson konsepsiyasiga qisqacha qilib “inson – umuman olganda – yolg‘iz; bu adovatli (Kafka) va tuturuqsiz (Kamyu) dunyoda ijtimoiy tuzilmalarsiz yashash mumkin emasligidan qayg‘uradi”² deya ta’rif beradi. Ya’ni modernistlar insonni ijtimoiy tuzilmalar, an’ana va qadriyatlarga qarshi qo‘yib, ulardan ajratib olishni istaydilar hamda uni yolg‘iz tarzda tasvirlaydilar. Biroq ular o‘z botinlarida insonning alaloqibat ijtimoiy mavjudot ekanidan qayg‘uradilar.

Modernistlarning inson konsepsiyasini kengroq tushunish uchun XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa xalqlari dunyoqarashiga jiddiy ta’sir o‘tkazib, fikriy inqiloblarni boshlab bergan faylasuf Fridrix Nisshe ta’limoti bilan tanishib chiqish lozim. Zero modernizm “o‘zining ilmiy-nazariy asosi sifatida F.Nisshening menchilik (individualistik) falsafasiga tayangan”³. Shu sababli ayrim mutaxassislar modernizmning vujudga kelish vaqti sifatida XX asrning

¹ Hamdam U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B.17.

² Borev Yu. Inson va insoniyat hayotining oliy maqsadi va ma’nosi // Sharq yulduzi. 2011. №4. – B.161.

³ Yo‘ldoshev Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar // Yoshlik, 2014. 9-son. – B.27.

boshlarini emas, balki XIX asrning 70-yillarini ko'rsatadilar¹. Chunki ayni shu yillarda Nisshening Yevropa tafakkurini larzaga solgan ilk asarlari ommalasha boshlagan edi. "Biz Nissheda – *yozadi rus adabiyotshunosi O.Ponova* – XX asr kishisi nazar solishi mumkin bo'lgan tubanlikni ham, u intilayotgan baland cho'qqini ham allaqachon topamiz"².

Nisshening inson konsepsiyasi bir so'z bilan aytganda *erkinlik* asosiga quriladi. Faqat faylasuf *erkinlik* so'ziga juda keng ma'nolarni yuklaydi. Nisshе nazarda tutgan ma'no nafaqat jism va ruh erkinligi, balki iroda erkinligini ham qamrab oladi. Ya'ni u insonning dindan (metafizik olam)dan, jumladan, axloqdan erkinligini ham nazarda tutadi. Shu ma'noda Nisshе uchun erkinlikning muayyan chegarasi mavjud emas. U "Erkinlikdan farovonlikni ustun ko'rish axloqsizlikdir"³ deya hisoblaydi. Ayni shu g'oya bugungi G'arb tafakkurining asoslaridan biri hisoblanadi. Zero G'arb kishisi uchun farovonlik emas, balki erkinlikning qadriyat sanalishi hozirda aktuallashgan ayrim "liberal" g'oyalarda ham o'z aksini topmoqda.

Nisshе dinni inson erkinligining eng katta tushovi deb biladi. Shu sababli "Xudo o'ldi: endi biz istaymizki, a'lo odam yashasin!"⁴ deya baralla xitob qiladi. Uningcha, xristianlik axloqi insoniyatni kamsitib, uni hayot lazzatlaridan bo'g'adi, go'zalliklardan begonalashtiradi. Nisshе bunday dunyoda inson yolg'iz va baxtsizlikka mahkum deb hisoblaydi⁵. U insonning ruhiy, biologik va ijtimoiy omillarini hisobga olgan holda axloq normalarini qayta baholash yo'lidan boradi.

Nisshening yangi dunyo va yangi odam haqidagi g'oyalari har qancha keskin bo'lmasin, bir tarafdin azal bulog'idin suv ichardi. Zotan uning g'oyalari qadim Sharqning dualistik (zardo'shtiylik) falsafasi bilan tutashar, A'lo Odam

¹ Панова Ю. Человек в модернистской культуре (<https://forlit.philol.msu.ru/kafedra-ru/prepodavateli-kafedry/panova-articles-ru/panova-article1-ru#10->).

² O'sha joyda.

³ Nisshе F. Zardo'sht tavallosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B.283.

⁴ O'sha manba. – B.283.

⁵ Qabulniyoziva G. Mutafakkirlar F.Nisshе va A.Bergsonlarning hayot falsafasida inson muammosi. – Toshkent, 2010. – B.9.

haqidagi ta'limoti qisman insonning metafizik konsepsiyasi bilan uyg'unlashib ketardi. Biroq Nishe tasavvuridagi olam, an'anaviy xristian dini talqinidagi "metafizik olam"dan tubdan farq qiladi. An'anaga ko'ra, dunyo ikki qismdan: fano va baqodan tashkil topgan. Fano gunohkor osiylar, baxtsiz odamlar makoni bo'lsa, Baqo o'zgarmas Haqiqat, qat'iy mezonlar maskani. Nishe mazkur ikki dunyo o'rtasidagi to'siqni olib tashlab, boqiy dunyoni inson faoliyati, ruhiyatining hosilasi sifatida talqin qiladi. Uningcha, inson qandaydir oliy qudratning emas, balki oliy qudrat inson irodasining mahsuli. Ayni shu nuqtada "Nishe Shopengauerning "ta'qibidan" qat'iy ravishda chiqib ketadi va ikki olamning – yer (empirik) va osmon (ilohiy) qarama-qarshiligini bartaraf etadigan yangi metafizik konstruktsiyani qurishni boshlaydi"¹.

Nishe inson mavjudligining an'anaviy asoslarini inkor qilar ekan, ruhni ham moddiy dunyo hosilasi sifatida ko'radi. Uningcha, ruh shunchaki "evolyutsiya jarayonida turning omon qolish vositasi sifatida materiya tomonidan berilgan hosiladir"². Bu shuni anglatadiki, inson "bir hovuch o'lik kuldani boshqa narsa emas". Mavjudlikning asosi esa absurddir. "Absurd bu ruhning teleologik tabiati hamda cheksiz tug'ilish va o'limga asoslangan materiyani abadiy tarzda bema'ni (xaotik) aylanishi o'rtasidagi bartaraf etish mumkin bo'lmagan qarama-qarshiligidir"³. Nisshening mazkur g'oyalarining modernizmga asos bo'lishi bo'yicha professor Qozoqboy Yo'ldoshev quyidagilarni yozadi: "Modernistik hissiy-intellektual yondashuvga ko'ra hayot hamisha tartibsiz va beboshvoq; inson tirikligining tiyiqsiz va tayinsizligi odamning hayotdan o'z o'rnini topolmay yolg'izlanib qolishiga olib keladi; insonning hayoti yechimi hech qachon topilmaydigan ziddiyatlardan iboratdir. Bunday kayfiyat modernchi ijodkorlarda san'at hayotga ijobiy ta'sir ko'rsatib, unga tartib va ma'no baxsh eta

¹ Евлампиев И.И. Концепция личности в философии Ф. Нисше // Вестник СПбГУ. Серия 6: философия... Вып. 3. 2000.

² Панова О.Ю. Человек в модернистской культуре (<https://forlit.philol.msu.ru/kafedra-ru/prepodavateli-kafedry/panova-articles-ru/panova-article1-ru#10->).

³ Панова О.Ю. Человек в модернистской культуре (<https://forlit.philol.msu.ru/kafedra-ru/prepodavateli-kafedry/panova-articles-ru/panova-article1-ru#10->).

olmaydi degan umidsiz to'xtam shakllanishiga sabab bo'ladi"¹. Shunday qilib, Nisshe insonni mavjudlikning yagona asosi sifatida olamning markaziga qo'yish bilan birga, uni absurd dunyoning yolg'iz "qahramon"iga aylantiradi. Modernizm yo'nalishining M.Prust, J.Joys, J.Sartr, F.Kafka, A.Kamyu kabi yetuk namoyandalarining romanlarida aynan Nisshe qarashlariga uyg'un inson konsepsiyasini ko'rish mumkin.

Modernizmning falsafiy asoslari F.Nisshe qarashlaridan o'sib chiqqan bo'lsa, "badiiy ijod mohiyatini tushunish va izohlashda Z.Freydning psixoanalitik qarashlariga suyanadi"². Darhaqiqat, modernistlarning inson konsepsiyasida avstriyalik vrach-psixolog Zigmund Freyd asos solgan psixoanaliz³ metodining o'rnini beqiyos. Dastlab ruhiy kasallarni davolash maqsadida ishlab chiqilgan mazkur metod, keyingi taraqqiyotida butunlay inson ruhiyatini baholovchi muhim universal metodga aylanadi. "Freyd va u asos solgan freydizm ta'limoti inson ongini uch qismdan tarkib topgan nihoyatda murakkab qurilma sifatida tushuntiradi, bular: ONG, ONGOSTI, G'AYRISHUUR. Bu tamoyil bo'yicha, inson hayoti davomida duch keladigan jamiki voqelik mana shu uch "qavat"ning birida, albatta, makon topadi. Odamning ko'rgani, eshitgani, kuzatgani, o'ylagani, his qilgani – hech bir narsa izziz yo'q bo'lib ketmaydi. Uning o'zi "esimdan chiqardim", "unutdim", "xotiramdan ko'tarilibdi", deb o'ylagani barcha narsalar uning yo ongi ostida yoxud g'ayrishuuri puchmoqlarida, albatta, saqlanadi"⁴. Freyd ongni g'ayrishuurga qarama-qarshi qo'yadi hamda aql inson ruhi va tanida "rahbar" emasligini ta'kidlaydi. U "inson xatti-harakatlarining ko'pchiligi ongosti mayllari tufayli yuzaga keladi va ularning mohiyatida asosan qo'rquv, ochlik hamda xirsiy xohishlarni qondirish istagi yotadi deb hisoblaydi. Shu tariqa Freyd ijtimoiy hayot hodisalari yuzaga kelishini ham ongosti mayllari

¹ Yo'ldosh Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar // Yoshlik, 2014. 9-son. – B.27.

² O'sha manba. – B.27.

³ Qarang. Ruzmetova G. Ruhiyat tahlili falsafasi. – Toshkent, 2014.

⁴ Rahmon Q. Zigmund Freyd yohud "dardingni olay, birodar" ta'limoti (<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/rahmon-quchqor-zigmund-freyd-yohud-dardingni-olay-birodar-talimoti/>).

bilan tushuntirib, inson xulqi va ruhiyati shakllanishida ijtimoiy omillarning o'zini kattaligini inkor etadi"¹. Freyd qarashlaridan ilhom olgan san'atkorlar olamni tashqi belgilari bilan emas, balki mohiyat alomatlari bilan tasvirlashga, inson ruhiyatini uning eng olis puchmoqlarida yashiringan go'zalliklari bilan ko'rsatib berishga urindilar. Bu esa realizmdan butunlay yuz burushni talab qilardi. San'atkor ong o'z imkoniyati bilan olamni to'la qonli tushunishga qodir emas, inson faqat intuitsiya bilan haqiqatni topishi mumkinligini ta'kidlaydi va shunga monand ijod qiladi.

O'zbek adabiyotiga modernizmning kirib kelishi yoki ta'siri borasida olimlarimizning qarashlari turlicha. Xususan, ustoz U.Normatov o'tgan asrning 20-yillarida Cho'lpon, Qodiriy, Fitrat, Botu, Oybek kabi ijodkorlar G'arb modernizmidan kuchli ta'sirlanganini ta'kidlab o'tadi.² Filologiya fanlari nomzodi M.Yo'ldosheva ham o'zining tadqiqotida jadid adabiyotiga xos ba'zi xususiyatlar o'zbek adabiyotida XX asr boshlaridayoq modernizmning bo'y ko'rsatganidan darak berishini aytadi³. M.Xolbekov esa modernizm o'zbek adabiyotiga o'tgan asrning 80-yillaridagina kirib kelgan degan fikrni ilgari suradi⁴. Umuman, modernizmga xos xususiyatlarning adabiyotimiz tarixining turli davrlarida uchratish mumkinligini ko'plab adabiyotshunoslarimiz tasdiqlaydilar. Adabiyotshunoslikda yangi hodisaga nisbatan qarashlarning turlicha bo'lishi tabiiy, albatta. Ammo, bizningcha, adabiy yo'nalishning muayyan davrga xosligi unga tegishli xususiyatlarning uchrab turishi bilan emas, balki butun bir ijtimoiy guruhning shu yo'nalishga xos ijodiy kayfiyatda ekani bilan belgilanishi kerak. Shu ma'noda, biz M.Xolbekov ko'rsatgan davr (80-yillar)ni o'zbek adabiyotiga modernizmning kirib kelishi davri deb hisoblaymiz.

¹ Yo'ldosh Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar // Yoshlik, 2014. 9-son. – B.28.

² Normatov U. Ijodkorning daxlsiz dunyosi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. – B. 283-284.

³ Yo'ldosheva M. Yangilanish manguiligi. – Toshkent: Adib, 2011. – B. 12.

⁴ Xolbekov M. Modern adabiyoti: tadrij va talqin // Tafakkur, 2010. – №2. – B. 80.

80-yillarning oxirlarida mafkura bosimining bir qadar pasayishi madaniy hayotdagi jiddiy o'zgarishlarga turtki bo'ldi. Avvalo, ijodkor ko'nglidagi dardni aytishda nisbiy erkinlikni his qiladi. Ayni damda, qariyb bir asr davomida odamlarning butun fikr-xayolini band etib, e'tiqod darajasiga ko'tarilgan kommunistik mafkuraning asl qiyofasi oshkor bo'ladi. Qudratli va ulkan "imperiya" yemirilayotgan parokanda davr san'atkor ruhiyatiga, uning ijodiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. "80-yillar oxiri 90-yillar boshlaridagi vaziyat bizda modernizm adabiyotining, absurd inson obrazining tug'ilishi uchun zamin tayyorladi"¹. O'zbek modernizmining "qaynagan" vaqti 90-yillarga to'g'ri keladi. Bunga sabab ijodkorlarni birlashtirgan bir xil kayfiyat va shu kayfiyatni ta'minlab turgan "o'tish davri" edi. Abduvali Qutbiddinning "Tasavvur lahzalari" she'ri, Faxriyorning "Muchal yoshi", "Yoziq" kabi dostonlari, Bahrom Ro'zimuhammad, Aziz Sayidning bir turkum she'rlari, Omon Muxtor, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ahmad A'zam hamda Ulug'bek Hamdamning roman, qissa va hikoyalari ayni shu davrning mahsuli edi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, ishda o'zbek modern adabiyotini tadqiq etarkanmiz, faqat G'arb modernizmi, xususan, Nisshe va Freyd g'oyalariga suyanib qolmadik. Milliy adabiyotimizdagi yangicha hodisalarga avvalo Sharqning boy madaniy merosi va azaliy qadriyatlaridan ulgi olgan san'at namunalari sifatida qarashga intildik. Shu bilan birga, g'arbliklarga xos hayot falsafasi va san'at yo'nalishining ta'sirini ham to'laligicha inkor etib yubormadik.

Mazkur faslda o'zbek modern romanlarida inson konsepsiyasini tadqiq etish uchun Omon Muxtorning "Ming bir qiyofa", Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li yohud Hayot suvi", Ahmad A'zamning "Ro'yo yohud G'ulistonga safar" romanlarini tanlab oldik. Sababi bu romanlarning har biri uslubiy, badiiy-g'oyaviy jihatdan o'ziga xos va yozilgan vaqt oralig'i nisbatan uzoq bo'lishiga qaramay, ular yadrosida erk g'oyasi turuvchi inson konsepsiyasi ifodasida

¹ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar // Sharq yulduzi, 1993. – № 10–11. – B. 182.

umumiylik kasb etadi. Mazkur uch roman mualliflari sobiq sho‘rolar davrida haq-huquqi bo‘g‘ilgan insonning ruhiy-ma’naviy olamini chuqur taftish etishga, tuzum bilan ziddiyatga kirishgan shaxsning murakkab munosabatlarini tasvirlashga, mustabid siyosat inson ruhi va ongida qoldirgan jarohatlarning keyingi davr (tuzum)da bo‘y bergan asoratlarini ko‘rsatishga, bir vaqtning o‘zida o‘tmish va bugungi kun qahramonini bir shaxs siymosida yaratishga urinadilar. Boshqacha aytganda, modernizmning uslubiy imkoniyatlari muallifga zamon va makon chegaralarini buzib, ijtimoiy hayotning shunday bir kinoyaviy modelini yaratish imkonini beradiki, o‘quvchi badiiy voqelikda ham o‘tmishni, ham “bugun”ni ko‘ra boshlaydi. Aytish joizki, bu romanlarda modernistik uslub nafaqat shaxs va jamiyatning serqirra, murakkab munosabatlarining badiiy talqinida, balki aytilayotgan g‘oya va fikrning o‘ziga xos “qalqon”i o‘rnida ham samarali qo‘llanilgan.

Omon Muxtor mustaqillikning dastlabki yillarida birinchilardan bo‘lib ijodiy eksperimentlarga qo‘l urgan, milliy roman tafakkurini modernistik uslub bilan boyitgan peshqadam ijodkorlardan sanaladi. Uning 90-yillarda yozilgan “Ming bir qiyofa”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Tepalikdagi xaroba”, “Ayollar mamlakati va saltanati”, “Aflotun”, “Maydon” kabi romanlari badiiy yuksaklik darajasidan qat’iy nazar o‘zbek romanchiligida yangi davrni, o‘ziga xos yo‘nalishni boshlab beradi. Mazkur romanlarda modernizm yo‘nalishiga xos talay ifoda usullari: zamon va makonning nomutanosibligi, reallik va hayolot chegarasining buzilishi, voqealarning izchil davriylikdagi rivoji hamda qahramonlar ruhiy olamining realistik mantiq asosida ochib berilmasligi kabi jihatlar kuzatiladi. Bu borada D.Quronov shunday yozadi: “O.Muxtor ijodiy izlanishlaridagi eng maqbul jihat shuki, uning modern adabiyotiga xos usul va qarashlarni o‘zlashtirishida yuksak darajadagi ijodiylik kuzatiladi. Xususan, adib milliy folklor, diniy rivoyatlar va Sharq mumtoz adabiyotiga xos norealistik usullarni asos qilib oladi-da, ularni modern usullari bilan boyitadi, natijada ular

milliy adabiy zaminning o‘zidan o‘sib chiqqandek, sof milliy estetik hodisadek taassurot qoldiradi”¹.

Albatta, O.Muxtor ijodidagi bunday o‘ziga xoslikka shunchaki ijodiy eksperiment, yangilik qilishga urinish sifatida qarash noto‘g‘ri. Zotan bu yangiliklar avvalo ijodiy-ruhiy ehtiyojning mahsuli edi. O‘zbek romanchiligida noan’anaviy tamoyillarning shakllanishi haqida yozarkan, professor Zulfiya Pardayeva muammoni shunday izohlaydi: “...bahor havosiga o‘xshash inson tabiatini tasvirlash an’anaviy romanlar poetikasi ramkasiga sig‘maydi, shu sababdan ham yozuvchilar murakkab qurilishli roman poetikasiga murojaat etadilar”². Darhaqiqat, 90-yillar boshida ro‘y began hodislar: SSSRning qulashi, kommunistik mafkuraning sarobga aylanishi, iqtisodiy qiyinchiliklar, o‘tish davri depressiyasi – bularning bari ijodkor ruhiy-ma’naviy olamini parokanda qiladi. Unda davrni, insonning borliqdagi o‘rni, maqsad va vazifalarini qayta baholashga ehtiyoj tug‘diradi. Shunday ekan, ijodkorning noan’anaviy tajribalaridan murod yangi insonni anglash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Mutaxassislar “Ming bir qiyofa” (1994-y.) asarini sobiq sho‘rolar davrida shaxs erkinligi bo‘g‘ilishi va buning ruhiy-ma’naviy oqibatlari haqidagi roman sifatida baholashadi. Jumladan, U.Normatov bu borada: “...kechagi kuningiz, yetmish yillik hukmronligi davomida millionlab kishilarni yo‘ldan ozdirgan, odamlar qismati, ruhiyatida adadsiz noxush, fojeiy asoratlar qoldirgan, halokatga mahkum mustabid tuzum qiyofasi jamiki vahshatlari bilan ko‘z oldingizda gavdalanadi”³ deb yozadi. Albatta, asarda tasvirlangan voqea-hodisalar uning o‘tmish haqidagi roman ekanidan dalolat berib turadi. Biroq yozuvchining mazkur roman asnosida yaratgan inson konsepsiyasidan kelib chiqsak, asar muallif yashab turgan zamonga ham taaluqli ekani ayon bo‘ladi. Gap shundaki, ijodkorning inson konsepsiyasi real vaqtdan ortda ham, oldinda ham bo‘la

¹ Quronov D. Adabiyot nadir – Toshkent: Zarqalam, 2006. – B. 120.

² Pardayeva Z. Hozirgi o‘zbek romanchiligining taraqqiyot tamoyillari: Filol. fan. d-ri... diss. – Toshkent, 2003. – B.124.

³ Romanning yangi umri. // Jahon adabiyoti. – 2001. – № 9. – B. 85.

olmaydi. U asar yozilgan zamon va makon mahsuli. Shunday ekan, yozuvchi xoh o'tmishni, xoh kelajakni tasvirlasin, alaloqibat o'zi va zamondoshlarining mavjud holatini baholaydi.

Mazkur qarash tabiiy ravishda boshqa qator savollarni tug'diradi: Omon Muxtor nima sababdan o'z zamonida turib o'tmish voqealarini qalamga oldi? Yozuvchida o'tmishda qolgan tuzum, shaxs va jamiyat munosabatlarini taftish qilish ehtiyoji nega paydo bo'ldi? Nima uchun bevosita o'z zamoniga yuzlanmadi?

O'rta tashlangan savollarga javobni avvalo badiiy asar tabiatidan qidirish maqsadga muvofiq. Chunki davr yashab o'tilganidan keyingina chinakam estetik obyektga aylanadi. Kishi o'zi yashab o'tgan zamonga turli rakurslardan boqishi, boshidan kechirganlarini obyektiv baholashi mumkin. Demak, o'tgan zamondagi jamiyatning badiiy modelini yaratish ham nisbatan oson kechadi. Bundan tashqari, mustaqillikning dastlabki o'n yilida ijodkorning sobiq mustabit tuzum haqida yozishi, o'tgan davrni o'z zamonasi bilan qiyoslashga urinishi shunchaki istak emas, balki ijtimoiy-ruhiy ehtiyoj edi. Negaki, 90-yillar boshidagi iqtisodiy-ijtimoiy qiyinchiliklar, o'tish davri depressiyasi ijodkor (umuman ziyoli)da qariyb bir asr kutilgan istiqloлга nisbatan shubha, ishonchsizlikni tug'dirishi tabiiy edi. Shunday ekan, ijodkor avvalo o'zini va orzulangan erkinlikning mohiyatini anglashga urinadi. Mustabid tuzumning asl fojeasi va asoratlari haqida mulohaza yuritadi, xulosalar chiqaradi. Bu xulosalari bilan keng o'quvchi ommasiga ta'sir o'tkazishni, ularni tushkunlikdan chiqarishni maqsad qilsada, aslida yozganlari avvalo uning o'zi uchun taskin, savollari uchun javob vazifasini o'taydi.

O'tmish haqida yozishning yana bir jihati shuki, bu jarayon ijodkorga yashab o'tgan davri va yashayotgan davrini o'zaro taqqoslash imkonini beradi. Go'yoki o'tmish haqida yozayotgan ijodkor bugun ayta olmaydigan yoki aytishga yo'l qo'yilmaydigan gaplarni "yozish" imkoniga erishadi. Ziyrak o'quvchi uchun bir-ikki ishora va alomatlar berib, o'tmish manzaralari bilan

bugunni tasvirlashi ham mumkin bo'лади. Muxtasar qilib aytganda, inson konsepsiyasini o'tmish koloritida yaratishning qator afzalliklari, keng ifodaviy imkoniyatlari mavjud.

Omon Muxtorning "Ming bir qiyofa" romani uch qism: "To'rt manzara", "Olisdagi odam", "Afandining bolaligi" kabi nisbiy mustaqillika ega hikoyatlardan tashkil topgan. Yozuvchi inson konsepsiyasi markazida shaxsning ruhiy-ma'naviy, ijtimoiy erkinligi muammosi turadi. Zotan erkinlikning har qanday shakli bo'g'ilgan jamiyatda kishi mehnati va qobiliyatiga yarasha qadr topmaydi (Abdulla Hakim, Burhon Sharif), o'zligini yo'qotadi (Gulxumor), yolg'onlar qobig'ida yashaydi (Nasriddin Afandi) zulmkorlik, adolatsizlik, tilyog'lamalik urchiydi (Rahim II, G'ulom sartarosh). Eng achinarlisi, bunday jamiyatda inson o'z qiyofasi bilan emas, balki ming bir qiyofaga kirib buqalamun singari hayot kechirishga mahkum.

Muallif asarning o'ziga xos kompozitsiyasi haqida "Asardagi hikoyatlarda, asosan, har xil odamlar uchraganidan, kimgadir ular bir-biriga deyarli bog'liq emasdek tuyulishi mumkin. Ammo ziyrak o'quvchi, nega uch hikoyat yaxlit asar deb atalgani, ma'no va mazmun nimadan iborat ekanligini o'zi ilg'ab oladi, deb o'ylayman"¹ deb yozadi. Chindan ham bir qarashda tarqoq, o'zaro aloqasi yo'qdek ko'rinuvchi mazkur hikoyatlarni romandagi markaziy qahramon Abdulla Hakim obrazi va uning ijodi birlashtirib turadi. Shunday ekan, yozuvchining inson konsepsiyasini anglash uchun birinchi hikoyat qahramoni Abdulla Hakimning murakkab taqdirini chuqurroq tahlil etishga zarurat bor.

Abdulla Hakim obrazi yozuvchining o'zlikni, tom ma'noda inson haqiqatini anglash yo'lidagi muhim vositasi. Aytish mumkinki, bu qahramon yozuvchining o'z prototipi. "Omon Muxtor "Ming bir qiyofa"ni – yozadi *Dilmurod Qur'onov* – jamiyat a'zolaridan tozarish, o'zligini anglash va yangilanayotgan ijtimoiy munosabatlar sharoitida ongli ravishda o'z mavqeini,

¹ Omon Muxtor. Ming bir qiyofa. – Toshkent: Sharq, 1994. – B.3.

hayotiy prinsiplari va maqsadlarini belgilab olish taqozo etilayotgan bir davrda yozdi”¹. Shu ma’noda adib Abdulla Hakim taqdiri misolida inson konsepsiyasini ijtimoiy, falsafiy, diniy kontekstda ko‘rib chiqadi, insonning mavqei, hayotiy prinsiplari hamda maqsadlari haqida hukm va xulosalar chiqaradi.

Abdulla Hakim turmushda ham, ijodda ham omadi chopmagan soddadil, kamsuqum inson. U birovga yolg‘on gapira olmaydi, birovga ozor bermaydi, kezi kelsa, birovning manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yadi. Ayni shu hislatlari uning boshiga yetdi – uni Burxon Sharif deb o‘ylagan jinoyatchilar tomonidan qatl qildi. Abdulla esa do‘stining jonini o‘ylab uni sotmadi, o‘limga rozi bo‘ldi. Roman voqealari Abdulla Hakimning ana shunday fojiaiy o‘limi bilan boshlanadi. Bundan so‘ng asarda uning ruhi va she‘rlari “yashaydi”, xolos.

Abdulla Hakimning o‘ldirilishi bilan bog‘liq voqelik ramziy harakterga ega. Umuman, uning kallakesarlar manziliga shafyorsiz aftobusda borib qolishi, uning Burxon Sharifga quyib qo‘ygandek o‘xshashi, bu o‘xshashlikni do‘st-birodarlari tugul hatto Burxonning xotini Halima ham farqlay olmasligi kabi holatlarga biror ratsional izoh yo‘q. Sababi bularning bari ramzdir.

Abdulla Hakim o‘limga qadar o‘z tanasining tutquni bo‘lgan. Bizningcha, bobning “Tutqun” deb nomlanishi ham shu bilan bog‘liq. Ruhi tutqun bo‘lgan chog‘larda qahramon o‘zligiga, shu o‘zlikni o‘rab turgan voqelikka yuqoridan qaray olmas, mavjudligini to‘la qonli baholay olmasdi. Yozuvchining bu maqsadi ko‘proq Qiyomat kunida Abdullaning farishtalar tomonidan so‘roqqa tutilgan mahali ayon bo‘ladi: “Sen yotib-turish, yeb-ichib, kiyinishdan bo‘lak narsani o‘ylamasding! Sen oqimga tushgan xas eding, oqim qayoqqa olib borsa, ketaverarding. Umringda ma’no-maqсад yo‘q edi”² deydi farishtalar. Bu bilan yozuvchi sho‘ro siyosati odamlarni manqurt qilganini aytmoqchi bo‘ladi. Yana farishtalar unga o‘zligini anglashga urinib ko‘rmagani, Xudoga e‘tiqod qilish, faqat unga suyanish o‘rniga odamdan bo‘lgan rahbarlarga Xudodan ko‘ra ko‘proq

¹ Quronov D. Adabiy o‘ylar. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B.27.

² Omon Muxtor. Ming bir qiyofa. – Toshkent: Sharq, 1994. – B. 56.

ishonganini aytib ta'na qilishadi³. Mazkur holatga yozuvchi “Bu – aslida, Abdulla bilan birga, uning atrofidagi barcha odamlar, zamondoshlarining xam gunohi edi. Biroq, shoir bo‘lganidan, bu gunoh, aftidan, unga yuklangan edi!”² deya izohlaydi. Ko‘rinadiki, adib Abdulla Hakim siymosida faqat gunohkor shoirni emas, balki manqurt jamiya timsolini yaratishga uringan.

Abdulla Hakim faqat ozod ruh bilangina hayoti davomida qilgan xatolarini, jamiyatdagi muammolarning tub ildizlarini ko‘ra oladi. Bu bilan adib o‘zlikni anglash uchun shaxs ruhi erkin bo‘lishi kerak degan g‘oyani ilgari suradi va sobiq mustabid davrida inson ruhi tuzumning “tutqun”i bo‘lgan va bu o‘zlikning parokanda bo‘lishiga olib kelganiga ishora qiladi. Shu ma’noda adabiyotshunos Z.Pardayeva ham Abdulla Hakim siymosida “paradoksal tuzum voqeligida sinayotgan inson shaxsi”³ namoyon bo‘lishini aytadi.

Adabiyotshunoslar Abdulla Hakim obrazi vositasida sotsialistik jamiyat ijodkorni “ortiqcha odam”ga aylantirib⁴, uning o‘z missiyalarini bajarishiga yo‘l ochmaganligi⁵ o‘zlikni anglash yo‘lidagi katta to‘siq bo‘lgani haqida mulohaza yuritadilar. Bundan tashqari, Abdulla Hakim adibning ilohiy tartibotga solingan inson taqdiri haqidagi qarashlarini yoritishda muhim vositaga aylanadi. Alohida qayt etish lozimki, mazkur qahramon Omon Muxtorning inson konsepsiyasi absurd faslafasiga zid ekanini ham tasdiqlaydi. Zero Abdulla Hakimning ruhi tanidan chiqib ham azob uqubatdan qutila olmagan, do‘zahda ming turli qiynoqlarga solingan bo‘lsada, keyinchalik gunohlaridan poklanib jannatga dohil bo‘ladi.

Romanning “To‘rt manzara” nomli birinchi fasli asosan yozuvchining inson va uning mavjudlikdagi maqomi haqidagi falsafiy qarashlaridan iborat

¹ Shu manba. – B.56.

² Shu manba. – B.56.

³ Pardayeva Z. Hozirgi o‘zbek romanchiligining taraqqiyot tamoyillari: Filol. fan. d-ri... diss. – Toshkent, 2003. – B.129.

⁴ Quronov D. Adabiy o‘ylar. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B. 25.

⁵ Azizov N. Ijodkor shaxs obrazi va badiiy niyat ijrosi // Ilmiy xabarnoma, 2019. №1. – B. 88.

bo'lsa, "Olisdagi odam" faslida muallif e'tiborni bevosita tuzum shakllantirgan xarakterlarga qaratadi.

"Olisdagi odam" faslida asosiy voqealar to'qqiz qavatli koshona – "Tarix va madaniyat" tashkilotida sodir bo'ladi. Bu tashkilot "Tarix va madaniyatni gullatish shiori ostida kadimiy obidalar – masjid va madrasalarni buzish, ming yillik ko'rkam xovuzlarni ko'mib tashlash, qabristonlarni toptash, ota-bobolardan kolgan eski kitoblarni yoqish bilan shug'ullanardi"¹. "Tarix va madaniyat" tashkiloti umuman tuzumning ramzi bo'lsa, undagi markaziy qahramon – Gulhumor esa azal chashmasidan suv ichib qalbi poklangan shaxs ramzi. Biroq Gulhumor "Tarix va madaniyat" tashkilotiga ishga kirishi bilan uning ruhi milliy zamindan, "qalb shifokori" Sadirjondan ihotalandi. Tashkilotning ish tutimi, odamlarining fe'l-atvori sekin-asta Gulhumorga ham ta'sir eta boshladi, natijada qahramon bir qiyofadan boshqa qiyofaga evriladi. Tadqiqotchi N.Azizov buni shunday izohlaydi: "Abdulla Hakim taqdir sinoviga ko'nib, ongli ravishda o'zligini, asl qiyofasini yo'qotsa, Gulhumor o'zi anglamay, ammo ichki xohish tufayli kiyofasizlikka yuz tutadi"². Yozuvchining o'zi esa tanqidchi Ahmad Otaboy bilan suhbatda sho'ro mafkurasining inson tafakkuriga ta'siri haqida so'zlarkan voqelikka "Inson va uning dunyoviy tafakkuri, dunyoni ko'rgan ko'zlari bog'landi-da, u faqat tor doirada, o'zi yashab turgan muhit ichida, qobig'ida qoldi" deya ta'rif beradi. Romandagi to'qqiz qavatli koshona Gulhumor taqdirida ana shunday "qobig'" rolini bajaradi.

Mana shu "qobig'" ichida pishib yetilgan tashkilot rahbari Kabirov fikrlariga e'tibor qarating: "...menga shahardagi mana shu butun masjid-madrasalar buzilgani yoqadi, deb uylaysizmi?! <...> Iloj yuk, bildiyizmi?! Bizga shunday ko'rsatma berilgan... Bizdan yukorida katta-katta korchalonlar, devday odamlar bor. <...> Ular xalq o'zining tarixini, madaniyatini bilmasin, buning ustiga, sharoitdan qiynalib, ko'z ochishga imkon topmasin, deb xalqni qullikda

¹ Muxtor O. Ming bir qiyofa. – Toshkent: Sharq, 1994. – B.74.

² Azizov N. "Ming bir qiyofa" romanida zamonaviy ayol muammosi // Ilim hám jámiyet. №2. – 2020-y. – B.80.

saqlash uchun shunday qilishadi!”¹. Ko‘rinadiki, Kabirov barini tushunadi. U shunchaki niqob bilan, boshqa qiyofa bilan yashaydi. Qo‘rqqani uchun, nafsiga qul bo‘lgani uchun. Adib “ming bir qiyofa” deganda ayni shu holni, jamiyatda tuslanib yashayotgan, shunga mahkum etilgan odamlarni nazarda tutadi.

Gulxumor ham xuddi Abdulla Hakim kabi davr qurboni. Faqat Abdulla ijodiy erkinligi bo‘g‘ilgani, shaxs sifatida namoyon bo‘la olmagan uchun halok bo‘lgan bo‘lsa, Gulhumor milliy qadriyatlarni, o‘zligini toptagani uchun manqurtga aylandi. Romanning uchinchi – “Afandining bolaligi” faslida esa biz qahramonning yolg‘onlar qurboniga aylanganiga guvoh bo‘lamiz.

Noma‘lum zamondagi noma‘lum davlatda Rahim II otli podshoh hukmronlik qiladi. Rahim ikkinchining zulmkorligi va nodonligi chekuchegarasiz. U taxtga o‘tirarkan oldiga ikki muhim masalani qo‘yadi:

“1. Kultepa va butun muzofotdagi odamlar, yosh-qari, hamma baxtli bo‘lishi kerak.

2. Olijanob bu maqsad yo‘lida kimki bizga qarshi tursa, unga shafqatsiz munosabatda bo‘lish, dorga osish yoki shartta boshini tanasidan judo qilish kerak”². Podshohning g‘oyasi bir qarashda mantiqli ko‘rinishi ham mumkin. Zero u odamlarni baxtli qilish uchun qayg‘uryapti. Biroq mulohaza qilinsa, ikki bandli g‘oya o‘ta paradoksal. Ya‘ni jamiyatda hammaning teng baxtli bo‘lishi imkonsiz bo‘lgani kabi, hammaning teng bir g‘oyani ma‘qullashi ham mumkin emas. Alaloqibat bu g‘oya (ikkinchi bandga ko‘ra) minglab odamlarning kulini ko‘kka sovuradi. Rahim ikkinchining bu tashabbusi mohiyatan kommunistik mafkuraning ayni o‘zi edi. Zotan kommunizmni qurish yo‘lida ham millionlab boshqacha o‘ylaydigan odamlar qatag‘on qilindi.

Shunday qilib Rahim ikkinchi “Kim og‘zini ochsa, osamiz yoki so‘yib tashlaymiz! Bundan bo‘yog‘i kanday yashash, nima qilishni hamma odamlar

¹ Muxtor O. Ming bir qiyofa. – Toshkent: Sharq, 1994. – B.101.

² O‘sha manba. – B.125.

uchun men o‘zim o‘yayman!”¹ deb siyosat yuritdi. Og‘zini ochgan-ochmagan minglab ziyolilarni qatl qildi. Uning zulmi, adolatsizligidan xalq nafratlana boshladi. Shunda u G‘ulom sartarosh degan uddaburon lofchining gapiga kirib yuziga “niqob” kiyadi. G‘ulom esa o‘z tadbirini “Men siz haqingizda afsona-latifalar to‘qib yuraman. Menga yetib kelgan har kanday voqeaga yangicha to‘n bichaman. Keyin, odamlar mana shu to‘nni kiyib ketaverishadi. Nomingiz elda doston bo‘ladi, shohim”² deb tushuntiradi. Shu tariqa Rahim ikkinchining yolg‘onga tayangan siyosati boshlandi. Ols muzofotda yashovchi yosh Afandi ham ana G‘ulom sartarosh bichgan “to‘n”ni kiyib yurguvchilardan edi. “Rahim Ikkinchining yurt so‘rashida – *yozadi Dilmurod Quronov* – sho‘ro xukumati yetmish yil yuritgan siyosatta ishoralarni, sartarosh G‘ulomjon qo‘llagan tadbirda esa mafkurachilarning ish usuli va shakllarini ko‘rgan”³. Bu shunday yolg‘onki, kishi jamiyatda o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turgan voqelikka emas, og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan yolg‘onlarga ishonadi. Hayotiy maqsadlari, o‘zligini shu yolg‘on bilan bog‘lab tasavvur qiladi. Go‘yo kuch ishlatmay, qon to‘kmay odamlarni asr olish, yolg‘on siyosatning quliga aylantirishdir metodi. Shunchaki, bu yolg‘onlar tizimli, maqsadli bo‘lsa kifoya. Zanjir reaksiyasini jamiyat ahlining o‘zi davom ettiradi. Ya‘ni ularning o‘zlari yolg‘onni “reallashtira” boshlaydi. Adolatsiz shohni bilib tursada adolatli deya olqishlaydi, och-naxor bo‘lsada farovon jamiyat haqida qo‘shiq kuylaydi... Omon Muxtor ayni shu illatning asl mohiyatini, odamlar ruhi va ongidagi manzaralarini ochib berishga intiladi. Buni biz bola Afandi dunyoqarashining tadrijiy kengayishida ham yaqqol ko‘ramiz.

Afandi G‘ulom sartaroshni ilk bor uchratganda uning shoh haqidagi hikoyalariga mahliyo bo‘lib qoladi: “Nasriddin o‘y-xayolini o‘g‘irlab, qonijoniga chirmoviqday o‘ralib olgan afsona-latifalarga berilib qolganidan, G‘ulomjondan xam ko‘prok o‘zi xech qachon ko‘rmagan, kandayligini tasavvur

¹ O‘sha manba. – B.124.

² O‘sha manba. – B.135.

³ Quronov D. Adabiy o‘ylar. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B. 27.

ham qilolmagan shohga maftun-mahliyo edi”¹. Keyinchalik o‘zi ham sataroshdan eshitganlarini el-ulusga yoyish bilan, bazan o‘zi ham yangi hikoyalar to‘qish bilan band bo‘ldi. Kun kelib u poytaxt – Kultepaga borishni, shohni o‘z ko‘zi bilan ko‘rishga ahd qiladi. Yo‘lda elning haqiqiy yashash sharoiti bilan tanishadi. Nurab yotgan pastqam loysuvoq uylarni, rangi “chollardan battar zarhil” bolalarni, “o‘ttizga kirmay kampir bo‘lgan juvonlar”ni, sahardan yarim kechgacha “loy kechib yurgan erkaklar”ni ko‘rib xulosalari o‘zgara boshlaydi. Vaziyatni tanqidiy baholay boshlaydi. Ayni shu nuqtada romanning butun mazmun-mohiyatini qamrab olgan muallif nutqi – asarning kulminatsiyasi sodir bo‘ladi:

“Azaldan sening qismating shumidi, xalq?! Kimlar, boshman, deb sening boshingga chiqmadi! Jilovni qo‘liga olgan borki, seni so‘yadi, osadi, o‘ldirish payiga tushadi! Zindonga tashlaydi! Bu yetmasa, seni kiyimsiz, och qoldiradi! Pullarda tentirab, sarson-sargardon bo‘lishga majbur qiladi!.. Xukmdordan qutuldim, deganingda ming xil to‘ralar, beklarga tutilasan. Puldorlar, korchalonlar seni talaydi. Bulardan ham qutulganingda, bezorilar, o‘g‘rilarga yo‘liqasan. Seni bular xam uradi, tunaydi!.. Xammasi sendan qo‘rkish, ojjiz-notavon, qul bulib yashashni talab kiladi! <...> Sen hamon ishonasan, bechora xalq! Ertangi kunga umidlanasan! Odil shoh izlaysan. Biron vijdonli hakam bordir-ku, deysan!”²

Yuqorida ham aytganimizdek, badiiy asarda shakllangan inson konsepsiyasi muallif yashagan zamon mahsulidir. Shunday ekan, Omon Muxtor badiiy konsepsiyasini faqat o‘tmish bilan bog‘lab talqin qilish xato. Yozuvchi o‘z zamondoshlarining qullik, mutelik, manqurtlik iskanjasidan hamon chiqa olmayotganidan, mustabid tuzum qoldirgan jarohatlar asorati hali-hamon “og‘riq” berayotganidan qayg‘uradi. O‘tmish manzaralarini tasvirlash orqali aslida bugunning kishisiga xitob qiladi, ishora va belgilar beradi.

¹ Muxtor O. Ming bir qiyofa. – Toshkent: Sharq, 1994. – B. 142.

² O‘sha manba. – B.146.

Omon Muxtor o‘zining “Ming bir qiyofa” romanida G‘arb modernizmiga xos ifoda shakllarini qo‘llagan bo‘lsa-da, inson konsepsiyasini yaratishda Sharqning azaliy hayot falsafasidan uzilib ketmaydi. Buni biz Abdulla Hakimning do‘zahda abadiy qolib ketmagani, gunohlardan poklanib Jannatga kiritilganida ko‘rishimiz mumkin. Bu hol modernizmning asosi bo‘lgan absurd falsafasini inkor qilishini yuqoriroqda ham ta’kidladik. Negaki Sharq kishisi foniy dunyoda absurdni ko‘rishi mumkin esada, boqiy dunyoda Adolat va Haqiqat mavjud ekaniga imon keltirib yashaydi. Shu omilni hisobga olgan Qozoqboy Yo‘ldoshev “...o‘zbek modernizmini Kunbotish modernizmidan farqli o‘laroq, olam tartiboti va uning Yaratuvchisiga ijodiy isyon natijasi emas, balki ayni shu ijodkor shaxsda kechayotgan inja ruhiy-intellektual holatning ifodasi tarzida yuzaga kelgan holatdir deyish to‘g‘riroq bo‘ladi”¹ deb yozadi. Dilmurod Quronov esa “Yangilanish jarayonida G‘arb adabiyoti tajribalarini ijodiy o‘zlashtirishning ahamiyatiga ortiqcha baxo berish, bizningcha, ma’qul emas”² deya ta’kidlaydi. Biroq biz quyida tahlilga tortishga hozirlik ko‘rayotgan Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li yohud Hayot suvi” romani hurmatli ustozlarimizning o‘zbek modernizmi haqidagi qarashlari mutlaq to‘g‘ri emasligiga dalil bo‘la oladi. Shu ma’noda, Y.Solijonov “Roman tom ma’noda absurd g‘oyasiga – yashashda ma’ni yo‘q degan fikr asosiga qurilgan”³ deya asarga to‘g‘ri tashxis qo‘yadi. Sababi Nazar Eshonqul inson konsepsiyasini yaratishda nafaqat absurd falsafasi, Nisshe va Freyd qarashlariga tayanadi, balki G‘arb modernizmining J.Joys, M.Prust, P.Sartr, F.Kafka, A.Kamyu kabi yetuk namoyandalari izidan boradi, ulardan ijodiy ta’sirlanadi. Bu borada adabiyotshunos Islom Yoqubov quyidagicha yozadi: “Asarda ekspressionizmga xos kayfiyat, uning usul va vositalarini ijodiy o‘zlashtirishga intilish kuzatiladi. N.Eshonqul roman badiiy

¹ Yo‘ldosh Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar // Yoshlik, 2014. 9-son. B.32.

² Quronov D. Adabiy o‘ylar. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B.28.

³ Solijonov Y. Yil xirmoni, hosil sifati (<https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/j-ldosh-solizhonov-jil-khirmoni-osil-sifati-2012-jil-romanlari-ta-lili-2013/>)

realligida yaqin o'tmish hayoti va qadr topmagan inson umrini absurd sifatida talqin qilishga intilgan"¹.

“Go‘ro‘g‘li” romani ilk bor 2012-yili “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan bo‘lsada, muallifning o‘zi asarni 90-yillarda yozib tugatgani aytadi². Adabiyotshunosligimizda mazkur romanni o‘zbek xalq dostonchiligi va uning an‘analari bilan bog‘lab talqin qilishga urinishlar ham mavjud³. Bizningcha, romanni “Go‘ro‘g‘li” dostoniga qiyoslash tahlilda biroz sun‘iylikni, xulosalarda zo‘rakilikni keltirib chiqaradi. Aslida, mazkur romanning badiiy-g‘oyaviy jihatdan xalq dostonlariga aytarli yaqinligi yo‘q. Shunchaki, asar qahramoni N.ning biqiq jamiyatda yashashi, lahad ichidagi qahramon – Go‘ro‘g‘liga o‘xshatilgan, xolos. Qolaversa, romaning dastlabki, asl nomi “Lahad” bo‘lgan⁴.

N.Eshonqul ham inson konsepsiyasini yaratishda O.Muxtor kabi markazga shaxs erkinligi, uning qadri va sha’nini qo‘yadi. Qachonki, kishida bu alomatlar yo‘q ekan, uning hayvondan farqi yo‘q, u go‘yo lahad ichida yotgan murda kabidir. Aslida, insonni hayvonga aylantirish uchun uni jismonan nobud qilish yoki lahadga tashlash ham shart emas. Shunchaki, uning fikri bo‘g‘ilsa bas.

N.Eshonqulning inson konsepsiyasini anglash uchun adibning inson, adabiyot va san‘at, jamiyat va davlat haqidagi adabiy-estetik, falsafiy qarashlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq. “Fikr – bu botiniy qiyofa, – *yozadi adib* – odamning, shaxsning ichki qiyofasini ko‘rsatib turuvchi ko‘zgu. Fikri yo‘q odamning qiyofasi ham bo‘lmaydi. Fikr odamning o‘zligini, o‘ziga xosligini bildirib, mavjudligini ko‘rsatib, talab qilib turadi. Fikr, aslida, “men mavjudman” degani. Fikr yo‘q joyda olomonchilik va johillik qo‘pchiydi. Mening fikrim – bu

¹ Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. – Toshkent: Nurafshon business, 2021. – B.222 – 247.

² Eshonqul N. Go‘ro‘g‘li // Sharq yulduzi. 2012. – №2. – B.14.

³ Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. – Toshkent: Nurafshon business, 2021. – B.222 – 278; Mo‘minova S. Eshpo‘latova K. Nazar Eshonqul va Frans Kafka ijodining mushtarak jihatlari // Journal of innovations in social sciences. 2022. – №2.

⁴ Kamina 2012 yilda “Sharq yulduzi” jurnalining mas’ul kotibi bo‘lib ishlaganman. Romanni “Lahad” nomi bilan e’lon qilish davr “senzor”lari e’tiborini tortish, asarni boshqacha talqil qilishga imkon yaratish bilan barobar edi. Shu sababli adib romanni “Go‘ro‘g‘li” nomi bilan e’lon qilgandi.

mening qiyofam. U boshqanikiga o'xshamasligi mumkin, birovga yoqmasligi mukmin, ammo u mening qiyofam. Agar u fikr deyishga arzisa, albatta. Fikr odamning barmoq izlari kabi o'ta xususiy, o'ta shaxsiy bo'ladi"¹. Biz "Go'ro'g'li" romanida inson qiyofasini belgilovchi ayni shu – fikr omilining bo'g'ilganini ko'ramiz. E'tiborlisi, adib muayyan toifalarnigina emas, balki butun bir jamiyatni fikrsiz "murda"ga mengzaydi. Uning romanida jamiyatning oddiy ishchisidan tortib, eng yuqori rahbarlarigacha, olimidan tortib san'atkorigacha qiyofasini yo'qotgan. Ular biqiq "lahad"da yashayotganini anglamaydi, biror kimsa yo kuch yo'qki ularni bu zulmatdan olib chiqa olsa, shunchaki, hech vaqo yo'q – yo'qlik... Romanda ilgari surilgan ayni shu g'oyaviy-falsafiy qarashlar uni absurd falsafasiga daxldor qiladi.

"Go'ro'g'li" romani nafaqat g'oyaviy-falsafiy jihatdan, balki shakliy-ifodaviy xususiyatlariga ko'ra ham modernizm yo'nalishiga to'la mos keladi. Asarda zamon va makon, reallik va xayolot chegaralari mavjud emas. Romandagi har bir qahramon ramziy, voqealar ham, vaziyatlar ham majoziylik kasb etadi, adibning o'tkir kinoya va sarkazmiga qorishib noreal, yasama manzara fonida jonlanadi.

Roman qahramoni N.ning murakkab taqdirini his qilish uchun biz u yashaydigan jamiyat shart-sharoiti bilan tanishishimiz kerak. Buni qahramon ishlaydigan S. tashkiloti misolida ham ko'rish mumkin: "S. tashkiloti markaziy ko'chalardan biridagi hashamatli binoga joylashgan obro'li idoralardan edi. Bu yerdagilar asli nima bilan shug'ullanishlarini va idora ishlab chiqargan qarorlar va ko'rsatmalarning nima uchun zarurligini o'zlari ham unchalik tushunmas, biroq idoradagilar tinim bilishmas..."² Bu asarda qahramonlarning ismi bir harfdan iborat, xolos. Yozuvchi bunday "ism" vositasida N. yashayotgan jamiyat haqida kengroq taassurot qoldirishga uringan. Zero inson sha'ni, qadr-qimmat

¹ Eshonqul N. Falsafa va madaniyat (<https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/nazar-eshon-ul-falsafa-va-madaniyat/>).

² Eshonqul N. Go'ro'g'li // Sharq yulduzi. 2012. – №2. – B.25.

yo‘q jamiyatda o‘zlikni bildiruvchi biror omil bo‘lishi mumkin emas. Qamoqdagi mahbuslar raqamlab chiqilganidek, romandagi qahramonlarga ham ism qo‘yilmaydi.

Roman syujetidagi konflikt N.ning arziyas xatolik tufayli “o‘lishi” bilan yuzaga keladi. Yo‘q, bu biologik o‘lim emas, qahramon kotibaning xatosi bilan o‘lgan xodimlar ro‘yxatiga kirib qoladi, hujjat esa rahbar tomonidan allaqachon tasdiqlangan. N. bo‘lsa hamkasblarining shundoqqina qarshisida turib ham o‘zining tirik ekaniga ishontira olmaydi. Chunki bu odamlar faqat hujjat va yuqoridan tushgan buyruqqa ishonadi, xolos. Shu sababli tabiiy ravishda “marhum”ni ko‘mish marosimiga ham tayyorlana boshlashadi: “sizni ko‘mish ministrlilik bilan kelishilgan. Ehtimol, ministrning o‘zi ham qatnashar. Axir ularga qanday qilib yanglishibmiz, deb ayta olamiz. Yo‘q, bu sira mumkin emas”¹ deydi bir hamkasbi.

Shunday qilib, endi N.ning qolgan umri o‘zining tirik ekanini isbotlashga urish bilan o‘tadi. Bu yo‘lda u butun jamiyatga, jamiyat tayangan qadriyatlarga qarshi turadi. Yozuvchi esa imkon qadar qahramon sarguzashtlarini bema’ni va betiyiq vaziyatlar fonida tasvirlashga harakat qiladi. Romandagi har bir voqea-hodisa yoki qahramonda insoniyatga xos muayyan illat, kayfiyat va g‘oya tipiklashadi, muallifning falsafiy qarashlariga yo‘g‘rilgan ramziy-majoziy obrazga aylanadi.

“Go‘ro‘g‘li” romani o‘quvchining saviyasi, hayotiy ko‘nikmasi, G‘arb adabiyoti va falsafasidan xabardorlik darajasiga qarab turli ma’nolarda jilovlana oladi. Romanning yuzada ko‘rinib turgan mazmuni uni sobiq mustabid davri bilan bog‘laydi. Shaxs erki va huquqlari tizimli ravishda bo‘g‘ilgan jamiyatning oddiy odamlar nazaridan pinhon, chirkin manzaralarini jonlantiradi. Erksizlikning ijtimoiy, ruhiy, ma’naviy oqibatlarini ko‘rsatadi. “Go‘ro‘g‘li”ni bu rakursdagi talqini “Ming bir qiyofa” romani yuzasidan qilgan tahlillarimizga juda

¹ Shu joyda.

o'xshash. Shuning uchun quyida ko'proq romanning umumbashariy, falsafiy talqiniga urg'u beramiz.

N.Eshonqulning Jan Pol Sartr ijodi haqida “uning adabiy asarlaridagi obrazlar adabiy qahramondan ko'ra falsafiy tushunchalar va qarashlarning majozida edi”¹ degani, aslida, uning o'z asarlariga ham taalluqlidir. Shu ma'noda “Go'ro'g'li” nomanidagi qahramonlarini ijtimoiy munosabatlar doirasidagina talqin qilish, romanni to'la qonli tushunish va estetik zavq tuyishga monelik qiladi.

Yuqorida qayd etganimizdek, N.Eshonqulning inson konsepsiyasida tiriklik, erkinlik va fikrlovchilik sinonim tushunchalar. Faqat “erkinlik” masalasida adibning qarashlari Nisshe qarashlariga yaqin turadi. Ya'ni N.Eshonqul bu tushunchada nafaqat jism va ruh erkinligi, balki iroda erkinligini ham ko'zda tutadi. Shu ma'noda, roman badiiy konsepsiyasi talqinida muayyan bir jamiyat, davr yoki tuzum doirasi bilan cheklanib qolish xato bo'ladi. Aslida, N.ning o'z tirikligini isbotlashga urinishi insoniyatning butun madaniy tarixi, mavjudlikning asoslari va koinotga nisbatan ko'targan isyoni edi. Bu yo'lda yozuvchi roman kompozitsiyasini qahramon va Xudo, qahramon va jamiyat, qahramon va “men” qarama-qarshiligi ustiga quradi.

Romanda N.ning ilohiy tartibotga nisbatan ko'targan isyoni anchayin pardalangan. Biroq ziyrak o'quvchi adib N. siymosida butun insoniyatni, u izlayotgan eng oliy rahbar – Tergovchi obrazida esa Xudoni nazarda tutganini ilg'ab oladi. Romanni bu tarzda talqin qilish uchun biz avvalo Havo obraziga e'tibor qaratishimiz lozim.

N. Havo ismli fohishaning uyiga borib, unga uylanish niyatida ekanini bildiradi. N. va Havo o'rtasidagi suhbat qahramon ruhiyatiga, umuman, yozuvchining badiiy konsepsiyasiga kirib borish uchun muhim kalit vazifasini o'taydi: “Bir kecha uyg'onib ketdim, – dedi N. stolning siniq oyog'iga

¹ Eshonqul N. Jan Pol Sartr (<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/jan-pol-sartr/>).

tikilgancha. – Chiroqni yoqib xonaga ko‘z tikdim. Hamma narsa tartib bilan joylashgan, hamma narsa yetarli edi. Umuman, bir odam baxtli yashashi mumkin bo‘lgan hamma narsa bor edi. Biroq shunda nimadir yetishmayotganini anglab qoldim. Bilasanmi, nima? Men qandaydir o‘likka o‘xshab yasharkanman”¹. Demak, N. hech qanday erki va irodasi yo‘q odam ekanidan iztirobda. U doim bir xil, tartibli umr kechiradi, qanday talab qilishsa, shunday yashaydi. Havoga uylanishi esa uning shu tartibotning buzishi, qaysidir ma’noda isyoni edi.

Havo romanda ismi mavjud bo‘lgan yagona qahramon. Ramziy obrazlar bilan o‘rab-chirmab tashlangan badiiy voqelikda yozuvchining Havodan ko‘zlagan ijodiy niyatini anglab olish juda qiyin. Yuzada ko‘rinib turgan alomatlarga ko‘ra, Havo jamiyat tanida hosil bo‘lgan o‘smaga o‘xshaydi. Chunki boshqalardan farqli o‘laroq to‘laqonli ismga ega, qolaversa, u jamiyat qabul qilgan axloq normalariga bo‘ysunmay fohishalik yo‘lini tutgan. N. esa najotni unga qovushishda ko‘radi. Biroq N.ning Havoga qarata “Ha, shunday, **meni tiriltir**, mening hayotimga mazmun bag‘ishla, **iztirob bag‘ishla!** Menga faqat sengina muhtoj eding. Oldin buni tan olmasdim. Men ham tanishganimdan beri hammaga o‘xshab o‘shalardan deb o‘ylardim. Endi bilsam, **sen shu zindonga tushib qolgansan**. Seni zindondan qutqarish uchun **kimdir qurbon bo‘lishi kerak. O‘sha qurbon – menman**. Adashgan, **yo‘lini yo‘qotgan sen emas, men ekanligimni sezdim** va meni tiriltir, menga hayot bag‘ishla, deb oldingga keldim (ta’kidlar bizniki – S.Q.)”² deya aytganlaridan butunlay boshqa ma’nolarni ham anglash mumkin. Ya’ni Havo obrazida insoniyatning ibtidosi bo‘lgan ayol, romandagi “lahad” obrazi esa kichik jamiyatning emas, balki butun dunyoning ramzi ekaniga ishoralar mavjud.

Mazkur fikrimizni N.ning sud jarayonlari aks etgan voqealar ham tasdiqlaydi. N.ning sudiga Havo (endi Guli ismi bilan) guvoh sifatida chaqiriladi. Shunda Havo N. haqida “Undan bog‘da pishib yotgan olmani uzib berishni

¹ Eshonqul N. Go‘ro‘g‘li // Sharq yulduzi. 2012. – №2. – B.22.

² O‘sha joyda. – B.22.

so‘radim. U ham ikkilanmay mening makrimga laqqa tushdi. O‘shandayoq, men uchun olma uzgandayoq, u tavqi la‘natga – shunday taqdirga mahkum etildi”¹ deydi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, Havo ramziy-mistik qahramon. Ayni damda, N. ham muayyan bir shaxsning emas, insoniyat – Odamning ramzi. Shunday ekan, N.Eshonqulning badiiy modeli faqat inson erki bo‘g‘ilgan sobiq mustabid davrini emas, balki butun dunyoni, insoniyatning madaniy tarixini qamrab oladi deyishga yetarlicha asoslar mavjud.

“Go‘ro‘g‘li” – ekzistensial roman. N.Eshonqul olam mohiyatini anglash, inson mavjudligini baholash va badiiy talqin qilishda G‘arb modernistlari, xususan, Jan Pol Sartr va Alber Kamyu izidan boradi, “Go‘ro‘g‘li” romanida azaliy va abadiy ma‘nisizlik bag‘rida yolg‘izlangan absurd odamni tasvirlaydi. Zero N.ning taqdiri o‘z qismatiga tushgan og‘ir toshni orqalab cho‘qqi tomon bemaqsad intilayotgan Sizif kechmishiga o‘xshaydi.

Ekzistensializmga ko‘ra mavjudlikning o‘zi fojea, zotan u ma‘nisizdir. Buni o‘zgartirish uchun insonda muayyan iroda mavjud emas. Unda faqatgida azob-uqubat, qayg‘u ulashuvchi tanlov erkinligi bor, xolos. Ya‘ni u bir yo‘lni tanlasa, boshqasidan voz kechishga mahkum. Ayni shu tiyilish, uning erkini yanada bo‘g‘adi, azoblaydi. Biroq bu bilan ekzistensialistlar odamlarga absurd dunyoda faqat azob-uqubat chekib yashashni targ‘ib qilgan degan xulosaga bormaslik lozim. Aksincha, ular olamning ma‘nisizligini anglab yetish inson umrning mazmuni ekanini ta‘kidlashga urinishgan. Xususan, Sartr aytadi: “Ekzistensialist uchun inson o‘zini anglashga imkon bermaydigan hilqat, sababi u avval boshidanoq hech narsani ifodalamaydi. U jarayondagina odam sifatida shakllangan, shunda ham, u o‘z-o‘zini shakllantirgan, xolos. Shunday ekan, uni yaratgan xudo bo‘lmaganidek, odamning asl tabiati ham muvjud emas”². Sartr falsafasiga ko‘ra, inson loyihasini insonning o‘zi yaratgan. Olam insonning o‘zida, tashqarida mavjud emas. Bu bema‘ni, betiyiq dunyoning asosi inson ekan,

¹ O‘sha joyda. – B.21.

² Сартр Ж.П. Экзистенциализм – это гуманизм. Москва, – Вагриус, 2006. С.6.

demak u nafaqat o‘z-o‘ziga, balki dunyoga ham javobgar. Odam shularni to‘la anglaganidan keyingina chin ma’noda erkinlikka – ekzistensiyaga erishadi. Bu olamni ma’nisiz – absurd ekanini anglash va shu ma’sizlikning mazmun-mohiyatini his qilib yashash dilemmasidir. “Kamyu, – yozadi *prof. Muhammadjon Holbekov*, – absurd bilan kurashning yagona yo‘li uning borligini, u mavjud ekanligini tan olish deb hisoblagan”¹. Boshqacha aytganda, ekzistensiya modernistcha komil inson – a’lo odam darajasidir.

N.Eshonqul “Go‘ro‘g‘li” romanida Sartr va Kamyuning ekzistensial falsafasini N. qismati misolida to‘la ochib berishni ijodiy niyat qiladi, qahramonning ekzistensiyaga yetishish yo‘lini ko‘rsatib beradi.

N. o‘zining tirikligini hamkasblariga isbotlab bera olmadi, keyinroq sud ham uning davosini asossiz deya hukm chiqardi. Ammo N. taqdirga tan bermadi, jamiyatdagi bema’ni qonun-qoidalarini yaratib, hammani nazoratda ushlab turuvchi Tergovchini qidirib topishni va unga tirikligini isbotlashni ahd qiladi. Shu maqsadda mahkamaga borgan N. kutilmaganda Tergovchi aslida mahkamada ham bo‘lmashligini bilib qoladi: “u hech qachon bu binoda bo‘lmagan” deya tushuntiradi soqchi. Soqchining tushuntirishicha, shikoyatchilar “kechgacha o‘tirib, yana qaytib ketishadi. Ba’zilar yillab qatnaydi. Lekin shu paytgacha hech kim qabul qilmagan yoki qilinmagan”. Qizig‘i, “Shikoyatchilar hali bunday tartibdan biron marta nolishgani yo‘q. Aksincha, ko‘plari shunga ko‘nikib ham qolishgan”². N. shundagina Tergovchining odamlarning shikoyatini qabul qilmasligini va hech qachon biror muammoni hal qilib bermaganini tushunib yetadi.

Mahkamadan chiqib u Olim bilan tanishadi. Romanda Olim ratsional tafakkur egasi, bilim va ko‘nikmalarini imperik tadqiqotlar asosida shakllantiruvchi shaxs sifatida olamonga qarshi qo‘yiladi. Olim o‘zining kuzatishlariga tayanib “tergovchi o‘lgan” degan farazni ilgari suradi. Olim bu

¹ Xolbekov M. Ekzistensializm: Alber Kamyu // Jahon adabiyoti. 2013-yil, 11-son.

² O‘sha joyda. – B. 31.

haqiqat ommadan sir tutishayotganini aytadi: “Agar tergovchining o‘lgani oshkor bo‘lib qolsa, shaharda jinoyatchilar bosh ko‘tarishini va aql bovar qilmas tartibsizlik boshlanishini tasavvur qilayapsizmi?”¹ deya tushuntiradi, u. Ayni shu nuqtaga kelganda Olim obrazi va Nisshe qarashlaridagi uyg‘unlikni ziyrak o‘quvchi his qila boshlaydi. Olim tergovchining o‘lgani aytib, uning “so‘qir” yordamchilari doim xammomda o‘tirib undan qolgan qonun kitobini yod olishlarini ham aytib beradi. Olimning aytishicha, bu yordamchilar tana ozodaligiga jiddiy e‘tibor beradi va doim xammomda o‘tiradi: “Kimning badani toza bo‘lsa, bilingki, o‘sha ko‘proq haloldir”². Albatta, bu o‘rinda adib jamiyatdagi muayyan toifaga xos illatlarni yoki diniy, axloqiy qadriyatlarni kinoya va sarkazm qilayotgan bo‘lishi mumkin. N.Eshonqulning inson konsepsiyasini to‘la qonli anglab yetishda bu omilning katta ahamiyati bo‘lmagani sababli ishora va ramzlarning talqinda chuqurlashmaslikni lozim topdik. Biz uchun olimning “dalil”laridan so‘ng N. chiqargan xulosa muhimroq. Qahramon “men umrimni tergovchini izlash bilan, unga umid qilish bilan o‘tkazibman, u esa o‘lib yotibdi”³ deya taqdirga tan beradi. Sababi ayni shu xulosadan so‘ng N. tom ma’noda absurd shaxs sifatida shakllanadi. Aniqrog‘i, Sartr va Kamyu nazarda tutgan ekzistensiyaga yetishib, butun vujudi bilan borliqning bema’ni ekanini anglab yetadi.

Hafsalasi pir bo‘lgan N. uzlatga chekinadi, jamiyatdan ihotalanib yashay boshlaydi: “o‘zini tiriklayin ko‘mib masxara qilayotgan dunyoga qaragisi kelmas, shu sababli yoz o‘tib, kuz kelgan bo‘lishiga qaramay uning derazasi hamon yopig‘ligicha turar”⁴. Yolg‘izlikda u o‘ziga yangi ermak topadi. Bu itlarning uvullashini tinglash edi: “endi u bir paytlardagi kabi o‘z taqdirining adolatli hal qilinishini emas, itlarning uvlashini kutib yashardi”⁵. N. erishgan

¹ O‘sha joyda. – B. 35.

² O‘sha manba. – B. 36.

³ O‘sha manba. B – 37.

⁴ O‘sha manba. B – 37.

⁵ O‘sha manba. B – 37.

ekzistensiya – erkinlik shu edi. Bu esa uni asta-sekin axloq normalari doirasida shakllangan ijtimoiy odam qiyofasidan, hayvonga evrilish jarayoni edi: “ichida hamma narsani tilka-pora qilish, badbo‘y hidlardan mast bo‘lish istagi uyg‘onar, ba’zi kechalari u bu istak oldida ojiz qolib tanasini tishlab tashlar... N. itlarga qo‘shilib, asta-sekin uvlashni o‘rgandi... uvlagan sayin o‘zini olis va shafqatsiz ajdodlarining shuuri qoplab olar, uvlashda iltijo ham, hasrat ham, qahr va g‘azab ham mujassam edi”¹. Bu bosqichda N. olam mohiyatini anglaydi, endi unga erk va erksizlik, tiriklik va o‘lim tushunchalari yod. U go‘yo tabiat bilan bir butun hilqatga aylandi. Albatta, biz o‘z axloqimizdan kelib chiqib N.ning holatini hayvon darajasidan yuqori qo‘ymaymiz, biroq modernist mutafakkirlar nazdida bu “a’lo odam” bosqichi hisoblanadi.

N. o‘zini o‘ldirish uchun vakzalga qarab yo‘l olarkan, inson mavjudligining achchiq haqiqatlarini yana bir bor eslaydi: “bu dunyoda hech qaysi ish o‘zining ixtiyori bilan sodir bo‘lmaganini, sodir bo‘lmasligini anglagandi”. Uning fojeasi “voqelikdagi izchillikni buzaman deb behuda uringanida edi”².

N.ning qisqa umri kurashlarda o‘tdi. U o‘z irodasi darajasini bilish uchun din bilan, jamiyat bilan va hatto o‘z “men”i bilan ziddiyatga kirishdi. Lekin modernistik g‘oyaga ko‘ra “cheksiz tug‘ilish va o‘limga asoslangan materiyaning abadiy tarzda bema’ni aylanishi o‘rtasidagi bartaraf etish mumkin bo‘lmagan qarama-qarshilik”³ zahirida qurbon bo‘ldi. Biroq roman g‘oyasiga ko‘ra, N.ning xudkushligi anglangan qadam edi. U olamda o‘zining zig‘ircha ahamiyati, maqsad va muddaosi, muhimi irodasi yo‘qligini to‘la anglab yetganidan so‘ng o‘limga yuzlandi. Uning uchun bu shunchaki biologik o‘lim, xolos. Zotan u ma’nan allaqachon o‘lib bo‘lgan yoki hech qachon yashamagan.

¹ O‘sha manba. B – 36.

² O‘sha manba. B – 43.

³ Панова О.Ю. Человек в модернистской культуре (<https://forlit.philol.msu.ru/kafedra-ru/prepodavateli-kafedry/panova-articles-ru/panova-article1-ru#10->).

“Go‘ro‘g‘li” romani yuzasidan xulosa chiqarishda muallifning quyidagi gaplarini albatta hisobga olish shart: “Ushbu romanga 90-yillarning boshida so‘nggi nuqta qo‘yilgan edi. Shu sababli asarda devorlarini zax bosgan, qulash arafasiga kelib qolgan, insonning botiniy quvvatini so‘rish evaziga yashagan tuzumning badbo‘y hidlari anqib turibdi. O‘tgan yillar davomida men asarni faqat tahrir qilish bilan shug‘ullandim, xolos. Necha bor urinmay, uni qayta yozish, voqelikni boshqa izga solishga kuchim yetmadi”¹. Yuqorida eslab o‘tganimizdek, 90-yillar avvalidagi mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy parokandalik jamiyat ahlini chuqur depressiyaga solgani haqiqat. Ayniqsa, uzoq kutilgan istiqlol dastlabki yillarda sarobdek tuyildi va ziyolilar bundan qattiq iztirob chekdi. Ijodkorda absurd kayfiyatni uyg‘otuvchi ijtimoiy shart-sharoit yetildi. Biz o‘tish davri adabiyoti, ayniqsa, she‘riyatini sinchiklab qarab absurd odam alomatlariga ko‘p duch kelishimiz mumkin. Shunday ekan, N.Eshonqulning badiiy g‘oyasiga faqatgina uning falsafiy-estetik yoki axloqiy qarashlari nuqtayi nazaridan emas, balki ko‘proq o‘tish davriga xos umumijtimoiy kayfiyat mahsuli sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi.

Muxtasar qilib aytganda, “Go‘ro‘g‘li” romani qahramoni N. absurd zamon va makonda to‘kis shakllangan absurd odam edi. Nazar Eshonqul salafлари, jumladan, milliy adabiyotimizdagi modernistlardan farqli o‘laroq o‘zining inson konsepsiyasini ekzistensial falsafa asosida yaratadi. N.Eshonqul boshqalardan farqli holda absurd odamni konseptual ravishda, G‘arb faylasuf va san‘atkorlarining falsafiy-estetik qarashlariga suyanib yirik epik ko‘lamda tafakkur qildi, adabiyotimizga insonning ilgari kuzatilmagan unikal badiiy konsepsiyasini taqdim etdi.

Biz yuqorida ko‘rib chiqqan Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” hamda Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romanlarida erk bo‘g‘ilgan jamiyatda yashab, shu tuzumga qarshi isyon qilgan, o‘z sha‘ni va qadri uchun kurashgan

¹ O‘sha manba. – B – 14.

qahramonlarni ko'rsak, Ahmad A'zamning "Ro'yo yohud G'ulistonga safar" romanida erksizligini anglab yetmagan, erk tushunchasini tasavvur ham qila olmaydigan, tug'ilishi bilan zanjirband etilib, shu qullikni o'ziga sharaf deb biladigan kishilar jamiyati gavdalantirilgan. Aytish mumkinki, A.A'zamni erk uchun kurashuvchilar emas, erksizlikka ko'nib yashovchilar taqdiri, ularning ruhiy-ma'naviy olami, kechmishlari ko'proq qiziqtiradi. Ya'ni muallif asardan ko'zlagan badiiy maqsadning o'ziyoq kinoyaviy. Biroq A.A'zamning inson konsepsiyasi yadrosida ham shaxs erkinligi masalasi turadi. "Ro'yo" totalitar tuzumning asl ko'rinishi, ijtimoiy fojeasini ochib berish nuqtayi nazaridan yuqorida ko'rib chiqqan romanlarimiz bilan umumiylik kasb etadi.

Biz "Ro'yo" romanida ham o'z davrida turib sobiq mustabid tuzumni taftish qilishga, zamondoshlarining ijtimoiy, ruhiy-ma'naviy olamini "o'tmish saboqlari" asosida baholashga, erkin jamiyat va erkin shaxs haqidagi ideallarni anglashga urinayotgan muallifni ko'ramiz.

Adib asarning "Boshlanma"sida "Yozadiganlarim, hozir shu uzrni so'rayotganimda sezib turibman, parokandaroq, bog'lanishlari sustroq chiqar, Fuliston haqida sizga yaxlit, bir butun tasavvur berolmas", deya o'quvchini o'ziga xos badiiy voqelikka tayyorlab oladi. Sababi "Ro'yo" kompozitsion jihatdan juda o'ziga xos, uzuq-yuluq hikoya yoki hikoya ichida hikoyalardan tashkil topgan. Adib o'z ta'biri bilan aytganda "hikoya bo'lmaydigan voqea"larni ham romanga singdirib yuborgan. Bu "parokanda" voqealarni asarda yo'lidan adashib G'ulistonga borib qolgan roviy-muallifning kechmishi, ruhiy olami yaxlitlashtirib turadi.

"Ro'yo" – antiutopik roman. Bu borada maxsus tadqiqot olib borgan B.Saidova "Antiutopiya nazariyotchilarining ishlarida va adabiyot lug'atlarida ta'riflangan qoidalar hamda antiutopik asarlar namunalaridagi olg'a surilgan g'oyalar, syujet qurilishi, obrazlarning vazifalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" romanini ham antiutopik

uslubda yozilgan asar deyish mumkin”¹, deb yozadi. Darhaqiqat, mazkur roman antiutopiyaning muhim janriy va g‘oyaviy xususiyatlari: to‘qima, noma’lum makon; yagona mafkura; shaxsga sig‘inish; dinsizlik; erkning har qanday shaklini qoralash, san’atni cheklash; har bir fuqaroni kuzatuvga olish; total nazorat; zulm va qo‘rquv siyosati; mafkuraviy propoganda; aholi “miyasini yuvish” kabilar mujassam topgan.

Asarni o‘qishga kirishar ekanmiz muallifning “g‘uliylar ham to‘qima badiiy obrazlar emas, balki, tanqidchilar iborasi bilan aytganda, obrazga prototip, ya’ni jonli odamlar” degan ta’kidini e’tiborga olish zarur. Bu borada adabiyotshunoslar aytadiki “Sobiq Ittifoq tarkibidagi barcha respublikalarning aholisi G‘ulistondagi g‘uliylar uchun o‘ziga xos prototip bo‘lgan deyish mumkin”². Demak, biz asarni real jamiyatning badiiy-ramziy modeli sifati qabul qilishimiz, talqin qilishimiz mumkin. Xulosalarimiz shu jihatdan reallashadi, muayyan davr va jamiyatga daxl qiladi.

Roman qahramoni borib qolgan yurt G‘uliston (ya’ni zanjiriston) deb ataladi. Sababi bu mamlakatda hamma “zanjir taqqan, hammasi bo‘ynidagi zanjir bo‘yintasmadan ikki qo‘lining bilagigacha, yana shu bo‘yintasmadan belidagi zanjir belboqqa, undan ikki to‘pig‘igacha yana zanjir bilan bog‘langan”³. Mamlakat aholi esa o‘zlarini g‘uliylar deb ataydi. Ularning ismi yo‘q, hammasining nomi bir – g‘uliy. Ko‘chalarda ilib qo‘yilgan shiorlar ham faqat shu mamlakatgagina xos: “Zanjir – tartib amaliyotidir”, “Insonning aql-zakovati uni zanjirni kashf etishga olib keldi”, “Yovvoyi tabiat – zanjirsiz, madaniy jamiyat – zanjir bilan!”, “Kuylar kuyi – zanjir jarangi”.

G‘uliylar o‘zlarini zanjirning quli deb biladi. Ularning yashashdan yagona maqsadi tanasini chirmab olgan zanjirga munosib fuqaro bo‘lish. Ular zanjirsiz yashash, o‘z oldilariga boshqa orzu-maqсад qo‘yishni o‘ylash tugul, bunday

¹ Saidova B. Uslubiy va g‘oyaviy hamohanglik // Yoshlik, 2018. 7-son.

² Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosheva M. Ruhiyatning betakror jilolari (<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ruhiyatning-betakror-jilolari.html>).

³ A‘zam A. Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. – Toshkent: Yangi asar avlodi, 2011. – B. 37.

hayotni tasavvur ham qila olmaydilar. Ya'ni bunday tasavvur chegarasi ularning ong imkoniyatidan tashqarida: "Yo'q, – dedi qiz. – zanjirsiz qolishdan zanjirning o'zi asrasin! Men hatto tushimda ham... voy, uzr, hech kimga aytmang, iltimos qilaman!"¹ Parchaga e'tibor qiling, g'uliy qiz "tushumda" so'zini ishlatib o'z xayollaridan o'zi cho'chib ketmoqda. Ya'ni qiz zanjirsizlikni (erkinlikni) xayoliga ham keltira olmaydi. Sababi zanjir siyosati g'uliy miyasini shu qadar "toza yuvgan"ki, biror yod tasavvuru xayolga o'rin qolmagan. Qolaversa, texnologik jihat juda ham rivojlangan G'uliston mamlakatida fuqarolar tunu kun kuzatiladi. Ularning har bir harakati, qayerga borishi, kim bilan nima haqida gaplashishi, nimani ko'rishi yoki eshitishi va shu kabilar tahlil qilinib, kishining shaxsiy "portreti" yaratiladi. Agar unda "og'ish" holati aniqlansa, u zudlik bilan "tozalash sabog'i"dan o'tkaziladi.

Romanni o'qirkansiz, muallif inson konsepsiyasini yaratishda muhim bir savolga javob izlayotganiga amin bo'lasiz. U roman markazga "Odam uchun oliy qadriyat farovonlikmi yoki erkinlikmi?" degan savolni qo'yadi. Shu savolga javob izlarkan, asarda G'ulistonning farovon hayot manzaralarini tasvirlashga alohida urg'u beradi.

G'uliston – iqtisodiy jihatdan ham, texnologik jihatdan farovon yurt. Odamlari to'q, tinch yashaydi. Shaharlari chiroyli va ozoda. Olma yetishtirishga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi ham juda rivoj topgan. Ular olmani temir moddasi ko'p bo'lgani uchun yetishtiradi. Uni ko'p iste'mol qilishsa, qachonlardir bolalar o'z zanjirlari bilan tug'ilishiga ishonishadi. Mamlakat olimlari, mutafakkirlari, umuman, hammaning yagona orzusi, ulug' maqsadi shu: "Fulistonda jami ishlar ana shu ixlosga qurilgani uchun ham mamlakat faoliyati ravon yuritiladi. Bunda maqsad nechog'li uzoq, unga yetish qanchalar nihoyasiz mashaqqat bo'lsa, yanada yaxshi, unga yetish kerak ham emas, yetilsa, zararli ham"².

¹ O'sha manba. – B. 98.

² O'sha manba. – B. 239.

Muallif g'uliyarning o'z zanjiri bilan tug'iladigan chaqaloq haqidagi ulug' g'oyasini kommunizmga qiyoslaydi. Kommunizmni qurish orzusida odamlarning aql bovar qilmas darajadagi bunyodkorlik ishlarini samimiy e'tirof etadi. Ayni vaqtda, bunday "orzu"ning fojiasini ham ko'rsatib qo'yadi: "ilm-fan, madaniyat, tarix, tamaddun, yana nima, xullas, hamma-hammasi kishanbandlikka asoslangan, qarashlar, nuqtai nazarlar, mulohazalar, muhohasalar – barisi zanjir bilan, zanjir tufayli, zanjirlangan"¹. Bu bilan A.A'zam mamlakat har qancha farovon bo'lmasin, uning fuqarolari erkin yashamas ekan, bunday jamiyat alaloqibat baxtsizdir degan xulosani o'rta tashlaydi. Bu xulosa, qaysidir ma'noda Nisshening "Erkinlikdan farovonlikni ustun ko'rish axloqsizlikdir"² degan fikriga uyg'un.

Adib g'uliyar kabi bir xil axloq, bir xil kiyim, bir xil maqsad va orzu bilan yashaydigan jamiyat alaloqibat tanazzulga yuz tutishini bashorat qiladi. Ya'ni fikrlar, g'oyalar xilma-xilligi – plyuralizm asosiga qurilmagan, ichki qadriyatlarini ana shunday bahslarda belgilab olmagan jamiyatni eng kichik g'oya ham xuddi virus kabi parokanda qilib yuborishi mumkinligiga ishora qiladi. Buni u bosh qahramon o'zi bilan olib kelgan oddiy hikoyalar to'plamining g'uliyar orasida mashhur bo'lib ketishi, asardagi fikrlardan ta'sirlangan g'uliyarning sekin-asta o'zligini anglab yurtda g'alayonlar boshlanib ketishi voqealari bilan ko'rsatib beradi.

A.A'zamning inson konsepsiyasida ham erkinlik eng oliy qadriyat sifatida ko'riladi. U ham erksiz insonni tirik murdaga qiyoslaydi. Inson o'ziga xos xatolari, kamchilik va illatlari bilan birga erkin bo'lishi, o'zini bor-boricha namoyon qila olishi kerak degan g'oyani ilgari suradi.

4.2. Mustaqillik davri o'zbek romanlarida postmodernistik dunyoqarash va insonning badiiy ifodasi

¹ O'sha manba. – B. 178.

² Nishe F. Zardo'sht tavallosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 283.

Hozirgi davr o'zbek nasri haqida so'z borar ekan, kishi e'tiborini, avvalo, bu jarayondagi rang-baranglik o'ziga tortadi. Zotan milliy adabiyotimizda yaratilayotgan asarlar nafaqat mazmun-mohiyatiga ko'ra, balki ifoda shakllari jihatidan ham turfa xildir. Albatta, bunga tabiiy jarayon sifatida qarash lozim. Chunki globallashgan dunyoda nafaqat biror ijtimoiy guruh, hatto yakka shaxs ham muayyan ruhiy-ma'naviy holatda muqim yashashi qiyin. Sababi adoqsiz axborot oqimi odamlarning bir holdan ikkinchi holga o'tish jarayonini tezlashtirib yubormoqda. Bu esa asli ijtimoiy hodisa sanaluvchi san'atga, xususan, adabiyotga ham ta'sir qilib, undagi xilma-xillikka sabab bo'layotgan asosiy omildir.

Biroq mana shu jarayonda ham muayyan oqim va umumiylikni ko'rsatuvchi tendensiyalar talaygina topiladi. Xususan, Sharq va G'arb madaniyatlari yaqinlashuvi natijasida shakllanayotgan tamoyillar, olamni xaos deya qabul qiluvchi postmodernizm yo'nalishining **qisman ta'siri** bugungi kun nasrida sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda.

Postmodernizm yo'nalishidagi asarda insonning badiiy konsepsiyasi oldingi metodlarga nisbatan jiddiy farq qiladi. Bu yo'nalish insonning olamdagi o'рни va vazifasini belgilarkan, uni bema'ni va xaotik olamning yengiltak, darbadar fuqarosi sifatida tasvirlashga, bashariyat butun tarixi mobaynida egallagan tajriba, qadriyat, bilim va tasavvurlarni puchga chiqarishga, "yolg'on dunyo"ni yolg'onlar bilan bezab ko'rsatishga moyil.

Postmodernizm¹ o'tgan asrning ikkinchi yarmidan, bir tarafdin jahon urushlarining yakun topishi va sovuq urushning boshlanishi, ikkinchi tarafdin

¹ Qarang: Umberto Eko. Postmodernizm, kinoya, mamnuniat (<https://ziyouz.uz/jahon-nasri/umberto-eko/umberto-eko-postmodernizm-kinoya-mamnuniyat/>). Yo'ldoshev Q. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar // "Jahon adabiyoti", 2015, №10. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. B. 227-230. Hamdam U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. Quronov S. Postmodern kayfiyat va ideal ehtiyoji // O'zAS, 2012. 27-iyul. Киреева Н. Постмодернизм в зарубежной литературе. – Москва: Флинта: Hayka, 2004. Zima, P. V. Modern/postmodern : society, philosophy, literature, 2010. Nicol B. The Cambridge Introduction to Postmodern Fiction, 2009. Mchale B. The Cambridge Introduction to Postmodernism, 2015. From modernism to postmodernism: an anthology/[compiled by] Lawrence E., 1996. Middeke M., Wald Ch. The Literature of Melancholia Early Modern to Postmodern, 2011.

axborot texnologiyalarining rivojlanishi va globallashtirishning tezlashishi, uchinchi tarafdin esa aniq va tabiiy fanlardagi olamshumul kashfiyotlar ta'sirida vujudga kela boshladi. Ayni shu davrga kelib insoniyat yangi eraga qadam qo'yganini anglaydi, o'zining borliqdagi maqom va vazifasini qayta belgilab olish zaruratini his qiladi. Postmodernistik paradigma esa ana shu ehtiyoj mahsuli, mavjudlikni tushunish va tushuntirishning yangi quroli sifatida yuzaga keldi.

Postmodernizmning o'zidan oldingi metodlardan jiddiy farqi shuki, u olam va odam munosabatlarini anglashga, insonning borliqdagi maqomini belgilashga urinmaydi. Boshqacha aytganda, shu "anglash"ga va "belgilash"ga urinmaslikning o'zi postmoderncha maqsad bo'lib, bu ham yo'nalishning o'ziga xos dilemmasidir.

Postmodernistlar olam bema'ni – xaos ekan, demak u haqida muayyan hukm-xulosa aytish ham mumkin emas deb hisoblaydi. Natijada mavjud har qanday ishonchga putur yetadi, jumladan, ilohiyot ham inkor qilinadi. Bunga madaniy inqiroz deya ta'rif bergan amerikalik olim A.Mejill: "Yaxshilik, haqiqat va go'zallikning martabali hamda azaldan muqim me'yorlarini yo'qotish, bir vaqtning o'zida ilohiy so'zi – Injilga bo'lgan ishonchning so'nishi" deya baholaydi. Postmodernistlarga ko'ra, "olamning mavjud qiyofatida faqat fragmentlargagina ishonish mumkin"¹. Shunday ekan, ularlar san'atda ham "azal-azaldan badiiyatning o'lchovi hisoblanib kelgan yaxlitlik, uyg'unlik, tugallik, go'zallik singari tasavvurlarni barbod etib, aristotelcha-gegelcha-kantcha mumtoz estetik yondashuvning barcha asosiy qoidalarini inkor qiladi"².

Postmoderncha maqsadsizlik, idealsizlik va qadriyatsizlik axloq normalarining yemirilishiga ham sabab bo'ldi (yoki aksincha, axloqning yemirilishi postmodernizmni vujudga keltirdi). Natijada ommaviy didsizlik urchidi va bu adabiyotda ham zuhur topdi.

¹ Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 228.

² Yo'ldoshev Q. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar // "Jahon adabiyoti", 2015, №10. – B. 112.

Postmodernizmning falsafiy-g'oyaviy asoslariga qaralsa ham u ko'p jihatdan, ayniqsa, musulmon axloqi nuqtayi nazaridan ijobiy hodisa emas. Professor Qozoqboy Yo'ldoshev bu borada "biz o'zbeklarning ma'naviy dunyomizga daxl qiladigan birqancha xatarli jihatlar ham mavjudligi ko'zga tashlanadi"¹ deb ta'kidlaydi. Olim axloqsizlikni postmodernizmning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillar qatorida ko'radi: "Yuksak va qadri baland badiiy yaratishlar bilan tuban hamda beqadr narsalar o'rtasidagi farqni tan olmaydigan postmodernizmning yuzaga kelishi va yoyilishida Kunbotish ahlining tabiatiga xos menchilik, lazzatga o'chlik, istaklarni jilovlashga urinmaslik kabi mayllar ustuvorligining ham o'ziga yarasha o'rni bor. Kunbotishliklarning bayrami ham, g'alabasi ham, quvonchi ham ko'pincha uvol va gunoh orqali nishonlanadi"².

Yuqorida postmodernizmga bergan ta'riflarimiz bu yo'nalishni faqat salbiy hodisa sifatida talqin etishga urinish sifatida baholanmasligi lozim. Tan olib aytish zarurki, zamonaviy dunyodagi o'ziga xos tendensiyalar: informatsiya bilan to'yingan va qisman virtual olamda yashayotgan inson tafakkuri hamda ruhiyatidagi ziddiyatlarni, ilmiy-texnologik taraqqiyot ta'sirida reallik, zamon va makon haqida evrilishga yuz tutgan tasavvurlarni, global dunyodagi qorishiq madaniyat, falsafa va qadriyatlarni tasvirlashda postmodernizmning ifoda imkonlari boshqa yo'nalishlarga qaraganda kengroq. Aytish mumkinki, bu yo'nalish yangi davrning o'ziga xos manzaralarini bor-boricha ko'rsatish, badiiy idrok qilish ehtiyoji sababidan vujudga kelgan. Postmodernizmning asoschilaridan biri hisoblanuvchi italian yozuvchisi Umberto Eko an'anaviy metodlar bilan zamonaviy dunyoni to'laqonli tasvirlash imkonsiz ekanini anglab, "Ideal postmodern roman realizm va norealizm, formalizm va syujetlilik, "sof san'at" va "taklif adabiyoti", elitar va ommaviy adabiyotlar o'rtasidagi kurashdan yuqorida turishi kerak"³ deb yozgan edi.

¹ O'sha manba. – B.132.

² O'sha manba. – B.114.

³ Эко У. Постмодернизм, ирония, занимательность / Культурология. – Ростов: ФЕНИКС. – 2007. – С. 525

Rus olimasi Nataliya Kireyeva “Postmodernistlar diqqat-e’tiborini olamni assotsiativ-refleks idrok etish jarayonini eng ishonchli shaklda aks ettiruvchi shaxsning xaotik, parokanda tafakkuri manzaralariga qaratadilar”⁴ deb yozadi. Biz mazkur olimaning postmodernizm yuzasidan muxtasar tadqiqotiga tayanib, yo‘nalishning ifodaviy imkonlariga doir ayrim o‘ziga xos qirralarni sanab o‘tamiz. Demak postmodernizm:

- mavjud barcha kanonlarni dekanonlash, qadriyatlarni kinoyaviy tarzda qayta baholash;
- an’anaviy “men”ni inkor etish, shaxsiyatni o‘ldirish va “men”ning ko‘pligiga urg‘u berish;
- duragaylash, janrlarning mutatsiyasi, yangi shakllarning paydo bo‘lishi;
- meta til o‘yini, matnli o‘yin, o‘quvchi bilan o‘yin, matnни teatrlashtirish;
- kaosni o‘yin tarzida talqin qilish;
- intertekstuallik: insoniyat madaniyatining butun tarixiga tayanish va uni qayta baholash;
- madaniy tillar, modellar va uslublarning plyuralizmi;
- fragmentlilik, kollaj, montaj – gibrad adabiy shakllarning paydo bo‘lishi;
- universallik, ko‘p qirrali ma’no va nuqtayi nazar;
- “muallif o‘limi” kabi maqsadlarni qamrab oladi.

Postmodernizm juda ommabop, shu bilan birga ko‘p tadqiq etilgan hodisa bo‘lishiga qaramay hamon o‘ta mavhum tushunchadir. Bu yo‘nalishning nazariy asoslari yuzasidan mutaxassislarning yakfikri – konsensusi mavjud emas. Shu ma’noda o‘zbek adabiyoti namunalarini postmodernizm yo‘nalishi tamoyillari asosida tahlilga tortish ba’zi nazariy chalkashliklaru sun’iy xulosalarni keltirib

⁴ Киреева Н. Постмодернизм в зарубежной литературе. – Москва: Флинта: Наука, 2004. – С. 7.

chiqarish ehtimoli ham yo‘q emas. Ammo muammoning ikkinchi bir tarafidan aslo ko‘z yumib bo‘lmaydi: globallashuv, ilm-fan taraqqiyotining yangi bosqichga ko‘tarilishi, har qancha taraqqiy topmasin, tabiatning “oddiy” hodisalariga oydinlik kiritolmayotgan, na koinotning va na kichik zarraning cheku chegarasini topolmay tang bo‘layotgan inson salohiyati hamda uning o‘zgarib borayotgan maqsadlari, hayot mazmuni, umuman, adabiy jarayon shakllanayotgan yangi davr, yangi ijtimoiy munosabatlarning san’atga ta’siri masalasi ham borki, bu milliy adabiyotimizda yaratilayotgan ayrim asarlarga o‘zga bir nigoh bilan qarashga undayveradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, postmodernizmni u qadar ijobiy hodisa sanamasak-da, o‘zbek jamiyati postmodernizmni vujudga keltirgan ijtimoiy, ruhiy, ma’naviy omillardan butunlay yiroq degan xulosada emasmiz. Biz istaymizmi yoki yo‘q, globallashgan dunyoda umumiy kayfiyat mavjud. Amerikalik adabiyotshunos Brayn Makeyl ta’biri bilan aytganda: “hech bir davr germetik yoki mustaqil emas”¹. Shunday ekan, o‘zbek jamiyati ham, qisman bo‘lsa-da, postmodernistik kayfiyat ta’siridan holi emas. Jumladan, milliy nasrimizda mazkur o‘ziga xos yo‘nalishning kurtaklari, unga xos belgi va alomatlarning ko‘rina boshlanganiga ancha yillar bo‘ldi. So‘ngi o‘n yilliklarda romannavislarimiz yaratgan insonning bir qator badiiy konsepsiyalari misolida fikrlarimizning dalilini ko‘rish mumkin.

Milliy adabiyotimizga postmodernizm yo‘nalishining ta’siri haqida so‘z borarkan, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” va Ulug‘bek Hamdamning “Yo‘l” romanlari alohida diqqatga molik. Mazkur ikki romanni bir talay badiiy, ijtimoiy-falsafiy omillar o‘zaro birlashtirib turadi. Bundan tashqari, romanlarda postmodernizmning qator ifodaviy-shakliy xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi. Xususan, ifodada olamning xaotik manzaralaridan qochmaslik, an’anaviy “metarivoyatlar” o‘rniga “kichik hikoyatlar”ni taqdim etish, intertekstuallik,

¹ Mchale B. The Cambridge Introduction to Postmodernism, 2015. – p.18.

janrlar mutatsiyasi kabi alomatlar, bir qarashda, sanalgan romanlarni postmodernizm yoʻnalishi mahsuli sifatida baholashga undaydi. Biroq “Boqiy darbadar” va “Yoʻl” romanlari oʻz mohiyati bilan postmodernizmning asosini, bosh falsafasini inkor qiladi. Yaʼni bu romanlarda beʼmani – xaos deb koʻrilgan olamdan maʼni qidirish, insoniyatning saodat manzilini belgilash maqsadi turadiki, bu tom maʼnoda postmodernizmning ziddidir.

Shu tariqa, shakliy jihatdan postmodernizm imkonlari bilan bezangan, gʻoyaviy-falsafiy jihatdan esa Sharqning boy madaniy merosidan ulgi olgan oʻziga xos, qurama yoʻnalish vujudga keladi. Quyida mazkur xulosalarimizni muxtasar oʻrganib chiqamiz.

Istiqlol davri oʻzbek nasrida Isajon Sulton ijodi alohida oʻrin egallaydi. Ayniqsa, yozuvchining “Boqiy darbadar” romani adabiyotimizda oʻziga xos yoʻnalishni boshlab bergani bilan ahamiyatga molik. Bu romanda basharning azaliy muammolari yangicha yoʻsinda, Sharq va Gʻarb estetik tafakkuri anʼanalarining sintezi oʻlaroq badiiy yechimini topadi. “Boqiy darbadar” romani tom maʼnoda yozuvchining ijodiy salohiyatini, uning oʻziga xos yoʻnalishini belgilab bergan asardir. Shu maʼnoda mutaxassislar uni oʻzbek romanchiligidagi yangi hodisa deya baholaydi¹.

“Boqiy darbadar” – mavjudlikning mazmun-mohiyati haqidagi roman. Roman badiiy konsepsiyasi markazida zamonaviy dunyoda insonni anglash, uning hayotiy maqsad va vazifalari belgilash muammosi turadi. Zotan yangi asr yuksak texnologik yutuqlarni taqdim etgani holda, insoniyat qarshisiga yana minglab muammolarni koʻndalang qoʻymoqda. Ekologik muammolar ortib, qurgʻoqchilik va dengizlarning qurishi tobora odatiy tusga kirmoqda. Tashqi siyosatda esa munosabatlar yanada taranglashgan, yadroviy qurollarning xavfi kundan-kunga ortib bormoqda. Bir tarafdin demokratiya inqirozga yuz tutayotgan boʻlsa, ikkinchi tarafdin halokatli “liberal” gʻoyalar azaliy

¹ Qarang: Quronov D. Oʻylashgan undovchi asar. Sharq yulduzi // 2010 y, 6-son. B.15.; Q.Yoʻldosh. Roman va bugungi oʻzbek romanchiligi // Sharq yulduzi. 2013-yil, 3-son.

qadriyatlarni yemirib bormoqda... Xo'sh, shunday chigal vaziyatda inson qanday hayot kechirmog'i lozim? Bu muammolarning yechimi bormi?

Isajon Sulton o'z romani bilan ana shunday savollarga javob izlashga urinadi. Bugungi global dunyoda insonga yo'l ko'rsatishga, uning hayotiy maqsad va vazifalarini eslatib qo'yishga harakat qiladi. Shu maqsadda yozuvchi o'z romanida olam va odam munosabatlarining yangi modeli, yangicha inson konsepsiyasini ilgari suradi.

“Boqiy darbadar” ramziy-falsafiy roman bo'lib, yozuvchi atigi 80 sahifalik asarga bugungi dunyoning global muammolarini, jar yoqalab borayotgan insoniyatning mudhish qismatini sig'dira olgan. Bu qadar keng qamrovli mavzuni kichik hajmli asarga jo etishda yozuvchiga postmodernizm yo'nalishining ifodaviy imkonlari qo'l keladi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov bu haqida shunday yozadi: “Boqiy darbadar”da an'anaviy eposga xos voqeaband syujet o'rnida sirtidan bir-biriga bog'lanmay turli makon va zamonda, goh reallik, gohi xayolotda kechuvchi voqealar tasvirlangan, markazida risoladagidek qahramon turmagan bo'lsa-da, ularni bir narsa – hayotning ma'nisiyu bashariyat taqdiri haqida o'ylagan muallif shaxsi birlashtiradi, yaxlit butunlikka – romanga aylantiradi”¹. Olimning mazkur ta'rifiga tayanib aytish mumkinki, roman yaralishida postmodernizm yo'nalishi kuchli ta'sir o'tkazgan. Zero, olamni uzuq-yuluq turli fragmentlar bilan tasvirlashga urinish, insoniyat madaniy tarixidagi matnlar aro intertekstuallik postmodernizmning asosiy ifodaviy qonuniyati hisoblanib, quyiroqda bu haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

“Boqiy darbadar” romanida ketar yo'lidan adashgan bashariyat qismati qalamga olingan bo'lib, unda o'rgimchak to'riday chirmashib ketgan o'nlab yo'llarda manzilga intilayotgan, hayotdan, yashashdan ma'ni qidirayotgan qahramonlarni ko'rish mumkin. Tom ma'noda asar syujeti “men kimman?”, “otim nima?” savollari tegrasiga qurilgandek tasavvur uyg'otadi. Zero, asardagi

¹ Quronov D. O'ylashgan undovchi asar // Sharq yulduzi, 2010, 6-son. – B.15.

har bir qahramon shu savollarga javob izlashga urinadi. Yozuvchining inson konsepsiyasiga ko'ra bashariyatning tanazzuli uning o'z Robbisidan yuz o'girayotgani, azaliy qadriyat va aqidalariga bepisandlik qilayotgani sababidandir. U bu g'oyani asarning markaziy qahramonlaridan biri – etikdo'z misolida berishga urinadi.

Asarning badiiy g'oyasida kelib chiqilsa etikdo'z butun insoniyatning ramzi ekanini anglash mumkin. Zero ming yillar oldin shu etikdo'z Yaratganning suyuqli bandasiga qo'l ko'tarib tavqi la'natga uchraydi. Shu kundan boshlab bu la'natlangan inson chigal dunyoning boqiy darbadariga aylanadi. U o'z manzili haqida qisman biladi, ammo unga olib boruvchi yo'llarni bilmaydi. Bani bashar esa kundan kunga o'zi shundoq ham manzili mavhum yo'llarni yanada ko'paytirish, chigallashtirish bilan ovora. Bu ketishda u manzilidan butunlay adashadi...

Xo'sh, yo'ldan adashmaslik uchun, saodat manziliga to'g'ri borish uchun nima qilmoq kerak? Yozuvchi bu savolga professor Ziyoning o'g'li misolida javob axtarishga urinadi. O'g'il barcha jumboqlarning yechimini Allohga imon keltirish, taqdiri azalga tan berishda ko'radi: "Kengligiga aql bovar qilmas ulkan kurrai zaminni muallaq suzdirib qo'ysayu qaynoq suvlarda, daraxt tanasining g'ovaklarida va hatto toshlarning ichida ham o'zining qudratiga dalolat bo'lsin va inson bolasi ko'rsin uchun jonzotlarni yaratgan bo'lsa... shularni anglasamu o'zimning haqirligimdan xabardor bo'lsam... qanday qo'rqmasdan tura olay?"¹ Bir qarashda o'g'ilning bu so'zlarida asarning umumiy xulosasi jo bo'lganday ko'rinadi. Lekin unday emas. Aniqrog'i, yozuvchi o'z badiiy niyatidan kelib chiqib, o'g'ilning xulosalarini yakuniy hukm sifatida ifodalashdan tiyiladi. Xulosani o'quvchi ixtiyoriga qoldiradi. Sababi yozuvchi istagan taqdirda ham bu xulosalar bilan insoniyatning savollari tugab qolmaydi, odam dunyoni darbadar kezishda davom etaveradi. Shu tufayli ham roman xotimasi hamon darbadarlikni

¹ Sulton I. Boqiy darbadar // Sharq yulduzi, 2010, № 6. – B.40.

kasb etgan, manziliga yetib bora olmagan Odam tasviri bilan yakunlanadi: “Yangi ochilgan qum sahifasida sahro bo‘ylab bir banda yolg‘iz ketib bormoqdaydi”¹.

Isajon Sulton o‘z romanida bashar tarixining yagona modelini turli tarixiy voqealar, qadimgi sivilizatsiyalar, payg‘ambarlar, avliyolar, ulug‘ olimlar, qadimiy shaharlar, asori atiqalar, zamonaviy ilm-fan va texnologiya yutuqlari, gipotezalar, jahon falsafasiga xos turli yo‘nalish va qarashlarga xos “matn”larning o‘zaro kesishgan nuqtasida yaratishga urinadiki, bunda u postmodernizmga xos intertekstuallik imkonlaridan samarali foydalanadi.

Intertekstuallik postmodernizmning eng muhim kategoriyalaridan bo‘lib, bu kategoriya XX asr boshlaridan rivojlana boshlagan strukturalizmning samarasi o‘laroq vujudga kelgan. Ma’lumki, strukturalistlar insoniyat madaniy tarixini yaxlit lingvistik modelda qamrab olishga uringan. Zotan, strukturalistlarga ko‘ra insoniyatning ijtimoiy-madaniy tarixi yagona strukturadir. Bunda tarix, madaniyat, adabiyot, jamiyat va odamning o‘ziga ham muayyan matn sifatida qaraladi. Shunday ekan, bashariyat tarixi – yagona intertekst. Strukturalistlarning yirik namoyandasi Rolan Bart intertekstuallikka quyidagicha ta’rif beradi: “Har bir matn intertekstdir. Boshqa matnlar unda turli darajalarda, oydin yoki nisbatan mavhum tarzda: oldingi madaniyatga xos matn yoki oldingi madaniyat tegrasidagi matn shaklida namoyon bo‘ladi. Har bir matn eski iqtiboslardan to‘qilgan yangi mato demak. Madaniy kodlarning parchalari, formulalar, ritmik tuzilmalar, ijtimoiy idiomalarning parchalari va boshqalar – barcha-barchasi matnga singib ketadi. Chunki matndan oldin va uning atrofida doimo til mavjud”². Professor Qozoqboy Yo‘ldoshev intertekstuallikni “asosida muayyan bitikdagi tasvir va g‘oyaning tamomila o‘zga matnlardagi shunga o‘xshash tasvir va g‘oyalar bilan uyg‘unlashib ketishi turadi. <...> Intertekstual matnlar ham o‘z

¹ O‘sha manba. – B. 67.

² Барт Р. Избранные работы : Семиотика : Поэтика: пер. с фр. [Текст] // сост. Г.К. Косиков. – Москва: Прогресс, 1989. – С. 413– 423.

holicha original matn, ham o‘zida ishora qilinayotgan matnga xos xususiyatlarni tashiydigan matnlik xususiyatiga ega bitiklardir”¹ deya tushuntiradi.

“Boqiy darbadar” romani markaziy qahramoni bir mo‘tabar insonning (Iso alayhissalom nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin) tavqi la‘natiga uchrab abadiy darbadarlikka mahkum etilgan etikdo‘z obrazi chin ma‘nodagi intertekstdir. Agasfer ismi bilan mashhur bo‘lgan bu qahramon ming yillar davomida turli xalqlar va madaniyatlarning yozma hamda og‘zaki adabiyotida yashab kelmoqda, turlicha talqin qilinmoqda. Shubert, Gyote, Ejen Syu, Aleksandr Dyuma, Vasiliy Jukovskiy, Apolliner, Xorxe Luis Borxes, Gabriel Garsia Markes, O‘Genri, Mixail Bulgakov kabi jahon adabiyotining yirik namoyandalari Agasfer haqida asar yozgan yoki o‘z asarlarida bu motivga belgi-ishora qilib o‘tgan.

Isajon Sulton ham Agasfer motivining umumbashariylik xususiyatidan unumli foydalanib, uni butun insoniyatning ramzi sifatida talqin qiladi. Salafлари qoldirgan “matn”larga murojaat qilib, boqiy hayot odamning yangicha badiiy qiyofasini yaratishga urinadi. Xususan, Dantening “Ilohiy komediya” tragediyasida “jahannam ahli” sifatida tilga olingan astrolog Gvido Bonatti tegrasidagi “matn” katta mahorat bilan ijodiy “o‘zlashtiriladi”. Ayni shu o‘rinda yozuvchi postmodernizmning ifodaviy imkonlaridan samarali foydalangani yaqqol ko‘rinadi. Gap shundaki, 1267-yili Bonatti Iso masih davrlaridan beri yashab kelayotgan Ioann Butadeo bilan monastirida ko‘rishganini da’vo qiladi². Bu uchrashuv ayrim manbalarga ko‘ra 1223-yilda Ispan saroyida sodir bo‘lgan. “Matn”larda turlicha talqin qilingan bu afsonaviy voqeani Isajon Sulton tomomila o‘zga bir yo‘sindan tasvirlaydi. Romanga ko‘ra, Bonatti “Mangu darbadarning kaytishi” pyesasi muallifi (manbalarga ko‘ra Bonatti hech qanday pyesa yozmagan). Astrolog barhayot kimsani o‘zining shu pyesasi premyera qilingan kunda uchratadi. Barhayot kimsa sahnada uzundan-uzoq monolog ijro etadi. Bonattining o‘zi esa sharobxo‘r, omadsiz va yalqov shaxs sifatida kinoyaga

¹ Yo‘ldoshev Q. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar // Jahon adabiyoti, 2015, №10. – B. 125.

² The life of Guido Bonatti by Benjamin Dykes (<http://www.skyscript.co.uk/bonatti.html/>).

olinadi. Xullas, Isajon Sulton muayyan tarixiy shaxs atrofidagi “matn”lardan foydalanib kinoyaviy intertertekstual o‘yin asosida o‘z badiiy konsepsiyasiga mos yangi voqelik yaratadi.

Yuqoridagi kabi intertekstual o‘yinni “Boqiy darbadar” romanida tilga olingan Shahri haybar haqidagi rivoyatlarda ham ko‘ramiz. Muallif Haybar shahri haqida hikoya qilarkan, qoldiqlari hozirgi Gobi cho‘lidan topilgan XX asr arxeologiyasining ulkan yutug‘i deya e‘tirof etiladigan afsonaviy Xara-Xoto (Etzina) shahriga ishora qiladi. Mazkur qadimiy shahar chindan ham ilmiy hamjamiyatning juda katta qiziqishlariga sabab bo‘lgan. Sababi sahro sharoitida bunday ulkan sivilizatsiyaning vujudga kelishi olimlar uchun katta jumboq bo‘lib qolmoqda. Bu shahar o‘zi haqidagi asl haqiqatlari hamon qum barhanlari ostida yashirib kelayotgani haqiqatdir. Isajon Sulton bu shahar tegrasidagi “matn”larni ham o‘zining badiiy g‘oyasiga mos ravishga jamlaydi va noma‘lum olim nomidan “Mening shahri Haybarim” nomli to‘qima kitob o‘ylab topadi. Shu kitobning so‘ngi bobida esa o‘zining badiiy konsepsiyasiga mos g‘oyalarini taqdim etadi.

Xuddi shunday, “Mutafakkirning vido maktubi” bobida aslida Gabriel Garsiya Markes yozmagan maktub uniki sifatida taqdim qilinadi. Real hayotda mazkur matnni Markes yozmagan esa-da, u ijtimoiy tarmoqlarda go‘yoki mutafakkirning so‘ngi xati sifatida mashhur bo‘lib ketadi¹. Keyinroq ma‘lum bo‘ladiki, bu maktubni aslida amerikalik o‘yinchoq o‘ynatuvchi Jonni Uelsh yozgan va bunda Markes yozgan original maktubdan² ilhomlangan... Isajon Sulton esa Markes hayotining so‘ngida o‘zi yozgan original matnni emas, balki uning nomidan yozilgan “soxta” matnni romaniga kiritadi. Sababi soxta maktub yozuvchining ijodiy maqsadiga ko‘proq mos kelardi. Qolaversa, soxta narsani o‘zgartirish ham mumkin. Shunday qilib, Isajon Sulton soxta maktub so‘ngiga

¹ Маркес не писал известное “Прощальное письмо” (<https://www.kp.ru/daily/26221/3104722/>).

² Markes G.G. Xayrlashuv maktubi (<https://ziyouz.uz/jahon-nasri/gabriel-garsia-markes/gabriel-garsia-markes-hajrlashuv-mak/>).

“kiladigan ishing *hech narsa, hech narsa va faqat hech narsa* bo‘lib qoladi” jumlasini o‘zidan qo‘shib qo‘yadi. Zero bu jumla Iso masih etikdo‘zni duoibad qilganda aytgan so‘zlarining takrori edi. Aynan shu jumla yozuvchining inson konsepsiyasida zanjir halqalari kabi takrorlanib keladi va bashariyatning ramzi sanalayotgan darbadar odam siymosi portretidagi muhim chizgi vazifasini o‘taydi.

Yuqoridagilardan tashqari “Boqiy darbadar” romanida intertekstuallikni Jaloliddin Rumiylar asarlari, Navoiy va Mashrab g‘azallariga bo‘lgan murojaatlarda, Xizr alayhissalom, Yassaviy g‘ori, G‘avsul G‘iyos bilan bog‘liq rivoyatlarga nisbatan ishoratlarda ham ko‘ramiz.

Muxtasar qilib aytganda, Isajon Sulton zamonaviy inson konsepsiyasini yaratishda XXI asr kishisining dunyo haqidagi parokanda tasavvurlari, bemaqsad turmushi va mavhum kelajagini boricha ko‘rsatishga urinadi. Adib bu yo‘lda postmodernizmning ifodaviy-shakliy xususiyatlaridar samarali foydalanadi.

Ulug‘bek Hamdamning “Yo‘l” romani markazida ham inson mavjudligining bosh haqiqati va shu haqiqatga eltuvchi eng to‘g‘ri yo‘lni qidirayotgan qahramon turadi.

“Yo‘l” falsafiy-majoziy roman bo‘lib, undagi barcha obraz, barcha voqea-hodisalar real voqelik, insoniyat tarixi va kelajagi, axloqi va qadriyatlari, mavjudlik haqidagi bilim hamda qarashlari bilan aloqador muayyan ramziy ma‘noni kasb etadi. Shu ma’noda Ulug‘bek Hamdam ham o‘z badiiy konsepsiyasini yaratarkan, postmodernizm imkonlaridan keng foydalanadi. Ya’ni olamning yaxlit badiiy modelini yaratishda fragmentlarga, kichik-kichik hikoyalarga – intertekstuallikka tayanadi. Bu borada adabiyotshunos Islom Yoqubov “Romanda: hayot-xayol; tush-reallik; tarixiy xotira – bugun; ajdodlar merosi – avlodlar munosabati; ijtimoiy-irfoniy ma’rifat va zamondosh ma’naviyati singari o‘zaro uzviy tutashuvchi ko‘plab muammolar bilan bog‘liq kayfiyat-hollardan roz aytiladi. Shu bois, Siz ham eng kamida uchta muhim savol: (Men qayerdan keldim? Men nega keldim? Men qayerga borayapman?)

qarshisida qolib, zahmat chekishingiz, ehtimol, ancha toliqishingiz mumkin”¹ deb yozadi.

“Yo‘l” romanida muallif Qur’oni Karim oyatlari, unda kelgan turli rivoyatlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan hamda tarixiy voqea yoki shaxslar, Rumi, Xayyom, Navoiy, Mashrab she’riyatiga doir “matn”lardan ijodiy foydalanadi. Zotan romandan ko‘zlangan badiiy-falsafiy maqsadning o‘zi shunday ifodani talab qiladi. Yozuvchi bashar qarshisidagi minglab yo‘llar, turfa xil, ayni damda bir-biriga zid savollarni ko‘rsatish uchun ham muayyan yo‘ldagi tarixiy shaxs, voqea yoki ramzlarga murojaat etadi. Jumladan, romanga ko‘ra dunyo dinlarining har biri alohida-alohida yo‘l. Bu yo‘llarni tasvirlash uchun yozuvchi Zardusht, Budda, Muso, Iso, Muhammad (s.a.v.) tegrasidagi “matn”lar asosida intertekst yaratadi.

Ulug‘bek Hamdam insoniyatga xos turfa dunyoqarashni imkon qadar tipiklashtirishga harakat qiladi. Masalan, dunyoning bema’ni ekanini tan olib, uni bor-boricha qabul qilishga o‘rgangan Shoir yo‘li uchun Xayyom she’riyatiga doir matnlar asos qilib olinadi:

*Yo‘qlikdan kelib, nopok bo‘ldik biz,
Sho‘xu quvnoq kelib, g‘amnok bo‘ldik biz.
Ko‘zimiz to‘la yosh, yurakda olov,
Umr yelga ketdi ham xok bo‘ldik biz*².

Bu foniy dunyoga qo‘l siltab, faqat Allohning ishq bilan yashovchi qalandarlar yo‘li uchun Mashrab she’riyatiga doir matnlar tanlanadi:

*Bul tani xokiniyu ruhi ravonni na qilay?!
Bo‘lmasa qoshimda jonon bul jonni na qilay?*³

Romanda Haqiqat yo‘lini qidirib sarson yurgan qahramonga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish uchun turli “matn”lardan, jumladan, rivoyatlardan samarali

¹ Yuqubov I. Muhabbatning oq, oydin yo‘li / Hamdamov U. Yaxshiyam sen borsan. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 4.

² Hamdamov U. Yo‘l // Yoshlik, 2015. №6. – B.19.

³ Hamdamov U. Yo‘l // Yoshlik, 2015. №7. – B.17.

foydalaniladi. Sulaymon payg‘ambar va chumoli qissasi, bizningcha, muallifning badiiy konsepsiyasiga eng yaqin “matn”dir. O‘shanda chumoli aytadi “Tuproqni olib, tepalikni yer bilan bir etsam, uning ortida meni kutayotgan yoringa qovushaman”. Payg‘ambar kulib, “Axir, bunga umring yetmaydi-ku!” deydi. Chumoli bo‘lsa “Yetmasa yetmas, muhimi, safim ma‘lum bo‘ladi” deb javob beradi¹. Ya’ni Chumoli men uchun yo‘l va manzil emas, undagi jarayon muhim demoqchi bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, Ulug‘bek Hamdam uchun intertekstuallik shunchaki asarni o‘qishli qilish vositasi emas, balki o‘ziga xos badiiy g‘oyani ifodalash uchun eng samarali vosita, ijodiy jarayonning muhim talabi hisoblanadi.

Adibning “Yo‘l” romanida yaratgan inson konsepsiyasining yana bir o‘ziga xos jihat shundaki, unda shaxs maqomi unutiladi. Ulug‘bek Hamdamning 90-yillar avvalida yozilgan “Yolg‘izlik” qissasini yodga olsak, unda yuqoridagilardan farqli, o‘zgacha bir holga duch kelamiz. Asarda muayyan shaxs kayfiyati tasviri birlamchi o‘rinda bo‘lib, uning butun mazmun-mohiyati shu kayfiyat bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Qahramon – jamiyat ahlidan begonalashgan, hamma qatori turmush tashvishlari bilan andarmon yashashni ep ko‘rmaydigan SHAXS. Uning ruhiy olamidagi evrilishlar ijtimoiy hayot va individ ko‘nglining chambarchas aloqasi – o‘zaro zid munosabati asosida yuzaga kelgan. Qahramon inson mavjudligini anglash yo‘lida avvalo o‘zini taftish qilarkan, chiqargan xulosalari maqsadli jarayonning umumiy yechimi vazifasini o‘taydi. Agar “Yolg‘izlik”ning qahramoni – shaxs o‘zini xaotik olamda yolg‘iz his etib, mavjud qonuniyatlarga qarshi, isyonkor pozitsiyada tursa, “Yo‘l” romani qahramoni shu xaotik olamning oddiy, ziddiyatga va munosabat bildirishga kirishmaydigan yo‘lovchisiga aylanadi.

Ulug‘bek Hamdam “Yo‘l” romanda o‘ziga xos uslubdan borib, zamon va makonni – o‘tmish, bugun va kelajakni bir nuqtada tasvirlaydi. Aniqrog‘i,

¹ O‘sha manba. B. 22.

romanda vaqt omilining o'zi mavjud emas. Go'yo yozuvchi zamonaviy fizikaning yutuqlari, xususan, Torlar nazariyasiga¹ doir qarashlardan ilhomlanib olamni beshinchi o'lchamdan turib tasvirlayotgandek. Bunday uslub o'quvchiga yozuvchi ijodiy niyatidagi olamning butun tarixi va kelajagini bir vaqtda ko'rish imkonini beradi.

“Yo'l” romanining voqealari olamning yaralishi haqidagi manzaralar bilan boshlanadi: “Shunday qilib, hammasi, ichimiz va tashimizdagi “hammasi” avvalda bir nuqtada jamlangan emish... nuqta kunlardan bir kun ich-ichidan qattiq portlabdi!”² Ko'rinadiki, asar voqealari vaqt va materiyani vujudga keltirgan “Ulkan portlash” voqeasi bilan boshlanmoqda. Keyingi o'rinlarda esa Odamning yaralishi va unga olamdagi hamma narsaning ismi o'rgatilishi hodisasiga ishorani ko'ramiz: “Men baland-baland to'lqinlar quchog'ida sudraluvchi, o'rmalovchi, chopuvchi, yuruvchi, nihoyat, uchuvchi maxluqlarni idrokim ila ilg'ay boshlabman va ularning har biriga ism qo'yibman”³. Shu tariqa qahramon lomakonda bepoyon, ming-minglab tarmoqlarga bo'linib ketgan YO'L qarshisiga chiqadi. U yo'l davomida turli sinovlar, ajoyibotlarga duch keladi, yaxshi va yomon, mutafakkiru zohidlar bilan uchrashadi. Shu ketishda uning olam va odam haqidagi tasavvurlari boyib, ulg'ayib boradi. Biroq asar oxirida qahramon borliqning asl Haqiqatiga baribir yetisha olmaydi.

Xuddi “Boqiy darbadar” romanida kuzatganimiz kabi “Yo'l” romanida ham qahramon manziliga yetib bora olmaydi. Balki topgan haqiqati shu YO'Lning o'zigina bo'ladi.

Ayni masalada mutaxassislar nazdida postmodernizmni an'anaviy metodlardan farqlovchi muhim bir jihat e'tiborni tortadi. Agar an'anaviy metodlarda ijodiy jarayonning natijasi – tugal asar muhim bo'lsa, postmodernizmda ijodiy jarayonning o'zi muhim. Ya'ni ijodkor o'z badiiy

¹ Qarang: *Теория струн* (https://elementy.ru/trefil/21211/Teoriya_strun).

² Hamdamov U. Yo'l // *Yoshlik*, 2015. №6. B.10.

³ O'sha manba. – B.11.

konsepsiyasida yakuniy hukm-xulosa yaratishni maqsad qilmaydi, balki jarayonni boricha ko'rsatish maqsadga aylanadi. Postmodernizmga xos mazkur omilning Sharq mumtoz falsafasi bilan o'zaro mushtarak nuqtalari bo'lib, bu o'rinda talqinlar farqli xolos. Quyida shu masalani ham muxtasar ko'rib chiqamiz.

Yuqorida bugungi jahon taraqqiyoti va insoniyat kayfiyatining umumiy jihatlari, globallashuv davrida millatlar va madaniyatlar tobora bir-biriga yaqinlashib borayotgani haqida aytib o'tdik. Shunday bo'lsa-da, Sharq va G'arb kishisining yashash falsafasi o'rtasida hamon katta farq mavjud ekanini nazardan qochirmaslik zarur. Yuriy Borev insoniyat tarixidagi paradigmalarni tartibi bilan sanarkan, modernizmdan keyingi (hozirgi) davrni "Sharq modeli" deb ataydi. Unga ko'ra: *"Sharq madaniyatlari olg'a surayotgan paradigma jamiyat hayotining ideal va maqsadlarini ko'rsatmaydi, balki donishmandlik va purnavbatlik ila uning yo'lini belgilab beradi"*¹. Ya'ni Sharq falsafasiga ko'ra, inson kamoloti uning idealga yetishgani bilan emas, balki shu idealga yetishish yo'lidagi irodali harakatlari bilan o'lchanadi. Biz bu fikrning tasdiqini Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvuf g'oyalarida ham ko'rishimiz mumkin. Zero, mumtoz adabiyotning markazida komil inson konsepsiyasi turgan. Tasavvuf ta'limotidan ilhom olgan ijodkorlar esa insonning kamolot yo'li haqida badiiy asar yaratadilar. Shu sababli ular qahramonlari taqdirini muayyan ramziy YO'L ustida tasvirlaydilar. Boshqacha aytganda YO'L motivi o'zbek adabiyoti uchun yangilik emas, balki an'anaviy modeldir.

Fikrlarimizning yorqin misoli sifatida Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" hamda Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarlarini keltirish mumkin. Bu asarlarda komillik ramzi bo'lmish Semurg' qushini izlab yo'lga otlangan qushlar taqdiri bayon qilinadi. Tasavvuf ta'limotida komillikka yetishning yetti bosqichi (talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, fano) bo'lgani kabi, asarlardagi

¹ Borev Yu. Inson va insoniyat hayotining oliy maqsadi va ma'nosi // Sharq yulduzi. 2011. №4. – B.161.

qushlar ham Semurg‘ga yetish uchun yetti vodiyni bosib o‘tadilar. Yo‘l davomida turli sinovlardan ibrat olgan qushlarning ma‘naviy darajasi o‘tib boradi. Ular manzilga yetib kelganlarida esa Semurg‘ni topa olmaydilar. Ammo o‘zlarini Semurg‘ning darajasida ekanini his qiladilar. Ko‘rinadiki, Attor va Navoiyning ijodiy maqsadida komillikka ta‘rif berishdan ko‘ra, unga olib boruvchi yo‘lni ko‘rsatish birlamchi sanalgan. Ayni shu jihat sharq mumtoz adabiyotida inson konsepsiyasining muhim modeliga aylangan.

Umuman, zamonaviy jahon adabiyotida ham Sharqning yuqorida biz aytib o‘tgan badiiy modeli ommalashgan. Xususan, dunyoning 130 dan ortiq tiliga tarjima qilingan Paulo Koelyoning “Alkimyogar” romanida ayni shu modelni ko‘rishingiz mumkin. Bu haqida adabiyotshunos Z.Isomiddinov “Asar muvaffaqiyatining sababi faqat shu emas. U syujeti bilan ham Sharq kishilari ruhiyatga mos tasavvufiy bir ma’noga ega: qahramon solik idealiga yetmoq uchun sayr-sayohatga chiqadi, ammo barcha mashaqqatlarni boshidan o‘tkazganidan so‘ng ma‘lum bo‘ladiki, uning izlagani olisda, o‘zga ma‘volarda emas, vatanida, qalbida, o‘zida ekan”¹ deb yozadi.

Yuriy Borevning “Sharq modeli” haqidagi fikrlari “Boqiy darbadar” va “Yo‘l” romanlarining mazmun-mohiyatiga ham juda mos keladi. Zero har ikki romanda ham muallif uchun tugal voqelik emas, YO‘L muhimroq. Boshqacha aytganda, ijodkor sabab va natija munosabatidagi hukmlarni emas, mavjud jarayon, undagi ramzlarni maqsadga aylantirgan. Tahlilga tortilgan ikki romanning badiiy konsepsiyasida ham anglangan manzil (ideal) tasviri emas, balki shu manzilga eltuvchi **yo‘l** va unga qadar **yo‘lovchining** toblanib borishi muhimroq. Lekin “Boqiy darbadar” va “Yo‘l” romanlarini mumtoz adabiyot namunalari farqlovchi muhim jihatlar shuki, bu ikki roman qahramonlari o‘zlari ko‘zlagan manzilga yetib bora olishmaydi. Cheksiz savollar va mavhum yo‘llar qarshisidan o‘z manzillarini izlashda davom etaveradilar. Ayni shu omil bilan bu

¹ Isomiddinov Z. Bir qatraning favvorasi // O‘zAS, 2009. – №14.

ikki roman postmodernizm falsafasidagi olamni kaos deb bilish g'oyasiga yaqin keladi.

“Boqiy darbadar” va “Yo'l” romanlari mualliflari inson konsepsiyasini yaratishda olamning xaotik ifodasidan qochmaydi. Ya'ni ular insoniyatning avvalo o'z-o'ziga, so'ng ilm-fanga va dinga nisbatan ortib borayotgan ishonchsizligi hamda nurli kelajakdan umidsizligini ro'y-rost ko'rsatishga urinadilar. Mana shu ro'y-rost tasvirning o'ziyoq ifodada xaotiklikni talab qiladi. Biroq bu ijodkorning olamni xaotik ekanini ta'kidlashga urinishidan, zamon kishilari ko'rib turgan olam manzaralarini haqqoniy tasvirlash ehtiyojidan deb bilish zarur.

Yu.Borev *“sovuq urush tugaganidan so'ng boshlangan yangi davr bashariyat tarixida ilk bor hech qanday mavjudlik formulasiga ega emas”*¹ deb aytgan edi. Darhaqiqat, XXI asr texnologik taraqqiyot bilan birga, insoniyatga umidsizlikni berdi. Ilm-fan har qancha taraqqiy etmasin, bashar qo'yayotgan savollarga javob berish tugul, uni boshi berk ko'chaga itaryapti. Umuman, postmodernistik falsafaning asosida ham epistemologik ishonchsizlik yotadi. Uning vujudga kelishi “ilgari mavjud bo'lgan barcha qadriyatlarga nisbatan ishonchsizlikning paydo bo'lishi, xususan, asosida tabiiy fanlar olam manzarasini yaratishda, tabiiy, ijtimoiy, ruhiy dunyoni tushuntirishda universal imkoniyatga ega degan ilmiy determinizmning qulashi bilan bog'liq”². Bulardan tashqari sivilizatsiyalar har qancha taraqqiy topmasin, insoniyat qanchalik madaniylashmasin qirg'inbarod urushlar, terrorizm, radikalizm yohud natsizm kabi xunrezliklar ortsa ortyaptiki, aslo kamaymayapti. Yerda jannat qurish da'vosi bilan yuzaga kelgan liberalizm, kapitalizm, sotsializm kabi tuzum va g'oyalarning halokatli oqibatlari esa allaqachon oshkor bo'lib ulgurgan. Shunday ekan, bugun dunyo aholisining aksariyati azaliy qadriyatlarga ishonchsizlik bildirib, olamda faqat tartibsizlik – kaosni ko'rayotgan bo'lsa, buning yetarlicha

¹ Borev Yu. Inson va insoniyat hayotining oliy maqsadi va ma'nosi // Sharq yulduzi, 2011. №4. – B.160.

² Киреева Н. Постмодернизм в зарубежной литературе. – Москва: Флинта, 2004. – С. 203.

asoslari bor. Yozuvchilar I.Sulton ham, U.Hamdani ham mana shu haqiqatni anglagan holda, zamonaviy inson konsepsiyasini yaratishda xaos omili bilan hisoblashadilar.

“Boqiy darbadar” romanida butun insoniyatga nisbatan darbadar sifatining berilishiyoq xaotik ifodani anglatadi: “Insoniyat tarixi – darbadarlik tarixi hamdir”. Asarning markaziy qahramoni, basharning ramzi bo‘lgan etikdo‘z to qiyomatgacha darbadarlikda hayot kechirishga mahkum. Hatto Gobi cho‘lidagi maxfiy laboratoriyada yaratilgan eng mukammal klon odam ham dunyoda xaosni ko‘radi, yaralishning ma’nisini anglolmaydi: “Atrofdagi har bir narsaning nizomi va murodi bo‘lgani xolda, men o‘zimning mavjudiyatimdan bir maqsad ko‘rmayotirman. Tevarakdagi har narsaning hosilasi bo‘lgani xolda, men nima hosila berishim kerakligini bilmayman”¹. “Boqiy darbadar” romanining aksar qahramonlari ana shu tarzda o‘z mavjudiyatidagi haqiqatni qidiradilar. Shu qidirish asnosida dunyoni darbadar kezadilar.

“Yo‘l” romanida ham olam manzaralarini xaotik tarzda ifodalashga urinish mavjud. Zero Haqqa eltuvchi minglab yo‘llardan qay bir to‘g‘ri, qay biri noto‘g‘ri ekanini aniqlashga ojiz qahramon taqdirining o‘zi xaotik. Bu qahramon qancha urinmasin, nafaqat manziliga yetib bora olmaydi, balki shu manzilga eltuvchi to‘g‘ri yo‘lni topa olmaydi. Uning hayoti faqat izlanishlar va javobsiz savollar iskanjasida o‘tadi.

Har ikki yozuvchi ham olam manzaralarini xaotik shaklda tavirlasa-da, ular o‘z asarlari markaziga shu bema’nidek ko‘ringan olamdan ma’ni qidirayotgan qahramonlarni qo‘yadi. Bu qahramonlar asar voqeligida olam haqiqatiga yetishmasa-da, borar manzilini aniq bilmasa-da eng to‘g‘ri yo‘lni qidirishdan, hayotiga mazmun bag‘ishlashdan ortga chekinmaydi. Shu ma’noda, ularning inson konsepsiyasi markazida bashar darbadarlikdan qutqarish maqsadi turadi.

¹ O‘sha manba. – B.36.

“Boqiy darbadar”dagi professor Ziyoning o‘g‘li “Men hozir dunyoning har bir mamlakatida, har bir go‘shasida, halol va imonli kishilar bilan bir qatorda, ana shunday darbadar insonlarni ham ko‘rmoqdaman... Shunday darbadarlikka muhtalo bo‘lmaslikning yo‘llarini izlamoqdaman”¹ desa, “Yo‘l” romani qahramoni Haqqa eltuvchi eng to‘g‘ri yo‘lni izlashdan charchagan vaqtda nogoh yana bir yo‘lga ko‘zi tushib qoladi: “Qani uning birgina yo‘lovchisi? Ketib qoldimi yo? Mayli ketgan bo‘lsa, muhimi, yo‘l bor-ku!” deyman o‘zimga o‘zim”². Garchi qahramon to‘g‘ri yo‘lni topa olmagan, manzilini anglab yetmagan esa-da, u Haqiqat yo‘lining borligiga shubha qilmaydi.

Sharqliklar dunyoqarashida dunyoning ma’nisiz ekanligiga ishoratlar azaldan mavjud. Hind, xitoy, musulmon elatlari falsafalarini (daosizm, konfutsiy, induizm, sufizm) kuzatar ekanmiz, ularning barida dunyoning o‘tkinchi matoh ekanligi urg‘ulanganiga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni Sharq kishisi uchun doim taqdiri azalning haqligi, dunyoning foniy ekanligi muhim bo‘lgan. Shu sababdan u ideal va ma’noni real olamdan emas, undan tashqarida izlagan. Xuddi shunday, agar u foniy dunyoda ma’nisizlikni ko‘rsa-da, chinakam tartib va butunlikni idrok etish uchun inson tafakkuri ojizlik qilishiga ham iymon keltira oladi. “Sharq kishisi, – yozadi professor *Abdug‘afur Rasulov*, – e’tiqodi bo‘yicha, hamma yo‘llar iymon, haqiqat va Ollohni tanishga olib boradi. Sharqning eng mustahkam ideali aslida shundan iborat, u o‘zini olam markazida ko‘rmaydi. Sharq kishisi faqat o‘z davrasi, yaqinlari, millati, davlati ichidagina shaxs bo‘la oladi. Bu g‘oyaning hayotiyliqi qarshisida Boqiy darbadarning taqdiri, Yevropa faylasuflari ta’kidlagani kabi dahshatli taqdir emas”³. Olimning bu gaplarining isbotini shaklda har qancha yangilanmasin, o‘z mohiyatida sharqona yashash falsafasini saqlab qolgan zamonaviy nasrimiz namunalarida ham ko‘ramiz. Xususan, Ulug‘bek Hamdam va Isajon Sultonning inson konsepsiyasida ham olamni

¹ Shu manba. – B.40.

² Hamdamov U. Yo‘l // Yoshlik, 2015. №7. – B.30.

³ Rasulov A. Obi hayot // Jahon adabiyoti, 2014, №3. – B.185.

anglash yo'lida inson irodasidan tashqaridagi Kuchning ifodasi, insonni dunyo charxpalagining oddiy, ammo **kuzatuvdagi yo'lovchisi** sifatida tasvirlashga bo'lgan harakat mavjud.

Xulosa qilib aytganda, "Boqiy darbadar" va "Yo'l" romanlaridagi sharqona tafakkur g'arbcha dunyoqarashni tamomila inkor etgan. Agar g'arb postmodernistlarining inson konsepsiyasida odam kaosni tan olib, unda bor-boricha (bema'ni) hayot kechirish yo'lini tanlasa, milliy adabiyotimizdagi inson konsepsiyasida odamni kaos deb ko'rilgan jarayondan qochishga chorlash, hayotdan ma'no va butunlikni qidirishga undash kuchli. Milliy nasrimiz qahramonlari o'z mavjudligidagi haqiqatni turli yo'llardan qidirarkan, muallif aniq bir hukm, Idealni ko'rsatishga ojiz ekanligini yashirmaydi. Biroq ularning qahramonlari ana shu Idealni qidirishdan to'xtamaydi. Shunday ekan, zamonaviy o'zbek nasridagi mazkur omilni G'arb postmodernizmi va Sharq mumtoz falsafasi sintezining mahsuli sifatida baholash hamda hodisaga nisbatan **o'zbek postmodern adabiyoti** istilohini qo'llashni to'g'ri deb hisoblaymiz.

Mazkur bobda o'rganilgan muammolar yuzasidan xulosalarimiz quyidagilar:

Birinchidan, modernistlarning inson konsepsiyasini to'la qonli anglash uchun Fridrix Nisshe qarashlarini o'rganish lozim. Faylasuf *erkinlik* deganda nafaqat jism va ruh erkinligi, balki iroda erkinligini ham tushungan.

Ikkinchidan, mustaqillik davri modernistik romanlarida inson erki bosh mavzuga aylangan. Ijodkor sobiq sho'rolar davrida haq-huquqi bo'g'ilgan insonning ruhiy-ma'naviy olamini chuqur taftish etishga, mustabid siyosat inson ruhi va ongida qoldirgan jarohatlarning keyingi davr (tuzum)da bo'y bergan asoratlarni ko'rsatishga urinadi.

Uchinchidan, "Go'ro'g'li" romani qahramoni N. – absurd zamon va makonda to'kis shakllangan absurd odam. Nazar Eshonqul salaflari, jumladan, milliy adabiyotimizdagi modernistlardan farqli o'laroq o'zining inson konsepsiyasini ekzistensial falsafa asosida yaratadi.

To'rtinchidan, postmodernizm milliy qadriyatlarimizga nisbatan ijobiy hodisa bo'lmasa-da, o'zbek jamiyati postmodernizmni vujudga keltirgan ijtimoiy, ruhiy, ma'naviy omillardan butunlay yiroq degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Nasrimizda mazkur yo'nalishning kurtaklari, unga xos belgi va alomatlarning ko'rini boshlanganiga ancha yillar bo'ldi.

Beshinchidan, milliy postmodernistik romanlarida sharqona tafakkur g'arbcha dunyoqarashni tamomila inkor etgan. Shunday ekan, zamonaviy o'zbek nasridagi mazkur hodisani G'arb postmodernizmi va Sharq mumtoz falsafasining sintezi sifatida baholash o'rinlidir.

XULOSA

1. Badiiy adabiyotning bosh maqsadi – olamni *bilish*. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun adabiyot voqea-hodisalar markaziga insonni qo'yadi. Olam va odam munosabatlarini o'zining yaxlit badiiy modeli – laboratoriyasida tajribadan o'tkazadi, katta xulosalar chiqaradi. Badiiy adabiyotning muayyan davrda insonning olamdagi maqomi, maqsad va vazifalari yuzasidan chiqargan yaxlit hukmi esa inson konsepsiyasidir.

2. Insoniyat tarixining har bir davri shu insonning borliqdagi o'rni, hayotiy maqsad va vazifalarini o'ziga xos tarzda tushunish hamda talqin qilishi evaziga vujudga kelgan. Tarixning muayyan bosqichidagi yangi shart-sharoit o'zi bilan birga insonning yangi badiiy konsepsiyasini ham olib keladi. Shunday ekan, inson konsepsiyasi kategoriyasi orqali biz adabiyotni davrlashtirish va baholash imkoniga egamiz.

3. Badiiy tafakkur inson tafakkuri bilan uzviy taraqqiy topadi. Ya'ni odam bolasining tarixdagi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy harakatlari bevosita shu davr adabiyotida aks etdi. *Ovchi va terimchilar madaniyati* davrida adabiyotning *arxaik* bosqichi, *agrar madaniyatda* adabiyotning *traditsionalistik* bosqichi, *ilmiy-texnologik madaniyatda* esa *individual-ijodiy* adabiyot yetakchilik qilgan. Mazkur tasnif anchayin mahobatli, ularning har birini yana o'nlab qism – davrlarga ajralishi mumkin. Milliy adabiyotimiz misolida XX asr boshlaridagi tarixiy shart-sharoit va jadid adabiyoti, sho'rolar davri va sho'ro adabiyoti, mustaqillik va mustaqillik davri adabiyoti kabi bosqichlarni ajratish mumkin.

4. Roman inson konsepsiyasini aks ettirishda eng maqbul janrdir. Zero tarix sahnasida romanning janriy evolyutsiyasi shaxs evolyutsiyasi bilan parallel tarzda kechadi. Kishilik jamiyatining rivojlanishi, o'sishi va murakkablashishi ortidan roman ham asrlar davomida o'z janriy imkoniyatlarini kengaytirib bordi. Shu ma'noda, roman – eng beqaror janr. Biroq ming yillar davomida roman har qancha turlanmasin uning azaliy maqsadi – zamonaviy inson (shaxs)ni anglash

muammosi o'zgarishsiz qoldi. Demak, romanning bosh muammosi inson ekan, romaniy tafakkurning negizi ham inson konsepsiyasidir.

5. Yirik nazariyotchilar roman janri tabiatini belgilashda real ijtimoiy shaxsning asarda qay darajada badiiy aks ettirilishiga e'tibor qaratgan. Ya'ni romanning janr sifatidagi muhim xususiyatlari ham inson konsepsiyasi orqali namoyon bo'ladi. Inson konsepsiyasi kategoriyasi vositasida romanchilikning tarixiy taraqqiyotini o'rganish, janr tabiati yuzasidan nazariy-ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Shu ma'noda, Yue va Blankenburg individ (shaxs)ning gavdalanishi, Gegel individ (shaxs)ning gavdalanishi va uning jamiyat bilan ziddiyati, Baxtin esa individ (shaxs)ning gavdalanishi va uning jamiyat hamda o'z-o'zi bilan ziddiyati (polifonizm) tasvirida roman janrni ko'radi.

6. Mustaqillik davri romanchiligida inson konsepsiyasi muammosini to'laqonli o'rganish uchun, Sho'ro tuzumi tanazzulga yuz tuta boshlagan va yangi inson konsepsiyasiga ehtiyoj tug'ilgan davrga qaytish, mazkur muammoning badiiy, ijtimoiy-ruhiy omillarini o'tgan asrning 80-yillaridan qidirish zarur. Shu ma'noda mustaqillik davri o'zbek romanlari tom ma'noda 80-yillar romanchiligining vorisidir.

7. M.Muhammad Do'st "Lolazor" romanida inson konsepsiyasini shaxsning o'z-o'zini *anglash* va o'zini *namoyon etish* ehtiyoji nuqtayi nazaridan yaratadi. U total siyosat va yolg'onlar asosiga qurilgan jamiyatda o'zlikni anglash darajasini shu yolg'onga sherik bo'lmaslikda ko'radi. Jamiyatda yolg'onda yashamaslikni ixtiyor etgan kishilar soni ortib borsa, yolg'on tuzum o'z-o'zidan yemirila boshlaydi degan aqidani ilgari suradi. "Lolazor" milliy adabiyotimizda hokimiyatni anglashni, hukmron elitaga xos murakkab ruhiy tovlanishlarni ko'rsatishni maqsad qilgan nodir asar. Keyingi davrlarda "Lolazor" kabi siyosiy tuzum va hukmron elitani anglashga qaratilgan romanlar yozilmadi. Sababi ehtiyoj bo'lmadi. Zotan, biz roman badiiy voqeligida tasvirlangan siyosiy madaniyat, ijtimoiy-siyosiy munosabatlardan hali u qadar olislab ketganimizcha yo'q.

8. Istiqlolning dastlabki yillarida yangi jamiyat xilma-xil qarashlar, g'oya va manfaatlar ustiga qurila boshlandi. Bu insonning badiiy konsepsiyasida ham aks etdi. O'zbek romanchiligi ijodiy tajribalar maydoniga aylandi. Erkin adabiyot, erkin odam haqida aniq badiiy konsepsiyaga ega bo'lmagan ijodkorlar tabiiy ravishda tajribalarga qo'l uradilar va turli qarash va g'oyalarga bog'liq ravishda insonning turfa xil badiiy konsepsiyalarini taqdim etadi. Kimdir mavjudlikni falsafiy aspektda o'rganib, modernizm, postmodernizm kabi yo'nalishlar talqinidagi inson konsepsiyasini ilgari sursa, yana kim diniy-tasavvufiy ta'limotlarga murojaat etadi. Lekin tahlillarimizdan ma'lum bo'ldiki, mustaqillik davri o'zbek romanlari markazida erkin inson konsepsiyasi turadi.

9. Mustaqillik davri romanlarda inson konsepsiyasining bosh mavzularidan biri Sho'ro tuzumi hamda paradoksal shart-sharoitda umr kechirgan insonning mavqei masalasi bo'lgan. Romannavislar istiqlol yillarida turib o'tmish manzaralariga qaytish, voqea-hodisalarni qayta baholash va ko'p hollarda, o'tmishni o'zlari yashayotgan davrga qiyoslashga ehtiyoj sezganlar. Mazkur tendensiya qariyb 25-yil, to 70–80-yillarda shakllangan adabiy avlodning ijodiy faolligi tabiiy ravishda so'na boshlagunga qadar davom etdi. Bunday asarlar sirasidan “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Adolat manzili”, “Kapalaklar o'yini”, “Jaziramadagi odamlar”, “Shovqin”, “Ro'yo yohud g'ulistonga safar”, “Go'ro'g'li” va yana o'nlab romanlarni sanash mumkin.

10. Tarixiy romanlar yozish tendensiyasi istiqlol yillari o'zbek adabiyotida kuzatilgan yana bir yirik hodisadir. Yozuvchilar xalqimizning qadim va yaqin tarixini jonlantirish, o'tmishda yashab o'tgan ulug' ajdodlarimiz siymosini yaratish orqali istibdod davrlari jamiyatda yo'qola yozgan milliy o'zlikni shakllantirishga uringanlar. Tarixiy mavzuda roman yozish, birinchidan, ijodkorning shaxsiy ehtiyoji va tashabbusidan bo'lsa, ikkinchidan, ijtimoiy buyurtma ham edi.

11. Mustaqillikdan so'ng jamiyatning ijtimoiy ongiga jiddiy ta'sir o'tkazgan, ijtimoiy-madaniy, ruhiy-ma'naviy evrilishlarning asosiy sababchisi bo'lgan omil, bizningcha, iqtisodiy islohotlardir. Ya'ni o'zbek xalqi sotsialistik jamiyatdan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kapitalistik jamiyatga qadam qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida insonga, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga bo'lgan munosabatni tubdan yangilash zaruratini tug'dirdi. Mazkur zaruratni his qilgan "o'tish davri" romannavislari kapitalistik jamiyatni badiiy idrok qilish orqali ekonomik odamni anglashga urindilar.

12. O'zbek modern romannavislari ham faqat shakliy yangiliklar bilan cheklanib qolmay, o'z davrlari uchun insonning yangi badiiy konsepsiyasini ham taqdim etdilar. Milliy modern romanlarning xarakterli jihati shuki, ularning deyarli barida "erkin inson" konsepsiyasi bosh mavzu bo'ldi.

13. I.Sultonning "Boqiy darbadar" va Ulug'bek Hamdamning "Yo'l" romanlari mualliflar inson konsepsiyasini yaratishda olamning xaotik ifodasidan qochmaydi. Biroq har ikki yozuvchi ham o'z asarlari markaziga bema'nidek ko'ringan olamdan ma'ni qidirayotgan qahramonlarni qo'yadi. Shu ma'noda, "Boqiy darbadar" va "Yo'l" romanlaridagi sharqona tafakkur g'arbcha dunyoqarashni tamomila inkor etgan.

14. G'arb postmodernistlarining inson konsepsiyasida odam kaosni tan olib, unda bor-boricha (bema'ni) hayot kechirish yo'lini tanlasa, milliy adabiyotimizdagi inson konsepsiyasida odamni kaos deb ko'rilgan jarayondan qochishga chorlash, hayotdan ma'no va butunlikni qidirishga undash kuchli. Shunday ekan, zamonaviy o'zbek nasridagi mazkur omilni G'arb postmodernizmi va Sharq mumtoz falsafasi sintezining mahsuli sifatida baholash hamda hodisaga nisbatan o'zbek postmodern adabiyoti istilohini qo'llashni to'g'ri deb hisoblaymiz.

15. Mustaqillik davri romanchiligi ijodiy tajribalarda ham, badiiy-g'oyaviy jihatdan xilma-xillikda ham, olamni turfa rakurslardan badiiy idrok etishda va yangi inson konsepsiyasini taqdim qilishda ham Sho'rolar davri romanchiligidan

ancha ilg'orlab ketdi. Ahamiyatlisi, romanchiligimizdagi har bir to'lqin va insonning badiiy konsepsiyasi o'tgan davr mobaynida ijtimoiy hayotimizda sodir bo'lgan muayyan hodisa, kayfiyat, jarayon va shunga monand ehtiyojning natijasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik

nashrlar:

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // Xalq so‘zi, 2017-yil, 8-fevral, №28 (6722).
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 241 b.
3. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir mavzusida O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi. 2017-yil, 4-avgust.
4. Mirziyoyev Sh. Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-2789-son. 2017-yil, 17-fevral.
5. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 2018-yil 6-aprel. – №15 (4465).

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

6. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. II jild. – Toshkent: Fan, 1979. II jild. – 249 b.
7. Adabiy tur va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid). 2-jild. Lirik. – Toshkent: Fan, 1992. – 248 b.
8. “Said Ahmad ijodining ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyati va zamonaviy o‘zbek adabiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent. – 2020-y. – 263 b.

9. Yoqubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. – Toshkent: Nurafshon business, 2021. – 330 b.
10. Hamdam U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 288 b.
11. Qabulniyoziva G. Mutafakkirlar F.Nisshe va A.Bergsonlarning hayot falsafasida inson muammosi. – Toshkent, 2010.
12. Qurnov D. Qalblarni larzaga solgan xirgoyi / Murod T. Tanlangan asarlar. – Toshkent: SHARQ, 2012. – 670 b.
13. Quronov D. “Muvozanat” – o'tish davri ko'zgusi / Muvozanat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 336 b.
14. Quronov D. Adabiyot nadir – Toshkent: Zarqalam, 2006. – 126 b.
15. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
16. Quronov D. Adabiy jarayonda mom sindromi. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 40 b.
17. Quronov D. Adabiy o'ylar. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 112 b.
18. Quronov D. Mutoalaa va idroq mashqlari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 336 b.
19. Quronov D. Talqin imkonlari. – Toshkent: Turon zamin-ziyo, 2013. – 88 b.
20. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – 288 b.
21. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.
22. Normatov U. Ijodkorning daxlsiz dunyosi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. — 180 b.
23. Normatov U. Nafosat gurunglari. – Toshkent: Muharrir, 2010. – 390 b.
24. Normatov U. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2021. – 592 b.
25. Oybek. “Navoiy” romanini qanday yozdim / Badiiy ijod haqida. – Toshkent: O'zSSR Davlat badiiy ijod nashriyoti, 1960.

26. Полякова Е., Раҳимова З., Минниатюра и литература Востока. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1987. – 288 с.
27. Ruzmetova G. Ruhiyat tahlili falsafasi. – Toshkent: 2014. – 284 b.
28. XX asr o‘zbek adabiyoti masalalari. *To‘plam*. – Toshkent: Fan, 2012. – 248 b.
29. Havel V. Kuchsizlar kuchi (Hamid Sodiq tarjimai). – Toshkent: Trust and support, 2023. – 160 b.
30. Hamdamov U. Istiqlol adabiyoti – ozod tafakkur adabiyoti // Istiqlol. Adabiyot. Tanqid. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – 312 b.
31. Hamdamov U. Yangi o‘zbek she’riyati. – Toshkent: Adib, 2012. – 304 b.
32. Cho‘lpon. Adabiyot nadir. – Toshkent: Cho‘lpon, 1994. – 240 b.
33. Sharafiddinov O. Dovondagi o‘ylar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – 528 b.
34. Sharafiddinov O. Sardafar sahifalari. – Toshkent: Yozuvchi, 1999. – 204 b.
35. Sharafiddinov O. E’tiqodimni nega o‘zgartirdim / Tanlangan asarlar. – Toshkent: SHARQ, 2019. – 576 b.
36. Sheraliyeva M. Hozirgi o‘zbek nasrida kinoya. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 224 b.
37. Shermuhammedova N. Falsafa. – Toshkent: Noshir, 2012. – 1216 b.
38. Ergashev I. va b. Milliy istiqlol g‘oyasi. – Toshkent: Akademiya, 2005. – 192 b.
39. Yuqubov I. Muhabbatning oq, oydin yo‘li / Hamdamov U. Yaxshiyam sen borsan. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 240 b.
40. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – T., Akademnashr, 2015. – 288 b.

2) Xorijiy nashrlar

41. Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох // Историческая поэтика. Литературные эпохи и типы художественного сознания. Сб. статей. – Москва, Наследие, 1994. – 509 с.
42. Ананьев Б. Человек как предмет познания. Л., 1968. изд. 2-е. Москва, 1977. – 339 с.
43. Аристотель. Риторика. Поэтика. – Москва: Лабиринт, 2000. – 352 с.
44. Банщико В. Проблема личности и современная наука // Проблемы личности. Материалы симпозиума. М., 1969. – 520 с.
45. Барт Р. Избранные работы : Семиотика : Поэтика: пер. с фр. [Текст] // сост. Г.К. Косиков. – Москва, Прогресс, 1989. – 616 с.
46. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975. – 506 с.
47. Бахтин М.М. Проблемы творчества Достоевского. – Москва: Алконост, 1994. – 178 с.
48. Белинский В.Г. Полное собрание сочинений: В 13 т. Т. 5. – Москва: АН СССР, 1954. – 860 с.
49. Бергсон А. Творческая эволюция. Материя и память. – Москва, Харвест, 1999. – 1408 с.
50. Юнг К.Г. Аналитическая психология: прошлое и настоящее. – Москва, Марис, 1995. – 320 с.
51. Боров Ю. Борьба вокруг концепции личности в искусстве XX века. Москва: Знание, 1976. – 38 с.
52. Боров Ю. Эстетика. – Москва: Политиздат, 1988. – 495 с.
53. Взаимодействие и синтез искусств / Под ред. Д.Д. Благого, Б.Ф. Егорова и др. – Ленинград: Наука, 1978. – 270 с.
54. Гегель Ф. Эстетика: В 4 т. Т. 3. Москва: Искусство, 1971. – 624 с.
55. Грифцов Б.А. Теория романа. – Москва: Совпадение, 2012. – 222 с.

56. Киреева Н. Постмодернизм в зарубежной литературе. – Москва, Флинта: Наука, 2004. – 214 с.
57. Колобаева Л. Концепция личности в русской литературе рубежа XIX-XX вв. – Москва: МГУ, 1990. – 336 с.
58. Кон И. Открытие “Я”. Москва: Политиздат, 1978. – 368 с.
59. Концепция личности в литературе развитого социализма. Сборник статей. Изд. АН АрмССР, Москва – Ереван, 1980. – 372 с.
60. Концепция личности в эстетике социалистического реализма. сб. – Москва: Мысль, 1977. – 262 с.
61. Кууси П. Этот человеческий мир. – Москва, Прогресс, 1988. – 364 с.
62. Леонтьев А. Деятельность, сознание, личность. Москва, 1975. – 304 с.
63. Платонов К. Психология личности // Человек в социалистическом и буржуазном обществе. Симпозиум (Доклады и сообщения). Москва, 1966. – 346 с.
64. Ортега-и-Гассет Х. Эстетика словесного творчества. – Москва, Радуга, 1991. – 588 с.
65. Османова З. Г. Художественная концепция личности в литературах Советского Востока. Наука, М. 1972. – 266 с.
66. Психоанализ. Религия. Культура. – Москва, 1991. – 296 с.
67. Сартр Ж.П. Экзистенциализм – это гуманизм. Москва, – Вагриус, 2006. – 44 с.
68. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – Москва: Издательство социально-экономической литературы, 1962. – 684 с.
69. Спиркин А. Сознание и самосознание. Москва, 1972. Соколов Э. Культура и личность. Л., 1972. – 303 с.
70. Фрейденберг О.М. Миф и литература древности. – Москва, Главная редакция восточной литературы, 1978. – 800 с.
71. Харари Ю. Сапиенс. Краткая история человечества. – Москва, Синдбад, 2016. – 512 с.

72. Шлегель Ф. Эстетика. Философия. Критика: В 2-х т. Т. I. – Москва, 1983. – 480 с.
73. Эко У. Постмодернизм, ирония, занимательность / Культурология: Ростов, Феникс. – 2007. – 608 с.
74. Экономическая теория: Учебник // Под общ. ред. акад. В.И. Видяпина, А.И. Добрынина, Г.П. Журавлевой, Л.С. Тарасевича. – Москва, ИНФРА-М, 2003. – 714 с.
75. Цоколов Э. Культура и личность. – Л.: Наука, 1972. – 226 с.
76. Mchale B. The Cambridge Introduction to Postmodernism, 2015. – 256 p.
77. Middeke M., Wald Ch. The Literature of Melancholia Early Modern to Postmodern, 2011. – 284 p.
78. Nicol B. The Cambridge Introduction to Postmodern Fiction, 2009. – 240 p.
79. Nicolas B.D. Les he´ros de roman. Thomas Frederick Crane. Boston: Ginn 1902. – 208 p.
80. Zima P. V. Modern / postmodern : society, philosophy, literature, 2010.

III. Badiiy adabiyotlar

81. Ahmad S. Jimjitlik. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1989. – 400 b.
82. A’zam A. Ro’yo yoxud G’ulistonga safar. – Toshkent: Yangi asar avlodi, 2011. – 288 b.
83. A’zam E. Shovqin. – Toshkent: O’zbekiston, 2011. – 188 b.
84. Bo’rixon L. Jaziramadagi odamlar. – Toshkent: G’afur G’ulom, 2005. – 271 b.
85. Do’stmuhammad X. Roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 736 b.
86. Qodiriy A. O’tkan kunlar. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 384 b.
87. Murod T. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: Sharq, 1994. – 272 b.
88. Muxtor O. Ming bir qiyofa. – Toshkent: Sharq, 1994. – 158 b.
89. Muhammad Do’st M. Lolazor. – Toshkent: SHARQ, 1998. – 558 b.

90. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2011. – 490 b.
91. Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 7 tom. – Toshkent: Fan, 1991. – 422 b.
92. Nitshe F. Zardusht tavallosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 448 b.
93. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 19 jildlik. 6-tom. – Toshkent: Fan, 1976. – 724 b.
94. Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – 512 b.
95. Sulton I. Boqiy darbadar // Sharq yulduzi, 2010, № 6. – 178 b.
96. Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent: Sharq, 2012. – 429 b.
97. Xolmirzayev Sh. Dinozavr // Yoshlik, 1996. – №2. – 64 b.
98. Xoshimov O‘. Tushda kechgan umrlar // Sharq yulduzi, 1992. № 7. – 178 b.
99. Hamdamov U. Muvozanat. – Toshkent: Minhoj, 2004. – 266 b.
100. Hamdamov U. Muvozanat. – Toshkent: Sharq, 2007. – 272 b.
101. Eshonqul N. Go‘ro‘g‘li // Sharq yulduzi. 2012. – №2. – 178 b.
102. Qo‘shjonov M. Shiddat bilan yozilgan roman // Muvozanat. – Toshkent: Minhoj, 2004. – 266 b.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar

103. Гапон Е. Художественная концепция личности в творчестве В.Г. Распутина 1990-х — 2000-х годов: Дис... .канд. филол. наук. – Армавир. 2005. – 167 с.
104. Jo‘rayeva M. Zamonaviy o‘zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi (Abduqayum Yo‘ldoshov va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari asosida): Fil. fan bo‘yicha falsafa doktor (PhD) diss. avtoref. – Farg‘ona, 2018. – 40 b.
105. Karimov H. Hozirgi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi (70 – 80-yillar): Filol. fan. d-ri... diss. – Toshkent: 1994. – 320 b.

106. Qobulova N. Erkin A'zam nasrida davr va inson konsepsiyasi: Fil. fan bo'yicha falsafa doktor (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2020. – 42 b.
107. Matyaqupov S. Hozirgi o'zbek hikoyalarida inson konsepsiyasi va shaxs badiiy talqini: Filol.fan.nomz... diss. – Toshkent: 2006. – 160 b.
108. Muhiddinov M. Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida inson konsepsiyasi: Filol. fan-ri. d-ri. diss. – Toshkent, 1995. – 288 b.
109. Павлов Ю.М. Художественная концепция личности в русской и русскоязычной литературе XX века: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Москва: ИМЛИ РАН, 2004. 374 с.
110. Pardayeva Z. Hozirgi o'zbek romanchiligining taraqqiyot tamoyillari: Filol. fan. d-ri... diss. – Toshkent, 2003. – 296 b.
111. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Фил.фан.доктори дисс.автореф. – Т., 2002. – 303 b.
112. Урманов А.В. Поэтика прозы Александра Солженицына: Дис. ... док. филол. наук. – Москва, 2001. – 495 с.
113. Хуажева Н.Х. Художественная концепция личности в прозе Аскера Евтыха: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Майкоп, 1999. – 240 с.
114. Erkinov A. Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV- XX asr manbalari. Filol. fanlari dok. ... diss. – 1998. – 304 b.

VI. Ilmiy to'plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

115. Blanckenburg F. von. Versuch über den Roman // Romantheorie. Texte vom Barock bis zur Gegenwart / Hrsg. von H. Steinecke, F. Wahrenburg. – Stuttgart, 1999. – 181 p.
116. Yoqubov I. O'zbek romanining ma'naviy-ruhiy asoslari // Sharq yulduzi, 1992. № 4. – 178 b.
117. Lee Ch.S. 2014. "The Meanings of Romance: Rethinking Early Modern Fiction." Modern Philology 112 (2) (November): – 308 p.

118. Mo‘minova S. Eshpo‘latova K. Nazar Eshonqul va Frans Kafka ijodining mushtarak jihatlarini // Journal of innovations in social sciences. 2022. – №2. – 78 p.
119. Azizov N. “Ming bir qiyofa” romanida zamonaviy ayol muammosi // Ilim hám jámiyet. №2. – 2020-y. – 178 b.
120. Azizov N. Ijodkor shaxs obrazi va badiiy niyat ijrosi // Ilmiy xabarnoma, 2019. №1. – 82 b.
121. B Yu.Borev. Inson va insoniyat hayotining oliy maqsadi va ma’nosi // Sharq yulduzi. 2011. №4. – 178 b.
122. Borev Yu. Inson va insoniyat hayotining oliy maqsadi va ma’nosi // Sharq yulduzi, 2011. – №4. – 178 b.
123. Gegel F. Estetika // Sharq yulduzi, 2014-y. 4-son. – 178 b.
124. Jo‘raqulov U. Mixail Baxtin kashfiyotlari // Jahon adabiyoti, 2014. 11-son. – 224 b.
125. Isomiddinov Z. Bir qatraning favvorasi // O‘zAS. 2009-y., №14. – 8 b.
126. Yo‘ldoshev Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar // Yoshlik, 2014. 9-son. – 64 b.
127. Yo‘ldoshev Q. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar // “Jahon adabiyoti”, 2015, №10. – 224 b.
128. Yo‘ldoshev Q. Roman va bugungi o‘zbek romanchiligi // Sharq yulduzi. 2013-yil, 3-son. – 178 b.
129. Yo‘ldosheva M. Yangilanish manguligi. – Toshkent: Adib, 2011. – B. 12. – 88 b.
130. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom // Yangi O‘zbekiston, 2021-yil. 10-avgust. – 6 b.
131. Karimov N. Oybek cho‘qqisi // Jahon adabiyoti, 2004. – №12. – 224 b.
132. Qodirov P. Ma’naviyat, modernizm va absurd // O‘zAS, 2004. 26-mart. – 6 b.

133. Quronov D. O'ylashgan undovchi asar // Sharq yulduzi, 2010, 6-son. – B.15. – 178 b.
134. Quronov S. Postmodern kayfiyat va ideal ehtiyoji // O'zAS, 2012. 27-iyul. – 6 b.
135. Qo'chqor R. Ma'naviy inqiroz ildizlari. Davra suhbatlari // Yoshlik, 1989. – №3. – 64 b.
136. Qo'shjonov M. Oybek // Jahon adabiyoti, 2005. – №1. – 224 b.
137. Ma'naviy inqiroz ildizlari. Davra suhbatlari // Yoshlik, 1989. – №3. – 64 b.
138. Nasrullayev E. Oybekning "Navoiy" romani talqinlari yuzasidan mulohazalar // Tafakkur ziyosi, 2018. – № 2. – 64 b.
139. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar // Sharq yulduzi, 1993. – № 10–11. – 178 b.
140. Normatov U. Badiiyat ko'zgusida millat taqdiri // Sharq yulduzi, 2011. – № 3. – 178 b.
141. Normatov U. Eng muhim muammo // O'zAS, 2003. 21-mart. – 6 b.
142. Normatov U., Quronov D. Romanning yangi umri // Jahon adabiyoti, – 2001. – №9. – 224 b.
143. Rasulov A. Obi hayot // Jahon adabiyoti, 2014, №3. – 224 b.
144. Rasulov A. Yangilanayotgan roman // O'zAS, 2003. 22-avgust. – 6 b.
145. Rizayev Sh. Ma'naviy inqiroz ildizlari. Davra suhbatlari // Yoshlik, 1989. – №3. – 64 b.
146. Romanning yangi umri // Jahon adabiyoti. – 2001. – № 9. – 224 b.
147. Saidova B. Uslubiy va g'oyaviy hamohanglik // Yoshlik, 2018. 7-son. 64 b.
148. Solijonov Y. XXI asr nasri manzaralari // Sharq yulduzi, 2011, №4. – 178 b.
149. Solijonov Y. Roman kashfiyotlar manbaidir // O'zAS, 2003. 5-sentyabr. – 6 b.

150. Xolbekov M. Modern adabiyoti: tadrij va talqin // Tafakkur, 2010. – №2. – 96 b.
151. Xolbekov M. Ekzistensializm: Alber Kamyu // Jahon adabiyoti. 2013-yil, 11-son. – 224 b.
152. Hamdam U. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti haqida ikki og‘iz so‘z // Jahon adabiyoti, 2019, № 2. – 224 b.
153. Hamdamov U. Yo‘l // Yoshlik, 2015. №6. – 64 b.
154. Sharafiddinov O. Millatni uyg‘otgan adib // O‘zAS, 2004-yil. 3-noyabr. – 6 b.
155. Sharafiddinov O. Modernizm jo‘n hodisa emas // O‘zAS, 2002. 7-iyun. – 6 b.
156. Sharafiddinov O. El ardoqlagan adib // O‘tkir Hoshimov zamondoshlar nazdida. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – 356 b.
157. Гаджиев К.С. Политическая культура: концептуальный аспект // Полис. Политические исследования. 1991. № 6. – 68 с.
158. Гольберг М. Человек – время – литература // Вопросы литературы, 1984. – №5. – 288 с.
159. Евлампиев И.И. Концепция личности в философии Ф. Ницше // Вестник СПбГУ. Серия 6: философия... Вып. 3. 2000. – 224 с.
160. Махов А. Теория романа в Германии: конец XVIII — XIX вв. // Литературоведческий журнал. – № 33.
161. Филатов В.П. Модели человека в социальных науках // Эпистемология & Философия науки, 2012, № 1. – 256 с.
162. Черных А. Политическая ложь как механизм удержания власти // Власть. 2014. №12. – 166 с.
163. Литературоведческий журнал: Науч. журн. / РАН. Отд-ние ист.-филол. наук. Секция языка и лит.; ИНИОН. Москва, 2013. № 33. – 178 с.

VII. Internet saytlari

164. Felli Ch. Homo Economicus vs Homo Sociologicus (https://www.academia.edu/2346314/Homo_Economicus_vs_Homo_Sociologicus)
165. From modernism to postmodernism: an anthology/[compiled by] Lawrence E., 1996.
166. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (<https://constitution.uz/uz>).
167. Odamning yaralishi (<https://savollar.islom.uz/wparxiv/82027>).
168. University of Michigan-Dearborn (<https://umdearborn.edu>).
169. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (<https://www.academy.uz/page/institut-uzbekskogo-azyka-literatury-i-folklor-akademii-nauk-respubliki-uzbekistan>).
170. The life of Guido Bonatti by Benjamin Dykes (<http://www.skyscript.co.uk/bonatti.html>).
171. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti (www.navoiy-uni.uz).
172. Ziyouz.com elektron kitoblar portali (www.ziyouz.com).
173. Александр Солженицын. Жизнь не по лжи (эссе). https://www.solzhenitsyn.ru/proizvedeniya/publizistika/stati_i_rechi/v_sovetskom_soyuze/jizn_ne_po_ljzi.pdf
174. Боров Ю. Парадигма современной эпохи (http://www.independent-academy.net/science/library/borev_postsozrealizm/paradigma.html).
175. Yo'ldosh Q., Yo'ldosheva M. Ruhiyatning betakror jilolari (<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ruhiyatning-betakror-jilolari.html>).
176. Yo'ldoshev Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar (<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/qozoqbo-oldosh-modernizm-ildiz-mohiyat-va-belgilar/>).

177. Quronov D. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida badiiy ifodaning yangilanishi (<https://quronov.uz/мустақиллик-даври-ўзбек-романчилиги>)
178. Quronov D. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida badiiy ifodaning yangilanishi ([https://quronov.uz/mustaqillik-davri-o‘zbek-romanchiligi/](https://quronov.uz/mustaqillik-davri-oʻzbek-romanchiligi/))
179. Qo‘chqor R. “O‘tkan kunlar”ning davomi <https://ziyouz.uz/matbuot/mustaqillik-matbuoti/rahmon-quchqor-utkan-kunlar-ning-davomi-1993/>
180. Лукач Г. Проблемы теории романа (<http://www.gutov.ru/lifshitz/mesotes/roman-diss.htm>).
181. Markes G.G. Xayrlashuv maktubi (<https://ziyouz.uz/jahon-nasri/gabriel-garsia-markes/gabriel-garsia-markes-hajrlashuv-mak/>).
182. Маркес не писал известное “Прощальное письмо” (<https://www.kp.ru/daily/26221/3104722/>).
183. Nisbiylik nazariyasi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nisbiylik_nazariyasi
184. Панова О.Ю. Человек в модернистской культуре (<https://forlit.philol.msu.ru/kafedra-ru/prepodavateli-kafedry/panova-articles-ru/panova-article1-ru#10->).
185. Rahmon Q. Zigmund Freyd yohud “dardingni olay, birodar” ta’limoti (<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/rahmon-quchqor-zigmund-freyd-yohud-dardingni-olay-birodar-talimoti/>).
186. Sa’diy A. O‘zbek burjua adabiyoti (<https://chulpon.uz/cho-lpon/>).
187. Solijonov Y. Yil xirmoni, hosil sifati (<https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/j-ldosh-solizhonov-jil-khirmoni-osil-sifati-2012-jil-romanlari-ta-lili-2013/>)
188. Теория струн (https://elementy.ru/trefil/21211/Teoriya_strun).

189. Umarali Normatov. Badiiyat ko'zgusida millat taqdiri
(<https://www.e-adabiyot.uz/maqola/1008>).

190. Umberto Eko. Postmodernizm, kinoya, mamnuniyat
(<https://ziyouz.uz/jahon-nasri/umberto-eko/umberto-eko-postmodernizm-kinoya-mamnuniyat/>).

191. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol
(<https://islom.uz/maqola/5784>).

192. Eshonqul N. Jan Pol Sartr
(<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/jan-pol-sartr/>).

193. Eshonqul N. Falsafa va madaniyat
(<https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/nazar-eshon-ul-falsafa-va-madaniyat/>).

194. Herder J.G. Briefe zur Beförderung der Hymanität
(<https://archive.org/details/briefezubefrderu12herd>).